

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**GEOGRAFIYA KAFEDRASI**

**DEMOGRAFIYA**

fanidan

**O`QUV – USLUBIY  
MAJMU A**



**Bilim sohasi:** 300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot  
**Ta`lim sohasi:** 310000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar  
**Ta`lim yo`nalishi:** 60311000 - Sotsiologiya

**N a m a n g a n**

-

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Namangan davlat universitetining Uslubiy Kengashining 2023 yil "30"avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan o'quv fan dasturi asosida tuzilgan.

**Tuzuvchi:**



**B. M. Abduraxmonov** - Geografiya kafedrası dotsenti

**Taqrizchilar:**

**Sh.Z. Jumaxanov** - NamDU, geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

**A.S. Baratov.** - NamDU, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kengashininig 2023 yil "29" avgustdagi "1" - son yig'ilshida ko'rib chiqilgan va foydalanshiga tavsiya etilgan.

**Fakultet dekani:**



**g.f.n., dots. A.S.Baratov**

**“DEMOGRAFIYA” FANIDAN TAYYORLANGAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA  
MATERIALLARI**

**RO’YXATI VA MUNDARIJASI**

<b>I.</b>	<b>O’quv materiallari</b>	<b>5</b>
I.1.	Ma’ruzalar matni	5
I.2.	Amaliy mashg`ulotlar	119
I.3.	Mustaqil ta`lim mavzulari va hajmi	165
I.4.	Glossoriy	170
<b>II.</b>	<b>ILOVALAR:</b>	<b>175</b>
II.1.	FANNING SHICHI O’QUV DASTURI.	176
II.2.	TARQATMA MATERIALLAR	187
II.3.	Yakuniy baholash uchun savollar	189
II.4.	Baholash mezoni	194

## O'QUV MATERIALLARI

### 1-Mavzu. Kirish. Demografiya fanining nazariy asoslari.

#### Reja:

1. Fanning obyekti, predmeti va unga turli yondoshuvlar.
2. Asosiy vazifalari va tushunchalari (demografiya, aholi, aholishunoslik, aholi takror barpo bo'lishi, demografik jarayonlar, demografik xulq, demografik vaziyat, demografik tarkib, demografik hodisa).
3. Demografiyaning fanlar tizimi va tarkibi.
4. Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi.
5. Demografiya va boshqa fanlar.
6. Demografiyada foydalaniladigan metodlar.

**Tayanch iboralar.** *Demografiya, demografiyaning sosiy vazifalari, aholi, aholishunoslik, aholi takror barpo bo'lishi, demografik jarayonlar, demografik xulq, demografik vaziyat, demografik tarkib, demografik hodisa, demografiyaning fanlar tizimi.*

**Fanning obyekti, predmeti va unga turli yondoshuvlar.** Demografiya axoli xaqidagi xususiy fan bo'lib, axolining mavjudligi qonuniyatlarini, takror barpo bo'lishini ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarga bog'liq xolda o'rganadi. Mazkur fanning axolishunoslik fanlar tizimida tutgan o'rni, demografiya fanlar tizimi, axoli soni va tarkibi, demografik xodisalar vaqti va yoshi, axoli dinamikasi va tarkibining ko'rsatkichlari, nikoh va ajralish, tug'ilish, o'lim va o'rtacha umr ko'rish, axolining takror barpo bo'lishi va uning ko'rsatkichlari, axoli migratsiyasi va demografik jarayonlar xaqida mukammal ma'lumot olish mumkin.

Fanni o'zlashtirish natijasida bo'lajak mutaxassislar muayyan mamlakat yoki alohida hududning iqtisodiy rivojlanishi demografik jarayonlarga, tarkibga, omillarga bog'liq ekanini va bu narsa qat'iy qonuniyatlarga asoslanganini anglab yetishi, shunga bog'liq holda demografik ko'rsatkichlar yordamida tahlillarni bajarish tajribasiga ega bo'lishi talab etiladi.

**Fanni o'qitishning maqsadi** – talabalarda demografiya bo'yicha nazariy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Demografiya har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'mini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyadarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadigan fan<sup>1</sup>.

«Demografiya» atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, demos – xalq va grapho – yozaman, ya'ni «xalqni yozaman» degan ma'noni anglatadi. Demografiya fan sifatida XVII asrning ikkinchi yarmidan so'ng shakllana boshlagan. O'zbekistonda esa ushbu fan XX asrning uchinchi qismigacha asosan aholi statistikasi sifatida rivojlanib keldi. Ushbu paytgacha demografiyaga oid nazariyalar siyosiy iqtisodiyot faniga taalluqli bo'lgan. Respublikada faqatgina XX asrning 60-70 yillaridan boshlab demografiya aholining takror barpo bo'lishi, aholining joylashuvi to'g'risidagi fanlar ichida ilmiy bilimlar tizimi sifatida o'z o'rniga ega bo'la boshladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.3. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. — 248-6.

*Demografiya aholining soni, hududiy joylashuvi va tarkibini, ularning o'zgarishi va bu o'zgarishning sabablarini, aholidagi o'zgarishlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarning aloqalarini o'ziga xos yo'llar bilan o'rganadi. Shuningdek, demografiya aholi takror barpo qilinishing qonuniyatlarini ochib beradi. Ko'rinib turibdiki, aholi geografiyasi bilan demografiya fanlari o'rganadigan masalalar bir biriga juda yaqin. Shuning uchun aholi geografiyasi demografiya o'rganadigan va aholiga ta'luqli bo'lgan demografik statistika tomonidan to'planadigan ma'lumotlardan keng foydalanadi. Demografiya ham o'z navbatida o'rganilayotgan demografik jarayon va ko'rsatkichlardagi geografik farqlar va bu farqlarning sabablariga qiziqadi. Shunday qilib, aholi geografiyasi bilan demografiya o'rtasida birgalikda hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolar vujudga keladiki (aholi rivojlanishining qonuniyatlari, konsepsiyalari, ularni bashoratlash, aholi siyosatlarini), bularni faqatgina aholi geografiyasi va demografiya asoslari fani hal qiladi<sup>2</sup>.*

Demografiyaning asosiy predmeti aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarining tahlili hisoblanadi. Aholini o'rganar ekan, demografiya alohida fan sifatida, uning miqdoriy va sifatiy xususiyatlarining mukammal tahlil etadi. Aholining miqdoriy xususiyatlari ma'lum millat, hudud aholisi sonining o'zgarib (o'sishi yoki kamayishi) borishida ifodalanadi. Aholining sifatiy xususiyatlari esa, asosan ma'lum millat yoki hudud aholisining salomatlik va ma'lumotlilik darajasida, o'rtacha umr ko'rish maqsadida ifodalanadi.

Aholi yosh tarkibi demografiyada asosiy o'rganish obyekti sifatida o'z kelib chiqish va rivojlanishiga ega. Ushbu rivojlanishni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

a) alohida yosh guruhlari va ularni nisbatlarini statistik tahlili;

b) aholi yosh tarkibining shakllanish qonuniyatlari va ularning demografik rivojlanishning omili sifatidagi o'rni;

v) aholi yosh tarkibi va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'zaro bog'liqligi.

Aholini obyektiv ijtimoiy qonun va qonuniyatlar asosida rivojlanib borishida, har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar davrida aholi rivojlanishini boshqaradigan o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy qonun va qonuniyatlarning harakat qilishi kuzatiladi. Jamiyatning rivojlanish bosqichlarida, ularning har biriga xos ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari amal qiladi. O'z navbatida ularning turli davrlarda va mamlakatlarda aholining tabiiy va migratsion harakatini nazorat qilish, tartibga solishni ko'zda tutadigan «demografik siyosat» yurgizishni taqozo etadi.

Fanning **tadqiqot obyekti** aholi hisoblanadi.

Demografiyaning fan sifatidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;
- aholining rivojlanish nazariyasini ishlab chiqish;
- demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish) qonuniyatlarini nazariy asoslash va baholash;

- demografik siyosat va demografik prognozlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish.

Demografiyaning tadqiqot obyekti aholi bo'lganligi bois, unga batafsil to'xtalib o'tamiz. Aholi haqidagi bilimlar va uning rivojlanish qonuniyatlari shundan dalolat beradiki, faqat XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab «aholi» tushunchasi ilmiy

---

<sup>2</sup> Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

iste'molga kiritilgan. Ungacha «odamlar», «yashovchilar» kabi tushunchalardan foydalanilgan.

Aholi mohiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi uchta jihatga ega. Birinchisi, aholining biologik birlik ekanligidir. Ushbu jihatga ko'ra, insonga biologik mavjudot sifatida ko'payish, biologik jamlanma sifatida takror barpo bo'lish xos. Ikkinchi jihatga muvofiq, aholi ijtimoiy-biologik kategoriyadir. Bu jihat bo'yicha aholi ijtimoiy va biologik munosabatlarning o'ziga xos davomchisi hisoblanadi. Va nihoyat, uchinchi jihat shu bilan izohlanadiki, aholi ijtimoiy hodisa bo'lib, ijtimoiy aloqalar orqali birlashgan insonlar jamlanmasi sifatida yuzaga chiqadi<sup>3</sup>.

Ma'lumki, insonlar jamlanmasiga kirgan har bir individ, avvalambor biologik hodisa hisoblanadi, chunki odam tirik tabiat mavjudotlarining bir turidir. Ovqat hazm qilish, muskullar faoliyati, qon aylanishi va nihoyat ko'payishi ham biologik jarayon hisoblanadi. Insonlarning boshqa hayvonot olami vakillari bilan o'xshashlik jihatlari aynan ushbu tabiiy alomatlarida yuzaga chiqadi. Lekin, inson nafaqat biologik, balki ijtimoiy jarayonlarning ham davomchisidir.

Aholi ko'plab xususiyat va funksiyalarga ega. Ulardan eng asosiylari – ishlab chiqarish, iste'mol va ko'payish funksiyalari bo'lib, ular turli tarixiy davrlarda va jamiyatlarda turlicha o'lchovga ega bo'lgan. Masalan, ishlab chiqarish funksiyasi ijtimoiy mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari vordamida yuzaga chiqsa, iste'mol – aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarilishi sifatida, takror barpo bolish esa reproduktiv yoshdagi ayol tomonidan dunyoga keltirilgan bolalar soni sifatida yuzaga chiqadi<sup>4</sup>.

Bulardan tashqari, aholining boshqa funksiyalari ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga ijtimoiy, migratsion harakatchanlik vazifalari kiradi. Mazkur funksiyalar aholi faoliyatining turli jihatlarini tavsiflab beradi. Aholining ko'p qirrali ekanligini insonlarning turli jihatlardan o'rganuvchi ko'pgina fanlar ham tasdiqlab beradi. Masalan, demografiya, aholi geografiyasi, etnografiya, aholishunoslik iqtisodiyoti, sotsiologiya, mehnat iqtisodiyoti, ijtimoiy psixologiya va h.k. kabi fanlar uchun aholining umumiy yoki uning qandaydir bir qismining tadqiqot ob'yekti bo'lib yuzaga chiqadi.

Aholi barcha unsurlari va funksiyalari doimiy harakatda bo'lgan dinamik tizimdir. Aholi harakatining uchta turi farqlanadi: *ijtimoiy, tabiiy va migratsion*. ijtimoiy harakat tor va keng tana'larda talqin qilinishi mumkin. Keng ma'nodagi ijtimoiy harakatga barcha ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, demografik munosabatlar ham kiritiladi; tor ma'nodagi ijtimoiy harakat deganda, odatda faqatgina o'ziga xos doiradagi munosabatlar tushuniladi. Bunga misol qilib aholining ijtimoiy sohadagi harakatlarning barcha turlarini kiritish mumkin, faqatgina tabiiy va migratsion harakatlar bundan mustasno. Aholi harakatini uchta qismga ajratib ko'rsatish ularning har biri bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Qadimdan ma'lumki, dunyodagi barcha jarayonlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan. Mos ravishda aholi harakatlarning barcha turlari ham uzluksiz ravishda, organik birlikda insonlar jamlanmasining u yoki bu xususiyatini o'zgartirgani holda amalga oshadi.

Har qanday inson uchta xususiyatga ega:

- unga ma'lum bir xususiyatlar (jins, irq, yosh va h.k.) tug'ilishi bilan berilib yoki o'zgarishdan qoladi yoxud vaqt o'tishi bilan o'zgaradi;

<sup>3</sup> Демография: Учебник для вузов / Под ред. Н.А. Волгина, Л.Л. Рыбаковского. — М.: Логос, 2005. — С.9-10.

<sup>4</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.

- ijtimoiylashuvi mobaynida orttirilib boriladi (bilim, til va h.k.);
- qisqa vaqt mobaynida o'zgartirilishi mumkin (masalan, toifa, ijtimoiy maqomi va h.k.).

Shunday xususiyatlar ham borki, ular rasmiy nuqtai nazarga ko'ra shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga guvohlik berib faqatgina yaxshilanishi mumkin, lekin shundaylari ham borki, ular har ikki tomonga o'zgarishlari ham mumkin. Bulardan birinchilari qatoriga ta'lim darajasini, ikkinchilariga esa salomatlik holatini kiritish mumkin.

Insonlarning har qanday jamlanmasi miqdor va sifat o'zgarishlariga duchor bo'lishi tabiiy. Miqdor o'zgarishlar «ichki» harakat oqibatida, ya'ni ko'payish jarayoni va «tashqi» - aholi migratsiyasi oqibatida yuzaga keladi. Ikkalasi ham miqdor, ham sifat o'zgarishlariga olib kelsa-da, ijtimoiy harakat aholi xususiyatlarining faqat sifat o'zgarishlariga olib keladi, xolos. Migratsion jarayon ko'p hollarda nafaqat ijtimoiy rivojlanish, balki tabiiy harakat bilan ham bog'liq. U bilan ijtimoiy harakat ham o'zaro ta'sirlashuvga kirishadi. Haqiqatda ham inson yoshi o'sishi bilan tajribasi, malakasi ortib boradi va boshqa o'zgarishlar vujudga keladi.

Aholining takror barpo bo'lishi natijasida uning miqdori faqat tug'ilish va o'lim natijasida. uning demografik tarkibi esa aholi qatlamlarining bir yoshdan ikkinchi yoshga o'tishi bilan o'zgaradi. Demak, aholining takror barpo bo'lishi nafaqat tug'ilish va o'lim oqibatlari asosida avlodlar almashinuviga, ya'ni ayrim odamlarning «kirish»i va boshqalarining «chiqish»iga, balki «demografik makon»da ularning harakatlanishiga olib keladi. Tabiiy harakatdan farqli o'laroq migratsiya – bu aholining makondagi harakatidir, uning hudud bo'ylab taqsimlanishidir. Ushbu ma'noda migratsiya ko'chib o'tishlar sodir bo'layotgan ma'lum bir hudud doirasida aholi miqdorining o'zgarishiga olib kelmaydi, faqatgina muayyan hudud (mamlakat)ning ayrim qismlaridagi aholi soni va tarkibi o'zgaradi, xolos.

Tadqiqotlar migratsiya va aholining takror barpo bo'lishi o'rtasida o'xshashlik mavjudligini ko'rsatadi. Aytish joizki, ikkalasiga ham ikkita tarkibiy qismlarning o'zaro ta'siri xosdir: ijobiy (tug'ilish, kirish) va salbiy (o'lim, chiqish). Migratsiya va takror barpo bo'lish jarayonlari – demografik dinamikaning ikkita tarkibiy qismidir. Lekin, aholining takror barpo bo'lishi va migratsiyasi o'rtasida yetarli darajada quyidagicha tafovutlar mavjud:

Birinchidan, bu ikki jarayon aholi harakatining ikki turi hisoblanadi. Takror barpo bo'lish jarayoni aynan bir insonlar jamlanmasida sodir bo'ladi va uning uchun ichki harakat zarur bo'ladi. Migratsion jarayonlar esa bundan mustasno, ya'ni migratsiya tashqi hodisa hisoblanadi.

Ikkinchidan, aholining takror barpo bo'lish jarayonida ayrim hodisalar (o'lim, tug'ilish) har bir ishtirokchi uchun bir marta sodir bo'ladi, migratsiyada esa ayrim hodisalar (emigratsiya, inimigratsiya) ishtirokchilar uchun ko'p marta takrorlanishi mumkin.

Uchinchidan, reproduktiv mayl aholining takror barpo bo'lish holatiga bevosita ta'sir qiluvchi ehtiyojlar bilan determinantlashadi. Bu bola orttirish ehtiyoji yoki bolalar qondirishi mumkin bo'lgan qandaydir boshqa ehtiyojlar; o'zini-o'zi asrash ehtiyoji, ya'ni hayotiy ehtiyoj; oila qurish ehtiyoji. Migratsiyada esa boshqacha, ya'ni ko'chish migratsion ehtiyojlar bilan emas, balki aholining ayrim qismlarining ijtimoiy-iqtisodiy maqomini o'zgartirish ehtiyojlari bilan asoslanadi. Birinchi holatda ehtiyojlar – demografik maylning ichki maqsadi, uning birlamchi unsuri bo'lsa, ikkinchi holatda – migratsiya boshqa, odatda moddiy ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib yuzaga chiqadi. Aynan shuning uchun oilaning farovonlik darajasi bolalarga bo'lgan ehtiyojga nisbatan



qarama-qarshi bog'liqlikda bo'lsa, migratsion ko'chishlarga nisbatan to'g'ri bog'liqlikda bo'ladi.

To'rtinchidan, takror barpo bo'lish jarayonlari bilan aholining shunday demografik xususiyatlari bog'liqliki, ular inson hayoti davomida (jins) o'zgarishdan qoladi yoki vaqt o'tishi (yosh) bilan o'zgaradi. Shu bilan birga, migratsiya o'zgaruvchan ijtimoiy xususiyatlar bilan ham o'zaro ta'sirlashadi, ularning ayrimlarini migratsiya doimo (turarjoy, mehnat sohasi), boshqalarini esa ba'zan (kasb, malaka) o'zgartirib turadi.

Beshinchidan, migratsiya aholining takror barpo bo'lishidan obyektiv omillarga yetarli darajada kuchli bog'liqligi bilan tubdan ajralib turadi. Migratsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish parametrlari – ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, urbanizatsiya jadalligi va h.k.lar bilan chambarchas bog'liqdir.

Aholi harakatini uchta turining mavjudligi, o'z navbatida, demografik bilimlar tizimi chegaralari bo'yicha uchta yondashuvning kelib chiqishini taqozo etadi. Ayrim iqtisodchi-demograflar demografiya aholi harakatining barcha turlarini o'rganishi kerak, deb hisoblasa, boshqalari – aholi takror barpo bo'lishini o'rganish kerak, deb chegaralab qo'yadi; uchinchilari esa demografik bilimlar tizimiga aholining ham tabiiy, ham migratsion harakatini kiritadi.

Ushbu qarashlar ichida eng ommabopi uchinchi nuqtai nazar bo'lib, ya'ni demografik bilimlar predmetini tabiiy va migratsion harakat tashkil etadi, deb tan olishdir.

Demak, **demografiya fanining predmeti** aholining tabiiy va migratsion harakatini, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini, omillarini hamda oqibatlarini o'rganish hisoblanadi<sup>5</sup>.

Demografiya asosiy e'tiborni tabiiy avlodlar almashuv – ya'ni, tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayoniga qaratadi. Ushbu jarayonni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi qonuniyatlarini, turli millat, hudud va davlatlardagi xususiyatlari, omillarini o'rganadi, muammolarini aniqlaydi va istiqbolini belgilab beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun demografiya jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, tarixiy shart-sharoitlarini atroflicha o'rganishi lozim.

Demak, demografiya, aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, bu jarayonni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq holda o'rganadi, omillarini, muammolarini aniqlab, istiqbolini belgilab beradi.

Har bir fanning asosiy vazifasi tabiat va jamiyatning ma'lum qismidagi rivojlanish qonunlarini o'rganishdir. Lekin shu bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalari ham mavjud. Demografiya ham alohida fan sifatida o'z vazifalariga egadir.

Ushbu vazifalarni uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

- Demografik jarayonlar va ularning omillarini o'rganish.
- Demografik bashoratlarni ishlab chiqish.
- Demografik siyosat chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Demografiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yosh-jinsiy va oilaviy tarkibi, demografik mayl) va ularning omillarini o'rganish;

- demografik bashorat (ma'lum hudud aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va

---

<sup>5</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.

demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash)larni ishlab chiqish;

- demografik siyosat (aholi siyosatining uzviy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi aholining miqdoriy o'sishini boshqarishdan iborat) choratadbirlarini ishlab chiqish. Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy asosini tashkil etmog'i lozim. Shundagina jamiyat har tomonlama muntazam rivojlanib boradi.

Demograflar ma'lumotlarni asosan davlat ro'yxati, tug'ilish va o'lim registrlari orqali to'playdi. Biroq, bu manbalar hukumat hisobotlarining to'g'riligiga qarab aniq bo'lmasligi mumkin. Demograflar, shuningdek, kichik populyatsiyalarni o'rganish orqali bilvosita ma'lumotlarni yig'adilar. Keyinchalik bu namunalar butun populyatsiya haqida xulosa chiqarish uchun statistik modellar yordamida tekshiriladi.

Aholini ro'yxatga olish kabi asosiy demografik tadqiqotlar qadimgi dunyoda 6000 yil oldin amalga oshirilgan bo'lsa, biz bilgan demograflar, masalan, Buyuk Britaniyalik Jon Graunt 16-asrda paydo bo'lgan. Dastlabki statistik tadqiqotlar asosan o'lim (qancha odam va qaysi yoshda vafot etgan) bilan bog'liq bo'lgan. Cho'qintirish va dafn marosimlarini o'rganish orqali Graunt harbiy yoshdagi erkaklar sonini va tug'ish yoshidagi ayollar sonini taxmin qila olgan. Uning tadqiqoti mintaqa aholisining birinchi statistik so'rovlaridan biri bo'lib hisoblangan. Demografik so'rovlar ko'pincha erta sug'urta agentlari tomonidan hayot sug'urtasi tariflarini aniqlash uchun ham o'tkazilan.

Demografiya bugungi kunda butun dunyodagi ko'plab universitetlarda keng o'qitilib, talabalarni ijtimoiy fanlar, statistika yoki tibbiy tadqiqotlar bo'yicha dastlabki tayyorgarlikka jalb qiladi. Sotsiologiya, iqtisodiyot, epidemiologiya, geografiya, antropologiya va tarix kabi bir nechta fanlarning birlashuvida demografiya ijtimoiy yoki boshqa fanlardan olingan boshqa ko'plab usullar bilan fanning asosini tashkil etuvchi ko'proq texnik miqdoriy yondashuvni birlashtirib, aholi muammolarini hal qilish uchun vositalarni taklif etadi. Demografik tadqiqotlar universitetlarda, ilmiy-tadqiqot institutlarida, shuningdek statistika bo'limlarida va bir nechta xalqaro agentliklarda olib boriladi. Bunga Demografik institutlar CICRED tarmog'ining bir qismi bo'lgan (demografik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bo'yicha xalqaro qo'mita), demografik tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan ko'plab olimlar xalqaro Aholishunoslik ilmiy uyushmasi yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Amerika demografik assotsiatsiyasi yoki Kanada demograflari federatsiyasining Kanadadagi filiallarini misol qilib keltirishimiz mumkin<sup>6</sup>.

**Asosiy vazifalari va tushunchalari.** Demografiya – bu aholi haqidagi fan. Demograflar uchta asosiy demografik jarayonni: tug'ilish, migratsiya va qarish (shu jumladan o'lim)ni o'rganish orqali aholi dinamikasini tushunishga intiladi. Bu uchala jarayon ham aholining o'zgarishiga, jumladan, odamlarning er yuzida qanday yashashi, millatlar va jamiyatlarni shakllantirishi va madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Demografiya - bu inson populyatsiyasini statistik o'rganish hamdir. Demografiya makon va vaqt bo'yicha populyatsiyalarning hajmi, tuzilishi va harakatini o'rganadi. U tarix, iqtisod, antropologiya, sotsiologiya va boshqa sohalaridagi usullardan foydalanadi. Demografiya hukumatlar va xususiy biznes uchun aholi bilan bog'liq ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy tendentsiyalarni tahlil qilish va bashorat qilish vositasi sifatida foydalidir<sup>7</sup>.

Aholi - Yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson) lar majmui. Aholi takror barpo bo'lishi - keng ma'noda tabiiy o'sish, o'lim, migrasiya - aholining hududlar bo'ylab harakati, bir ijtimoiy

<sup>6</sup> <https://demografiya.uz/demografiya-nima/>

<sup>7</sup> <https://demografiya.uz/demografiya-nima/>

guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, ma'luot olishi, mehnat faoliyatining boshlanishi va h.k. natijasida aholi tarkibini yangilanib turishini bildiradi.

Demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish bo'lib, demografiyada aholining takror barpo bo'lishi sifatida, tegishli demografik hodisalarning vujudga kelishi natijasida sodir bo'ladi.

Demografik xulq, - Xulq, xulq-atvor – axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni o'z ichiga oladi. Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o'zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan xatti-harakatlardan iborat bo'lsa, axloq — muayyan jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun ta'sir eta oladigan turli xatti-harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa. Xulq qamrovlilik jihatidan ana shu ikki hodisa o'rtasidagi xususiyatlarga ega; u odobdan keng, axloqdan tor ma'noga ega bo'lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta'sir ko'rsata olmaydi. Lekin, oila, mehnat jamoasi, mahalla ko'y doirasida sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Axloq o'zini ezgulik va yovuzlik, adolat, insonparvarlik, fidoyilik singari ijtimoiylashgan tushunchalar va tamoyillarda namoyon qilsa, xulq yaxshilik va yomonlik, burch, jo'mardlik, mehmondo'stlik kabi tushunchalarda aks etadi, odob esa kamtarlik, insoflilik, bosiqlik, halollik, rostgo'ylik va boshqa axloqiy me'yorlarda ifodalanadi. Sharq falsafasi va axloq ilmida mazkur uch axloqiy hodisa, juda qat'iy chegaralangan bo'lmasada, bir-biridan farqli tarzda olib qaralgan. Yevropada esa xulq bilan axloq ko'p hollarda aynanlashtiriladi yoki ular bir-biriga sinonim tushunchalar sifatida talqin etiladi. Xulq o'zicha, “sof” olinganda mavhum axloqiy hodisa, u inson xatti-harakatlarida aniqlik kasb etadi; ijobiy xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi - xushxulqlilik, salbiy a'mollardagi ko'rinishi - badxulqlilik deb ataladi. Xushxulq inson muloyim, shirinsuxan, oqko'ngil, mexribonlik bilan munosabatda bo'lsa, badxulq odam qo'pol, bemehr va h.k. bo'ladi.

Demografik vaziyat – demografik jarayonlar holati, aholining umumiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi jamiyat rivojlanishining obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarining muayyan tarzda namoyon etilishidir. Demografik vaziyat – aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar tendensiyasi va demografik jarayonlarning ma'lum bir paytdagi aholining takror barpo bo'lishini tavsiflaydigan holat; nafaqat takror barpo bo'lish jarayonlarining joriy holatini, jumladan, aholi salomatligi va migratsiyani, balki amalga oshirilayotgan ijtimoiy, demografik, ekologik, iqtisodiy va boshqa siyosat natijalarini ham aks ettiradi. O'z navbatida, demografik vaziyat mamlakatning umumiy salohiyati va aholi holatiga ta'sir etadi. Demografik vaziyat bir qator ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar bo'yicha baholanib, ularning orasida asosiy o'rinni quyidagilar egallaydi: tug'ilish ko'rsatkichlari darajasi, o'lim ko'rsatkichlari darajasi, tabiiy o'sish, shuningdek, nikoh (ajralish) ko'rsatkichlari, demografik jarayonlarga va demografik ko'rsatkichlar hajmiga faol ta'sir ko'rsatadigan jins va yosh tarkibi holati va boshqalar. Bularning orasida eng muhimlari – go'daklar o'lim ko'rsatkichlari, umr ko'rish davomiyligi, mamlakatdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat tavsifini aks ettiradigan boshqa ko'rsatkichlar alohida o'ringa ega<sup>8</sup>.

Demografik sig'im hudud resurslari hisobidan aholining eng muhim kundalik ehtiyojlari qondirilgan taqdirda aholining shu hududda yashashi mumkin bo'lgan eng ko'p sonini anlatadi. Demografik sig'imni o'rganish, odatda, aholining optimal sonini

---

<sup>8</sup> <https://demografiya.uz/wiki/gerontodemografiya/>

yoki zichligini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda demografik sigʻimni aniqlash yoʻllari va usullari turlicha boʻlishi mumkin. Bularning barchasi hudud sigʻimini aniqlash uchun muallif tomonidan tanlangan quyidagi mezonlarga bogʻliq: energetik; biologik yoki oziq-ovqat; tabiiy-jugʻrofiy; iqtisodiy-jugʻrofiy. Biroq, hisob-kitoblarsiz ham aytilish mumkinki, choʻllarda aholining zichligi vohalardagiga qaraganda kam boʻlishi tabiiy (hatto inson va tabiat monand birga mavjud boʻlgan taqdirda ham). Shaharlarda yuqori antropogen bosim mavjud. Shuning uchun shaharlarning demografik sigʻimini aniqlash dolzarb hisoblanadi. Aytilish joizki, shaharlarning demografik sigʻimini aniqlash ekotizim abiotik va biotik tarkibiy qismlarning mahsuldorligini taqqoslashga asoslangan. Bunda, bir tomondan, shahar aholisining xoʻjalik faolligi koʻlami va isteʼmol qilinadigan yoqilgʻi-energetika resurslarining tarkibi belgilanadi, ikkinchi tomondan esa turli shakldagi tabiiy va antropogen hamjamiyatlarga yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan bosim aniqlanadi, ularning oʻsimlik dunyosiga bogʻliq boʻlgan ishlab chiqarish-iqtisodiy va shaharsozlik sigʻimi hisobga olinadi. Demografik sigʻim hududning energiya sarfi, atmosferaga karbonat angidrid gazi chiqarish, atmosfera kislorodini takror hosil qilish shart-sharoitlari boʻyicha alohida sigʻimlarini aniqlash yoʻli bilan baholanadi va aholining yashashi mumkin boʻlgan zichligi bilan ifodalanadi.

**Demografiyaning fanlar tizimi va tarkibi.** Bugungi kunda boshqa fanlarda boʻlgani singari demografiyada ham ixtisoslashuv jarayonlari kuzatilmogʻda. Demografiya ichidan stixiyali tarzda demografik statistika (yoki aholi statistikasi), iqtisodiy, matematik, tarixiy, etnik, harbiy, tibbiy, sotsiologik demografiya kabi tarmoqlar ajralib chiqmogʻda. Bu fan tarmoqlari nomidan koʻrishimiz mumkinki, ular demografiyaning boshqa fanlar bilan tutashgan joylarida vujudga kelgan, ularning predmeti esa demografiyada omillar sifatida qaraladi. Demografiyani ushbu tarmoqlarining nomlanishida boshqa fanlarda amalda foydalanilayotgan quyidagi tamoyil qoʻllaniladi: ot sifatida (bizning misolimizda demografiya) fanning predmeti. mohiyati (aholining takror barpo boʻlishi); sifat sifatida (iqtisodiy, matematik, tarixiy va h.k.) — fanni, demografiyaning predmetini tadqiq qilishda foydalaniladigan omillar tushuniladi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, tarmoq fanining nomlanishi boʻyicha uning ixtisoslashuvi va tegishli predmet sohasi koʻrinib turishi kerak. Bu tadqiqotchining professional bilimi, yaʼni qanday aniq bir cheklangan predmet sohasi boʻyicha mutaxassisdan maʼlum bir professional malaka darajasini kutish mumkin ekanligini bilish uchun kerak. Baʼzida fan tarmogʻi nomlanishida ushbu tamoyil tildagi murakkabliklar natijasida aniq shaklga ega boʻlishini taʼminlash qiyin (agar nomlanish chiroyli chiqmasa), lekin hozircha bu kamyob holatlardandir. Masalan, aholi statistikasi (demografik statistika) nomlanishi yuqoridagi tamoyil boʻyicha statistika tarmogʻi sifatida eshitiladi, vaholanki, demografiyada esa statistik demografiya deb nomlanishi kerak edi. Lekin, *birinchidan* «statistik demografiya» soʻz birikmasi — gʻayri oddiy. *Ikkinchidan* va eng asosiysi, aholi statistikasi anʼanaviy nomlanish boʻlib, u paydo boʻlgan davrda demografiya fani mustaqil fan sifatida universal fan hisoblanmish statistika ichidan ajralib chiqmagan edi. Statistikaning tarmoq differentsiatsiyalashuvi natijasida uning ichida demografik statistika (aholi statistikasi) ajralib chiqdi, u demografik yuzaga kelishi davridanoq uning kirish qismining tarmogʻiga oʻtib ketdi. Oʻylashimizcha, demografik statistikaning anʼanaviy, boshlangʻich nomlanishini oʻzgartirish kerak emas<sup>9</sup>.

Endi demografiya fanining tarmoqlariga batafsil toʻxtalib oʻtamiz (1.1-chizma).


---

<sup>9</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: Oʻquv qoʻllanma/ OʻzR Oliy va oʻrta-maxsus taʼlim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.

**Demografik statistika** — demografiyaning eng qadimgi tarmog'i bo'lib, uning predmeti aholini takror barpo bolishining statistik qonuniyatlari hisoblanadi. Demografik statistika fanining asosiy vazifalariga statistik kuzatuv usullarini ishlab chiqish, demografik hodisalar va jarayonlarni o'lchash, aholining takror barpo bo'lishi to'g'risidagi birlamchi statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash kiradi.

**Amaliy demografiya** — «Amaliy demografiya» atamasi ilmiy adabiyotlarida XX asrning 60-yillarida paydo bo'lgan, fanning asosiy maqsadi aholining ko'payish qonuniyatlarini o'rganishning amaliy asoslarini ko'rsatib berishdan iborat. Fan demografik jarayonlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradi va bu iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, uy-joylarni qurish va rejalashtirish, kommunal xo'jaligi, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot sohalarida qo'llaniladi.

**Gcodemografiya** aholi takror barpo bo'lishining hududiy xususiyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.



### 1.1-chizma. Demografiya fanining tarmoqlarga bo'linishi<sup>10</sup>.

**Gerontodemografiya** aholining keksayishi, uning shakllanishini, turlarini, omillarini va demografik, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

**Iqtisodiy demografiya** aholi va iqtisodiy rivojlanishning o'zaro aloqadorligini, aholi takror barpo bo'lishining iqtisodiy natijalarini, demografik rivojlanishga iqtisodiy omillarning ta'sirini o'rganadi. Iqtisodiy demografiyaning asosiy vazifasi demografik jarayonlar bilan iqtisodiy hodisalardagi o'zgarishlarning miqdoriy bog'liqligini aniqlash hisoblanadi. Masalan, oilalardagi tug'ilish jadalligi va yashash darajasining o'zgarishi. Bunday holda iqtisodiy demografiya uchun demografik jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini hisobga olish juda muhimdir.

**Matematik demografiya** o'z rivojining ma'lum bir pog'onasiga ko'tarilgan bo'lib, uning predmetini demografik jarayonlar va hodisalarning o'zaro aloqadorligini o'rganish uchun matematik usullarni ishlab chiqish va qo'llash, ularni modellashtirish va prognozlashtirish tashkil qiladi. Demografik modellar qatoriga — tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jadvallari, statsionar va muqim aholi modellari, demografik jarayonlarning imitatsion modellari va h.k.larni kiritish mumkin.

**Paleodemografiya** — paleodemografiya (yunoncha palaios - qadimgi) qadimgi kishilik jamiyatida sodir bo'lgan demografik jarayonlarni o'rganadigan demografiyaning bo'limi hisoblanadi. Bu fanning ma'lumotlar bazasini qadimgi yozma hujjatlar, epitafiyalar, paleoantropologik (odam suyaklari qazilmalarining tahlil ma'lumotlari),

<sup>10</sup> Chizma Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b. manbasidan foydalanib muallif tomonidan tuzilgan.

arxeologik (insoniyatni moddiy va madaniy yodgorliklari qazilmalarining tadqiqot natijalari), etnoarxeologik (etnografik kuzatuvlar) ma'lumotlar tashkil etadi. Paleodemografik ma'lumotlar nafaqat jamiyat tarixini dastlabki bosqichlarining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi, balki uning sonlar dinamikasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar tavsifi xususida ham fikrlashga imkoniyat beradi.

Arxeologiya, antropologiya, etnografiya va demografiya fanlarining o'zaro to'qnashuvi paleodemografiyaning asosini belgilaydi. Paleodemografiya uchun eng ko'p axborot manbasi — bu paleoantropologiya ma'lumotlaridir. XIX asrda antropologlar odam skletiga qarab uning yoshi va jinsini aniqlashgan. Lekin, uzoq muddat davomida bu imkoniyatdan demografik jarayonlarni tavsiflashda foydalanilmagan, faqat aholining yosh va jinsiy tarkibi bo'yicha XX asrning 30-yillaridagina Sobiq Ittifoq, Frantsiya va Germaniya mamlakatlarida ilmiy maqolalar paydo bo'lgan. Aytish joizki, mazkur maqolalar antropologik materiallar asosida tayyorlangan va maxsus paleodemografik yo'naltirilgan. Ular guruhning yoshi va jinsi, o'rtacha yoshi, jinslar sonining nisbati, bolalar o'lim darajasi, erkaklar va ayollarning umr davomiyligi, alohida va umuman, har bir guruh haqida fikrlash imkonini bergan. Sut tishlarining o'sishi bolaning yoshini aniqlash imkoniyatini bergan. Katta odamlarning yoshini aniqlash esa tishlarning o'zgarishiga va bosh suyak chanoqining holatiga qarab amalga oshirilgan. Noaniqliklarni hisobga olganda, kattalarning yoshini belgilashda besh yildan o'n yilgacha bo'lgan davrga xatolik yuz berishi mumkin. Bunda xatolar ikkala tomonga bo'lishi mumkinligi hisobga olinadi va o'zaro tenglashtiriladi. Maxsus antropologik adabiyotlarda ishlab chiqilgan ko'rsatmalar asosida bosh suyak skletiga qarab jins aniqlangan.

**Sotsiologik demografiya** odamlarning sub'yektiv va ixtiyoriy demografik harakatlariga ijtimoiy-psixologik va sotsiologik omillarning ta'sirini o'rganadi.

**Tarixiy demografiya** demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, shuningdek, demografiya fanining rivojlanish tarixini o'rganadi.

**Tibbiy demografiya** aholi salomatligi va uning asosiy ko'rsatkichlari hamda omillarini, kasalliklarning vujudga kelishi, ularning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini o'rganadi.

**Etnik demografiya** tarixiy demografiyaga tutash fan hisoblanib, aholi ko'payishining etnik xususiyatlarini, omillarini o'rganadi. Ma'lumki, xalqlar hayoti, turmush tarzining etnik xususiyatlari, urf-odatlar, an'analari, oilaviy munosabatlarining tuzilmasi tug'ilish darajasiga (oiladagi bolalar soni), salomatlik holatiga va o'rtacha umr ko'rish davomiyligiga, nikoh xususiyatlari va nikohning mustahkamligiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi.

**Harbiy demografiya** — bu harbiy xizmat va harbiy iqtisodiyotdagi demografik omilning son va sifat xususiyatlarini o'rganuvchi fan. Shuningdek, harbiy demografiyada urushda ishtirok etgan davlatlarning mobillashgan imkoniyatlari, ya'ni zahiralarning mobillashuvini, ularning qurolli kuchlar, iqtisodiyot, urushdagi aholining yo'qotilishi, askarlarning migratsiyasiga, askarlarning aholining takror barpo bo'lishiga ta'siri va ularning sog'lig'ini o'rganadi.

Harbiy demografiyada mamlakat resurslarining va uning koalitsiyalarni bilish uchun aholi soni va tarkibini yosh-jinsi bo'yicha hisoblash muhim ahamiyatga ega. Harbiy demografiya harbiy statistika, sanitar va harbiy-tibbiy statistika bilan chambarchas bog'liq. Harbiy demografiyada statistika nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, aholi statistikasida qo'llaniladigan usullardan keng foydalaniladi.

Biz yana bir qator demografiya tarmoqlarini (siyosiy demografiya, yuridik demografiya) keltirishimiz mumkin. Boshqa tomondan, ular demografiya bilan tutash fanlarda mavjud, lekin hanuzgacha-aniq bir fan sifatida shakllanmagan<sup>11</sup>.

**Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi.** Demografiyaning fan sifatida vujudga kelishi va ushbu so'zning kelib chiqishi tarixi 1662 yilga borib taqaladi. Ana shu davrda Angliyada vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalib, aholi o'rtasida o'lim hollari nihoyatda ko'payib ketgan. Shu bois Londonda har hafta o'lim haqida byulletenlar, ya'ni maxsus ma'lumotnomalar chop etilib, aholiga tarqatilgan. O'z salomatliklarini saqlash maqsadida, mazkur ma'lumotlarni juda ko'p fuqarolar o'qigan. Angliyalik savdogar olim J.Graunt Londonda tug'ilish va o'lim haqidagi 80 yillik ma'lumotlarni o'rganib chiqqan va 1662-yili o'zining 90 betdan iborat «O'lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatish natijalari. Ko'rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o'sishi va boshqa o'zgarishlari xususida London fuqarosi Jon Grauntning asari» kitobini yozgan. Kitob juda uzun nomlangan bo'lib, o'z oldiga keng qamrovli ijtimoiy hodisalarni maqsad qilib qo'ygan. Shu bilan birga, asarda demografik jarayonlarning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarning ta'sirini o'rganishga harakat qilingan. Tadqiqotni muallifning zamondoshlari yuksak baholashgan, lekin ular keyingi davr olimlaridan farqli o'laroq ushbu asarni aholi dinamikasi muammolarining tahlili sifatida ko'rib chiqishmagan. Demografiyaga tamal toshi qo'ygan shaxs sifatida J.Graunt XIX-XX asrlarda demografiya aholi statistikasi, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosatshunoslik fanlarining gurkirab rivojlanayotgan davrida tan olingan.

J.Graunt asarining fundamental tahlili M.V.Ptuxa tomonidan o'tkazilgan, lekin uning ushbu masala bo'yicha qarashlari ma'lum bir ma'noda o'zgarishlarga ham uchradi. 1930-yildagi Aholishunoslik bo'yicha xalqaro kongressda u J.Grauntning demografiyaning asoschisi ekanligini aytib o'tgan, lekin keyingi asarlarida XVII asr statistikasining asoschilari sifatida uch kishini - J.Graunt, V.Petti va E.Gallelarni e'tirof etgan.

Shunga qaramasdan, hozirgacha demografiyaning rivojlanish davrini hisoblash Grauntdan boshlanadi, 1963 yilda B.Urlanisning J.Graunt tavalludining 300 yilligiga bag'ishlanib chop etilgan maqolasida yozilishicha, «o'tgan asrlar tumanlari orasida qolib kctgan» boshqa fanlardan farqli o'laroq, demografiya fanining vujudga kelish vaqtini aniq belgilash mumkin va J.Graunt «Demografiya fanining otasi» hisoblanadi.

«Demografiya» nomli yana bir kitobning muallifi V.A.Borisovning ta'kididan bundan ham keskinroq, u J.Grauntning nafaqat demografiya fanining, balki statistika va sotsiologiyaning ham asoschisi va otasi deb ta'kidlaydi. Nomi keltirilgan mualliflardan farqli o'laroq D.I.Valentey, A.G.Vishnevskiy, D.K.Shelestov va boshqa demograflar demografiyaning vujudga kelishi birdaniga emas, balki jamiyat va xususan aholi haqidagi bilimlarning yig'ilib qolishi natijasida bo'lgan, degan fikrga ko'proq moyillik bildiradi. Shunday qilib aytish mumkinki, J.Graunt davrida, ya'ni XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab intensiv tarzda bilimlarning yig'ilishi davri boshlandi, faqatgina yuz yillardan so'ng siyosiy iqtisod, tarix, huquqshunoslik, jumladan, statistika va siyosiy arifmetikaning qismchasi bo'lgan davlatshunoslik, zamonaviy siyosiy iqtisodiyotning birlamchi ko'rinishi va qisman sotsiologiya kabi fanlarga ajralish jarayoni boshlangan.

Aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'planishi J.Grauntgacha, ya'ni antik davrlarga borib taqaladi. Olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilishga bo'lgan birinchi harakatlar Qadimgi Rimda amalga oshirilgan, rimliklar umr davomiyligini

---

<sup>11</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.

hisoblab chiqish bo'yicha yondashuvlarini ishlab chiqishga harakat qilishgan. Bunga Florentsiya jadvalini misol sifatida keltirishimiz mumkin<sup>12</sup>.

Aholi, uning soni, yosh tarkibi, joylashuvi va nihoyat tabaqalarga bo'linishi haqidagi batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish to'g'risidagi real ehtiyoj ijtimoiy munosabatlar tizimidagi keskin burilishlar sodir bo'lish davridan, aholini ijtimoiy va makondagi joylashuv nuqtai nazaridan tamoman yangi sharoitlariga olib kelgan feodal tabaqalashuv jamiyatidan kapitalistik jamiyatga o'tish davrida, agrar iqtisodiyotdan industrial iqtisodiyotga o'tish davrida boshlandi. XVII-XVIII asrlar migratsion jarayonlarning rivojlanishida keskin burilish davri bo'ldi, uning asosida mamlakatlararo, qit'alararo migratsiya Yangi Dunyo davlatlarining demografik manbai bo'lib qoldi.

Tarixiy rivojlanishning yangi shartlari va u bilan bog'liq holda davlatchilikning rivojlanishida aholining rolini bo'rttirib ko'rsatish holatlari N.Makiavelli (1469-1527 yy), J.Boden (1530-1596 yy), D.Botero (1540-1617 yy) asarlarida o'z ifodasini topgan, ular birinchi navbatda siyosatchilar yoki siyosiy yozuvchilar bo'lishgan. Aholi muammolariga hatto ijtimoiy utopiyachilar, avvalambor T.Kampanella (1568-1639 yy) ham qiziqish bildirgan. Aholi haqidagi ma'lumotlarning to'planishi va tahlili siyosiy arifmetika va davlatshunoslik kabi ikkita fan tarmoqlarining rivojlanishi bilan barobar bo'lgan. Birinchisi, yangi davr hosilasi bo'lsa, ikkinchisi boy tarixiy an'alariga ega bo'lgan. Shunga qaramasdan Yu.E.Yansonning fikricha, davlatshunoslikning (tavsifiy statistika) asoschisi bo'lib nemis olimi G.Konring (1606-1681 yy) hisoblanishi kerak, u fan tarkibiga davlatlarning tavsifini, davlat boshqaruv shaklini, shu jumladan, aholini ham kiritgan. Ushbu fan o'z nomini oradan yuz yil o'tgandan so'nggina statist G.Avanxel (1719-1772 yy) ishlari hisobiga o'zgartirdi, u yangi nomning lotin tilidagi «status» — davlatning hosilasi ekanligini isbotlab berdi.

Germaniyada qiyosiy statistika asoschilari hisoblangan A.L.Shletser (1735-1809 yy) va A.Niman (1761-1832 yy)larning asarlari aholi statistikasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ularning aholiga doir yondoshuvlariga ko'ra, davlatning farovonligi aholi soni va ularni iqtisodiy faoliyatining doimiy tarzda o'sishi bilan bevosita bog'liq.

Aholi soni dinamikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish bo'yicha yondoshuvlar siyosiy arifmetiklar hisoblangan V.Petti (1623-1687 yy), J.Graunt (1620-1674 yy) va E.Galley (1656-1742 yy) kabi olimlar asarlarida ham berilgan. Ularning demografiya fani oldidagi xizmatlari ikkiyoqlamadir: ular keyinchalik «aholining tabiiy harakati» deb nom olgan yangi bilimlar sohasi chegaralarini aniqlab berishgan va miqdoriy (son jihatdan) o'rganish asoslarini yaratishgan; ular birinchilardan bo'lib «ijtimoiy dalillarni hisoblab chiqish» bo'yicha harakatlar qildilar. Aholi va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri nazariyasining rivojlanishiga V.Petti o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. U XVII asrning eng yirik nazariyotchi-iqtisodchilari qatoridan joy oldi.

Aholi dinamikasi muammolari va uning o'sish sur'atlarining o'zgarish sabablarini talqin qilishdagi o'ziga xos yondashuvni E.Galley taklif etgan: «Insoniyatning ko'payishi va uning o'sishi nafaqat inson tabiatida mavjud bo'lgan qandaydir holatlar, balki uning oilani boqish bo'yicha vazifa va tashvishlarning istiqboldagi ko'payishi bo'yicha nikohga kirish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishda ko'pchilik aholi tomonidan yo'l qo'yiladigan ehtiyotkorligiga ham bog'liqdir». Bu bilan E.Galley tug'ilishning chegaralanish sabablarini ko'rsatib, davlat bolalar tug'ilishini qo'llab-quvatlashi va rag'batlantirishi zarur, deb hisoblagan.

<sup>12</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.



Aholi statistikasining takomillashmaganligi, ma'lumotlarning fragmentarligi va kamchiliklarining ko'pligi sababli ushbu sohada matematik usullarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Masalan, aholini o'rganishda ehtimollar nazariyasining qo'llanilishi, asosan o'lim va umr davomiyligini hisoblash D.Bernulli (1700-1782 yy) va L.Eylerlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Aholini tadqiqot obyekti sifatida o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi va nihoyat ma'lumotlarning to'planishi hamda tahlil qilish usullarining takomillashuvi o'sha davrlarda demografiyani mustaqil fan sifatida oyoqqa turgan, deb hisoblashga imkon bermasdi. Xuddi shunday fikrni aholi statistikasiga ham nisbatan aytish mumkin, bu haqda yirik fransuz ma'rifatparvarlari Sh.Mosteske (1689-1755 yy), F.Volter (1694-1778 yy), J.Russo (1712-1778 yy) larning fikrlari so'zimizning isbotidir. Ularning asarlarida aholiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatidagi yondashuvlar ustunlik qiladi, unga muvofiq davlatning vazifasi – aholining ko'payishi, jumladan, qonunlarni takomillashtirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash hisoblanadi.

J.Russoning fikricha, fuqarolari doimiy ravishda ko'payib borayotgan hukumat eng yaxshisi, aholisi kamayib va o'lib borayotgan hukumat - eng yomon deb hisoblanadi.

Aholining iqtisodiy maqsadlarga ko'ra o'sishini ingliz iqtisodchilari D.Yum (1711-1776 yy) va A.Smitlar (1723-1790 yy) ham tadqiq qilganlar. Ularning fikricha, aholi sonining ko'p va ishlab chiqarish samaradorligining yuqori bo'lishi davlat uchun har tomonlama foydalidir hamda ichki va tashqi siyosat jumladan, davlat manfaatlari nuqtai nazaridan va har qanday davlat gurkirab rivojlanishining inkor etib bo'lmaydigan isboti hisoblanadi. Bu fikrlarga F.Kene (1694-1774 yy) ning qarashlari ham juda yaqin, u jamiyatning rivojlanishi aholi sonining o'sishiga olib keladi va aholi holati, insonlar mehnatidan foydalanish davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim ob'yektlaridan biri hisoblanadi, deb yozgan<sup>13</sup>.

Demografiya fanining vujudga kelishida buyuk rus olimi M.V.Lomonosov (1711-1765 yy) ning ham o'rni katta. Fanning vujudga kelishini olimning 1761 - yilda yozilgan «Rus xalqini saqlash va uning ko'payishi» nomli asari bilan bog'lash ham mumkin. Ko'p hollarda merkantelistlar g'oyalarini, xususan, V.Mirabo (1715-1789-yy) g'oyalarini takrorlagan holda u mamlakat boyligining asosini hech kim yashamaydigan bepoyon hududlar emas, balki aynan aholi tashkil qiladi, deb hisoblagan. Ushbu asar o'z davri rus aholisining ko'plab muammolari: o'limning yuqori darajasi, qashshoqlik, ocharchilik aholini katta qismining shafqatsiz ezilishini qamrab olgan edi. Ushbu asarning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy qiymati yuqori bo'lishiga qaramasdan Rossiyada M.V.Lomonosov mehnatini demografiya fanining vujudga kelishining asosi deb qarash imkonini bermaydi. M.V.Lomonosovning asari yozilganidan so'ng, oradan 100 yildan keyin chop qilinqanligi barchaga ma'lum.

XVIII asrda aholini o'rganish bo'yicha yetarlicha muvafaqqiyatlarga erishilganligiga qaramasdan, uni hisobga olish ishlari juda sodda, yondashuvlar esa juda muammoli, ya'ni davlat boshqaruvi manfaatlari bo'yicha amalga oshirilgan. Ushbu holat aholi statistikasi fanini ilmlarning mustaqil tarmog'i sifatida ajralib chiqqanligini ta'kidlash imkonini bermas edi, shuningdek, aholining rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan – demografiya haqida ham shunday deyish mumkin.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan sanoat to'ntarishi va uning keyinchalik ko'plab Yevropa mamlakatlariga yoyilishi yangi - industrial sivilizatsiyaning jadal shakllanishi, shaharlarning tez o'sishi fan uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi,

<sup>13</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.

jumladan, odamlarning turmush tarzi va sharoitlarini ham keskin o'zgartirib yubordi. Buning natijasida XIX asrdagi demografik vaziyatning keskin o'zgarishi boshlandi: o'limning kamayishi va yuqori darajadagi tug'ilishning natijasida aholi tez ko'paya boshladi. B.Urlanisning hisob-kitoblariga ko'ra, XIX asrda aholi sonining o'sishi Yevropa aholisining o'sish sur'atlariga nisbatan 7 marta, birlamchi to'planish davriga nisbatan 3 marta ko'p bo'lgan. Yevropa aholisi 100 yil ichida ikki marta, ya'ni 1800 yildagi 193-208 mln.dan 1900 yildagi 423-430 mln.gacha ko'paygan.

Eski dunyodagi aholining zichligi va yangi yerlarni-o'zlashtirish bo'yicha ehtiyoj Shimoliy va Janubiy Amerikaga ommaviy migratsiya uchun katalizator bo'lib qoldi. O'z miqyoslariga ko'ra, u avvalgi yuz yilliklarga nisbatan qiyoslab bo'lmaydigan darajaga chiqdi. Yuz yil ichida 28 mln.dan ortiq kishi Yevropani tark etdi, ayniqsa, ularning yarmidan ko'pi oxirgi o'n yilliklarga – aholining zichligi ko'zga yaqqol tashlanadigan paytga to'g'ri keldi. Aynan shu yillarda mamlakatlararo (ayni paytda, kontinentlararo) migratsiyaga sobiq ittifoq mamlakatlari ham tortildi.

Shunday qilib, XIX asrdagi demografik fon – tug'ilishning oshishi, o'limning kamayishi, nikoh va migratsiya jarayonlari asosidagi aholi sonining o'sishi aholini ilmiy jihatdan tadqiq etish bo'yicha tadqiqotlarning rivojlanishi uchun imkon yaratdi. O'z navbatida, bu doimiy tarzda demografik hodisalarni joriy statistika hisobga olish ishlarining yo'lga qo'yilishi va aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini amalga oshirishda o'z ifodasini topdi. Umuman olganda, ushbu davrdagi aholi statistikasi uning boshqa tarmoqlariga nisbatan juda ilgari ketdi. Bunga yirik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan usul va uslubiyotlar sabab bo'ldi. Masalan, belgiyalik olim A.Ketle (1796-1874-yy) aholini ro'yxatdan o'tkazish dasturini ishlab chiqqan. Shuningdek, olimning demografiya fani g'oyalarining rivojlanishida «Inson imkoniyatlarining rivojlanishi yoki ijtimoiy fizika tajribasi» nomli asari (1835-y) va «o'rtacha odam» konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi<sup>14</sup>.

A.Ketli aholi statistikasi sohasidagi yirik ingliz mutaxassisi, Angliya va Uelsdagi aholi registrlarining tashkilotchisi U.Farr (1807-1883-yy) bilan o'z ilmiy-tashkiliy faoliyatini hamkorlikda olib borgan. Bu olimlar tomonidan Xalqaro statistika kongressini tashkil qilish g'oyasi ilgari surilgan, ushbu kongress sessiyalarida zamonaviy aholi statistikasi va ro'yxatdan o'tkazish ishlarining asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Masalan, kongressning VIII sessiyasida (1872 y) aholini ro'yxatdan o'tkazishning «minimal xalqaro me'yorlari» qabul qilingan. Ta'kidlash joizki, kongress sessiyalari nomlarida demografik mavzular o'z ifodasini topmagan. Lekin, nashrlarda ikkita atama keng qo'llanilgan va ular XIX asrning oxirgi uchinchi choragiga qadar bir ma'no kasb etgan: bular «populyatsionistika» va «demografiya» atamalari. Mohiyatan aynan shu davrni demografiyaning nafaqat tarixining, balki uning predmeti haqidagi bahslar tarixining boshlanishini, uning mavzulari doirasini, tadqiqot obyekti sifatida inson va insoniyat hamjamiyati bilan bog'liq boshqa fanlar bilan aloqadorligini, rivojlanib borayotgan atrof-muhit va bir vaqtning o'zida ushbu muhitni shakllantiruvchi aholini o'rganilishining boshlanish davri deb hisoblash mumkin.

«Populyatsionistika» atamasi 1841 yilda shveysariyalik olim X.Bernulli (1782-1863 yy.) tomonidan taklif etilgan, olim fan doirasida ikkita yo'nalishni ajratib ko'rsatgan: aholi statistikasi (statistik ma'lumotlarni yig'ish, tizimga solish va tavsiflash); aholi joylashuvi haqidagi bilim yoki populyatsionistika. Ushbu atama 1855 yilgacha fransuz matematigi A.Giyyar (1790-1876 yy) o'zining «Inson statistikasining unsurlari

<sup>14</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.

yoki qiyosiy demografiya» asarida birinchi bor «demografiya» atamasini ishlatgan. A.Giyyarning ilmiy qiziqishlari doirasida demografiyaning o'zi X.Bernulli qarashlariga nisbatan ancha tor ma'no kasb etgan, ya'ni u demografiyani «inson populyatsiyasi, uning umumiy harakatlanishini, tabiiy, fuqarolik, intellektual va ma'naviv holatini matematik tafakkur etish» deb tushungan. Uning fikricha, demografiya aholini sonlar yordamida tavsiflashi kerak.

Keyingi bir necha o'n yilliklar davomida demografiya fanini nomlashga ko'plab harakatlar qilingan. Bu birinchi navbatda, olimlarning aholining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga oid yondoshuvlari bilan bog'liq. 1870-yilda nemis statistiki E.Engel (1821-1896-yy) «demologiya» deb nomlanadigan yangi atamani fanga kiritgan, ushbu atama demografiyadan farqli o'laroq fanning aholini rivojlanishi va uning omillarini o'rganuvchi fan ekanligini ko'proq namoyon etar edi. Uning fikricha, demologiya aholi statistikasi fani bilan o'xshash bo'lib, u tavsifiy xususiyat kasb etadi.

1883-yilda demografiya va gigiyena bo'yicha xalqaro kongressda fanning yakuniy nomi tasdiqlandi. Bu vaqtda J.Bertilon (1851-1922 yy) va boshqa olimlarning ishlariga muvofiq yagona to'xtamga kelindi va demografiya statistik usullar yordamida aholini tavsiflovchi mustaqil fan sifatida tan olindi. Lekin, bu yerda J.Bertilonning asosiy xizmati fanning predmetini aniqlash nuqtai nazaridan va demografiyaning mazmunini ikkiga ajratishdan iborat edi: statistik va dinamik. Statistik demografiya aholining joriy vaqt davomidagi anatomiyasini; dinamik demografiya esa aholida sodir bo'ladigan jarayonlarning fiziologiyasini ochib beradi, ya'ni turli yillardagi tug'ilish va o'lim jarayonlari nisbatining o'zgarishini aniqlab beradi. Mohiyatan, u demografiyani aholi takror barpo bo'lishi haqidagi fan deb belgilagan, bu esa tavsifiy statistikaga nisbatan bir qadam ilgari degani edi.

O'zbekistonda ham demografiyaning rivojlanishi o'z tarixiga ega. Respublikada demografik bilimlar juda qadimdan mavjud bo'lgan. Bular haqida qadimgi qo'lyozmalar, arxeologik yodgorliklar va ilmiy manbalar guvohlik beradi. Lekin, mamlakatda maqsadli demografik tadqiqotlarni o'tkazish 1960 yillardan boshlangan.

Respublikada demografiya fanining asoschisi demograf olim Murtazo Qoraxonovich Qoraxonov hisoblanadi. Olim mamlakatning XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab demografik tarixini tiklagan. Shu bilan birga, M.Qoraxonov O'zbekiston aholisining son va sifat xususiyatlarini, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarini ilk bor kompleks o'rgangan hamda demografik prognozini amalga oshirgan.

O'zbekistonda demografiya fanining rivojlanishiga Ishaq Rashidovich Mullajonov, Xojiakbar Salimovich Salimov, Ra'no Axatovna Ubaydullayeva, Ozod Bobomirzayevich Ota-Mirzayev, Erkin Agzamovich Axmedov, Lyudmila Petrovna Maksakova, Mamlakat Rahmonovna Bo'riyeva, Abduhakim Abduhamidovich Qayumov, Abdusami Soliyevich Soliyev, Ravza Bayanovna Murtazina, Zulxumor Nazarovna Tojiyevlar ham katta hissa qo'shgan<sup>15</sup>.

**Demografiya va boshqa fanlar.** Aholi ko'pgina fanlar uchun umumiy va universal tadqiqot obyekti hisoblanadi. Lekin, ularning har biri aynan aholida ushbu fanni qiziqtiradigan jihatlar va munosabatlarni ajratadi hamda o'zining ta'rifini beradi. Demografiya aholini o'rganuvchi boshqa fanlar tomonidan tuzib chiqiladigan munosabatlarni tadqiq qilmaydi, balki ularning aholini takror barpo bo'lish jarayoniga ta'sir qiladigan jarayonlarini o'rganadi, xolos. Aholining takror barpo bo'lish

<sup>15</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.


qonuniyatlarini tushuntirib berish uchun demografiya ushbu fanlar tomonidan o'rnatilgan dalillarni, usullarni oladi.

Demografiya tadqiqotining predmeti jamiyat va turli ijtimoiy hodisalar hisoblangan **sotsiologiya** fani bilan uzviy bog'liqlikka ega. Sotsiologiyadagi kabi, demografiyada ham tadqiqot obyekti inson hisoblanadi, lekin ushbu fanlar ijtimoiy jihatdan insonga o'zlarining yondashuvi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Sotsiolog insonni shaxs va individ sifatida, umumiy holda jamiyat a'zosi yoki uning alohida guruhlarining a'zosi sifatida ko'rib chiqadi va jamiyat hamda insonning o'zaro ta'sirini o'rganadi. Demografiyada esa inson yashovchi shaxs sifatida, aholi jamlanmasining elementi sifatida ko'rib chiqilib, unda har bir inson umumiylikda o'zining individual jihatlarini yo'qotgan holda qorishib ketadi.

Demografiya **iqtisodiyot nazariyasining** bir qator qonuniyatlaridan foydalanadi, chunki aholi ishchi kuchini takror barpo etadigan muhim unsurlardan biri hisoblanib, jamiyatning tabiiy asosini tashkil qiladi.

Demografiyaning **tarix** fani bilan bog'liqligi shundan kelib chiqadiki, bunda barcha demografik jarayonlar tarixiy hodisalar jabhasida o'rganiladi, ya'ni demografik qonuniyatlar ma'lum bir tarixiy tavsifga ega va tarixiy hodisalar hamda dalillarning oqibatlarini o'zida aks ettiradi.

Quyidagi 1.2-chizmada demografiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi keltirilgan.



**1.2-chizma. Demografiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi<sup>16</sup>.**

Demografiya **huquqshunoslik** fani bilan ham uzviy aloqadorlikka ega. Qonuniy hujjatlar aholi va davlatning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi hamda demografik jarayonlarning sodir bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

<sup>16</sup> Chizma Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b. manbasidan foydalanib muallif tomonidan tuzilgan.

Demografiya fanining *etnografiya* bilan aloqadorligi shu bilan belgilanadiki, etnografiya turli xalqlar turmush tarzi va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini, demografik jarayonlarga ta'sirini ochib berishga yordam beradi.

*Ijtimoiy psixologiya* demografiya bilan demografik xulq-atvorni o'rganishda, uning demografik jarayonlarni ijtimoiy boshqarish mexanizmlaridagi rolini va h.k.larni o'rganishda yaqinlashadi. *Gerontologiya* insonning keksayish qonuniyatlarini o'rganadi.

Demografiyaning *ijtimoiy gigiyena* bilan bog'liqligi o'lim darajasiga, aholi salomatligiga, ijtimoiy shart-sharoitlarning ta'sirini o'rganish zaruratidan kelib chiqadi.

Demografiya *tibbiyot* bilan ham uzviy aloqadorlikka ega. O'z navbatida, bu aloqadorlik o'limning ayrim sabablarini o'rganishni amalga oshirishda yordam beradi.

Demografiyada *statistika nazariyasining* tamoyillari juda ham keng qo'llaniladi. Demografiya juda ko'p miqdordagi kuzatuvlar, ijtimoiy hayotdagi ommaviy hodisalar bilan bog'liq, ularning qonuniyatlari esa katta sonlar qonunida o'z aksini topadi. Shunday qilib, demografiya fani tarkibiy jihatdan qator tarmoqlarga bo'linadi hamda iqtisodiyot nazariyasi, tarix, huquqshunoslik, etnografiya, tibbiyot, statistika va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorlikka ega<sup>17</sup>.

**Demografiyada foydalaniladigan metodlar.** Demografiya mustaqil fan sifatida o'z tadqiqot usullariga egadir. Ular jumlasiga tarixiy, taqqoslash, statistika, matematika, kartografik, mantiqiy fikrlash va sotsiologik uslublar kiradi. Demografiyaning tahlil uslubi statistikadan farq qiladi. Unda mavhum fikrlash uslubidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari ham o'rganiladi. Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish maxsulidir, shu sababli aholi turli omillar zaminida ko'payadi. Bu jixatdan demografiya tahlil mavzuyi iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, psixologiya, matematika, statistika, ijtimoiy gigiyena, geografiya, tibbiyot, tarix, etnografiya va boshqa fanlar tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, shu fanlarning yutuqlaridan foydalanadi. Ayni vaqtda ularga qimmatli ma'lumotlar beradi.

*Demografiya har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum aholisining ko'payish va rivojlanish qonunlarini alohida-alohida o'rganadi. Chunki har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga xos aholi o'sish qonuni, demografik vaziyatga bevosita ta'sir ko'rsatadi*<sup>18</sup>.

Aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlarni o'rganar ekan, demografiya bir qator ilmiy yo'nalishlarga bo'linadi va bu yo'nalishlar demografiya fanlari tizimini tashkil etadi. Ularga nazariy demografiya, demografik statistika, tarixiy demografiya, etnik demografiya, iqtisodiy demografiya, hududiy demografiya, tahliliy demografiya va amaliy demografik tadqiqotlar kiradi.

Demografiya fani doirasidagi usullar umumilmiy va demografik usullarga bo'linadi, ular takror barpo bo'luvchi odamlar jamlanmasini, aholining ko'payish xususiyatini o'zida aks ettiradi.

Demografik va migratsion o'tish konsepsiyalari fanning nazariy asosi hisoblanadi. Aytish joizki, inson rivoji va mavjudligining u yoki bu shartlari o'zgaruvchandir, chunki bu aholining bir turini ikkinchisi tomonidan takror barpo bo'lishini taqozo qiladi, shuning uchun demografik tadqiqot uslubiyotida tarixiylik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tarixiy yondashuv nafaqat demografiya fanining predmetini o'rganishda, balki demografik bilimlar evolyutsiyasini ham o'rganishda juda zarur.

<sup>17</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.

<sup>18</sup> Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 1999. 2001

Demografiyada tadqiqotning umumilmiy uslublari keng qo'llaniladi, ularga ilmiy abstraktsiya va abstraktsiyadan konkretlikka ko'tarilish, qiyoslash, tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, gipotezalarni ilgari surish va ularni tekshirish, ekstropolyatsiya va modellashtirish usuhari kiradi.

Demografiyaning **xususiy usullari** demografik tafakkur etish predmetiga-mos keladi, jumladan, aholining jins-yosh va nikoh tarkibi hamda yosh va jins xususiyatlariga bog'hq demografik jarayonlardir. Ular quyidagilar:

**Kogort usuli**, bu usul avlod davomida u yoki bu jarayonni o'rganishda qo'llaniladi. Shuningdek, uni «real (mavjud) avlod» yoki «tik (bo'ylama) tahlil» usuli deb ham atashadi. Unda demografik jarayonlar, masalan, tug'ilish va o'lim darajasi, nikoh va ajrahshlar bir vaqtning o'zida demografik holatga kirgan insonlar jamlanmasida tahlil qilinadi, ushbu usulning vazifasi aholining ushbu kogorti uchun kogortning vujudga kelish vaqti oralig'iga bog'liq bo'lgan va demografik hodisaning u yoki bu jarayonga kirishini aks ettirgan demografik jarayonlar xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**Ko'ndalang tahlil usuli**, ya'ni «shartli» yoki «gipotetik avlod» usuli, uning yordamida demografik hodisalar chastotasi ko'rsatkichlarini tasavur etish asosida demografik jarayonlarni o'rganish mavjud bo'ladi, ular avlodlar hayoti davomida ushbu holatlar chastotalari ketma-ketligining yig'indisi sifatida nisbatan qisqa davr oralig'ida qiyosiy demografik holatlarning tegishli uzunligi oraliqlarini o'rganish orqali ohnadi. Bu ham kogort usuli bo'lib, avlodlar hayotiy chizig'ini ko'ndalang kesuvchi hodisalarning grafik tasvirini ko'rishga yordam beradi.

Tik (bo'ylama) va ko'ndalang tahlillar bir qator avlodlar takror barpo bo'lish xususiyatlarini solishtirish imkonini beradi, bu ayniqsa tarixiy demografiya uchun juda zarurdir, chunki bu ham ijtimoiy, ham demografik prognozlarni amalga oshirish va ijfimoiy siyosatni ishlab chiqish uchun foydalaniladi.

**Real va shartli avlod usuli** odamiarning yoshini va ularning hayoti davomida sodir bo'layotgan u yoki bu demografik hodisalami bihsh bizga aholining yosh tarkibi haqida tasawurga ega bo'lish, shuningdek, qaysi yoshlarda u yoki bu hodisalar bo'lishini bilishga yordam beradi.

Yosh tarkibida aholi bir yillik, besh yillik va nisbatan katta yoshlar guruhlari bo'yicha taqsimlanadi. Demografik tahlilda «avlod» tushunchasi muhim roi o'ynaydi, chunki u ma'lum bir davrda tug'ilgan odamlar jamlanmasi xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Odatda, real avlodni tarkib toptiruvchi tengdoshlar jamlanmasi va gipotetik avlod deb nomlanuvchi avlodni tarkib toptiruvchi turli yoshdagi zamondoshlar jamlanmasi farqlanadi.

Avlodlar uzunligi (davomiyligi) ota-onalar tug'ilishi bilan ularning bolalari tug'ilishi o'rtasidagi vaqt oraligi bilan ifodalanadi. Insoniyat rivojlanishining turli tarixiy davrlarida avlodning umr ko'rish davomiyhgi - doimo bir xil boimagan. Hozirgi davrda ma'lum bir shartlilik asosida u 32-35 yilga to'g'ri keladi, deb olinadi. Sof demografiya nazariyasida takror barpo bo'lish jarayoni aholining tabiiy harakati natijasida avlodning doimiy yangilanishini aks ettiradi.

**Demografik koeffitsientlami standartlashtirish usullari** demografik koeffitsiyentlarning u yoki bu demografik jarayonga ta'sirini qiyoslash, uning holati haqida tasavur hosil qilishga yordam beradi. Shuning uchun umumiy koeffitsiyentlar standartlashtirgandan soiiggina qiyoslanadi. Bunda jarayonning jadaüigi va solishtirilayotgan demografik jamlanma standart deb hisobga olinadi, qolganlari uchun esa har birining standartga nisbatan o'ziga xos indeksi hisoblab chiqiladi. Ushbu indeksni

standart ko'rsatkichlariga ko'paytirish orqali solishtirilayotgan demografik jamlanmalar uchun standartlashtirilgan demografik koeffitsiyentlar hisoblab chiqiladi.

**Demografik modellashtirish usullari** aholining takror barpo bo'lish jarayonlarini tahlil qilish va prognozlashtirishda keng qo'llaniladi. Ular aholining umumiy o'zgarishini yoki uning rivojlanish komponentlarining o'zgarishini tavsifiab beradi.

Demografiyada statsionar aholi modellari ham keng yoyilgan usullardan hisoblanadi, shuningdek, demografik jadvallar ko'rinishidagi gipotetik avlod uchun demografik jarayonlarning sonli modellari, stoxastik (ehtimoliy) modellar ham keng qo'llaniladi.

Demografik bilimlar rivojlanishining hozirgi zamon bosqichi unda matematik modellashtirish usuhari va uslubiyotining tez rivojlanishi bilan tavsiflanadi, jumladan, ijtimoiy boshqarish amaliyotida ushbu bilimlardan foydalanish imkoniyatlari rivojlanib bormoqda. Ushbu usullarning barcha ma'lum bir demografik hodisalarning umumiylikdagi ta'siriga asoslanadi. Shuning uchun demografiya uslubiyotida demografik hodisalarning miqdoriy o'lchovlariga nisbatan tahlil va o'rganish usullari, statistik va matematik usullar muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining yosh-jins tarkibini yaqqol namoyon etish uchun *yosh-jins piramidasi* qo'llaniladi. Uni tuzish uchun vertikal o'qda yosh, chapda erkak aholi yoshlari bo'yicha taqsimlanadi, o'ngda esa ayol aholi taqsimlanadi (bir xil miqyoslarda). O'lchov birligi sifatida **besh yil** olinadi.

Demografik holatlar va jarayonlarni hududlar bo'yicha qiyoslash kartografik usul yordamida amalga oshiriladi. Bunda xaritalardan foydalaniladi: hududiy tarqalish bo'yicha aholi zichligi, yosh-jins tarkibi, shuningdek, aholining tabiiy va mexanik harakati; ijtimoiy-madaniy, jumladan, ijtimoiy-kasbiy, sinfiy, etnomadaniy tarkibi; demografik jamlanmalarining madaniy, maishiy, antropologik va lingvistik xususiyatlari; aholining tarqalish xususiyatlari, jumladan, shahar va qishloq aholisi xususiyatlari, hududlar va aholi manziharining har xil turlari aniqlanadi.

Aholi xususiyatlari va demografik jarayonlarni tadqiq etishda **demografik to'r tuzish usuli** muhim ahamiyat kasb etadi, uning geometrik shakllari yordamida turli-tuman xususiyatlarni, shu jumladan, bevosita ko'zga tashlanmaydigan va vaqt o'tishi davomida tahlil qilish murakkab sanalgan avlodidagi demografik jarayonlarni ko'rish mumkin bo'ladi.

**Demografik prognozlashtirish usullari** aholining istiqboldagi tarkibi va miqdoriga ta'sirini qiyoslash orqali aholi o'zgarishining u yoki bu komponentlari rolini baholash imkonini beradi. Aholini prognozlashtirishda ekstropolyatsiya, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, imitatsion modellashtirish, yoshni siljitish va boshqa qator usullardan foydalaniladi.

Masalan, odamlarning demografik xulq-atvorini o'rganar ekanmiz, biz mavjud ijtimoiy-psixologik me'yorlarni aniqlaymiz va shundan kelib chiqqan holda ularning harakati ushbu masalalar orqali vujudga keladi, deb hisoblaymiz. Shu narsa muhimki, nafaqat oila nechta farzand bo'hshini xohlashini bilish, balki nima uchun ularning bo'hshini xohlashi (yoki xohlamashgi) va nima uchun bitta yoki ikkita, ko'p emasligini aniqlash ham kerak; mavjud sharoitlarda oila nechta farzandni (kutilayotgan farzandlar soni) ta'minlay olishini va mavjud turmush sharoiti, shaxsiy imkoniyatlarni e'tiboiga olmagan holda qancha xohlashini aniqlash muhim. Bunday tadqiqotlar asosida demografik qadriyatlarining shakllanishi va aholining o'sish zahiralarni belgilab olish

maqsadi yotadi, ularning yechilishi esa demografik siyosat tadbirlarini ishlab chiqish uchun zarurdir<sup>19</sup>.

### Nazorat uchun savollar

1. demografiya fanining o'rganish obyekti va predmetini tushuntiring.
2. Geografik fanlar tizimida demografiya fanining tutgan o'rnini tushuntiring.
3. Fanning asosiy vazifalari va tushunchalarini tushuntiring.
4. Demografiya fani qaysi fanlar bilan aloqador?
5. Fanning qanday tadqiqot usullari mavjud?

## 2-Mavzu. Demografik jarayonlar va aholi xaqida ma'lumotlarni o'rganish manbalari.

### Reja:

1. Demografik jarayonlarni hisobga olish.
2. Demografik ma'lumot manbalari: birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar.
3. Aholini qayd etish tizimi. Aholining joriy hisobi va aholi registrlari.
4. Aholini o'rganishda maxsus va tanlama tadqiqotlar.
5. Aholi ro'yxati va uni o'tkazish tamoyillari. Milliy aholi ro'yxati dasturlari.
6. Aholi ro'yxati o'tkazish tarixi: jahonda va bizning mamlakatimizda.

**Tayanch iboralar.** *Demografik jarayonlar, demografik ma'lumot manbalari, birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar, aholini qayd etish tizimi, aholining joriy hisobi, aholi registrlari, maxsus va tanlama tadqiqotlar, internet tizimida demografik ma'lumotlar, demografik ma'lumotlarni chop etish, aholi ro'yxati, Milliy aholi ro'yxati dasturlari, aholi ro'yxati o'tkazish tarixi.*

**Demografik jarayonlarni hisobga olish.** Demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikohga kirish, ajralish kabilar analiz qilinarkan, ularni quruq statistik ma'lumotlar orqali aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun har bir jarayonning o'z koeffitsienti hisoblab chiqiladi. Bu koeffitsientlar har bir demografik jarayonning ming kishiga nisbatan miqdori hisoblanadi. Shuning uchun koeffitsientlar promilleda o'lchanadi.

Demografik jarayonlarga tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va oila kiradi. Demografik jarayonlar tarkibida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'rganilayotgan mavjud aholi avvalo tug'ilish jarayoni natijasida dunyoga kelgan. Demografiya tug'ilishni alohida, aholi takror barpo bo'lishining demografik zamini sifatida o'rganadi, unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy - iqtisodiy va tabiiy omillarni tahlil etadi. Shuningdek, o'lim jarayoni ham aholi takror barpo bo'lishining asosiy elementi sifatida demografiya fanining e'tiborida turadi. Aholining takror barpo bo'lishida birinchi navbatda oila tashkil topishi ya'ni shakllanishi ahamiyatlidir. Chunki dunyoda tug'ilayotgan insonlarning aksariyati oilada, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib o'zining demografik faoliyatini (oilalar qurish, farzandlar ko'rish) boshlaydi. Oilalar shakllanishi esa, o'z o'rnida nikoh va ajralish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Demografiya nikoh evolyutsiyasi va uning aholining takror barpo bo'lishidagi o'rnini alohida o'rganadi. Ajralish ya'ni nikohning bekor etilishi ham aholi takror

---

<sup>19</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov: Demografiya: O'quv qo'llanma/ O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Noshir, 2011. 296-b.



bo'lishiga ta'sir etuvchi demografik jarayon hisoblanadi. Demografiya ushbu jarayonni o'rganar ekan, uning mavjudlik darajasiga ta'sir etuvchi qator sabab va oqibatlarini atroflicha tahlil etadi. Demografiya aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi - migratsiyasini ham o'rganadi. Lekin bu jarayonni o'rganishda, aholi geografiyasidan farqli ravishda, asosiy e'tiborni migratsiya jarayonining hududiy xususiyatlariga emas, balki ushbu jarayon natijasida ro'y beradigan - hududning demografik holatidagi o'zgarishlariga qaratadi. Demografiyada oila asosiy ijtimoiy-demografik guruh sifatida o'rganiladi. Oilani jamiyat taraqqiyoti davomidagi o'rni, evolyutsiyasi, aholining takror barpo bo'lishidagi asosiy faoliyati va uning o'zgarib borish omillari, oqibatlari o'rganilib, kelajak rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlanadi. Ma'lumki, aholi, tug'ilish va o'lim jarayoni natijasida mavjud bo'lgan avlodlar almashinuvi yig'indisidir. Inson mavjudligini ta'minlovchi barcha demografik jarayonlar-tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish uning hayotidagi ma'lum davrida, ya'ni ma'lum yoshda ro'y beradi. Shuning uchun, yosh demografik jarayonlarni o'rganishda asosiy mezon hisoblanadi. Insonning demografik va ijtimoiy holatida, o'z hayoti davomida yosh va jins asosiy ko'rsatgichdir. Aholining jinsiy tarkibi ham demografik holatga ta'sir etuvchi asosiy, demografik tahlili lozim bo'lgan mezonlardandir.

Demografik bashoratlar ishlab chiqishda demografiya fani, birinchi navbatda o'rganilayotgan hudud yoki ijtimoiy guruh aholisining demografik maylini (demografik jarayonlariga bo'lgan munosabati) atroflicha tahlil etadi va ayni shu asosda demografik jarayonlarda kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarni ko'rsatib beradi.

Aholi tabiiy harakati hodisalarining joriy hisobi – asosan tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish hodisalarining qayd etilishidir. Aholi tabiiy harakatining joriy hisobi ikki nusxada qay etilib, ulardan biri arxivga, ikkinchisi esa fuqarolik holatlarini umumlashtirish, ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash uchun statistika muassasalariga topshiriladi. Biroq, bu ma'lumotlar jamlangan holda ham demografik jarayonlar intensivligini ifodalamaydi. Demografik hodisalar hajmi aholi soni bilan bog'liq. Masalan, aholi zich hududlarda ish o'rinlarining kamligi va ortiqcha ishchi kuchlarining to'planib qolishi yoki aksincha, aholi siyrak hududlarda ish o'rinlarining ko'pligi va mehnat resurslarining etishmasligi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Aholining joriy kartotekasini turli ma'muriy davlat organlari yuritadi. Bu kartotekalar aniq maqsadlarni amalga oshirish maqsadida tuziladi va odatda aholining barcha qismini qamrab olmaydi, ya'ni ma'lum qismini (mikrorayon aholisi, ba'zi ijtimoiy guruhlarini) hisobga oladi.

Alohida va maxsus kuzatuvlar. Aholining alohida guruhlarini haqida ma'lumot olish va uni barcha aholi guruhlarini uchun joriy etishda aholi ro'yxatiga nisbatan kam kuch talab etadi va ko'proq muammolarni o'rganish imkonini beradi. Aholiga oid ko'rsatkichlarni ikkiga ajratish mumkin, ular nisbiy va mutloq ko'rsatkichlardir. Mutloq ko'rsatkichlar ma'lum vaqtdagi demografik hodisalar yig'indisidir ( bu vaqt oralig'i ko'pincha bir yilni tashkil etadi). Masalan, unga ma'lum vaqtdagi aholi, tug'ilganlar, o'lganlar sonini kiritish mumkin. Shuningdek, mutloq ko'rsatkichlar orqali aholi haqida ko'p ma'lumotga ega bo'lish qiyin. Ko'proq ma'lumotga va tahlillarga ega bo'lish uchun ilgari ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu, o'z navbatida, tahliliy ma'lumotlarga erishish va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi.

Qiyosiy tahlillar uchun faqatgina nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Mazkur ko'rsatkichlarning nisbiy deb atalishining sababi shundaki, ular doimo qaysidir aholi soniga nisbatan taqqoslash natijasida hosil bo'ladi. Aholi soni-aniq vaqtdagi aholi ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkichlar orqali aholining mutloq o'sishi, o'sish tezligi va

aholining o'rtacha sonini aniqlash mumkin bo'ladi. Aholi o'rtacha sonini, ya'ni ma'lum yildagi aholi o'rtacha sonini aniqlash uchun, quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$PS = \frac{S_0 + S_1}{2} =$$

bu erda P- o'rganilayotgan davr (yil), aholi o'rtacha soni (S), yil boshidagi aholi mutloq soni (S<sub>0</sub>) va yil oxiridagi aholi mutloq soni (S<sub>1</sub>).

Aholining tabiiy harakati-tug'ilish va o'lim jarayonlari bilan bog'liq aholi sonining o'zgarishidir.

$$\text{Tabiiy o'sish: } \Delta tab = T - O'$$

Unda, T – tug'ilganlar soni, O' - o'lganlar soni.

Aholining tabiiy harakati ba'zan aholining umumiy koeffisienti ham deb atalishining sababi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari hisoblanganda aholining umumiy soniga mos keladi. Biroq, aholining tabiiy harakati deb atashning ma'qulligi shundaki, tug'ilish va o'lim doimo turli tabiiy omillar ta'sirida bo'ladi va ma'lum qonuniyatlarga muvofiq yuz berdi.

Tug'ilishning umumiy koeffisienti:

$$U_{tk} = \frac{T}{PS} \times 1000 =$$

T – tug'ilganlar soni, P- o'rganilayotgan davr, S-o'rganilayotgan davrda aholini o'rtacha soni.

Bugungi kunda tug'ilish ko'rsatkichlari mamlakat kelgusi turmush tarzini belgilovchi eng muhim omildir. Chunki, kelgusidagi mamlakatning iste'mol ko'rsatkichlari ham aynan shu omil bilan bog'liq.

O'limning umumiy koeffisienti:

$$U_{o'k} = \frac{O'}{PS} \times 1000 =$$

o' – o'lganlar soni, P- o'rganilayotgan davr, S-o'rganilayotgan davrda aholini o'rtacha soni.

Tabiiy o'sishning umumiy koeffitsienti:

$$U_{tab} = U_{tk} - U_{o'k} =$$

$U_{tk}$  – tug'ilishning umumiy koeffisienti.

$U_{o'k}$  – o'limning umumiy koeffisienti.

Migratsiya – aholining mamlakat hududidagi yoki davlatlararo mexanik harakatidir.

$$\Delta mex = \Delta kel - \Delta ket$$

$\Delta kel$  – ko'chib keluvchilar,  $\Delta ket$  – ko'chib ketuvchilar.

Aholi sonining umumiy o'sishi:

$$\Delta um = \Delta tab - \Delta mex$$

Unda  $\Delta tab$  – tabiiy o'sish;  $\Delta mex$  – migratsion (mexanik) o'sish.

Mexanik o'sish koeffitsienti:

$$K mex = \frac{\Delta mex}{PS} \times 1000$$

Bunda - aholi sonining yillik o'rtacha ko'rsatkichi. P- o'rganilayotgan davr.

Umumiy o'sish koeffitsienti:

$$K um = K tab - K mex$$

Umumiy koeffitsientning afzalliklari quyidagilardan iborat:

-Aholi sonidagi farqlarni (noaniqliklarni) bartaraf etadi (u doimo ming kishiga nisbatan hisoblanadi) va hududdagi aholi sonini turli demografik jarayonlar darajasi bilan qiyoslash imkonini beradi;

-Murakkab demografik hodisa va holatlarni bitta raqam yordamida ifodalaydi va voqelikni umumlashtiruvchi xususiyatga ega;

-Rasmiy statistik nashrlarda umumiy koeffitsientlarni hisoblash uchun ilgari ma'lumotlardan ham foydalaniladi;

-Ommaviy axborot vositalarining foydalanishi va ommaning tushunishi uchun qulay.

**Demografik ma'lumot manbalari: birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar.**

Demografik jarayonlarni o'rganishda juda ko'p ma'lumotlardan foydalaniladi. Ko'pchilik davlatlarda demografik ma'lumotlar statistika tashkilotlari tomonidan to'plab boriladi. Ular aholi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni aks ettirib o'z ichiga ushbu masalalarga oid raqamli jadval va diagrammali ma'lumotlar, ilmiy manbalar, sotsiologik-demografik tadqiqotlar natijalarini oladi. Dunyo miqyosida demografik ma'lumotlarni to'plash BMT boshchiligida tuzilgan dastur asosida o'tkaziladi.

Aholi statistikasi aholini o'rganish, uning sonini aniqlashdan boshlaydi. Vaqti-vaqti bilan o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxati va aholining tabiiy o'zgarishini, tug'ilganlarni, o'lganlarni, nikohdan o'tgan va uning migratsiyasi ya'ni mexanik o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar aholi to'g'risidagi ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Aholining tabiiy o'zgarishini, tug'ilganlarni va o'lganlarni, nikohdan o'tgan hamda ajralishlarni FHDYo organlari hisobga oladi.

Aholining aniq soni, tarkibi va joylanishi to'g'risidagi aniq va to'liq ma'lumotlarni ma'lum bir oraliq davrlarda o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxatlari beradi. Demografik tarkiblar aholining, yosh, jins, professional (kasbiy) va boshqa har xil ijtimoiy qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olib, demografik statistika uchun asosiy manbalar hisoblanadi. Demografik tarkiblarning hisob-kitobi vaqtga bog'liq bo'lib, doimiy ravishda o'zgarib turishi tabiiydir. Shuning uchun har bir davr yoki hududlar aholisi tahlil qilinar ekan. Ularning o'ziga xosligini doimo yodda tutish lozim. Bunday o'ziga xosliklar esa tabiiy sharoit, siyosiy ijtimoiy voqealar, aholining oila va nikohga bo'lgan munosabati va davlatlarning demografik siyosati kabilardir. Demografik tarkiblar ichida avlodlar tushunchasi alohida ajratiladi.

Demografiyadagi asosiy axborot manbalari quyidagilar:

-Har 10 yilda bir marta o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxati;

-Demografik hodisalarning joriy statistik ro'yxati (tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish) ning hisobi va uzluksizligi;

-Aholi joriy kartotekasining uzluksizligi;

-Alohida va maxsus kuzatuvlar;

**Aholini qayd etish tizimi. Aholining joriy hisobi va aholi registrlari.**

Madomiki, aholi ijtimoiy ishlab chiqarishni harakatga keltiruvchi bosh kuch va sub'ekti ekan, aholi haqida to'la va keng qamrovli ma'lumotga ega bo'lmasdan turib, dunyo mamlakatlari va mintaqalarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini samarali amalga oshirib bo'lmaydi. Aholining soni, tarkibi, taqsimlanishi, mehnat resurslari va boshqa ma'lumotlarni asosan aholini ro'yxatga olish asosida ega bo'linadi. Aholining tabiiy va mexanik o'sishini esa, muntazam va aniq hisobga olib borish yo'li bilan aniqlanadi. Binobarin, aholi sonini aniq hisobga olishda aholi ro'yxatini o'tkazish juda katta ahamiyatga ega.

Aholi ro'yxati bu mamlakat yoki uning biror hududida ma'lum vaqtda yashovchi aholi bilan bog'liq ma'lumotlar to'plami bo'lib, unda demografik va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar tahlili va bahosi aks ettiriladi. Aholi ro'yxatida quyidagi masalalar o'rganiladi:

-mamlakat hududidagi aholi soni va joylashuvi, shahar va qishloq aholisi, aholi migratsiyasi;

-aholining milliy tarkibi, ona tili va muloqat tili, fuqaroligi;

-aholining ma'lumoti, qishloq xo'jaligi va sanoat yoki xizmat ko'rsatish tizimlarida bandligi, daromadlari;

-oilalarning kompleks va ijtimoiy tavsifiga ko'ra turi va soni;

-tug'ilish;

-aholining yashash sharoitlari va b.

Aholi statistikasining asosiy manbasi – joriy hisob (dalolatnoma yozuvlari va kelish va ketish talonlari) va tanlama kuzatuvlar hisoblanadi.

Demografik jarayonlarning joriy hisobi – tug'ilganlar, o'lganlar, kelganlar, ketganlar, qayd etilgan nikohlar va ajrimlarning joriy hisobini yuritish hisoblanadi.

Aholi tabiiy harakati va migratsiyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar oylik davriylikda yig'iladi.

Dastlabki ma'lumotlar tizimli ravishda choraklik davriylikda hisoblanadi. Hisoblangan natijalar kuzatiladi va statistik jarayonlarda hisobga olinadi.

Aniqlik va ishonchlilik parametrlari aholi sonini yillik va choraklik davriylikda hisoblashda qo'llaniladi.

**Aholini o'rganishda maxsus va tanlama tadqiqotlar.** Aholini o'rganishda tadqiqot usullarini tanlash va ulardan samarali foydalanish, ta'lim oluvchi ishining samaradorligini oshiradi. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda tadqiqot usullari dialektik usullarning tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim-tarbiya o'qitish jarayonlaridagi metodik usullardan birmuncha farq qiladi. Biroq, mavjud tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, kuzatish, ekspedisiya, anketa so'rovlari asosida suhbat, eksperiment va tajriba usullaridan geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda ham foydalaniladi. Masalan, tadqiqot qilinayotgan obyekt haqidagi axborot va xizmatlarni o'rganib chiqish usuliga har qanday tadqiqotda zaruriyat tug'iladi yoki eksperiment va tajriba usuli bugungi kunda iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Chunki, iqtisodiyotda biror yangilik yoki modelni to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tadbiq etish mumkin emas, ya'ni, agar u tajribada sinalmagan bo'lsa, sohada shunday qaltisliklarni keltirib chiqaradiki, natijada bu qaltisliklar iqtisodiyotning biror tarmog'ini yoki butun iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib keladi.

Shuningdek, «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursning ham xususiy metodologiyasi mavjud bo'lib, bu ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuksalishida muhim vazifa bajaruvchi inson omilidan unumli foydalanishga asoslanadi. «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursning tadqiqot usullari quyidagilar:

- Geografik taqqoslash usuli;
- Tarixiy qiyoslash usuli;
- Iqtisodiy-matematik usul;
- Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul;
- Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli;
- Me'yoriy-balans hisobi usuli;
- Kartografik tadqiqot usuli;
- Sotsiologik so'rovlar o'tkazish usuli;

- Omillarni tahlil qilish usuli;
- Iqtisodiy prognoz usuli.

*Geografik taqqoslash usuliga* ko'ra o'rganilayotgan sohani tahlil etishda hududga asosan e'tibor qaratiladi. Bunda asosan hududning tabiiy shart-sharoiti muhim o'rin tutadi. Masalan, aholi migratsiyasiga boshqa omillar bilan bir qatorda, tabiiy shart-sharoit o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, qurg'oqchilik, hududning cho'llanishi, sho'rlanish kabi jarayonlar qishloq xo'jaligi yoki ishlab chiqarishning biror tarmog'ida ish samaradorligini susayishini keltirib chiqaradi. Natijada, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib borib ishlash zaruriyati kelib chiqadi. Bu kabi vaziyatlarning yuzaga kelishi albatta, joyning geografik shart-sharoitlari bilan bog'liq.

*Tarixiy qiyoslash usuli* deyarli barcha fanning tadqiqot usuli hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan biror sohaning ertasi albatta, uning tarixi bilan bog'liq. Jumladan, «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursni o'rganishda ham tarixiy qiyoslash usuli muhim o'rin tutadi. Masalan, 2011 yilda dunyo aholisi soni 6,6 milliarddan oshgan bo'lsa, agar eramiz boshida aholi soni 175 million kishi bo'lganini e'tiborga olganda, 20 asr davomida aholi 37,1 martaga o'sgan.

*Iqtisodiy-matematik usul.* Tadqiqot natijalarini tahlil etish uchun matematik usulni qo'llash katta imkoniyat yaratadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy matematik usul ikki yoki undan ortiq holatlar o'rtasidagi ishonchli farqlarni qayd qilishi mumkin. Iqtisodiy-matematik usul yordamida har doim ishonchli natijalarga erishib bo'lmaydi. Chunki, o'rganilayotgan sohasining rivojlanishi yoki ko'rsatkichlarning pasayishiga turli obyektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatib turadi.

*Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul.* Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda statistik va ko'p o'lchamli statistik usul yordamida turli-tuman omillar ta'sirida shakllanuvchi holatlarni o'rganish imkonini beradi. Bu usul bugungi kunda iqtisodiy, sotsiologik, demografik, psixologik va hatto pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda yillar yoki biror iqtisodiy rivojlanish bosqichdagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini taqqoslash, yillar davomidagi o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblab topishda foydalanilsa, sotsiologik tadqiqotlarda aholining maishiy shart-sharoitlari holatini tahlil qilish yoki umumiy natijalarga erishishda, demokratik tadqiqotlarda aholining tabiiy o'sishi, mehnat resurslari dinamikasi yoki ularning ma'lum yillardan keyingi holatini prognozlashda, psixologik tadqiqotlarda aholi yoki uning ma'lum qatlamining ruhiy holatini tadbiq etish va uning ijtimoiy omillarini aniqlash kabi korrelyatsion natijalarga erishishda foydalanish mumkin.

*Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli.* Iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda iqtisodiy qiyosiy tahlil usulini chetlab o'tib tadqiqotni amalga oshirish mumkin emas. Chunki, har qanday iqtisodiy va iqtisodiy geografik tadqiqotda o'rganilayotgan hudud boshqa hudud bilan yoki sohaning turli hududlardagi holati tahlil etiladi. Ko'pgina holatda qiyosiy tahlil etish yordamida juda muhim muammolarni va bu muammolarning paydo bo'lish omillarini tadqiq etish imkonini beradi. Umuman, qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli yordamida tabiat, ishlab chiqarish va aholi bilan bog'liq juda dolzarb muammolarni va ularning paydo bo'lish omillarini aniqlash mumkin.

*Me'yoriy-balans hisobi usuli.* Me'yor va nisbat tushunchasi tabiatning eng muhim qonuniyatlaridan biridir. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda me'yor-balans hisobi usuli keng foydalaniladi. Jumladan, aholining tug'ilishi, tabiiy o'sishi, migratsiyasi bilan bog'liq shunday qonuniyatlar borki, bu qonuniyatlarning mohiyatini ochib berishda yoki tadqiq etilayotgan masalaga aniqlik kiritishda me'yoriy-balans hisobi usulidan keng foydalaniladi.

*Kartografik tadqiqot usuli.* Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda kartografik tadqiqot usulidan foydalanish tadqiqot ishining vazifasida ko'zda tutilgan xususiyatlarining uyg'unligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Chunki kartalarda geografik va ijtimoiy iqtisodiy elementlar uyg'unligi bir-birini to'ldirish bilan birga, mamlakat yoki hududning tabiati va uning boyliklarini, iqtisodiyotini, madaniy-ma'rifiy va tarixiy xususiyatlarini o'zida jamlagan bo'ladi. Tadqiqot ishi davomida tadqiqotchi uchun kartalardagi ma'lumotlardan foydalanishda qulaylik yaratadi yoki tadqiqot ishi natijasida tuzilishi lozim bo'lgan kartaning mukammalligini ta'minlash uchun tadqiqotchiga namuna vazifasini o'taydi. Ba'zan tadqiqot vazifasida ko'zda tutilmagan qirralarini yoki xususiyatlarini ham yoritish imkonini beradi va tadqiqot ishining mukammalligini oshiradi.

*Sotsiologik so'rovlar o'tkazish usuli.* Sotsiologik so'rovlar usuli ayniqsa, aholining ijtimoiy demografik holatini o'rganishda ko'p qo'llaniladi. Anketa so'rovlari ma'lum maqsaddan kelib chiqib, keng qamrovli tuzilganligi tadqiqotni samarali o'tkazishda muhim ahamiyatga ega. Dastlabki umumiy savollar (yashash joyi, tug'ilgan yili, millati, jinsi, ma'lumoti, mutaxassisligi, mutaxassislik bo'yicha ishlayotgan yoki ishlamayotganligi, sababi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli, farzandlar soni, bir hovlida necha kishi yashashi, oilaning o'rtacha yillik daromadi kabi savollar) har bir anketa so'rovlarida berilishi kerak. Keyingi beriladigan savollar tadqiqot mavzusiga bevosita tegishli bo'lishi lozim. Masalan, aholining ichki va tashqi migratsiyasini o'rganish uchun quyidagi savollarning bo'lishi maqsadga muvofiq:

1. Siz yashash joyingizni o'zgartirishni xoxlaysizmi?
2. Nima sababdan yashash joyingizni o'zgartirmoqchisiz?
3. Agar boshqa joyga ko'chishni xoxlasangiz, qaerga ko'chgan bo'lardingiz?
4. Agar boshqa davlatga ko'chishni xoxlasangiz sababini ko'rsating.
5. O'zbekistonning boshqa joyiga ko'chishni xohlasangiz sababini ko'rsating.
6. Hozirgi kunda oila a'zolaringiz orasida O'zbekistonning boshqa shaharlarida o'qiyotgan, ishlayotgan, yashayotganlar bormi?
7. Hozirgi kunda oila a'zolaringiz orasida chet mamlakatlarda o'qiyotgan, ishlayotgan, yashayotganlar bormi?

*Omillarni tahlil qilish usuli.* Geografik tadqiqotlarda muammoning kelib chiqishi yoki uni tartiblash omillarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tadqiqot maqsadi va doirasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

1. Tabiiy omillar;
2. Iqtisodiy omillar;
3. Demografik omillar;
4. Etnik omillar;
5. Ijtimoiy-psixologik omillar va boshqalar.

Omillarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: 1) sub'ektiv omillar, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yoki inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan omillar. Yuqoridagi demografik, ijtimoiy-psixologik, etnik omillar shular jumlasidandir. 2) obyektiv omillar, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan omillar. Masalan, qurg'oqchilik, sho'rlanish, toshqinlar, ko'chkilar, ob-havodagi keskin o'zgarishlar kabilar tabiiy omillar hisoblanib, ishlab-chiqarishning biror mavsumda izdan chiqishiga yoki butunlay inqiroziga olib kelishi mumkin.

*Iqtisodiy prognoz usuli.* Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda iqtisodiy prognoz qo'llanishi ishlab chiqarish hajmining ortishi yoki tabiat resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Ko'pchilik holatlarda prognoz ya'ni kutilgan

natija yuz bermasligi mumkin. Biroq, kutilgan natija yuz bermagan holatlarda shu soha yoki tarmoq tadqiqotchilari uning omillarini izlab topishga intiladi. Prognoz – tadqiqot ishining sterjeni bo'lib, u tadqiqot jarayonini boshqaradi va uni ichki mantiqiga bo'ysundiradi. Ko'pgina mashhur tadqiqotchilar prognozning bo'lmaganidan ko'ra, uning xato bo'lsada, mavjudligini afzal ko'rishadi.

Biror iqtisodiy jarayonni prognoz qilishda, ma'lum vaqt oralig'idagi ko'rsatkichlar yoki voqealar rivoji tahlil etiladi va shu asosda jarayonning kelgusidagi holati prognoz qilinadi. Prognoz qilishda ilmiy asoslangan biror qonuniyat yoki mexanizm mavjud emas. Ba'zan iqtisodchilar statistik prognoz usullariga asoslanib, biror tarmoqning istiqboli to'g'risidagi 5-10 yil keyingi prognozlarni keltiradi. Ko'pchilik holatda bu prognozlar o'zini oqlamadi. Chunki, u yoki bu omillar ta'sirida kutilgan natija kuzatilmaydi. Shu bois, tadqiqot prognozlarini inkor qilib bo'lmaydi. Ya'ni agar amalga oshmasa, tadqiqotchi oldiga «Nima uchun?» degan savolni qayta-qayta qo'yaveradi.

**Internet tizimida demografik ma'lumotlar. Demografik ma'lumotlarni chop etish (xalqaro va milliy darajada).** Respublika darajasidagi demografik ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi, Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish va tahlil etish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Hudud darajasida mazkur ko'rsatkichlar hududiy statistika boshqarmalarining Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi xodimlari tomonidan shakllantiriladi. Qo'mitaning Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish va tahlil etish bo'limida 6 ta xodim, hududiy statistika boshqarmalarning Demografiya va mehnat statistikasi bo'limlarida o'rtacha 5 ta xodim faoliyat yuritadi. Aholi statistikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishda qo'yilgan vazifalarni bajarishda xodimlar soni yetarli hisoblanadi.

Barcha xodimlar sohaga tegishli bilim va ko'nikmalarga ega. Xodimlar malakasini oshirishda muntazam ravishda Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar Markazi yaqindan yordam beradi.

Bo'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda elektron-hisoblash resurslari yetarli bo'lib, dasturiy ta'minot vaqti-vaqti bilan yangilanib, qo'yilgan va yuzaga keladigan talablarga javob beradi. Har bir ish joyi lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan. elektron-hisoblash resurslari yetarlicha himoya bilan, shuningdek, favqulodda holatlarda statistik axborotlarni qayta tiklash tizimi bilan ta'minlangan. Moddiy-texnik va boshqa resurslar qo'yilgan talablarga javob beradi.

Demografiya statistikasi bo'yicha Davlat statistika ishlari dasturida ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar yetarli hisoblanadi.

**Aholi ro'yxati va uni o'tkazish tamoyillari. Milliy aholi ro'yxati dasturlari.**

Malum hududda (ayrim bir rayon, mamlakat, butun er sharida) yashovchi aholi haqida fikr yuritish, uni birorta fan nuqtai nazardan analiz qilish uchun uning soni, tarkibi, hududiy taqsimlanishi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Bunday ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish yoki har yili uning tabiiy va mexanik o'sishini aniq hisobga olib borish yo'li bilan to'planadi. Ba'zi mamlakatlar, masalan, Xitoyda, Misrda, Eronda, shuningdek Rim imperiyasida eramizdan bir necha asr oldin aholi hisobga olingan. Ammo u paytdagi aholi hisobini hozirgi zamon aholi ro'yxati bilan taqqoslab bo'lmaydi. U davrdagi hisoblar ma'lum bir maqsad, masalan, soliq to'lash lozim bo'lgan kishilar yoki askarlikka layoqatli bo'lgan kishilar sonini aniqlash uchungina zarur bo'lgan. Shunda ham erkaklar hisobga olingan. Bunday ro'yxatlardan to'liq demografik ma'lumotlar olib bo'lmaydi, albatta.

**Aholi ro'yxatlari** – Mamlakat yoki muayyan hududda ma'lum vaqt yoki davrda yashayotgan aholining demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarining jarayoni to'plami. Ba'zan aholi ro'yxati tushunchasiga, shuningdek ushbu ma'lumotlarni yig'ish, ishlash va nashr etishni ham qo'shadilar. Aholi ro'yxatlari ilmiy talablarga hamda amaliyot ehtiyojlariga javob berish, aholi soni, tarkibi va joylashishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish maqsadida o'tkaziladi. Aholi ro'yxatlari o'tkazilganda uyma-uy yurib, har bir yashovchi haqida ma'lumot yig'iladi.

Aholi ro'yxatlarini o'tkazish bo'yicha bir qancha ilmiy tamoyillar mavjud. Ularning ichida jami voqea va hodisalarni qamrab olish tamoyili eng muhimi hisoblanib, ro'yxat o'tkazilayotganda muayyan joydagi jami aholi qamrab olinishi shart. Faqat shundagina aholi ro'yxatlari o'tkazilayotgan hududdagi demografik jarayonlar to'g'risida to'laqonli ma'lumot olish mumkin. Aholi ro'yxatiga demografiya belgilari (jinsi, yoshi, oilaviy holati), iqtisodiy belgilari (mashg'uloti, iqtisodiy faoliyat sohasi yoki turi), ma'lumoti (savodliligi, maktabga borishi), etnik alomatlarini (millati, tili, ba'zan dini) va hokazo ma'lumotlar olinadi. Ayrim aholi guruxlari uchun nikohga kirgan oy-kuni, tug'ilgan bolalari soni ham olinadi. Aholi ro'yxatida ko'pincha oila (uy sohibaligi), kim oila boshlig'i ekanligi hisobga olinadi. Ushbu ma'lumotlar vaqt va hudud doirasida taqqoslashga yarokli bo'lishligi uchun, jami aholiga bir xil mazmundagi savollar takdim qilinishi kerak, ya'ni mamlakat miqyosida aholi ro'yxatlari yagona dastur asosida o'tkazilishi shart. Bunda BMT tomonidan berilgan tavsiyalarga tayaniladi. Aholiga tegishli ma'lumotlar aniq bo'lishligi uchun ularni har bir kishidan shaxsan olinadi. Ro'yxat odamlarning o'z joyida muqim yashab turgan davrida, ya'ni asosan qishda qisqa muddatda, bir necha kun yoki hafta mobaynida o'tkaziladi, lekin barcha ma'lumotlar kritik (jiddiy) lahzasi (odatda ro'yxatga olishning birinchi kuni) da olinadi – shungacha o'lganlar va tug'ilganlar ko'rsatilmaydi. Javoblar ro'yxat varakalariga yagona nusxada yoziladi.

15-17-asrlarda Rossiyada, uning uezdlari va shaharlari haqida "Pissevie knigi" deb nomlangan iqtisodiy statistik daftarlar to'ldirilgan bo'lib, unga aholiga ta'luqli ma'lumotlar bo'lar edi. Ammo bu daftarlarda soliq to'lashi kerak bo'lgan erkaklarga hisobga olib borilar edi. Soliq to'lashdan ozod qilingan zodagonlar, ruhoniylar kabi ayrim tabaqa vakillari bu daftarlarga kiritilmasdi. Keyinroq, 18-19-asrlarda Rossiyada o'tkazilgan davlat reviziyalari (taftishlari) paytida ham aholi haqida ma'lumotlar yig'ilgan. Rossiyada hammasi bo'lib 10 marta ana shunday reviziya o'tkazilgan edi. Ammo bu tadbirlarni ham haqiqiy aholi ro'yxatlari deb bo'lmas edi.

1790 yilda AQShda o'tkazilgan aholi ro'yxatini aholi haqida to'liq demografik ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazila boshlagan birinchi zamonaviy aholi ro'yxati desa bo'ladi. 18 asr oxiri va 19 asr boshlarida Evropaning ko'pgina mamlakatlarida (masalan, 1801 yilda Angliya, Fransiya, Daniyada, 1815 yilda Norvegiyada, 1818 yilda Avstriyada, 1824 yilda esa, Gollandiyada va boshqa davlatlarda) aholi ro'yxati o'tkazilgan. Endilikda Evropaning barcha mamlakatlarida aholi ro'yxati muntazam ravishda o'tkazilib turiladi. Shimoliy va Markaziy Amerikaning barcha mamlakatlarida ham, Janubiy Amerikaning ko'plab mamlakatlarida ham aholi ro'yxati o'tkazilib turiladi. Osiyoda Yaponiya, Turkiya, Tailand, Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziyada muntazam ravishda aholi ro'yxati o'tkazilib turiladi. Xitoyni dastlabki butun hududini qamrab olgan to'la aholi ro'yxati 1953 yilda o'tkazilgan. Sobiq ittifoq hududida birinchi rasmiy va to'laroq aholi ro'yxati 19-asrning oxirida (1897 yil) o'tkazilgan. Keyinchalik, 1920, 1926, 1939, 1959, 1970.....oxirgisi 1989 yil o'tkazilgan. 1897 yilda Rossiya hududida aholi ro'yxati o'tkazilgan paytda hozirgi O'zbekiston hududining faqat bir qismi qamrab olingan edi.



Bunda Buxoro va Xiva xonliklari aholisi hisobga olinmagan edi. 1920 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ham O'zbekiston aholisi haqida to'la ma'lumotlar bera olmaydi.

Aholi ro'yxatlari paytida mamlakat, uning ayrim qismlari har bir aholi manzilgohi aholisi to'g'risida eng aniq va mufassal ma'lumotlar to'planadi. Ayrim ma'lumotlar (masalan, aholining milliy tarkibi, ona tili va hokazo) faqat aholi ro'yxatlari paytidagina to'planadi.

Respublikamiz xududida aholini o'rganishga qadimdan asos solingan. Chunki, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Maxmud Qoshqariy, Alisher navoiy kabi allomalarimiz asarlarida aholi masalalariga e'tibor berilgan. 1926 yilda respublikada aholi ro'yxati o'tkazilishi aholini chuqurroq o'rganishga dastlabki ilmiy qadam bo'ldi.

**Aholi ro'yxati o'tkazish tarixi: jahonda va bizning mamlakatimizda.** Aholi ro'yxati aholi soni va tarkibi haqidagi ma'lumotlarni ma'lum bir sanaga mo'ljallab berishi lozim. Shartni bajarish uchun ro'yxat o'tkazish bo'yicha sana va hatto vaqti aniq ko'rsatilishi kerak. Mazkur vaqt ro'yxatning kritik lahzasi deyiladi. Qadimdan aholini hisobga olishning xilma-xil usullari mavjud bo'lgan. Yunoniston, Bobil (Mesopotamiya), Misr, Rim, Xitoy va Yaponiyada aholi hisobga olinganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Ular asosan fiskal (soliq olish) va harbiy maqsadlarni ko'zlagan holda o'tkazilib, odatda faqat erkaklarni, ya'ni harbiy harakatlarda ishtirok etish hamda soliq to'lash imkoniyati bor shaxslarni qamrab olgan. Qadimgi Rimda o'tkazilgan hamda podsho Serviy Tulliy (miloddan avvalgi 6-asr) nomi bilan bog'liq bo'lgan fuqarolar hisobi (senzi) ma'lum. Mil. av. 510 yildan 30 yilgacha bo'lgan davrda senzlar har 5 yilda o'tkazilib turgan. Jami A. soni va tarkibi haqidagi ro'yxat birinchi marta 1790-yilda AQSh da o'tkazilgan. 1801-yilda Buyuk Britaniya, Fransiya, Daniya va Norvegiyada o'tkazilgan.

19-asrning o'rtalariga kelib Yevropa mamlakatlarida maxsus statistik tashkilotlar barpo qilinganligi Aholi ro'yxatlari ni sifatli o'tkazishning muhim omili bo'ldi. Dunyo mamlakatlarida 1870 –79 yillarda 48 ta, 1880 – 89 yillarda 54 ta, 1890–99 yillarda 57 ta, 20-asrning dastlabki o'n yilligida 74 ta Aholi ro'yxati o'tkazildi. Aholi ro'yxati 20-asrning boshida yer yuzi jami aholisining 64 % ni qamrab oldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Aholi ro'yxatlari o'tkazish yana ham keng tus oldi. Aholi ro'yxatlari 1945–54 yillarda 168 mamlakatda, 1969 –74 yillarda 179 mamlakatda o'tkazildi. Hozirgi vaqtda aholi ro'yxatlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida o'tkazilmoqsa.

Iqtisodiy jihatdan qoloq hamda Aholi ro'yxatlari ni o'tkazish imkoniyatlariga ega bo'lmagan mamlakatlar istisno hisoblanadi. Sobiq Ittifoqsa 1920, 1923, 1926, 1937, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989-yillarda aholi ro'yxatlari o'tkazilgan .

Dunyodagi barcha davlatlar qatori O'zbekistonda ham aholini ro'yxatga olish o'z tarixiga ega. Dastlabki aholi ro'yhati VIII asrda Sug'diana davlati davrida o'tkazilgan. Mukammal aholi ro'yxati esa 1897, 1926, 1939, 1959, 1979, 1989 yillarda o'tkazilgan.

Dunyo mamlakatlari bo'yicha o'tkazilgan aholi ro'yxatlari ma'lumoti Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) demografik bo'lmida to'planadi va tahlil etilib, yillik demografik to'plam nashr qilinadi hamda tarqatiladi. Ammo, bu to'plamdagi materiallarning ayrim qismi taxminiy hisoblarga asoslangandir. Chunki, shu paytgacha butun yer sharida bir vaqtning o'zida aholi ro'yxati o'tkazilgan emas, bu ishni amalga oshirish ancha murakkab. Turli mamlakatlarda aholi ro'yxatlari turli davrlarda, har xil dasturlar asosida o'tkaziladi. Bu omillar dunyo aholisini aniq hisoblash va uni tahlil qilish ishini ancha qiyinlashtiradi.

Keyingi yillarda ijtimoiy ishlab chiqarishni aholining fikr va mulohazalari asosida tashkil etish hamda demografik muammolarni aniqlash maqsadida sotsiologik markazlar (ijtimoiy fikrlar markazi) tashkil etilmoqda. Bunday markazlar dunyoning deyarli barcha

iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida birin-ketin tashkil etilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida "Ijtimoiy fikrlar Markazi" va uning viloyatlaridagi bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi Aholishunoslik laboratoriyasi aholi muammolarini o'rganuvchi asosiy ilmiy markaz bo'lib, u sotsiologik uslubda tadqiqot o'tkazish bilan ham faoliyat ko'rsatadi.

Demografik jarayonlarni o'rganishda aholiga doir nashr etilgan raqamli ma'lumotlar, ilmiy manbalar, maxsus tadqiqot natijalaridan, ya'ni demografik ma'lumotlardan foydalaniladi. Demografik ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi tavsifga ega.

Birlamchi ma'lumotlar — demografik jarayonlar haqida to'plangan dastlabki statistik ma'lumotlar, jadvallar va maxsus ko'rsatkichlar. Ikkilamchi ma'lumotlar — bu birlamchi ma'lumotlar asosida olib borilgan ilmiy tahlil va hisob-kitoblardir.

Aholi haqidagi axborot tizimi barcha aholini qamrab oluvchi ikkita asosiy manbadan iborat bo'lib, bular aholi ro'yxatlari va tabiiy harakatning joriy qayd etilishini, shuningdek, tanlama tadqiqot, aholi registrlari kabi qo'shimcha manbalarni o'z ichiga oladi. Aholi ro'yxatlari va aholini joriy qayd etishdan olinadigan ma'lumotlarsiz demografik koeffitsientlarni hisoblab bo'lmaydi. Aytish joizki, bu koeffitsientning sur'ati joriy qayd etish bo'lsa, maxraji aholi ro'yxati yoki uning asosida olingan hisob-kitoblar bo'ladi.

Aholi ro'yxati — aholi haqidagi muhim axborot manbalaridan biri bo'lib, aholi soni va uning harakati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir. BMT ta'rifiga ko'ra, aholi ro'yxati — bu ma'lum vaqtda mamlakatda yoki uning cheklangan bir qismida yashovchi jami aholi haqidagi demografik, Iqtisodiy va Ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, tahlil qilish va nashr etish jarayonidir.

Aholini dastlabki ro'yxatga olish qadimgi Gretsiya, Vavilon, Mesopotamiya, Rim, Xitoy, Yaponiya va Misrda o'tkazilgan. Lekin, bu aholi ro'yxatlarining maqsadi aholidan soliq yig'ish, ya'ni boj olish hamda harbiy maqsad uchun aholi sonini aniqlash bo'lgan. Shuning uchun ham bu aholi ro'yxatlarida faqat erkaklar ro'yxatga olingan. Chunki, u paytlarda erkaklarning iqtisodiy o'rni yuqori bolgan, soliq to'lashda faqat erkaklar, ya'ni oila boshliqlari ishtirok etgan. Eng qadimgi aholi ro'yxati eramizdan oldingi VI asrda (510-yilda) Rimda Imperator Servi Tull davrida o'tkazilgan. Mazkur aholi ro'yxatida oila boshliqlari o'zi, oila a'zolari va mol-mulklari haqida ma'lumot bergan.

Aholi ro'yxati nafaqat aholi soni va uning demografik jihatlari (aholining yosh-jinsiy tarkibi, oilalar tarkibi), balki uning ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, ya'ni aholining ma'lumotlilik darajasi, ish bilan bandligi, yashash uchun mablag' topish manbalariga doir ma'lumotlarni ham beradi. Aholi ro'yxati dasturiga hozirgi zamonda davlat boshqaruvi uchun muhim bolgan savollarni ham kiritish mumkin. Masalan, ish bilan bandlik va ishsizlik, aholining turmush sharoitlari, nogironlik va boshqalar. Aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ro'yxatga olish orasidagi davrda aholida yuz bergan o'zgarishlar haqidagi axborotga ega bo'lish hamda shu asosda hududlar bo'yicha aholi soni va tarkibiga baho berish;

- istiqboldagi hisob-kitoblar uchun zamin tayyorlash;

- mamlakat aholisining lahzali holatiga ega bo'lish. Aholi ro'yxati natijalaridan nafaqat aholi soni va tarkibining istiqboldagi baholari va prognozlarini tuzishda, balki ro'yxatga olish davrlari o'rtasidagi aholi soniga doir hisob-kitoblarni amalga oshirishda ham foydalaniladi.

Aholini ro'yxatga olish davrida barcha ma'lumotlar ma'lum vaqt, ya'ni ro'yxatga olishning aniq vaqti uchun jamlanadi. Bu aniq bir kun, soat bo'lib, barcha jamlangan axborotni taqqoslash uchun shu vaqtga nisbatan olinadi. Shu vaqtga qadar o'lganlar va undan keyin tug'ilganlar ro'yxatda qayd etilmaydi, ro'yxat varaqasiga kiritilmaydi hamda aholi ro'yxatiga qo'shilmaydi. Shu sababdan ko'pchilik hollarda aholi ro'yxatini bir zumda tayyor bo'ladigan fotosurat bilan taqqoslaydilar. Odatda, aholini ro'yxatdan o'tkazish uchun aholi nisbatan kam harakatlanadigan mavsum tanlanadi, ya'ni mehnat ta'tili, o'quvchilarning ta'tili, bayram kunlaridan tashqari vaqt olinadi.

Ro'yxatga olish sanasi — bu aholi ro'yxatining aniq vaqtdan boshlangan kundir. Aholini ro'yxatga olish muddatlari — bu aholi orasida yurib, so'rovlar o'tkaziladigan hamda varaqalar to'ldiriladigan davr mobaynidir.

Aholi ro'yxatlarini o'tkazish tamoyillari haqidagi tasavvurlar asta-sekin vujudga kelgan. Aholini ro'yxatdan o'tkazishning ilmiy asoslari birinchi (1855-y., Bryussel) va ikkinchi (1972-y., Sankt-Peterburg) Xalqaro statistik kongresslar tavsiyalarida qayd etilgan. 1846-yilda Bryussel shahrida taniqli belgiyalik ohm A.Ketle rahbarligida o'tkazilgan aholi ro'yxati zamonaviy turdagi dastlabki ro'yxat hisoblanadi. Mazkur ro'yxat o'tkazilishida ilk bor kritik vaqt tamoyili qo'llanilgan. O'sha davrda A.Ketle «ro'yxatda qayd etiladigan aholi toifasi» tushunchasini birinchi marta ilmiy iste'molga kiritgan.

Ma'lumki, ro'yxatga olish jarayonida to'rtta aholi toifasi ajratiladi:

- mavjud aholi — ro'yxatga ohsh vaqtida ma'lum hududda bo'lgan jami aholi, shu jumladan, vaqtinchalik yashab turgan aholi;

- doimiy aholi — ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezoni sifatida olti oyga teng davr olinadi. Doimiy aholiga quyidagilar kiradi: muntazam tarzda shu hududda yashovchilar, ular orasida 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatga ketganlar, o'qish yoki ishlash uchun kelib, 6 oy va undan ko'p muddat davomida mazkur hududda yashovchilar;

- vaqtinchalik yashovchilar — bu mazkur hududda doimiy yashab qolishni istamagan, lekin bu yerda ro'yxatga ohsh davrida bo'lgan aholi. Vaqtinchalik ketganlar — bu mazkur hududda doimiy yashaydigan, biroq ro'yxatga olish davrida u yerda bo'lmaganlar;

- yuridik (qayd etilgan) aholi. Unga muayyan hududda shu mamlakat qonunlariga ko'ra qayd etilgan aholi kiradi. Masalan, turarjoy bo'yicha ro'yxatda turuvchi aholi. Yuridik aholi soni doimiy yoki mavjud aholi soni bilan mos kelmaydi, shuning uchun zamonaviy aholi ro'yxatlarida ushbu toifa juda kam hollarda qo'llaniladi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazishda aholi toifalaridan biri — yo mavjud, yo doimiy yoki ikkala toifasi ham bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin. Hududning mavjud va doimiy aholi soni bir-biridan keskin farq qilishi mumkin, ammo jamoat transport! tarmog'i, ulgurji savdo va h.k. aynan mavjud aholiga mo'ljallanishi lozim. Bu, ayniqsa, mavsumiy omil bo'lib, muhim ahamiyat kasb etuvchi hududlar uchun dolzarbdir. 1926-va 1939-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida mavjud aholi qayd etihb, keyingi aholi ro'yxatlarida ham mavjud, ham doimiy aholi ro'yxatga kiritilgan. Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida faqat doimiy aholi ro'yxatga olinadi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazishda aniq vaqt va aholi toifalari bilan birga quyidagi asosiy tamoyillar ham e'tiborga olinadi:

- *umumiylik tamoyili*. Imkon qadar muayyan mamlakat hududida mavjud bo'lgan barcha fuqarolar, shuningdek, shu davlatga tegishli, biroq ayni vaqtda chet elda bo'lgan fuqarolarga oid ma'lumotlar yig'iladi. Aftidan, ushbu tamoyilga amal qilish murakkabdir,

chunki aholi bir joyda turmaydi, odamlar oqimi muntazam ravishda mamlakat hududi bo'ylab harakatlanadi. Shunga qaramay, aholini ro'yxatdan o'tkazish uslubiyoti imkon qadar maksimal darajada ushbu tamoyilga amal qilishga yo'naltirilgan;

- *shaxsiylik tamoyili*. Aholi haqidagi ma'lumotlar ism-sharifga ko'ra, ya'ni har bir shaxsga doir jamlanadi;

- *muntazamlilik tamoyili*. BMT tavsiyalariga ko'ra, aholi ro'yxati muntazam ravishda, 10 yilda bir martadan kam bo'lmagan muddatda o'tkazilishi lozim; • *o'z-o'zidan aniqlash tamoyili*. Odatda, aholi haqidagi ma'lumotlar hujjatlardan emas, balki odamlarning so'zlaridan olinadi. Farzandlarga tegishli axborotni ota-ona yoki vasiylar beradi. Ro'yxatga olinayotgan paytda aholining ayrim jihatlari, ya'ni ba'zi savollarga javobni faqatgina so'ralayotgan shaxs so'zlaridan olish mumkin (masalan, etnik mansubligi, ona tili va h.k.). Garchi aholi ro'yxati o'tkazilganda ma'lumotlar har bir fuqaro haqida to'plansa ham, ro'yxatning qayd etish biriigi sifatida oila yoki uy xo'jaligi olinadi. Ushbu tamoyil aholining oilaviy tarkibi yoki uy xo'jaligi bo'yicha taqsimlanishiga oid axborotga ega bo'lish imkonini beradi. Statistika oila — bu qarindoshlik (ota-ona — farzandlar, aka-uka, opa-singillar) yoki bir xususiyat (er-xotin, kuyov-qaynona/qaynota, kelin-qaynona/qaynota) ga ko'ra birlashgan, birgahda yashovchi yoki umumiy budjetga ega bo'lgan shaxslar guruhidir. Oiladan farqli ravishda, uy xo'jaligiga birlashgan insonlar qarindoshlik yoki bir xususiyat bilan bog'lanmasliklari mumkin (masalan, yotoqxonada bir xonada yashab, umumiy xo'jalik yurituvchi), uning tarkibida xizmatkorlar bo'lishi ham kuzatiladi. Oiladan farqli o'laroq, uy xo'jaligi bir odamdan iborat bo'lishi mumkin. Oilaviy uy xo'jahgi va jamoaviy uy xo'jaliklari bir-biridan farqlanadi (masalan, qariyalar uyida yashovchilar, harbiy qism «aholisi»). Ayrim mamlakatlarda tanlama ro'yxatga olish savollari ham qo'llanilib, unda savollar barcha aholiga emas, balki uning ma'lum qismiga beriladi. Tanlama ro'yxatning o'tkazilishi unga sarflanadigan xarajatlarni qisqartiradi, chunki savollar butun aholiga berilmaydi, biroq o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolar batafsil tadqiq etiladi.

**Aholi registrlari** — bu muayyan hududda muntazam yashovchi har bir shaxs yoki uy xo'jaligi haqida axborotga ega bo'lgan kartotekadir. Aholi registrida har bir insonning asosiy ijtimoiy demografik tavsifiari to'g'risida ma'lumotlar jamlanadi, ya'ni jinsi, yoshi, nikoh holati, tug'ilgan va yashash joyi. Shuningdek, registrga ma'lumoti, ish joyi, farzandlari va hokozolar to'g'risidagi axborot ham kiritilishi mumkin. Registr asosini tashkil etuvchi asosiy tamoyil — bu undagi axborotni muntazam ravishda va o'z vaqtida yangilab turishdir.

XIX asrga kelib aholini o'rganish juda kengaydi va statistika fan sifatida tariqqiy etdi. Bir qator Yevropa mamlakatlarida statistik tashkilotlar tuzildi. Aholini ro'yxatga olish ilmiy dasturlar asosida olib borildi. 1870-1879-yillar oralig'ida dunyo bo'yicha 48 ta aholi ro'yxati o'tkazilgan. 1890-yillarda esa 57 ta aholi ro'yxati o'tkazildi. XIX asr oxirida dunyo aholisining 21 foizi ro'yxatga olingan bo'lsa, XX asr boshida 54 foiz aholi ro'yxatga olindi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin aholini ro'yxatga olish yana ham rivojlandi. 1945-1954-yillarda 151 ta davlatlarda, 1965-1974-yillarda esa 179 ta davlatlarda aholi ro'yxati o'tkazildi. Hozirgi paytda dunyodagi deyarli barcha davlatlarda aholi ro'yxati o'tkazilib kelinmoqda. Faqat ba'zi bir rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra, aholi ro'yxati o'tkazilmagan. Ma'lumki, aholi ro'yxatini o'tkazish davlatdan katta iqtisodiy mablag' talab etadi.

Aholi ro'yxatlari ilmiy asoslangan dasturlar orqali juda keng holda, har 5-10 yillarda o'tkazilib turiladi. Oxirgi yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari shu

qadar keng doirada to'planganiki, ular asosida aholini ijtimoiy-demografik guruhlarini faqat miqdorinigina emas, balki ularni sifatiiy ko'rsatkichlarini ham (ma'lumoti, oilaviy holati, ijtimoiy ahvoli va boshka xususiyatlari) o'rganish mumkin. Olingan ma'lumotlar EVMLar yordamida har bir yo'nalishlar bo'yicha alohida o'rganilib, statistik yilnomalar tayyorlab boriladi.

O'zbekistonda demografik jarayonlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. O'zbekistonda demografik jarayonlarni o'rganishda XIX asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan statistika ko'mitasi, hozirda O'zbekiston Davlat statistika qo'mitachi faoliyati orqali to'planadi. Statistika qo'mitasi mamlakat aholisining soni, tabiiy o'sishi, nikoh va ajralish, aholi migratsiyasi, aholi salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy holatiga oid statistik yilnomalar tayyorlab, ularni muntazam chop etib boradi. Ana shu yilnomalar O'zbekistonning demografik vaziyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarni va muammolarni aniqlashda hamda istiqbolni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda demografik jarayonlarni o'rganishda respublika hududida o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Respublikada dastlabki aholi ro'yxati 1897-yilda o'tkazilgan bo'lib, bu aholi ro'yxati hozirgi O'zbekiston chegarasidagi barcha hududlarni qamrab olmagan. Biroq, ushbu ro'yxat ma'lumotlari O'zbekistonda XIX asr oxirida istiqomat etgan oilalar sonini, aholi sonini, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida tassavvur xosil qilishga yordam beradi. O'zbekistonda keyinchalik 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillarda aholi ro'yxatlari o'tkazildi. Bu aholi ro'yxatlarida O'zbekistonning demografik tarixini o'rganishga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Demografik jarayonlarni o'rganishda sotsial-demografik tadqiqotlar o'tkazish ham katta ahamiyat kasb etadi. Demografik jarayonlarni sotsiologik tadqiqotlar yordamida o'rganish sotsial-demografik tadqiqotlar deyiladi. Bunday tadqiqotlar o'tkazish usuli bilan, asosan, demografik jarayonlarni avlodlar bo'yicha xususiyatlari, omillari va muammolarini atroflicha o'rganish mumkin. Sotsial-demografik tadqiqotlar, ayniqsa muntazam aholi ro'yxati o'tkazilmagan hududlar demografik xolatini o'rganishda katta yordam beradi. Buning uchun demografik jarayonlarni o'rganishga oid muttaxassislar tomonidan maxsus so'rovnomalar tuzilib, o'rganilayotgan hudud aholisiga yoki ijtimoiy guruhlariga tarqatiladi. Shuningdek, aholi o'rtasida muttaxassislar so'rovnomaga asosan, suhbatlar olib boradilar va kerakli ma'lumotlarni to'playdilar. Demografik jarayonlarni sotsial-demografik tadqiqotlar o'tkazish yordamida o'rganish O'zbekistonda asosan, 1928-1930-yillardan boshlangan va 1960-1970-yillardan esa u takomillashib, rivojlanib bordi.

*Dastlabki aholi registri* 1749-yili Shvetsiyada paydo bo'lgan. Hozirgi vaqtga kelib, bir qator Yevropa mamlakatlarida milliy registrlar mavjud (Belgiya, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Niderlandiya, Portugaliya, Ispaniya). Buyuk Britaniya va Fransiya registrlarida aniq yashash joyi qayd etilmagan. Bir qator mamlakatlarda faqatgina hududiy registrlar tuzilgan. Sobiq Ittifoqdagi ba'zi hududlarda registr yaratishga urinib ko'rilgan bo'lsada, bu tadbirlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan, chunki axborotlar deyarli yangilanmagan.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Demografik ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi to'g'risida axborot beruvchi manbalarni sanab bering.
3. «Aholi ro'yxati» tushunchasiga ta'rif bering.

4. Dastlabki aholi ro'yxati qachon va qayerda o'tkazilgan?
5. Aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalarini aytib bering.
6. Aholini ro'yxatga olishda qanday usullardan foydalaniladi?
7. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarni joriy qayd etish qaysi organ orqali amalga oshiriladi?
8. Tug'ilish va o'lim jarayonlarini qayd etish tartibini tushuntirib bering.
9. Tanlama tadqiqotlar deganda nimani tushunasiz?
10. Tanlama tadqiqotlar qanday maqsadlarda o'tkaziladi?
11. «Aholi registri» tushunchasiga ta'rif bering.
12. Aholi registrining qanday turlarini bilasiz?

### **3-Mavzu. Aholi soni dinamikasi va uning tarkibi.**

#### **Reja:**

1. Aholi soni dinamikasi tarixiy rivojlanishi, bugungi aholi soni.
2. Aholining mutloq ko'payish, o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish, ko'payish sur'atlari.
3. Doimiy aholi soni, mavjud aholi soni, vaqtincha aholi soni mezonlari.
4. Aholining yosh va jinsiy tarkiblari va demografik jarayonlar.
5. Aholi jins tarkibi shakllanishidagi omillar. Aholi o'limidagi jinslar nisbati.
6. Aholining yosh-jinsiy tarkibi modelining demografik piramidada aks etishi.
7. Yosh klassifikatsiyasi. Aholining oilaviy tarkibi.

**Tayanch iboralar.** *Aholi soni dinamikasi, Aholi soni, Aholining mutloq ko'payish, Aholining o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish, ko'payish sur'atlari, Doimiy aholi soni, mavjud aholi soni, vaqtincha aholi soni, Aholi jins tarkibi, Aholi o'limi, Aholining yosh-jinsiy tarkibi demografik piramidasi, Yosh klassifikatsiyasi.*

**Aholi soni dinamikasi tarixiy rivojlanishi, bugungi aholi soni.** Aholi soni muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiy soni hisoblanib, u eng keng tarqalgan umumiy miqdoriy demografik tavsiflardan biridir. Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida muntazam o'zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o'zgaradi. Shuning uchun demografik tahlilda aholi soni vaqt funktsiyasi sifatida qaraladi. U ma'lum bir vaqt aholini ro'yxatdan o'tkazish vaqti uchun, yil boshi, yil oxiri yoki yil o'rtasidagi holati bo'yicha o'lchanadi va baholanadi. Ushbu vaqtning belgilanishi, ayniqqa, yirik mamlakatlar yoki hududlar uchun juda zaif, bunda yil boshidagi va yil o'rtasidagi aholi sonidagi farq 100 mingni tashkil qilsa, yirik mamlakatlar uchun esa millionlarni tashkil qiladi.

Hozirgi kunda aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazish, ro'yxatdan o'tkazishlar o'rtasidagi davr uchun esa tug'ilish, o'lim, migratsiyani hisoblash asosida olinadi. Ayrim mamlakatlar va hududlar, jumladan, o'tgan davrlar uchun aholi soni turli manbalar: arxiv materiallari, tarixiy demografik va paleodemografik manbalar asosida aniqlanadi. Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligi aholini hisobga olishning to'liqligiga bog'liq, shuning uchun awallari ularning aniqligi past bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda esa doimiy ravishda aholini ro'yxatdan o'tkazish va aholini joriy hisobga olinish yo'lga qo'yilganligi sababli ozmi-ko'pmi aniqroqdir. Ro'yxatdan o'tkazish ma'lum otlarini yig'ish va qayta ishlashning qiyinligi ma'lum bir vaqtda olingan aholi sonining faktik miqdori, odatda, ma'lum bir sustkashlik bilan aniqlanishiga

olib keladi. Shuning uchun aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'pincha oxirgi yillar uchun aholi soni o'sish sur'atlari tendentsiyalarini ekstrapolyatsiyasiga asoslangan qisqa muddatli prognoz qilish yo'li orqali olinadigan baholar sifatida namoyon bo'ladi.

Aholi soni dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarning tahlili uchun tarkibiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi, masalan, ayrim hududlarda yashayotgan aholi soni va ulushini solishtirish. Bunda guruhlash va indekslar qo'llaniladi: o'sish va o'sish sur'atlari, teng bo'lmagan vaqt orahqlari uchun esa o'sish va o'sish sur'atining o'rtacha yillik sur'atlari olinadi.

U yoki bu vaqt uchun aholi sonining o'zgarishi, birinchidan, aholining «tabiiy o'sish sur'ati» deb nomlanuvchi tug'ilganlar va o'lganlar miqdorining farqlari bilan; ikkinchidan, agar so'z mamlakat yoki aholi manzilgohi haqida ketadigan bo'lsa, ularning soni aholi migratsiyasi (keluvchilar va ketuvchilar nisbati) bilan aniqlanadi. Immigratsiya va emigratsiya o'rtasidagi farq aholining «migratsion o'sishi» deb nomlanadi.

Aholi sonini o'rganishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- har bir keyingi davr uchun aholining mutlaq soni, uning awalgi davr miqdoriga to'la bog'liqligi bilan ifodalanadi;

- vaqt ichidagi aholining rivojlanish jarayoni nafaqat aholining miqdoriy o'zgarishiga, balki aholi tarkibining sifatiga ham bog'liq bo'ladi.

Muayyan bir davr uchun aholi sonida ( $S$ ) sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida dinamik qatorlar:  $S_0, S_1 \dots S_n$  dan bilib olish mumkin. Aholi soni dinamikasini o'rganishda, odatda, quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1) Aholi sonining mutlaq o'sish sur'ati:

$$S = S_1 - S_0$$

2) Aholi sonining nisbiy o'sish sur'ati ( $K_{\Delta}$ ) promilleda o'lchanadi. Promille — ko'rilayotgan kattalikning mingdan bir ulushidir.

$$K_{\Delta} = \frac{\Delta S \times 1000}{S},$$
$$K_{\Delta} = \frac{(N - M) \times 1000}{S},$$

bu yerda:  $S$  = aholining o'rtacha yillar soni,  $u$  davr boshi va oxiriga aholi sonining yarim miqdori sifatida hisoblanadi;

$N$  = tug'ilganlar soni;

$M$  = o'lganlar soni.

Ilmiy manbalarda, planetamizda inson ajdodlarining paydo bo'lishi davri haqida turlicha qarashlar mavjud. Ko'pchilik antropolog olimlar fikricha sayyoramizda bundan 5-7 million yil avval insonning dastlabki ajdodlari (avstralopetiklar) Afrika va Osiyoning tropik va ekvatorial zonalarida yashaganlar. Keyinchalik 2-3 million yil ilgari avstralopetiklardan eng qadimgi insonlar - arxatroplar shakllanganlar va ular sharqiy Afrikada istiqomat etganlar. Bundan 600-700 ming yil muqaddam insonning eng qadimgi ajdodi bo'lgan arxantroplar paleontoplarga, pitekantroplarga va neandertallarga aylanganlar va Janubiy-Sharqiy hamda Janubi-g'arbiy Osiyoga tarqalganlar. Nihoyat, bunda taxminan 40-50 ming yil ilgari insonning ongli (*Homo Sapiens*) ajdodi shakllangan. Ongli insonning paydo bo'lishi mezolit davriga to'g'ri keladi. Aholi soni haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi davrga taalluqli bo'lib, bu davrda yer kurrasida bor yo'g'i bir necha yuz ming kishi yashagan, xolos. Aniqroq ma'lumotlar bo'yicha esa eramizdan 7 ming yil oldin yer kurrasida 10 millionga yaqin aholi yashagan. Ular har 1000 yilda taxminan 10-20% dan ko'payib borgan xolos. Aholini bunday sekin ko'payishi aholi o'rtasida o'lim hollarining yuqoriligi bilan izohlanadi. Ushbu davrda

aholi o'rtasida o'limning umumiy koeffitsiyenti 50 promille va undan yuqori bo'lgan. Ayniqsa, bolalar o'limi yuqori bo'lgan. Aholi ko'proq ochlikdan, kasalliklardan va qabilalararo bo'lib turgan to'knashuvlardan ko'proq halok bo'lganlar, aholining o'rtacha umr ko'rishi 20 yildan oshmagan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, har bir davr aholisining ko'payishi va rivojlanishi shu davrning ishlab chiqarish usuli va munosabatlariga, turmush darajasiga, yashash sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lgan. Jamiyat rivojlanishining birinchi bosqichida yer yuzi bo'yicha aholining ko'payishi juda sekin borgan. Aholi sonining ko'payib borishida va joylashuvida qabilalar joylashgan maskanlarning tabiiy sharoitlari, suv resurslari, iqlim asosiy omil hisoblangan. Turli tabiiy ofatlardan ba'zi qabilalar qirilib ketgan. Ayniqsa, sovuq iqlimli, qishi uzoq davom etuvchi hududlarda aholi sovuqdan, ocharchilikdan ko'plab halok bo'lgan. Ana shu bois Yevrosiyoning shimoliy qismida aholi juda siyrak joylashgan.

Amerika va Avstraliyada ham paleolit davrining oxirlarida juda kam aholi istiqomat etgan. Tabiiy sharoiti inson yashashi uchun qulay, suv resurslari mavjud hududlarda, ya'ni, O'rta Yer dengizi atroflarida Shimoliy Afrika, Yevrosiyo materigining janublarida esa aholi zichroq joylashgan.

Ibtidoiy jamoa davrida, aholining yashash sharoiti juda og'ir edi. Insonlar g'orlarda istiqomat etishgan. Tog' toshlardagi tabiiy g'orlar odamlar uchun yakka-yu yagona boshpana vazifasini o'tagan. Eng muhimi qorin to'yg'azish, biron bir joyda tunash bo'lgan. Ular ovchilik va turli xil yovvoyi holdagi mevalar bilan kun ko'rishgan, tabiiy ofatlarga qarshi kurasha olmaganlar. Muhitning tabiiy ta'siriga ongli choralar qo'llay bilmaslik sababli aholi o'rtasida o'lim ham yuqori bo'lgan. Manbalarda yozilishicha, ibtidoiy jamoa davrida aholining o'rtacha umr ko'rishi 20-25 yoshni tashkil etgan, xolos. Ibtidoiy davr odamlari hozirgi davr odamlariga nisbatan 3-3,5 marta kam yashaganlar. Shunday bo'lsa-da, aholi soni sekinlik bilan ko'payib borgan.

Aholining ko'payishining asosiy sababi tug'ilishni yuqori darajada (fiziologik imkoniyat darajasida) bo'lganligidir. Demak, bir tomondan insonning tabiiy ofatlar oldida o'zligi, o'zaro nizolari, uning kamayishiga olib kelsa, tug'ilishning yuqori darajada bo'lganligi aholini sonining ma'lum darajada ko'payib borishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy jamoa davrida Janubiy Osiyo, Yevropaning janubiy qismlarida, Afrika kit'asida aholi nisbatan zich yashagan. Yevrosiyo materigining shimoliy rayonlarida, Avstraliya va Amerika qit'alarida aholi juda siyrak joylashganlar.

Ushbu davrda dunyo aholisi soni juda sekin o'sgan. Taxminan, bundan 15 ming yil ilgari mezolit davrining boshida yer kurrasida bir necha million aholi yashagan xolos. Neolit davrining boshida esa dunyo aholisining soni 10 millionga yetgan. Aholining asosiy qismi Janubiy va Sharqiy Osiyoda, Afrika va Janubiy Yevropada joylashgan. Yevrosiyoning shimoliy qismida aholi deyarli yashamagan. Avstraliya va Amerika hududlarida ham juda kam aholi yashagan. Shimoliy va Janubiy Amerikada 100-200 ming kishi yashaganligi haqida ma'lumotlar bor.<sup>20</sup>

Ibtidoiy jamoa davrda tug'ilish juda yuqori darajada (1000 odamga nisbatan 45-50 ta) bo'lgan tug'ilishni yuqori bo'lishi erta nikohlar va tartibsiz oila - nikoh munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan. Lekin ko'pchilik ayollar o'zlarining reproduktiv davrini to'la yashay olmaganlar. Ularning og'ir turmush sharoiti, tibbiy xizmatlarning deyarli yo'qligi hayotdan juda erta ko'z yumishiga sabab bo'lgan. Ko'pchilik ayollar farzand ko'rish davrida halok bo'lganlar. Ushbu davrda nafaqat ayollar, bolalar, erkaklar o'limi ham

<sup>20</sup> Народонаселение мира. М.: 1974. С. —4.



yuqori bo'lgan. Aholi ochlikdan, antisanitariya holatidan, qabilalararo to'qnashuvlardan, yovvoyi hayvonlar hujumlaridan, tabiiy ofatlardan va turli epidemiyalardan halok bo'lganlar.

Ibtidoiy davr odamlarining o'rtacha yashash muddati 20-25 yilni tashkil etgan, hozirgi davr odamlarining umr ko'rish muddatidan 3-3,5 marta kamroq bo'lgan. Aholi guruh-guruh, qabila bo'lib yashaganlar. Ba'zi qulay tabiiy sharoitda yashagan qabilalarda aholi soni nisbatan tezroq ko'paygan, tabiiy sharoiti noqulay joyda yashagan qabilalarda esa ochlik, kambag'allik tufayli aholi o'limi yuqori bo'lib, aholi soni juda sekin o'sgan.

Insoniyat tarixida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi oziq-ovqatning ko'payishiga, aholi moddiy turmush sharoitini bir muncha yaxshilanishiga olib keldi. Xususiyl mulkning paydo bo'lishi, sinfiy jamiyatga asos soldi. Ibtidoiy jamiyat bag'rida feodalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boshladi. Dunyoda madaniyat markazlari paydo bo'ldi, aholiga tabiiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar aholi o'rtasida o'lim hollarining kamayishiga, o'rtacha umr ko'rish muddatining bir muncha uzayishiga sabab bo'ldi. Natijada dunyo aholisining soni ko'paya boshladi. Qadimgi Misrda fir'avnlarda davrida 7 million, Vavilonda esa 4-5 million aholi yashaganligi ma'lum. Eramizning boshida dunyo aholisi 200-250 millionni tashkil etgan va ularning 50 millioni Rim imperiyasida istiqomat etgan. Aholining yana 40-50 millioni esa Xitoy va Hindiston hududlarida yashaganlar. Shimoliy-g'arbiy Yevropada esa aholi juda kam - 1 million atrofida bo'lganligi qayd etiladi<sup>21</sup>.

O'rta asrlarda ham dunyo axolisining soni ko'payib bordi. Lekin, aholining ko'payish sur'ati nisbatan sekin bo'lgan. Birinchi ming yillikning oxirida dunyo aholisining soni 250-300 millionni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi ming yillikning o'rtalarida bu ko'rsatkich 400-500 millionga yetgan. Jumladan, Osiyoda –250 million, Yevropada – 65-80 million, Amerikada 30-50 million, sobiq Ittifoq -hududida esa 15-20 million aholi istiqomat etgan. Ushbu davrda ba'zi davlatlarda bosqinlar, urushlar, xo'jaliklarning barbod bo'lishi natijasida aholi sonining kamayib ketganligi ham kuzatiladi.

Aholi sonining ko'payib borishida jamiyatda ishlab chiqarishning mukammalashib borishi, jamiyatda sodir bo'lgan mehnat taqsimotlari – ya'ni chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi alohida omil hisoblanadi. Eramizdan 7-8 ming yil oldin Yaqin Sharq hududlarida juda ko'p qabilalar ovchilikdan chorvachilikka, dehqonchilik qilishga o'ta boshladilar. Xo'jalik yuritishdagi yangi sharoit qabilalardagi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshiladi, oziq-ovqat zahiralari yaratildi. Natijada aholining o'lim hollari nisbatan kamaydi. Lekin aholining turli epidemiyalardan, qabilalar orasida bo'lib turuvchi urushlardan o'lim hollari yuqori edi.

Xo'jalik yuritishning yangi formasi sababli kabilalarning bir joydan ikkinchi joyga muntazam ko'chib yurishi birmuncha barham topdi, Qabilalar dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishi natijasida o'troq hayotga o'ta boshladilar. Bu hol esa ayollar ahvolining bir oz yaxshilanib, tug'ilishning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Tug'ilishning ko'tarilishi esa dunyo aholisi sonini ko'payib borishiga olib keldi. Ushbu davrda erta nikohlar va ko'pbolalilik deyarli barcha aholiga xos bo'lgan. Lekin sinfiy jamiyatning paydo bo'lishida tug'ilishga salbiy ta'sir etuvchi ba'zi omillar ham shakllana boshladi. Masalan quldorlik davrida qullar, askarlar aholining takror barpo bo'lishi jarayonida ishtirok etmasdilar. Shuningdek, ba'zi diniy qarashlar; masalan,

---

<sup>21</sup> Yuqorida qayd etilgan manba. –7 6.

buddizm ruhoniylarining nikohsizlik va farzandsizlik holatlarini inson ruhini qutqarishi maqsadida qo'llab quvvatlanardi. Ishlab chiqarish kuchlarining yanada takomillashuvi aholi o'rtasida sinflar va davlat paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyat asta-sekin ibtidoiy tuzumdan quldorlik davriga (sinfy jamiyatga) o'tdi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti rivojlana boshladi. Jamiyat taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar aholining ibtidoiy tuzum davriga nisbatan ancha tez edi. Buning asosiy sababi nikohga kirishi, tug'ilishning cheklanmaganligi edi. Quldorlik tuzumi davrida ham aholi o'rtasida o'lim ancha yuqori bo'lgan, sababi – ko'pgina qishloq va shaharlarda aholining juda zich joylashuvi va gigiena-sanitariya sharoitlarning yo'qligi tufayli yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligidir.

Aholi o'rtasida madaniyatning rivojlanishi, qadimiy markazlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu madaniyat markazlari yer kurrasining sug'oriladigan hududlarida (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va boshqa hududlar) shakllandilar. Dunyo hududlarida umumiy aholi soni eramizdan avvalgi 5 ming yillikda 30 million atrofida bo'lgan. Ana shu davrda yer yuzida aholi joylashuvining hozirgi areallari paydo bo'lgan.

Insonning yashash uchun kurashi borib-borib, jamiyat taraqqiyotida ijobiy (progressiv) o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlana borib, kishilar dastlab chorvachilik, keyinroq esa dehqonchilik bilan shug'ullanishga o'tdilar, ochlikka, kasalliklarga qarshi kurash boshladilar. Endi ular mehnat qilib, moddiy mahsulotlar yaratadilar. Hunarmandchilik, savdo rivojlandi va shaharlar paydo bo'la boshladi. Inson hayotidagi bu ijobiy o'zgarishlar ularning hayot sharoitini yaxshiladi.

Sinfy jamiyatning shakllanishi, dunyo hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi farqlar, aholi takror barpo bo'lish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi hududlarda antisanitariya sharoiti, yoppasiga tarqalgan epidemiyalar va urushlar oqibatida aholi o'rtasida o'lim nihoyatda yuqori bo'lgan. Ba'zi hollarda qishloqlar aholisiz qolganlar. Ushbu davr uchun aholi takror barpo bo'lishida ibtidoiy jamiyatdagidek, umumiy bir xususiyat-tug'ilishning yuqoriligi saqlanib qolgan edi. Ko'p bolalilik nafaqat urf-odatlar, balki davlat siyosati, din, ayniqsa islom va induizm tomonidan ham qo'llab quvvatlanar edi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixidagi dastlabki "Madaniy-texnik revolyutsiya" ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi. Bu hol esa o'z navbatida dunyo aholisi sonining ko'payishiga olib keldi. Quyidagi jadvalda Dunyo aholisi sonining ko'payishi keltirilgan.

### 1-jadval

**Dunyo aholisining ko'payishi (mln.kishi hisobida)**<sup>22</sup>

Sana	Dunyo aholisi	Sana	Dunyo aholisi
Eramizdan oldingi 400 yil	153	1900	1634
Eramizning boshi	252	1910	1755
400	205	1920	1811
800	224	1930	2070
1000	305	1940	2295

<sup>22</sup> БМТ башорати жадвали. Н.В.Алисов., Б.С.Хорев. Экономическая и социальная география мира (М.,2000.г.с.-92): Демографический энциклопедический словарь (М.,1985 г.с.-72) Народонаселение мира 1998г. Фонд ООН в области народонаселения; 2004 World Population Data Sheet

1200	400	1950	2527
1500	440	1960	3060
1600	578	1970	3727
1700	680	1980	4430
1750	728	1993	5510
1800	954	2000	6000
1850	1248	2004	6396
1890	1498	2025	8039

Eramizning boshida yer shari aholisining soni 200-250 mln. kishi atrofida edi. Aholining asosiy qismi Rim imperiyasida, Xitoy va Hindistonda joylashgan.

XI-XV asrlarda dunyo aholisining ma'lum kismi mo'g'ul-tatar, turk urushlari tufayli kirilib ketdilar. Ayniqsa, bu urushlardan Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Yevropa mamlakatlari aholisi katta talofat ko'rdilar. Urushlar nafaqat aholining bevosita kirilib ketishiga, balki xo'jaliklarni, ishlab-chiqarishning izdan chiqishi hisobiga sodir bo'lgan ocharchilik sababli hayotdan bevaqt ko'z yumushlariga olib kelganlar. Agar dastlabki 500 yilda (1000-1500 yillar) yer yuzi aholisi 135 millionga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750 yillarda yoki 250 yilda esa bu ko'rsatkich 288 millionni tashkil qildi, ya'ni aholining o'sishi 2 marta tezlashdi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab axolining o'sishi yanada tezlashdi. XX asrdan yer shari aholisi har yili **1 foizga** ko'paya boshladi.

Aholi soni va tarkibi, uning bajaradigan vazifalari bilan bog'liq holda baxolanadi. Aholi avvalambor o'zidan ko'payadigan, o'zini takror barpo qiladigan-biosotsial organizmdir. Aholi shu bilan birga jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va iste'molchisidir. Ana shu nuqtai nazardan aholi soni tarkibi, o'sish sur'atlari, joylashishiga xos xususiyatlarni taxlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixining katta davri davomida ya'ni neolit davridan milodning XIX asrigacha aholi soni va tarkibi an'anaviy deb ataluvchi tip ta'sirida takror barpo etiladi. Unga juda yuqoridagi har 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar soni 40-45 ni tashkil etadi tug'ulish hamda yuqori darajadagi o'sish (30-35 %) 8 past darajadagi tabiiy o'sishga xos edi. Aholining takror barpo qilinishining ushbu tipi agar iqtisodiyot va unga xos ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita aloqador edi.

Bunda ko'p bolali oilani tashkil qilishga intilish, ayniqsa xo'jalik ishlarida otaga ko'mak beruvchi o'g'illar bolalarning mavjudligiga va sonining ko'p bo'lishiga katta e'tibor qaratiladi ota-ona oilada 3-4 farzandga ega bo'lmoqchi bo'lishsa, unda ayol nomida mazkur miqdordagi 2-3 marta ko'p bola tug'ish lozim edi, chunki o'lim, ayniqsa go'daklar va bolalar o'limining nihoyatda yuqoriligi tug'ilgan bolalarning yarmidan ko'pini o'zi bilan olib ketadi.

Yer shari aholisining dinamikasi to'g'risida ma'lumotlar quydagi 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**Yer shari aholisining o'sishi**

Yilnoma	Davr	Davrning davom etishi	Davr boshida aholi soni (mln kishi)	Aholi soni o'rtacha yillik o'sishi
---------	------	-----------------------	-------------------------------------	------------------------------------

Eramizdan 7000 yil avval	Neolit	5000	10	-
	Antik davr	7000	50	0,03
(yangi era)	Yangi eraning boshlanishi o'rta asrlarni dastlabki yillari	2000	230	0,1
1000 yil	O'rta asrlar	1000	305	0,02
1500 yil	O'rta asrning yakuniy davri	500	440	0,1
1650 yil	Yangi zamonning boshlanishi	150	550	0,3
1800 yil	Yangi zamon	150	952	0,5
1900 yil	Yangi zamon yakuniy davri	100	1656	0,8
1950 yil	Eng yangi zamon	50	2527	1,0
1980 yil	Yaqin o'tgan davr	30	4430	1,9
2020 yil	Hozirgi davr	40	7850	1,2

Bir necha ming yillar mobaynida o'lim juda katta va aholi o'sishining past bo'lishligi o'zining obyektiv sabablariga egadir. Dastavval-bu moddiy va sanitar gigienik shart-sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi qolaversa, vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat, vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qirilib ketishi. Yer sharida bunday ofatlar 200-400, 1600-1650 yillar ichida qayd etilgan bo'lib, o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi, 1300-1400 yillar davomida qora o'lat epidemiyasining ta'sirida sayyora o'z aholisining 1/4 qismidan ajradi, uning soni keskin kamaydi. Aholi ko'rsatqichlariga oxiri ko'rinmayotgan urushlar ham katta salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Urushlar XVIII asrda 5,2 mln kishining yostig'ini quritdi.

XIX-asrgacha bo'lgandavrda demografik jarayonlarda sezilarli sifat o'zgarishlari bo'lib o'tmadi. Undan kengi davrda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik o'tish jarayoni boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarning keskin o'zgarishi, turmushning nisbatan yaxshilanishi, aholining yesh tarkibidagi siljishlar boshqa omillar bilan bog'langandir.

Demograf olimlar demografik o'lish jarayonini 4 ta ketma-ket keluvchi fazani o'z ichiga olishini ilmiy asoslab berganlar.

**Birinchi faza** - uchun tug'ulishining yuqori darajada saqlanishi va o'limning keskin qisqarishi oqibatida vujudga keluvchi juda yuqori darajadagi tabiiy o'sishga xosdir.

**Ikkinchi faza** - ko'p bolali oiladan kam oilaga o'tish, o'limning qisqarilishi esa tug'ulishning undan ham ko'p miqyosida kamayishi natijasida tabiiy o'sishning pasayishi bilan ifodalanadi.

**Uchinchi faza** – avvalambor, aholi ichida qariyalar soni va ularning o'sishi hamda tug'ulishning asta-sekin pasayishi natijasida o'lim birmuncha ko'tariladi. Mazkur bosqichda aholi soni juda kam miqdor suratlarda o'sadi yoki qisqaradi.

**To'rtinchi faza** - to'g'ilish va o'lim ko'rsatqichlari tenglashadi, aholining ulushi o'sishi barham topadi.

Demografik o'tish davri dastavval Yevropada XVIII asrda boshlanadi. SHunda tabiiy o'sish 20-30% ga teng bo'ldi, buni xaqiqatdan ham demografik inqilob deb atash mumkin. Chunki 10-20 yil oldin atigi 5-10% ga teng bo'lgan tabiiy o'sish qisqa vaqt ichida 2-3 martaga oshdi. Ushbu jarayon Yevropada 100-150 yil davom etdi. Undan kengi davrda Yevropa mamlakatlari demografik o'tishning ikkinchi fazosiga o'tdi. Hozir

ushbu mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tishning uchinchi fazosidadirlar. Binobarin, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Italiya, Daniya, Vengriya, Niderlandiya aholini oddiy takror barpo etilishi xam ayrim yillarda ta'minlanmaganligi ya'ni o'lganlarning soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'p bo'lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tish jarayonining 1-fazasini o'tamoqda.

AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari 2 fazoni boshidan kechirmoqdalar. Xitoy va boshqa 1 qator mamlakatlar ushbu 2 fazaga o'tish arafasida turibdi. O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo mamlakatlarida 1 fazadan 2-fazaga o'tish uchun zamin tayyorlandi, bu jarayon yaqin 10-15 yil mobaynida boshlansa ajab emas.

Dunyo aholisi anashu davir ichida 2,4 marta o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich (Osiyoga (2,6) va Afrikaga 3,6) xos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Yevropada, 1,4 martaga teng bo'ldi. So'nggi yillarda sayyora aholisining mutloq soni o'rtacha 3286 mln kishiga yetmoqda. Aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi Afrikada ayrim mintaqalarda esa Markaziy va Janubiy Osiyoda, Markaziy Amerikada kuzatilmoqda. Shu vaqtning o'zida Yevropaning ayrim mintaqalarida aholi soni juda past sur'atlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti.

Dunyo aholisining 1000 yildan 2005 yilgacha bo'lgan o'sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko'paygan davr XX asrdir. Agar yer shari aholisining biri milliardga yetishi uchun salkam 850 yil kerak bo'lgan bo'lsa. 2 milliardga yetishi uchun 85 yil, 3 milliardga yetishi uchun 25 yil, 4 milliardga o'tishi uchun - 15 yil, 5 milliardga o'tishi uchun 20 yil va 6 milliardga o'tishi uchun - 15 yil vaqt kerak bo'ldi. Sayyoramiz aholisining ko'payib borishi uning alohida hududlari bo'yicha ham farq qiladi. Yevropada XIV asrning o'rtalaridan fan va texnika rivojlandi. Ilmiy manbalarda ushbu davrni Yevropa uchun "uyg'onish" davri, deb qayd etilgan.

### 3-jadval

#### Jahon aholisining soni, dinamikasi va uning ayrim hududlar bo'yicha taqsimlanishi (mln)

<i>Hududlar</i>	<i>1950</i>	<i>1960</i>	<i>1970</i>	<i>1980</i>	<i>1990</i>	<i>1995</i>	<i>1999</i>	<i>2025</i>
Dunyo bo'yicha	2516	3019	3694	4433	5246	5702	5982	8054
Osiyo	1399	1702	2147	2623	3123	3451	3637	4923
G'arbiy Osiyo (Gruziya, Ozorbayjon, Armeniya)	50	66	86	112	145	168	186	303
Markaziy Osiyo	496	619	787	972	1215	1355	1451	2101
Janubiy Sharqiy Osiyo	182	226	288	356	439	485	520	722
Sharqiy Osiyo	671	791	986	1183	1324	1442	1481	1798
Rossiya	113	119	130	138	148	147	147	138
Yevropa	436	487	527	556	578	581	582	580
Shimoliy Yevropa	78	82	87	89	91	94	95	99
G'arbiy Yevropa	133	154	166	173	180	181	183	188
Sharqiy Yevropa	116	133	146	155	162	162	159	150

Janubiy Yevropa	109	118	128	139	145	144	145	143
Afrika	224	280	361	481	645	720	771	1290
Shimoliy Afrika	52	65	83	109	140	162	170	249
G'arbiy Afrika	65	81	106	144	198	159	223	408
Sharqiy Afrika	63	80	106	142	196	226	235	387
Markaziy Afrika	27	33	40	52	69	83	94	188
Janubiy Afrika	17	21	26	33	42	50	49	57
Amerika	331	415	570	612	726	774	815	1083
Shimoliy Amerika	166	199	227	252	275	193	303	374
Markaziy Amerika	37	50	68	92	119	126	135	700
Janubiy Amerika	111	146	190	239	297	319	339	463
Karib dengizi hududlari	17	20	25	29	35	36	37	46
Avstraliya va Okeaniya	13	16	19	23	26	28	30	41

Fan - texnikaning rivojlanishi tufayli Yevropada ishlab chiqarishda qo'l kuchi o'rniga texnikalardan foydalanish aholi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini ma'lum darajada yaxshilanishiga olib keldi. Aholi soni oldingi davrlarga nisbatan tezroq sur'at bilan ko'paya bordi. Lekin Yevropaning, ba'zi hududlarida tarqalgan epidemiyalar (1624, 1639-yillarda o'lat va vabo), ocharchiliklar (Italiyada 1739-1741-yillardagi kartoshka ocharchiligi) va urushlar (Turkiya va Bolqon urushi XVI asrda; 1618-1648-yillardagi 30 yillik urush, 12 yil davom etgan ispan merosi uchun urushlar 1701-1713-yillar) aholi sonining ko'payib borishiga salbiy ta'sir etgan albatta. Shuningdek, Yevropa aholi soni dinamikasiga emmigratsiya ham ta'sir ko'rsatdi. Amerikaning kashf etilishi juda ko'p ispanlar, portugallar, inglizlar, gollandlar va frantsuzlarning Amerikaga ko'chib ketishiga sabab bo'lgan. *XVI-XVIII asrlarda Yevropadan Amerikaga 2 milliondan ko'p aholi ko'chib ketgan.*

Shunday bo'lsada, Yevropa aholisi XVI-XVIII asrlarda oldingi davrlarga nisbatan yuqori sur'at bilan ko'payib borgan. Masalan, 1700-yili Yevropa aholisi taxminan 100 million kishi bo'lsa, 1800-yilda bu ko'rsatkich 150-160 millionga yetgan. Fransiya, Angliya, Germaniya va Ispaniya Yevropaning aholisi eng ko'p davlatlaridan bo'lganlar. XIX asr Yevropa aholi takror paydo bo'lishida yangi bosqichga o'tgan. O'limning kamayib borishi, aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishi va tug'ilishning nisbatan yuqori darajada saqlanib turishi aholining tabiiy ko'payishini yuqori darajaga olib chiqdi. Ushbu davrda Yevropada tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 35-40 promille, o'lim esa 20-25 promille atrofida bo'lgan. Aholi tabiiy o'sishi har 1000 kishiga 15-20 kishini tashkil etgan Yevropadan Amerikaga aholi emmigratsiyasining ko'payishi, Fransiya imperatori Napoleonning urushlari aholi sonining ko'payishiga salbiy ta'sir etgan.

Lekin, aholining tabiiy ko'payishining yuqoriligi tufayli Yevropa aholisining umumiy soni dinamikasida kamayish kuzatilmaydi. XIX asrda Yevropadagi ko'p sonli

aholiga ega bo'lgan davlatlar Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya aholisi 1,5-2 barobarga ko'paygan.

XX asr Yevropa aholisining takror barpo bo'lishida yangi bosqich bo'ldi. Yevropadagi qator davlatlarda XX asrning ikkinchi yarmida tug'ilish keskin kamayib bordi. Tug'ilish bilan bir qatorda o'lim hollari ham qisqardi. Aholining takror barpo bo'lishida yangi demografik o'tish davri boshlandi. Natijada, Yevropada aholi sonining o'sish sur'ati bir muncha kamaydi. 1900-1950-yillarda Yevropa aholisi har yili o'rtacha 1,8 million atrofida ko'paygan bo'lsa, 1970-2000 yillarda esa, bu ko'rsatkich 1,2 millionni tashkil etgan. Hozirgi davrda (2005-y.) Yevropa aholisi 728 millionga yetgan va bu ko'rsatkich dunyo aholisining 11,4 foizini tashkil etadi. 2000-2005-yillarda Yevropa aholisining o'rtacha yillik o'sishi foizga tengdir.

Aholi soni va tarkibi uning bajaradigan vazifalari bilan bog'liq holda baholanadi. Aholi avvalambor o'zidan ko'payadigan, o'zini takror barpo qiladigan biosotsial organizmdir. Aholi shu bilan birga jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va iste'molchisidir. Ana shu nuqtai nazardan aholi soni, tarkibi, o'sish sur'atlari, joylashishiga xos xususiyatlarni tahlil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo axolisining o'sish dinamikasiga nazar tashlasak, uning sar'ati borgan sari tezlashayotganligini ko'rish mumkin. Odam paydo bo'lgan paytlarda uning o'sish sur'ati past bo'lgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, ming yilda aholi 2 foizga ko'paygan. Vaqt o'tishi bilan axolining o'sish sur'atlari tezlashib borgan. Eramizning boshlarida er shari aholisi 300 mln kishi bo'lan bo'lsa, 1650 yilga kelganda bu raqam 2 barobarga ko'paygan. 19-asrning o'rtalarida er shari aholisi 1 mlrd kishiga etdi. Axolining ikkinchi mlrd kishining qo'shilishi uchun 80 yil, uchinchi mlrd kishining qo'shilishi uchun 30 yil, to'rtinchi mlrd kishining qo'shilishi uchun esa 15 yil kifoyadir. Bu holat dunyo axolisi o'sish sur'atlarini 1976 yilga qadar juda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq lning barcha qismlarida bu ko'rsatkichlar bir xil bo'lmagan. Osiyo va Lotin Amerikasida o'sish darajasi hozirgi kunga qadar yuqori sur'atlarda saqlanib qolmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida esa axolining o'sish sur'atini anchagina pastlab qolganini kuzatish mumkin.

Axolining o'sish sur'atlarini dunyoning turli regionlarida turlicha bo'lishiga har xil sabablar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida sog'likni saqlash tizimi, qishloq xo'jaligini rivojlanishi, oziq-ovqat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning roli alohida ahamiyatga ega. Dunyo axolisining madaniy saviyasini ortib borishi bilan o'z-o'zidan tabiiy ko'payish jarayoni ham pastlab bormoqda. Shunday qilib, dunyo axolisining o'sish dinamikasi ko'plab va xilma xil omillar ta'sirida bo'ladi.

Keyingi 20-30 yil ichidagi o'sish esa, ko'proq tabiiy o'sishdagi hududiy farqlar bilan bog'liq. Ana shu davrga xos bo'lgan "demografik" ta'sirini ham aniq ko'rish mumkin. Xo'sh kelajakda dunyo axolisining o'sishi qanday bo'ladi? Demograf olimlar fikricha, hozirgi davr axolining maksimal o'sish davridir. Hozirgi kunda oilada tug'ilishni tartibga solib turiladigan mamlakatlarda planetamiz aholisining 30 % yashamoqda. Kelajakda dunyoning boshqa qismlarida ham aholi bilim va madaniyat darajasining oshib borishi bilan tug'ilish ham kamaya boradi.

Professor B.S.Urlanis fikricha, taxminan 21-asrning boshlarida bu jarayon planetamizning barcha axolisini qamrab oladi. Olimning taxminicha, 20-asrning qolgan yillarida tug'ilishni tartibga solish keng yoyilgan mamlakatlarda Amerika Yaponiya axolisining o'sish sur'ati 0,9 % dan yuqori bo'lmaydi.

Dunyo axolisining o'sishi va bu o'sishning sur'atlari yuqoridja aytilganidek davom etsa, 21-asr o'rtalariga borganda, dunyo axolisi 8 mlrd kishiga, 21-asr oxirlarida

esa 11-12 mlrd kishiga etadi. BMT ekspertlari xisobiga ko'ra 2000 yilda dunyo axolisi 6 mlrd 280 mln kishi, shu jumladan Osiyo aholisi 3870 mln, Lotin Amerikasi axolisi 595, xorijiy evropa axolisi 570, Afrika axolisi, 520, Astraliya va Okeaniya axolisi 30 mln kishi bo'ladi. Umuman dunyo axolisining o'sish sur'atlari kelajakda pasayib boradi. Be tendentsiya hoziroq sezila boshladi, ma'lum bir davrga kelib esa, planetamiz axolisining soni staillashadi.

Eramizning boshida er shari aholisining soni 200-250 mln. kishi atrofida edi. Aholining asosiy qismi Rim imperiyasida, Xitoy va Hindistonda joylashgan. 11-15 asrlarda dunyo aholisining ma'lum qismi mo'g'ul-tatar, turk urushlari tufayli qirilib ketdilar. Ayniqsa, bu urushlardan Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Evropa mamlakatlari aholisi katta talofat ko'rdilar. Urushlar nafaqat aholining bevosita qirilib ketishiga, balki xo'jaliklarni, ishlab-chiqarishning izdan chiqishi hisobiga sodir bo'lgan ocharchilik sababli hayotdan bevaqt ko'z yumishlariga olib kelganlar.

Agar dastlabki 500 yilda (1000-1500 yillar) er yuzi aholisi 135 millionga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750 yillarda yoki 250 yilda esa bu ko'rsatkich 288 millionni tashkil qildi, ya'ni aholining o'sishi 2 marta tezlashdi. 18 asrning ikkinchi yarmidan boshlab aholining o'sishi yanada tezlashdi. 20 asrdan er shari aholisi taxminan har yili 1 foizga ko'paya boshladi. Aholi soni va tarkibi, uning bajaradigan vazifalari bilan bog'liq holda baholanadi. Aholi avvalambor o'zidan ko'payadigan, o'zini takror barpo qiladigan-biosotsial organizmdir. Aholi shu bilan birga jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va iste'molchisidir. Ana shu nuqtai nazardan aholi soni, tarkibi, o'sish sur'atlari, joylashishiga xos xususiyatlarni tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

#### 4-jadval.

##### Yer shari aholisining o'sishi

Yilnoma	Davr	Davrning davom etishi	Davr boshida aholi soni (mln kishi)	Aholi soni o'rtacha yillik o'sishi foizda
Eramizdan 7000 yil avval	Neolit	5000	10	-
	Antik davr	7000	50	0,03
(yangi era)	Yangi eraning boshlanishi o'rta asrlarni dastlabki yillari	2000	230	0,1
1000 yil	O'rta asrlar	1000	305	0,02
1500 yil	O'rta asrning yakuniy davri	500	440	0,1
1650 yil	Yangi zamonning boshlanishi	150	550	0,3
1800 yil	Yangi zamon	150	952	0,5
1900 yil	Yangi zamon yakuniy davri	100	1656	0,8
1950 yil	Eng yangi zamon	50	2527	1,0
1980 yil	Yaqin o'tgan davr	30	4430	1,9
2010 yil	Hozirgi davr	30	6674	1,1

Insoniyat tarixining katta davri davomida ya'ni neolit davridan boshlab aholi soni va tarkibi an'anaviy deb ataluvchi tip ta'sirida takror barpo etilgan. Unda har 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar soni 40-45 ni tashkil etgan. Er shari aholisining dinamikasi to'g'risida ma'lumotlar quyidagi 1-2-jadvallarda keltirilgan.

#### 2-jadval.

##### Jahon aholisining soni, dinamikasi va uning ayrim hududlar bo'yicha taqsimlanishi. (mln. kishi)



Hududlar	1950	1960	1970	1980	1990	2010	2025
Jami	2349	2830	3471	4174	4944	6670	7913
Osiyo	1399	1702	2147	2623	3123	4117	4939
Evropa	436	487	527	556	578	734	590
Afrika	224	280	361	481	645	1037	1510
Shimoliy Amerika	166	199	227	252	275	347	375
Janubiy Amerika	111	146	190	239	297	400	460
Avstraliya va okeaniya	13	16	19	23	26	35	39

Aholining takror barpo qilinishining ushbu tipi iqtisodiyot va unga xos ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita aloqador edi. Bunda ko'p bolali oilani tashkil qilishga intilish, ayniqsa xo'jalik ishlarida otaga ko'mak beruvchi o'g'il bolalarning mavjudligiga va sonining ko'p bo'lishiga katta e'tibor qaratiladi. Ota-ona oilada 3-4 farzandga ega bo'lmoqchi bo'lishsa, unda ayol mazkur miqdordagidan 2-3 marta ko'p bola tug'ish lozim edi, chunki o'lim, ayniqsa, go'daklar va bolalar o'limining nihoyatda yuqoriligi tug'ilgan bolalarning yarmidan ko'pini yo'qotishga sabab bo'lar edi. Bir necha ming yillar mobaynida, o'lim darajasining juda yuqoriligi va aholi o'sishining past bo'lishligi o'zining obyektiv sabablariga egadir.

**Aholining mutloq ko'payish, o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish, ko'payish sur'atlari.** Aholining ko'payishining asosiy sababi tug'ilishning yuqori darajada (fiziologik imkoniyat darajasida) bo'lganligidir. Demak, bir tomondan insonning tabiiy ofatlar oldida o'zaro nizolari, uning kamayishiga olib kelsa, tug'ilishning yuqori darajada bo'lganligi aholini sonining ma'lum darajada ko'payib borishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy jamoa davrida Janubiy Osiyo, Evropaning janubiy qismlarida, Afrika qit'asida aholi nisbatan zich yashagan. Evrosiyo materigining shimoliy rayonlarida, Avstraliya va Amerika qit'alarida aholi juda siyrak joylashganlar.

Aholi sonining ko'payib borishida jamiyat ishlab chiqarishining mukammalashib borishi, jamiyatda sodir bo'lgan mehnat taqsimotlari—ya'ni chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi alohida omil hisoblanadi. Eramizdan 7-8 ming yil oldin Yaqin Sharq hududlarida juda ko'p qabilalar ovchilikdan chorvachilikka, dehqonchilik qilishga o'ta boshladilar. Xo'jalik yuritishdagi yangi sharoit qabilalardagi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshiladi, oziq-ovqat zahiralari yaratildi. Natijada, aholining o'lim hollari nisbatan kamaydi. Lekin, aholining turli epidemiyalardan, qabilalar orasida bo'lib turuvchi urushlardan o'lim hollari yuqori edi.

Aholining tabiiy harakatlari deganda tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jarayonlaridagi o'zgarishlar nazarda tutiladi. Tug'ilish va o'lim jarayonlarini taxlil qilish Mutlaq va solishtirma ko'rsatkichlarni takkoslashni takozo qiladi. Mutlaq ko'rsatkichda axolining soni (mahlum vaqt ichidagi miqdori), Tug'ilish va o'lim soni xisobga olinadi. Mutlaq ko'rsatkichlar buyicha mamlakat miqyosidagi Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarini tahlil qilib, xulosaviy so'z aytib bulmaydi. Statistik mahlumotlarni taxdil qilishda taqqoslash usullari orqali to'g'ri xulosa yozish mumkin.

Stabil aholi – muayyan hududda doimiy ro'yxatdan o'tgan holda istiqomat qiluvchi aholi soni. Real aholi – muayyan hududda doimiy istiqomat qiluvchi aholi bilan birgalikda vaqtincha yashab turgan aholining umumiy soni. Aholi tarkibi – hudud aholisining yosh, jins, kasbiy va h.k nuqtai nazaridan tafovuti. Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari axborot manbai hisoblanadi. Aholining hozirgi sonini baholash mazkur hududda tug'ilganlar va ko'chib kelgan-lar sonini hisobga olish hamda vafot etganlar va ko'chib ketganlar sonini chiqarib tashlash yo'li bilan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga o'zgartirish kiritish hisobiga amalga oshirilgan.

Aholining mutloq soni–biron-bir hudud yoki aholi guruhidagi kishilarning ma'lum vaqtdagi miqdoriy ifodasidir. Demografiyada aholi soni, eng umumiy asosiy ko'rsatkich bo'lib, aniq bir davrdagi aholi miqdorini anglatadi. Statistik manbalarda aholi soni ma'lum bir sanaga (1-yanvar, 1-iyul yoki 31 dekabr) keltiriladi. Masalan, O'zbekiston aholisi 1991 yil 1 yanvarda 20708,2 mingni, 2000 yil 1 yanvarda esa – 24487,7 mingni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarni butun yil uchun qabul qilib bo'lmaydi, chunki yil davomida, ya'ni 1 yanvardan 31 dekabrga qadar aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga muntazam o'zgarib turadi. Har bir hudud aholi sonini o'rganganda, yuqorida qayd etilgandek, uni doimiy (shu hududda doimiy ro'yxatga olingan) va real (tekshirilayotgan davrda shu hududda ma'lum muddat yashayotgan) aholiga ajratiladi.

Aholining mutloq soni muntazam o'zgarib boradi. Aholi ro'yxatlari yordamida aholi mutloq sonini o'zgarishini aniq ifodalash mumkin. Aholi mutloq sonidagi o'zgarishlar aholi soni muntazam ko'payib borsa ijobiy, agar aholi soni kamaysa salbiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda aholi mutloq soni 1897-1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari oralig'ida muntazam ko'payib borgan.

**Doimiy aholi soni, mavjud aholi soni, vaqtincha aholi soni mezonlari.** Aholi kategoriyalari – ma'lum aholi maskanida yashovchi va shu maskan bilan bog'liq aholi guruhining umumiy xususiyatlari tushiniladi.

Statistikada aholini uch kategoriyaga bo'lib o'rganadi; doimiy, mavjud va yuridik (ro'yxatdan o'tgan) aholi.

**Doimiy aholi** – ma'lum hududning doimiy yashovchi asosiy aholisi hisoblanadi. Doimiy aholi bo'lish uchun har bir davlatning o'z qonunlari bor. Masalan, Rossiyada doimiy aholi bo'lishi uchun 1 yil Rossiyada yashash lozim. Rossiyaga 1 yil va undan ko'p muddatga o'qishga, xizmatga kelgan aholi ham doimiy aholi hisoblanadi. SHuningdek, Rossiyada 1 yildan ko'p yashagan, shu joyda ro'yxatda turgan va boshqa boror joyi bo'lmagan shaxslar doimiy aholi hisoblanadi (V.I.Medkov. Demografiya. M.:2004, 48 bet)

**Mavjud aholi** – aholi ro'yxati o'tkazilgan davrda, ushbu aholi maskanida ro'yxatdan o'tgan yoki o'tmaganligidan qat'iy nazar shu yerda yashovchi aholi guruhidir.

Mavjud aholining doimiy aholi guruhiga kirmaydigan qismi bo'lib, bu guruh **vaqtincha yashovchilar** (vaqtincha kelganlar - VK) deyiladi.

Mavjud aholining yana bir qismi doimiy aholiga kiriruvchilar, lekin vaqtincha shu maskanda bo'lmaganlar (**vaqtincha bo'lmaganlar** – VB)dir. Doimiy aholi (DA) = Mavjud aholi (MA) – Vaqtincha kelganlar (VK) + Vaqtincha bo'lmaganlar (VB) yoki

$$DA = MA - VK + VB$$

Yuridik (ro'yxatdan o'tgan) aholi – aholi ro'yxati o'tkazilgan davrda qaerda bo'lishidan qat'iy nazar qadimdan ushbu hududda ro'yxatga olingan, politsiya xodimlari, harbiylar va dengizchilar, elchilar va ularning oilalaridir. Ular alohida yuridik guruh sifatida qadimda ro'yxatga olinar edi. Yuridik aholini alohida guruh sifatida Rossiyada, shu jumladan O'zbekistonda ham 1897 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatida qayd etilgan edi. (Ushbu davrda O'zbekiston hududi Chor Rossiyasining koloniyalari tarkibida edi.) Demografik jarayonlar tarkibida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'rganilayotgan mavjud aholi avvalo tug'ilish jarayoni natijasida dunyoga keladi. Demografiya asoslari tug'ilishni alohida, aholi takror barpo bo'lishining demografik zamini sifatida o'rganadi, unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy – iqtisodiy va tabiiy omillarni tahlil etadi. SHuningdek, o'lim jarayoni ham aholi takror barpo bo'lishining asosiy elementi sifatida demografiya asoslari fanining e'tiborida turadi. Aholining takror barpo bo'lishida birinchi navbatda oila tashkil topishi, ya'ni shakllanishi ahamiyatlidir.

Chunki dunyoda tug'ilayotgan insonlarning aksariyati oilada, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib o'zining demografik faoliyatini (oilada qurish, farzandlar ko'rish) boshlaydi.

**Aholining yosh va jinsiy tarkiblari va demografik jarayonlar.** Aholi tarkibi deganda aholining ma'lum ijtimoiy – iqtisodiy va demografik belgilar asosida taqsimlanishi tushuniladi.

Asosan asosan quyidagi belgilar asosida taqsimlanadi:

- Biologik xususiyatga ega bo'lgan belgilar: (askriptiv) jinsi, yoshi, irqi, etnik guruhi
- Sotsial xususiyatga ega bo'lgan belgilar: nikoh statusi (nikohda turishi) savodliligi va ma'lumotlilik darajasi), kelib chiqishi, tili, fuqaroligi, professional tayyorgarligi
- Iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan belgilar: kasbi, bandligi, bandlik soxasi, daromad manbai
- Migratsion xususiyatga ega bo'lgan belgilar: tug'ilgan joyi, mazkur aholi maskanida necha yildan beri yashab kelishi va h.k.
- Demografik (vitalniy) belgilar: tug'ilish va o'lim, nikoh va ajralish, nikohga kirish yoshi, homiladorliklar soni, farzandlar soni, o'lim soni va h.k.

Oilaviy tarkibi bo'yicha belgilar: oila yoki uy xo'jaligi, oila turlari va h.k

Jins – jinsiy ko'payishni ta'minlaydigan, organizmning genetik, fiziologik va morfologik belgilar majmuidir (Medkov V.M. Demografiya. M., 2004 111 bet).

Jins – juda keng tushuncha. Jinsni tushunishda, ta'riflashda har bir fan o'z nuqtai nazaridan yondashadi. Masalan, jins – biologiyada – jinsiy ko'payishni ta'minlaydigan, hamda erkak va urg'ochi organizmlarni farq qilishga imkon beradigan belgilar majmui. Jins – geologiyada – muayyan belgi va xossalarga ega bo'lgan struktura, modda (masalan, tog' jinslari); jins – musiqada – o'tmish sharq musiqasi ilmida bir nechta du'dlar qo'shilishidan hosil bo'lgan musiqasi tovushlari (O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 3 tom, 607 bet. Toshkent, 2002 y.) Insonga nisbatan jins – erkak yoki ayolning shaxsiy biologik va sotsial statusini namoyish etadigan jismoniy (genetik, morfologik va fiziologik) reproduktiv, ahloqiy, sotsial, sotsial – psixologik belgilar majmuidir (народонаселение энциклопедический словарь М., 1994. с. 327) Keyingi paytda fanda biologik va sotsial jinslar haqida tushunchalar shakllangan. Sotsial jins – gender deb atalmoqda. Sotsial jins erkak va yoki ayolning jamiyatdagi sotsial o'rnidan kelib chiqmoqda. Jinsiy belgilar asosida demografiyada aholining jinsiy tarkibi tuziladi. Jinsiy tarkib – aholining erkaklar va ayollarga bo'linishidir. Aholining jinsiy tarkibi – nikohga kirish va aholining oilaviy tarkibining shakllanishida asosiy demografik zamindir. Demografiyada jinslar munosabatini aniqlashda ikki hil ko'rsatkich qo'llaniladi. 1. Jami aholi tarkibida jinslar salmog'i – foiz hisobida. Masalan, 2000 yil O'zbekistonda jami aholi 24582,8 ming kishini tashkil etadi. Ulardan erkaklar 12232,7 va ayollar 12350,1. Ushbu ko'rsatkichlar asosida jami aholi tarkibida erkaklar 49,8 foizni, ayollar esa 50,2 foizni tashkil etishini aniqlash mumkin.

**Aholi jins tarkibi shakllanishidagi omillar. Aholi o'limidagi jinslar nisbati.** Aholi jinsiy tarkibini o'rganishda aniq ko'rsatkich har 1000 ta erkaklarga nisbatan ayollar soni, yoki har 1000 ta ayollarga nisbatan erkaklar soni ifodasidir. Ushbu ko'rsatkich orqali ma'lum hudud jami aholisining va aholi yosh guruhlari (0 – 9, 10 – 19, 20 – 29...) jinsiy tarkibi o'rganiladi. Misol tariqasida, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, ayollar sonini erkaklar soniga bo'lamiz va natijani 1000 ga ko'rsatiramiz. 2000 yilda O'zbekistonda har 1000 ta ayolga 991 erkak to'g'ri kelar ekan,

yoki erkaklar ayollardan kamroq ekan. Ana shunday uslub bilan alohida yosh guruhlari uchun ham ayollar va erkaklar nisbati aniqlanadi.

Aholi yosh tarkibi uch asosiy omil ta'sirida shakllanadi;

- yangi tug'ilganlardagi jinsiy nisbat;
- o'limdagi jinsiy farq
- aholi migratsiyasidagi jinsiy farq

Demografiyada va statistikada birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi jinsiy nisbatlar mavjud. Birlamchi nisbat – homiladorlikdagi qiz va o'g'il bolalar nisbati. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha 100 ta qiz bola homilaga 125-130 ta o'g'il bola homilalar tug'ilar ekan. Ikkilamchi nisbat – tirik tug'ilgan o'g'il va qiz bolalar nisbati. Tadqiqotlar ko'rsatishicha har 1000 ta chaqaloqdan 488 tasi qiz va 512 tasi o'g'il bolalar ekan (yoki 100 ta qiz bolaga 105 – 106 ta o'g'il bola, Xitoyda o'g'il bolalar ko'p tug'ilya'ti – 100 ta qiz bolaga 1980 yil 107,4 o'g'il bo'lsa, 1993 yil 100 ta qiz bolaga nisbatan 114,1 o'g'il bola tug'ilgan – bu muammo) Uchlamchi nisbat – re'roduktiv yoshdagi erkaklar va ayollar nisbati – demografik rivojlanishda eng ahamiyatli nisbat. Aholining yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar (demografik tarkibi) jamiyatning demografik holati bilan chambarchas bog'liq. Demografik holat esa aholining yoshi va jinsiy tarkibi, nikohga kirishi va nikohning bekor etilishi (ajralish), tug'ilish, o'lim va migratsiya kabi jarayonlarda ifodalanadi. Aholi tarkibida erkaklar va ayollar salmog'ining tengligi, ya'ni mutanosibligi ularning nikohga kirishiga va oilalar tashkil to'ishiga qulay vaziyat yaratadi. Lekin har doim ham jamiyatda erkaklar va ayollar salmog'i teng bo'lavermaydi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda har 100 ta qiz bolalarga nisbatan tug'ilgan o'g'il bolalar soni 104-107 tani tashkil etadi. O'g'il bolalar miqdorining qiz bolalarga nisbatan yuqoriligi ularning 15-20 yoshlarigacha saqlanib boradi. 20 yoshdan keyin esa jinslar o'rtasidagi nisbat tenglasha boshlaydi. Chunki, chaqaloqlik, bolalik va o'smirlik davrida qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalar o'limi yuqoriroq bo'ldi. 15-20, 20-24 yosh guruhlaridan boshlab bir qator sabablar tufayli aholi tarkibida ayollar salmog'i nisbatan oshadi. Yoshlik va o'rta yoshlik davrida erkaklarning ko'p qismi og'ir mehnat bilan mashg'ul bo'ladilar. Shuningdek, ular inson salomatligi uchun zararli bo'lgan alkogolizm, chekish kabi zararli odatlarga beriluvchanligi sabab ko'plab erkaklar o'rta yoshlik davrlarida hayotdan erta ko'z yumadilar. Yosh va o'rta yosh erkaklarning o'limiga davlatlar, xalqlar o'rtasida sodir bo'ladigan urushlar ham sabab bo'ladi. Yer shari aholisining jinsiy tarkibi deyarli teng. Janubiy mamlakatlar hisoblanmish Osiyo va Afrika davlatlarida erkaklar salmog'i ayollarga nisbatan bir muncha ko'p. Masalan, Osiyo qit'asidagi aholi tarkibida erkaklar ayollarga qaraganda ancha ortiqdir. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, 1985 y. Osiyoda erkaklar ayollarga nisbatan 58 mln. ko'p edi. Bunday xol Okeaniyada ham kuzatiladi. Shuningdek, shuningdek dunyo miqyosidagi iqtisodiy jihatdan baquvvat davlatlarda ayollar soni erkaklar sonidan ko'p. Sababi bu davlatlardagi erkaklar orasida o'lim yuqori, ayniqsa katta yoshli erkaklarda. Masalan, 1985 yilda har 1000 ta ayolga Germaniyada- 910, Frantsiyada- 951, Angliyada- 954, Italiyada- 946, Kanada- 978, AQSh- 949 ta erkak to'g'ri kelgan. 2000 yilga kelib bu ko'rsatkich tashkil etdi. Bularning sababi yuqorida aytganimizdek aksariyat erkaklarning og'ir mehnat bilan shug'ullanishlari, bahtsiz hodisalar, urushlar va alkogolizm, giyohvandlik kabi zararli odatlarga beriluvchanlik kabilarir. Bunga sobiq Ittifoqda 1941-1945 yillardagi urush tufayli millionlab erkaklarning qirilib ketishi ham yaqqol misol bo'la oladi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda ayollar nisbati yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga sobiq Ittifoq davlatlari ham kiradi. Erkaklarning salmog'i yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar va Osiyo qit'asida ayollar o'rtasida o'lim ko'p kuzatiladi.

Ayniqsa, Osiyodagi davlatlarda erkaklar salmog'i ayollarga nisbatan ancha yuqori bo'lib, har 1000 ta ayolga 1041 nafar erkak to'g'ri keladi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi geografik farqlar asosan, aholining yosh-tarkibi bilan bog'langan. Bolalar va ayollar salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa, jinslar nisbatining o'rtacha ko'rsatkichi normal holatga yaqinlashadi, ba'zi hududlarda bunga aholining mexanik harakati ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Aholining yosh-jinsiy tarkibi modelining demografik piramidada aks etishi.** Mamlakat hududini mazkur fasllardan biriga kiritish birinchi galda tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlariga bog'liq. Shu sababli aholining Yoshlar bo'icha asoiy turlari umuman olganda uning ko'payishi turiga bog'liqdir. Axolining Yoshlar bo'yicha va jinsiy tarkibini taxlil qilish uchun maxsu diagramma turi - axolining Yoshlar bo'yicha va jins tarkibi piramidasi qo'llaniladi. Axolining asosi inson qismi mehnat resurslarini aniqlashda uning Yoshi mezon bo'ladi. Axolining iqtisodiy faolligini mehnat resurslarining ishlab chiqarishda jalb qilinganlik darajasini ko'rsatadi. Butun dunyo aholisining 45 % yoki 2 mlrd dan ortiqroq qismi iqtisodiy faol axoli hisoblanadi. Rossiyada, xorijiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida axolining ish bilan bandligi juda yuqori bo'lgani holda faol axoli ko'rsatkichi 48-50% umujahon ko'rsatkichidan ancha yuqori. Osiyo, Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlarida bu ko'rsatkich jahondagi o'rtacha past 35-40 %. Bunga bu mamlakatlarning umumiy iqtisodiy qoloqligi, millionlab sonida Yosh bolalar salmog'ining juda katta ekanligi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ancha kam jalb qilinganligi sababdir.

**Yosh klassifikatsiyasi. Aholining oilaviy tarkibi.** Demografik tadqiqotlarda asosan aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi aholi tarkibi ahamiyatlidir. Ularga aholining demografik tarkibi yoki aholining jins, yosh, nikohda turishi, oilaviy statusi, demografik hodisalar bo'yicha tarkibi kiradi.

Aholining demografik tarkibini o'rganishda asosiy ko'rsatkichlar – aholining jins va yosh tarkibi ko'rsatkichlaridir.

Yosh – inson tug'ilganidan hayotining ma'lum nuqtasigacha bo'lgan davr.

Biologik va kalendar yoshlar mavjud. Hozirgi davrda aholining yosh strukturasi bo'yicha quyidagi klassifikatsiyasi berilgan.

**Yosh klassifikatsiyasi\***

Kalendar yosh	Inson hayoti davrlari
1 – 7 kunlik	Yangi tug'ilgan chaqaloq
7 kun – bir yosh	CHaqaloq
1 – 3 yosh	Erta bolalik
4 – 7 yosh	Birinchi bolalik
8 – 12 (o'g'il bolalar)	Ikkinchi bolalik
8 – 11 (qiz bolalar)	
13 -16 (o'g'il bolalar)	
12 – 15 (qiz bolalar)	O'smirlar
17 – 21	Yigitlar
16 – 20	Qizlar
22 – 35 (erkaklar)	I – yetuklik davri
21 – 35 (ayollar)	
36 – 60 (erkaklar)	II – yetuklik davri
35 – 55 (ayollar)	
61 – 74 (erkaklar)	Keksa odamlar
56 – 74 (ayollar)	
75 – 90 yosh	Qari odamlar
90 dan yuqori yoshdagilar	Uzoq yashovchilar

Aholining yosh tarkibi – ijtimoiy – iqtisodiy va demografik jarayonlarni o'rganish maqsadida aholining yosh guruhlariga bo'linishidir. Aholi yosh guruhlari va demografik jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Aholi tarkibida yoshlar (0 – 9, 10 – 19, 20 – 29 yoshida) salmog'ining yuqoriligi nikoh va tug'ilish kabi demografik jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi. Ayni paytda tug'ilish yuqori bo'lgan hollarda hududlarda bolalar, yoshlar salmog'i yuqori bo'ladi. Tug'ilish darajasi past bo'lgan hollarda esa aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i yuqori va o'lim hollari ko'proq sodir bo'ladi. Demografik nuqtai nazardan yondashganda aholining bugungi yosh tarkibi kechagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi va kelajakdagi demografik rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Aholi yosh tarkibini o'rganganda aholining alohida har bir yoshlarga (0,1,2,3,4,5...100 va undan yuqori) besh yillik yosh guruhlariga (10 – 14, 15 – 19...) va uch yirik – yirik guruhlariga (0 – 14, 15 – 60, 60 va undan yuqori) ajratiladi.

Aholi yosh tarkibi demografiyada asosiy o'rganish obyekti sifatida o'z kelib chiqish va rivojlanishiga ega. Ushbu rivojlanishni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin: a) alohida yosh guruhlari va ularni nisbatlarini statistik tahlili; b) aholi yosh tarkibining shakllanish qonuniyatlari va ularning demografik rivojlanishning omili sifatidagi o'rni; v) aholi yosh tarkibi va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'zaro bog'liqligi.

Aholi sonining o'sib borishida uning yosh tarkibi asosiy omil hisoblanadi. XX asrning o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish darajasining nisbatan pastligi va aholi umumiy tarkibida bolalar salmog'ining kamligi bilan xarakterlanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa ana shu davrda nisbatan yuqori tug'ilish va aholi tarkibida bolalar salmog'ining yuqoriligi xarakterli edi. Tug'ilish yuqori va uni nazorat etish darajasi past bo'lgan sharoitda aholining yosh tarkibi, aholi soni o'sib borishiga bevosita ta'sir etadi.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Aholi soni dinamikasi tushunchasini tushuntiring.
2. Bugungi kunda dunyo aholi soni qanchani tashkil etadi?
3. Aholining mutloq ko'payishi nima?
4. Aholining o'rtacha yillik ko'payishi, o'sishi va ko'payish sur'atlari qanday xisoblanadi?
5. Aholi sonini hisoblashda qanday mezonlardan foydalaniladi?
6. Aholining yosh va jinsiy tarkiblari nima?
7. Aholini jins tarkibi qaysi omillar ta'sirida shakllanadi?
8. Aholining yosh-jinsiy tarkibi modeli demografik piramidada qanday aks ettiriladi?
9. Aholining yosh klassifikatsiyasi nima?

#### **4-Mavzu. Aholining takror barpo bo'lishi: tug'ilish va o'lim jarayonlari.**

##### **Reja:**

1. Aholi takror barpo bo'lishi umumiy tushunchasi, uning turlari va uning ko'rsatkichlari.
2. Aholi takror barpo bo'lishining yig'indi, brutto va netto koeffitsientlari.
3. Aholi takror barpo bo'lishida demografik jarayonlar va migratsiyaning roli.
4. Demografik o'tish nazariyasi. Demografik o'tish bosqichlari.

5. Tug'ilish-demografik jarayon sifatida. Tug'ilish koeffitsientlari.
6. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Tug'ilish jarayonini nazorat qilish.
7. Oilani rejalashtirish usullari. O'limning demografik jarayon sifatida o'rganilishi.
8. O'limning umumiy va maxsus koeffitsientlari. O'lim jadvali va uni tuzish.
9. O'lim sabablari. Bolalar, go'daklar o'limi. Perinatal, neonatal, Postneonatal o'lim.
10. Dunyo aholisi o'limi va sabablari. O'zbekistonda aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi.

**Tayanah iboralar.** *Aholi takror barpo bo'lishi, brutto va netto koeffitsientlari, migratsiya, demografik o'tish nazariyasi, tug'ilish, tug'ilish koeffitsientlari, reproduktiv mayl, oilani rejalashtirish, o'lim, o'lim jadvali O'lim sabablari, Bolalar o'limi, go'daklar o'limi. Perinatal o'limi, neonatal o'limi, Postneonatal o'lim, epidemiologik o'tish.*

**Aholi takror barpo bo'lishi umumiy tushunchasi, uning turlari va uning ko'rsatkichlari.** Avlodlar almashinishi davomida (aholining takror barpo bo'lishi) uning soni, yosh va jinsiy tarkibi o'zgaradi. Avlolar almashinuvi, aholi tabiiy o'sishi hajmini aniqlash, har bir avlod o'rtacha umr ko'rish, tug'ilish va o'lim jarayonlari yig'indisi aholining tabiiy harakati yoki takror barpo bo'lishi deyiladi.

Aholining takror barpo bo'lishi, jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jaran bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Aholining takror barpo bo'lishida uning tabiiy harakati tug'ilish va o'lim asosiy omil hisoblanadi. Aholining takror barpo bo'lish ko'rsatkichlari tug'ilish va o'lim darajasiga bog'liq bo'lib, u har bir hudud aholisi dinamikasining taxlili uchun muhim tarkibiy qismidir.

Jamiyatda avlodlar almashinadi, aholi takror barpo bo'ladi. Natijada aholi soni o'sadi. Aholining takror barpo bo'lishi har bir hudud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhiti ta'sirida ro'y beradi va traqqiy etadi. Shu boisdan aholi takror barpo bo'lish ko'rsatkichlari turli mamlakatlarda turli vaqtlarda bir-biridan farqlandi. Bu farqlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda aholi takror barpo bo'lishini ifodalovchi maxsus ko'rsatkichlardan foydalanildi. Biologik hodisa hisoblanmish tug'ilish va o'lim asosiy aholi takror barpo bo'lishidagi ko'rsatkich ekanligini aytib o'tgandik. Bu ko'rsatkich miqdoriy jihatdan 1000 kishiga hisoblanadi va promilleda ifodalanadi.

Aholi takror barpo bo'lishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

1. Tabiiy-biologik;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy;
3. Ijtimoiy-madaniy;
4. Psixologik;
5. Demografik.

Tabiiy-biologik omil ahol takror barpo bo'lishida muhim omillardan biri. Yer yuzi aholisi turli tabiiy sharoitda yashaydi, tug'iladi va o'ldi. Insonning tug'ilishi va o'lishi kabi biologik hodisa ekan u tabiiy sharoit bilan uzviy bog'liqlikdadir.

Jamiyat davomiyligini ta'minlovchi inson ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Aholi tabiiy o'sishi uning jinsiy, yosh tarkibi, nikoh va ajralish jarayonlari ham muhim hisoblanadi. Bularning barchasi demografik omillar sirasiga kiradi. Ma'lumki, tug'ilish qanchalik ko'p bo'lsa, aholi soni o'sib boradi, aholi tarkibida bolalar va yoshlar iqdori oshadi yoki aksincha tug'ilish kamaysa, jinsiy tarkibdagi buzulishlar ro'y bersa aholi yosh tarkibid qariyalar idori oshadi va hokazo. Yuqoridagi omillar aholi takror barpo bo'lishiga bir xil ta'sir etmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omil aholi tabiiy harakatida muhim rol o'ynaydi. Aholining yashash sharoiti, sog'liqni saqlashning ahvoli, ayollarning jamiyatdagi o'rni, aholining madaniy va ma'lumotlilik darjasi va boshqalar aholi tabiiy harakati darajasini belgilab beradi. Ushbu omillarning tug'ilish va o'limga ta'siri qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin. Aholining yashash sharoiti, moddiy ahvoli yaxshilanishi, tibbiy xizmat kabi sohalarning rivojlanishi, o'lim ko'rsatkichini pasaytiradi, aholi o'rtacha umr ko'rish darajasi uzaytiradi. Natijada aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payadi va o'z-o'zidan o'lim ko'rsatkicha osha boshlaydi.

Turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda aholining takror barpo bo'lishining turli ko'rinishlari mavjud. Jumladan, rivojlanayotgan yoki iqtisodiy nochor davlatlardagi aholi o'rtasida erat oila qurish, ko'p farzandlilik, ayollar ahvolini yaxshi himoyalanganligi, ma'lumotlilik darajasining pastligi, sog'liqni saqlash tizimining yetarli yo'lga qo'yilmaganligi tug'ilishning juda yuori bo'lishiga, o'lim darajasining, ayniqsa bolalar va allar o'limining ko'pligiga sabab bo'ladi. Mazkur sanab o'tilgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida aholining tabiiy harakatini o'rta yoki past, avlodlar almashinishini juda tez deb baholashimiz mumkin.

Ijtimoiy-madaniy, psixologik omillar ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan birgalikda aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etadi. Aholining turmush darajasi baland, madaniy saviyasi yuqori bo'lgan aksariyat rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishida tug'ilish darajasining pastligini ko'ramiz. O'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi eng balandni tashkil etadi. Angliyalik iqtisodchi Semyuel Leng "agar hamma yetarli, qulay, yaxshi sharoitda yashaganda edi, hozir dunyo odamsiz qolgan bo'lur edi" deydi. Bundan aholining moddiy ahvoli, ma'naviy turmushi yuksalib borar ekan o'z navbatida inson psixologik nuqtai-nazardan ko'p farzand ko'rishni istaydi degan fikr tug'iladi. B.S. Urlanis "Moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan oilalarning farzandlari kam sonlidir" deb iqtisodiy omilning demografik omilga ko'rsatayotgan ta'sirini ifodalab beradi. SHuningdek u moddiy omil bilan ma'naviy omilning avlodlar almashinuviga hamisha bir hil yo'nalishda ta'sir etmasligini ham aytib o'tadi.

Aholi takror barpo bo'lishida muhim xisoblangan omillarni o'rganar ekanmiz mintaqalar doirasida aholi takror barpo bo'lishining bir-biridan farq qiluvchi tiplarini kuzatamiz.

Birinchi tip- bu guruhga kiruvchi davlatlarda yashovchi aholi o'z-o'zini qayta tiklamaydi. O'lib ketayotganlar mutloq miqdori hayotga yangi kelayotganlar miqdoridan ortiq. Mazkur guruh davlatlarini "depopulyatsiya" davlatlari deb ham atash mumkin. Bularga Yevropa, Boltiqbo'yi davlatlari, SHimoliy Amerikadagi ma'lum bir davlatlarni, Yaponiya, Gruzuya, Armaniston, Rossiyaning kiritish mumkin.

Ikkinchi tip- aholining umumiy soni oshmaydi, bu tipdagi davlatlar aholisida tug'ilish bilan o'lim ko'rsatkichi deyarli teng. Aholi soni haddan tashqari ko'payib yoki kamayib ketmaydi. Aholining ma'lum bir miqdori ushlanib turadi. Ushbu tipdagi davlatlar aholi takror barpo bo'lishining oddiy tipiga kiruvchi davlatlar deb ham ataladi.

Uchinchi tip- davlatlariga tug'ilish miqdori, hayotdan o'tib ketayotganlar miqdoridan ancha katta ko'rsatkichga ega. Aholi tarkibida progressiv yosh tarkibidagilar soni o'sib boradi. Keksa va qariyalar salmog'i kam sonli, bolalar, yoshlar ko'pchilikni tashkil etgan holda aholi takror barpo bo'lishi ijobiy baholanadi.

Aholi takror barpo bo'lishining kengaygan deb ataluvchi tipiga Afrikaning barcha davlatlari, Xorijiy Osiyo, Janubiy Amerikaning qator davlatlari, Avstraliya va Okeaniya, O'rta Osiyo davlatlarini kiritish mumkin. Mazkur davlatlarga tug'ilish miqdorining ko'pligiga qator omillar sabab bo'lib u o'z navbatida bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy



muammolarni keltirib chiqaradi. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari orasidagi katta farqlar aholi takror barpo bo'lishi ko'rsatkichlarining bir-biridan keskin ajralishlariga sabab bo'ladi. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy jrayonlari bo'lgan tug'ilish va o'lim darajasidagi o'zgarishlar aholi takror barpo bo'lishida ham sezilmasdn qolmaydi. Natijada aholi takror barpo bo'lishida bir turdan, ikkinchi o'tish boshlnadi. Buni fanda "demografik o'tish" deb nomlanadi.

Manbalarda ko'rsatilishicha aholi takror barpo bo'lishining dastlabki davrlarid tug'ilish ham o'lim ham yuqori bo'lgan natijada tabiiy o'sish juda past ko'rsatkichni tashkil etgan.

Ikkinchi davri XIX asrlarga borib taqaladi. Bunda tug'ilish yuqori, o'lim birmuncha me'yoriy holatda bo'lib aholi tabiiy o'sishi oldingiga nisbatan baland bo'lgan.

Aholi takror barpo bo'lishining kengaygan yana bir uchinchi yangi tipida o'lim o'zining eng past ko'rsatkichiga ega bo'ladi, tug'ilish yuqoriligicha saqlanib turadi. Natijada aholining tezlik bilan o'sishi kuzatiladi. Rivojlanayotgan davlatlarda kuzatilgan bu vaziyat 1950-1970 yillarga to'g'ri keladi. Huddi shu 1950-70 yillarda aholi o'sishi uning geografik joylashuvid ham aks etadi. Yer yuzining barcha mamlakatlarida aholining ko'payishida o'sish qayd etildi.

Navbatdagi tipda tug'ilish ham o'lim singari kamaya boradi, aholi tarkibid keksalar salmog'i oshadi. Yuqorida misol qilib keltirilgan Yevropa davlatlari uchun aholi takror barpo bo'lishining aynan shu oddiy tipi xos. Bu tipdgi davlatlard aholi o'rtacha umr ko'rish yoshi uzayadi, biroq o'lim borgan sari oshib boradi. Oqibatda tug'ilish bilan o'lim tenglashib, tabiiy ko'payish jarayoni manfiy tus oladi. Hozirgi vaqtda yer yuzidagi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar aholisi takror barpo bo'lishi bir-biridan keskin farq qilmoqda. Bu esa aholi takror barpo bo'lishini yirik ikki tipga ajratishni zarurligini ko'rsatmoqda. Qolganlari shu ikkalasi o'rtasidagi oraliq tip sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotlardan rivojlanayotgan davlatlarda ham tug'ilish borgan sari kamayayotganligigi, o'lim ko'rsatkichini pasaytirishga urinishlar, keyinchalik kengaygan aholi takror barpo bo'lishi o'rnini, oddiy ko'rinishdagisi egallashidan dalolat beradi.

Aholi takror barpo bo'lishi ko'rsatkichlari.

1. Hayotiylik koefitsenti.

$$K_x = \frac{T}{\bar{y}}$$

bu yerda:  $K_x$ - hayotiylik koefitsenti.

T- tug'ilganlar;

O'- o'lganlar.

2. Tug'ilish koefitsenti ( $K_T$ ):

$$K_T = \frac{T \times 1000}{\bar{A}}$$

bu yerda:  $K_T$ - tug'ilish koefitsenti;

T- bir yilda tug'ilganlar soni;

$\bar{A}$ -aholining o'rtacha soni.

3. O'lim koefitsenti ( $K_o$ ):

$$K_o = \frac{O \times 1000}{\bar{A}}$$

bu yerda:  $K_o$ - tug'ilish koefitsenti;

O' - bir yilda o'lganlar soni;

$\bar{A}$  - aholining o'rtacha soni.

4. Mutloq tabiiy ko'payish ( $\Delta TK$ )

$$\Delta TK = T - O'$$

5. Tabiiy o'sish koeffitsenti ( $K_{TO'}$ ):

$$K_{TO'} = \frac{(T - O') \times 1000}{\bar{A}}$$

$$K_{TO'} = K_T - K_{O'}$$

6. Maxsus tug'ilish koeffitsenti ( $K_{MT}$ ):

$$K_{MT} = \frac{T \times 1000}{A_{15-49}}$$

$\bar{A}_{15-49}$  - 15-49 yoshdagi ayollarning o'rtacha soni.

7. Maxsus 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi koeffitsenti ( $K_{BO'}$ ):

$$K_{BO'} = \frac{T \times 1000}{\frac{2}{3}N_1 + \frac{1}{3}N_0}$$

bu yerda: T- joriy yilda tug'ilganlar sonidan 1 yoshgacha o'lganlar soni;

$N_0$  va  $N_1$ - o'tgan va joriy yilda tug'ilganlar soni.

**Aholi takror barpo bo'lishining yig'indi, brutto va netto koeffitsientlari.**

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Inson dunyoga kelib yashaydi, balog'at yoshiga yetib, farzand ko'radi, nasl qoldiradi. Bu uzviy jarayon tufayli jamiyatda avlodlar almashadi, aholi takror va takror barpo bo'laveradi. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonini o'sib borishini ta'minlovchi asosiy biologik jarayondir. Lekin, u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muqit bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Ba'zan muttaxassislar aholi takror barpo bo'lishini Aholining uch asosiy: tabiiy, xududiy (migratsiya) va sotsial qarakatlari yig'indisi sifatida tahlil etadilaru

Aholining takror barpo bo'lishida uning tabiiy qarakati, ya'ni tug'ilish va o'lim asosiy omil hisoblanadi. Tug'ilishning yuqori bo'lishi aholi takror barpo bo'lishi jarayonini kuchaytiradi va aholi sonini o'sib borishiga olib keladi. Avlodlarning almashuvi, ularning uzoq yashashi esa o'lim jarayoniga bog'liqdir. O'z navbatida inson xayotida o'limning sodir bo'lishi yuqorida qayd etilganidek, qator endogen va ekzogen omillar, aksariyat xollarda jamiyatdagi sotsial muqit ta'sirida sodir bo'ladi. Inson hamisha uzoq umr ko'rishga intiladi. Qar bir jamiyatda insonning uzoq umr ko'rishi, avlodlar salomatligi uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi. Natijada insonlarning uzoq umr ko'rishiga, o'lim xollarini esa sotsial chora-tadbirlar bilan boshqarishga erishiladi.

Avlodlarni uzoq umr ko'rishi, tashqi muqit bilan uzoq muloqatda bo'lishi uning demografik mayliga ham ta'sir ko'rsatadi. Aholi tez sur'at bilan kamayib borishiga ham omil bo'ladi. Natijada avlodlar o'rtasida tug'ilishni, ya'ni nasl qoldirishni boshqarish xollari keng tarqala boshlaydi. Demak, Aholining takror barpo bo'lishi uning tabiiy qarakatiga bog'liq. Aholi tabiiy qarakati esa o'z vaqtida sotsial muqit ta'sirida o'zgarib borardi.

Ma'lum hudud va davlat aholisining takror barpo bo'lishida Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, ya'ni hududiy qarakati ham ahamiyatlidir. Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha aholi takror barpo bo'lishining asosi bo'lgan tug'ilish, Shahar turmush tarzi ta'sirida kamayib borgan. Aksincha, qishloq turmush tarzi tug'ilishni nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishiga olib kelgan. Aholining Shahardan qishloqqa, yoki qishloqdan Shaharga kelib yashashi bevosita uning reproduktiv mayliga ta'sir etib, tug'ilishni kamayishi yoki ko'tarilishiga olib keladi. Xuddi shunday Aholining sotsial qarakati, ya'ni uning ma'lumotlitlik darajasini oshib borishi, ilm malaka talab etgan xizmat doirasida faoliyat ko'rsatishi, tibbiy bilimlardan ko'proq xabardor bo'lishi, uning uzoq umr ko'rishiga, nasl qoldirish-farzandlar ko'rishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyatning paydo bo'lishi, jamiyatning rivojlanishi davomida aholi takror barpo bo'lishini boshqarish tizimida katta o'zgarishlar kuzatilgan. Aholining takror barpo bo'lishi, tug'ilish va o'lim jarayonlarini boshqarish orqali ma'lum maqsadga yo'naltiriladi.

Aholining takror barpo bo'lishi, ya'ni avlodlar almashinish jarayoni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, davlatlarda, millatlarda o'ziga xos xususiyatga egadir. Ana shu xususiyatlarni aniq bilish uchun aholi takror barpo bo'lishini ifodalovchi maxsus ko'rsatkichlar, ya'ni koeffitsientlardan foydalaniladi.

Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsienti. Qar bir ayolning reproduktiv, ya'ni farzand ko'rish davrida (15-49 yosh) o'rganilayotgan davrdagi tug'ilish darajasi saqlangan holda, nechta qiz bola ko'rish mumkinligini aniqlab beradi. Ushbu koeffitsient quyidagi formula orqali ifodalanadi.

$$R = \delta \sum_{15}^{49} \times fx$$

$R$  -brutto koeffitsientning ifodasi.

$\delta$ -tug'ilganlarning umumiy miqdorida qiz bolalar salmog'i(0,488).

$fx$ -yosh guruqlari bo'yicha tug'ilish koeffitsienti.

$\sum_{15}^{49}$  - 15-49 yosh guruqlari tug'ilish koeffitsientining yig'indisi.

Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsientida o'lim qisobga olinmaydi.

Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsienti. Bu koeffitsient, aholi takror barpo bo'lishining sof koeffitsienti bo'lib, u avlodlar almashinuv darajasini aniq ifodalaydi, chunki bu ko'rsatkichda tug'ilgan qiz bolalarni onasini yoshiga yetgunga qadar yashab borganlari qisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsientida o'lim eqtimoli xisobga olinadi va netto koeffitsienti formulasi quyidagicha ifodalandi:

$$R_0 = RLX$$

$R$ -brutto koeffitsient.

$Lx$ -Onasining yoshigacha yashagan qizlar.

Agar,  $R_0 > 1$  bo'lsa, aholi o'sib boradi va kengaygan aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'ladi;  $R_0 < 1$  bo'lsa, aholi soni kamayib boradi va qisqargan aholi takror barpo bo'lishi yuz beradi;  $R_0 = 1$  bo'lsa, aholi soni o'zgarmaydi. Bunday xolni oddiy aholi takror barpo bo'lishi deyiladi.

**Aholi takror barpo bo'lishida demografik jarayonlar va migratsiyaning roli.** Demografik jarayonlar – aholi o'rtasidagi tug'ilish, o'lim, nikohga kirish, ajralish kabi uzluksiz sodir bo'ladigan jarayonlar. Demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikohga

kirish, ajralish kabilar analiz qilinar ekan, ularni quruq statistik ma'lumotlar orqali aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun har bir jarayonning o'z koeffitsienti hisoblab chiqiladi. Bu koeffitsientlar har bir demografik jarayonning ming kishiga nisbatan miqdori hisoblanadi. Shuning uchun koeffitsientlar promilleda o'lchanadi.

Aholining migratsion harakatiga ko'plab omillar ta'sir etishi mumkin. Ularga ijtimoiy: siyosiy, milliy, diniy, ekologik, harbiy va demografik omillarni kiritish mumkin. Umuman xalqaro migratsiyani olti guruhga ajratiladi:

1. Oilaviy va boshqa sabablarga ko'ra, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ketgan emmigrantlar.

2. Migrant mehnatkashlar.

3. Nolegal immigrantlar.

4. Qochoqlar.

5. Studentlar, stajer-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va uqituvchilar.

6. Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar va h.k.

Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni mehnat migratsiyasi egallaydi. Chunki hozirgi davrda insonning yashaashi uchun iqtisodiy omilning ahamiyati kuchaydi. Dunyoda va uning alohida hududlarida jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy davrlarida turli ijtimoiy guruhlaridagi migratsion harakatni o'rganishda migratsiya ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ayniqsa migratsiya jarayonini demografik nuqtai nazardan o'rganilganda uning ko'rsatkichlari atroflicha tahlil etiladi.

Migratsiya ko'rsatkichlari:

1. Migratsiyaning absolyut va nisbiy son ma'lumotlari.

2. Migratsion harakatning intensivligi yoki koeffitsienti ma'lum hududda yashovchi aholida har 100 kishiga to'g'ri keluvchi migrantlar soni).

3. Migratsiya saldosi (bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan, ko'chib ketgan aholining ayirmasiga) teng.

Aholining bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan ikkinchi muhitga o'tishi uning demografik mayliga (nikohga kirish va oila qurishiga, oiladagi farzandlar soniga, oila mustahkamligiga munosabati va h.k.) bevosita ta'sir etadi. Shuningdek, aholi migratsiyasi mehnat resurslari shakllanishida ham muhim omillardan hisoblanadi. Migrantlar oqimi aholining yosh jinsiy tarkibida o'z aksini topadi. Mehnat resurslari ortib boradi. Natijada qator muammolar yuzaga keladi yoki aksincha mehnat resurslarining kamayib ketish hollari ham yuzaga kelishi mumkinki, bu ham muammolarga sabab bo'ladi.

**Demografik o'tish nazariyasi. Demografik o'tish bosqichlari.** Demografik o'tish, deb aholi takror barpo bo'lishini, bir turdan ikkinchi turga (kengaygan aholi takror barpo bo'lishidan, qisqargan aholi takror barpo bo'lishiga) o'tishiga aytiladi. Demografik o'tish kontseptsiyasi fanda birinchi marta frantsuz demografi L.Landri tomonidan 1903-1934 yillarda yaratilgan va uni demografik revolyutsiya deb atalgan. 1945 yilda amerikalik demograf F.Noutsteyn «Demografik o'tish» iborasini taklif etdi.

XIX asrning oxirida aholi tug'ilishi va o'lim xollari biologik qonuniyatlargagina emas, balki sotsial shart-sharoitlar bilan bog'liq holda sodir etilishi qayd etilgan. Jamiyat tarixiy rivojlanishi jarayonida aholi takror barpo bo'lishida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. 1950 yillarga kelib, jamiyatda demografik jarayonlar (nikoq, tug'ilish va o'limni) boshqarish jarayoni keng tarqaldi. Jamiyat taraqqiyotida ro'y bergan yirik ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar, Aholining demografik mayliga bevosita ta'sir etdi. Ayniqsa, qator

davlatlarda Aholining farzandlar soniga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ko'pbolalik o'rnini o'rtacha bolalik, kam bolalik egallay boshladi. Oilani ko'p farzandga bo'lgan talabi asta-sekin urbanizatsiya jarayoni, sanoatni rivojlanishi, ayollar bilim darajasini oshib borishi, ijtimoiy qayotdagi o'rnini o'zgarib borishi bilan bog'liq holda kamaya bordi. SHuningdek jamiyatda ilm-fanning, ayniqsa tibbiyotning rivojlanishi, aholiga tibbiy xizmatning keng tarqalishi aholi o'rtasida o'limni keskin kamayishiga, o'rtacha umr ko'rish davrini esa uzayishiga sabab bo'ldi. Xomiladorlikni oldini oluvchi vositalar xaqidagi bilimlar muntazam shakllanib bordi. Bu vositalarldan foydalanish, esa keng tarqala boshladi. Qator davlatlarda tug'ilishni nisbati yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi, aholi sonini birdan o'sib borishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon dunyodagi rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa 1960-1970 yillarda keskin tus oldi. Aholi sonini tez sur'atlar bilan ko'payib borishini aholishunos olimlar «Demografik revolyutsiya» yoki «Demografik portlash» deb atadilar. Aholining bunday tez sur'at bilan ko'payib borishi qar bir davlat uchun ijtimoiy iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi. Natijada ko'pgina davlatlar o'sib borayotgan aholi sonini cheklashga qarakat qildilar, «Tug'ilishni nazorat etish» dasturi qabul qilindi va tug'ilish jarayoni ekzogen (tashqi) omillar ta'sirida boshqarila boshlandi. Aholi takror barpo bo'lishini tashkil etgan ikki asosiy jarayon tug'ilish va o'limni boshqarilishi aholi takror barpo bo'lish sur'atini, o'zgarishiga olib keldi. Aholi takror barpo bo'lishi bir turdan ikkinchi turga o'ta boshladi. Ushbu xolni yuqorida qayd etilganidek-«demografik o'tish», deb belgilandi. Demografik o'tish jarayoni bosqichma-bosqich sodir bo'ldi. Muttaxassislar tomonidan demografik o'tish to'rt bosqichga ajratildi.

Birinchi bosqich. Bu bosqich rivojlangan mamlakatlarda XX asr o'rtalarida kuzatildi. Unda aholi o'rtasida tug'ilish va o'lim xollari kamaya boshladi. Lekin o'lim tug'ilishga qaraganda juda tez sur'at bilan kamayadi. Ba'zi davlatlarda esa tug'ilish deyarli kamaymaydi. Natijada Aholining tabiiy o'sishi juda yuqori darajada bo'ladi.

Ikkinchi bosqich. O'limning kamayishi jarayoni davom etadi va kamayishi eng kulminatsion nuqtaga yetadi. Tug'ilishning kamayish sur'ati esa jadallashadi. Natijada, aholi tabiiy o'sishi sekinlasha boradi.

Uchinchi bosqich. Ushbu bosqichda yuqori bosqichlarda ro'y bergan tug'ilishni va o'limni kamayishi, aholi o'rtacha umr ko'rish muddatini uzayishi natijasida aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payib boradi. Bu xol o'lim xolatini ko'payib borishiga olib keladi. Tug'ilish yana ham kamayib boradi va oddiy aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'ladi. Ya'ni netto koeffitsient 1 ga tenglashadi. Boshqacha qilib aytganda. Qar bir ona o'z o'rniga faqat bittadan qizni-bo'lajak onani qoldiradi xolos. Bu bosqichda aholi yosh tarkibida stabillashuv to'liq kuzatilmaydi. Aholi tarkibida o'lim xollari kam bo'lgan guruh-yoshlar sallmog'i nisbatan baland bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda o'lim hollari yuqori darajada bo'ladi. O'lim va tug'ilish koeffitsientlari tenglashadi. Demografik stabillashuv jarayoni tugallanadi.

Dunyodagi qator rivojlangan davlatlar XX asrning 80 yillarida uchinchi bosqichning tugallanish davriga o'tganligi kuzatiladi. SHu davrda, ko'pgina rivojlangan davlatlar esa demografik o'tish birinchi bosqichning oxirigi va ikkinchi bosqichning boshlanish davridadirlar.

Demografik o'tish davri dastavval Evropada 18 asrda boshlanadi. Shunda tabiiy o'sish 20-30% ga teng bo'ldi, buni xaqiqatdan ham demografik inqilob deb atash mumkin. Chunki 10-20 yil oldin atiga 5-10% ga teng bo'lgan tabiiy o'sish qisqa vaqt ichida 2-3 martaga oshdi.

Ushbu jarayon Evropada 100-150 yil davom etdi. Undan keyingi davrda Evropa mamlakatlari demografik o'tishning ikkinchi fazasiga o'tdi. Hozir ushbu mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tishning uchinchi fazasidadirlar. Binobarin, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Italiya, Daniya, Vengriya, Niderlandiya aholini oddiy takror barpo etilishi ham ayrim yillarda ta'minlanmaganligi kuzatilmoqda, ya'ni o'lganlarning soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'p bo'lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tish jarayonining 1-fazasini o'tamoqda.

AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari 2-fazani boshidan kechirmoqdalar. Xitoy va boshqa bir qator mamlakatlar 2-fazaga o'tish arafasida turibdi.

O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida 1-fazadan 2-fazaga o'tish uchun zamin tayyorlandi, bu jarayon yaqin 10-15 yil mobaynida boshlansa, ajab emas. Dunyo aholisi ana shu davr ichida 2,4 marta o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich Osiyo (2,6) va Afrikaga (3,6) xos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Evropada, 1,4 martaga teng bo'ldi. Aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi Afrikada, Markaziy va Janubiy Osiyoda, Markaziy Amerikada kuzatilmoqda. Shu vaqtning o'zida Evropaning ayrim mintaqalarida aholi soni juda past sur'atlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti.

**Tug'ilish-demografik jarayon sifatida. Tug'ilish koeffitsientlari.** Tug'ilish-demografik jarayonlardan biri bo'lib, u ham qator ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar ta'sirida rivojlanadi. Spuniningdek jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit tug'ilish darajasini belgilaydi. Biologik jarayon bo'lmish tug'ilish darajasi ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq. Bularga ayollarning jamiyatdagi mavqei, bandligi, bolalar o'limi, moddiy shart-sharoit, davlatning demografik siyosati, aholining atrkibi va hokazolar kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida aholining yashash sharoiti, aholi tug'ilish darjasida geografik farqlarni yaqqol ifodalaydi.

B.S. Urlanis "qaerda kambag'allik va qashshoqlik bo'lsa, o'sha yerda turmush sharoit, madaniyat past darajad bo'ladi" deb o'z fikrini bildiradi. Haqiqatan aholining turmush sharoiti, madaniyati yuksalgan sayin uning o'rtacha umr ko'rish davri uzayadi. Aholi tarkibida qariyalar miqdori oshadi, topgan daromadlari bolalari ehtiyojlarini qondirish va o'zlarining yaxshi yashashig sarflashadi. Demak aholi madaniy darajasining ko'tarilishi tug'ilish ko'rsatkichining pasayishiga xizmat qiladi desak hato qilmaymiz.

XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan XX asrga kelib aksariyat rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadllashuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, madniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko'tarilishi natijasida tug'ilish bir muncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug'ilish yuqori, o'lim past bo'lib, aholi takror barpo bo'lishi intensiv holatd bo'lgan bo'lsa XX asrda huddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtda tug'ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu ayollarning jamiyatdagi o'rni. Ayniqsa, ayollarning bilim darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi tug'ilishga, oiladagi farzandlar soniga ta'sir etadi. Oilad faqat farzand trbiyasi va uy ishlari bilan band bo'lgan ayolga nisbatan ma'lumotli, biron bir sohada ishlaydigan ayolda farzandlar kam bo'ladi. Chunki bu ayollar kechroq turmush quradi, ularning bilim, madaniyat darajasi, qiziqishlari ko'p bollikni inkor etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tug'ilishga ta'siri har doim bir xil kechmaydi. Ba'zi iqtisodiy nochor, qoloq davlatlarda tug'ilish ko'rsatkichi haddan tashqari balnd. Masalan,

Afrikada 40 % va undan ham yuqorini tashkil etadi. Odatda nochor, qashshoq oilalarda farzandlar ko'p tug'iladi va o'z navbatida o'lim darajasi ham yuqori bo'ladi.

Tug'ilishga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblandi. Erta nikoh qurish tug'ilish darajasini oshirsa, aksincha kech nikohga kirish, ajralishning kamayishi, tug'ilish darajasini ko'tardigan qulay demografik vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlaridagi demografik vaziyatni qulay deb baholash mumkin. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlar erda nikohga kiradi. G'arbiy Yevropada esa aksincha. Nikoh qurish jamiyatda avlodlar almashinuvi uchun zamin bo'lib xizmat qilsa, ajralish tug'ilish darajasini sezilarli pasayishiga sabab bo'ladi. Qaerda ajralishlar ko'p bo'lsa, o'sha hududda tug'ilishning pastligini kuzatmiz. Ajralishning oldini olish, tug'ilish darajasini bir me'yorda boshqarish davlat ahamiyatiga ega masala hisoblandi. SHu boisdan demografik jaryonlarni nazorat qilish, ba'zi xollarda choralar ko'rish, tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir etish maqsadlarida har bir davlat tomonidan "demografik siyosat" yuritiladi. Aholining tabiiy o'sishi past bo'lgan geografik hududda tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat olib boriladi. Bunda aholi ham moddiy ham ma'navi rag'batlantiriladi, yosh oilalar uchun sharoitlar yaratiladi, yuqorida keltirilgan ajralishlar davlat tomonidan nazoratga olinadi va hokazo. Hozirda bunday tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat g'arb davlatlarida yurg'uzilmoqda. Aksincha tug'ilishni cheklash degan siyosatni ilgari surayotgan davlatlar ham mavjudki, bular tabiiy ravishda aholisi tezlik bilan ko'payotganligi sabab shunday siyosat olib borishga majbur. Tug'ilishni cheklash siyosati rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlariga xos va mos. Jumladan, aholisining o'sish sur'ati baland bo'lgan Xitoy, Hindiston, Indoneziya kabi davlatlarda dunyo aholisining 41.0 foizi yashaydi. Xitoyda erda oila qurish, ikkitadan oshiq farzanda o'rinish butunlay man etilgan.

Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri turli geografik hududda bir xil emas. Bu esa uning ko'rsatkichlarining turli joyda xilma-xil bo'lishiga olib keladi. Demak aholi takror barpo bo'lishida, o'sish sur'atining pasayishida yoki ko'tarilishida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi deyish maqsadga muvofiq.

**Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Tug'ilish jarayonini nazorat qilish.** Tug'ilish-tirik tug'ilgan bolalarni ifodalovchi biologik jarayon bo'lib, u insonlarning reproduktiv mayl, ya'ni farzand ko'rishga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir. Reproductive mayl esa inson yashayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Natijada inson o'z pushtiligidan, ya'ni bola ko'rishga bo'lgan biologik imkoniyatidan to'la foydalanmaydi. O'zining bolani tarbiyalab voga etkazish uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, farzand ko'rishga harakat qiladi, ya'ni farzandlar tug'ilishini cheklaydi, nazorat etadi.

Tug'ilish darajasi-tug'ilish koeffitsientlari yordamida o'rganiladi. Tug'ilishning umumiy, maxsus va xususiy koeffitsientlari mavjuddir. Aholi o'rtasida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali reproduktiv kayfiyatni o'rganish hozirgi davrning eng maqbul taxliliga aylanib bormoqda. Aholi o'rtasida utkazila- digan tadqiqotlar aksariyat hollarda ayollar fikrini o'rganish bilan izohlanadi. Ayollarning ma'lumot darajasi ortib borishi bilan bola ko'rish miqdori kamayib boradi. Ayolning ma'lumot darajasining o'sishi bola soni kamayishiga qaratilgan bo'ladi. Bola ko'rish haqidagi ichki istak bilan tashqi ta'sir biri-biriga mos kelmasligi mumkin. Ko'pchilik ayollar, ayniqsa, musulmon xalqtarining ayollari bolalari ko'p bo'lishini xohdaydilar, lekin bolalarga ota-onalik vazifalari, yuklarining ko'p qismi ayollar zimmasiga tushib qolishi ularni bolalar sonini chegaralashga majbur qilmokda. Nima sababdan bolalar ko'p bo'lishining oldini

olyapsiz, degan savolga bolalar tarbiyasi bilan shurullanish ayollarning jamoat ishlab chiqarishidan ajrab kolishiga sabab bo'lishi, bolalarni uy-joy bilan ta'minlashning qiyinligi, ayollar sog'irini yuqotib quyishini sabab qilib ko'rsatmoqdalar.

Reproduktiv axloq umumiy axloqning bir bo'lagi bo'lib, bu tug'ish yoki tutishni inkor qilish haqidagi shaxsning ruhiy kechinmasi, munosabatlarining yig'indisidir.

Ichki kechinma – bu extiyoj, bolali bo'lishga extiyoj, hissiyot.

Tashqi omil esa jamiyatdagi ijtimoiy talab, qadriyat va boshqalar.

Reproduktiv axloqning tashqi omili ota-onalik, bolalik qadriyatlarining jamiyatdagi o'rni bilan baholanadi va inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etadi, ichki ehtiyoj esa shaxsning shaxsiy extiyoji, oiladagi bolaga bo'lgan extiyojdir.

Reproduktiv kayfiyat shaxsning bola tug'ish yoki tug'maslik to'g'risidagi kechinmalarining yig'indisi hisoblanib, bu so'z mutlaq har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatdir. SHu bilan birga reproduktiv kayfiyat jamiyat, bir guruh shaxslar qarashlarining bir bo'lagi sifatida, ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi.

Tashki ta'sir deganimizda rasman qonunlashtirilmasada, lekin jamiyat o'rtasida ota-ona bo'lish istagi, jamiyat o'rtasidagi farzandlilarga bo'lgan xurmat-e'tibor, qadrlanish va boshqalar har bir inson ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Reproduktiv kayfiyat shaxs hayotida bir necha bosqichlarda amalga oshadi: bolali bo'lish istagi, bolali bo'lishga qiziqish, bolali bo'lishdan maqsad, bolali bo'lish rejasi, uni amalga oshirish, natija. Reprodukativ kayfiyatning natijasi, albatta, farzand ko'rish bilan emas, balki farzand ko'rishning oldini olish bilan ham yakunlanishi mumkin. Reprodukativ kayfiyatni to'la belgilovchi ma'lumot aholini umumiy ruyxatga olishda aniqlanadi. Aksarnyat hollarda ma'lum hududlarda tanlov asosida sotsiologik tadqiqot o'tkazish orqali aniqlanadi.<sup>23</sup>

**Oilani rejalashtirish usullari. O'limning demografik jarayon sifatida o'rganilishi.** Uy xo'jaligi – birga xo'jalik yurituvchi, birga yashovchi kishilarni biriktiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy yacheykadir. Uy xo'jaligi tushunchasi oiladan farq, qilib, unga faqat qarindoshlik munosabatlari asosida birikkan kishilargina emas, balki iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar asosida birga yashovchi begona kishilar hamda alohida, mustaqil xo'jalik yurituvchi yolg'iz kishilar ham kirigiladi. Uy xo'jaligi tushunchasi hamma davlatlarda ham bir xil emas. U har bir davlatning ijtimoiy - iqtisodiy sharoitiga, unda istiqomat etuvchi xalqning turmush tarziga, urf-odatlariga bog'liqdir. Ba'zi davlatlarda uy xo'jaligi uchun kishilarning birga yashashi, boshqa bir davlatda esa ularning birga ovqat tayyorlashi, birga ovqatlanishi asos qilib olingan.

Aholishunoslikning rivojlanishida oilaparning rivojlanishi katta ahamiyatga ega. CHunki yuqorida aytib o'tganimizdek, aholi oilalarda yashaydi. Oilalar mikdoriniig ko'payib borishi bevosita aholishunoslikning rivojlanishiga asos bo'la oladi. Oilalar mikdori respublika buyicha o'sib borayotganligi xarakterlansada, bu jarayon shahar va kishloqdarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, shahardagi oilalar hajmi qishlok oilalari hajmiga nisbatan ancha kamni tashkil qiladi. Respublikadagi jami oilalarning 34,6 foizi shahar joylarida, 65,4 foizi qishloq joylarida istiqomat qilishadi. Bu hol o'zbek oilalarining kadimdan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib kelishi hamda respublikada sanoat tarmoqlari yaqindan boshlab rivojlanganligi bilan bog'liqdir. Respublikada istiqomat kilayotgan oilalar, oila a'zolarining milliy tarkibi asosan ikki guruhga bo'linadi:

1. A'zolari bir xil millatga mansub oilalar.
2. A'zolari turli millatga mansub baynalmilal oilalar.

<sup>23</sup> Исоқова Т., Хўжақулов Х. Демография статистикаси. Т.: «ЎАЖБНТ» Маркази, 2004, 144 б.



O'zbekistondagi oilalarning asosiy qismi a'zolari bir xil millatga mansub bo'lgan oilalardir. Ularning salmog'i 1989 yilgi aholi ruyxati ma'lumotiga asosan jami oilalarning 87,3 foizini tashkil etadi. Respublikada baynalmilal oilalar sonining ko'payishi 1970-1989 yillarga to'g'ri keladi. Bu yillarda bu ko'rsatkich 10,9 foizdan 12,7 foizga yetdi. Baynalmilal oilalarning shaxar joylarida ko'proq uchrashining sababi, shahar aholisining qishlok aholisiga nisbatan ko'p millatli ekanligidir. O'zbekistondagi eng ko'p millatli shaharlar Toshkent, Andijon, Samarkand, Sirdaryo viloyatlarida bo'lib, ularda O'zbekistondagi jami millat vakillari istiqomat qilishadi. Umuman, O'zbekistonning bironta viloyatini bir millatli deb bulmaydi. Ularning hammasida ham o'lkamizning asosiy millati bo'lmish o'zbeklar bilan birga turli millat vakillari istiqomat qilishadi. Oilalarning ijtimoiy-demografik tarkibi demografik tarkibining asosini tashkil etadi. Oilaning ijtimoiy-demografik tarkibi deganda, oilaning unda yashab kelayotgan kishilarning nikoh, qarindoshlik munosabatlari, ijtimoiy guruhlari va miqdori asosida turlarga bo'linishi tushuniladi.

Oila unda istiqomat qilayotgan kishilar tarkibiga qarab xilma-xildir: oddiy oilalar va murakkab oilalar. Oddiy oilalar er-xotin bolalari bilan, er-xotin bolasiz, ona va bolalar yashaydigan oilalar, ota va bolalar bilan yashaydigan oilalar bo'lishi mumkin. Murakkab oilalar deb ikki yoki undan ortiq oila bolalari bilan yoki bolasiz, ota-onalari va boshqa qarindoshlari bilan yashaydigan oilalarga aytiladi. Murakkab oilalarning kamayishiga asosiy sabab kuyidagilardir:

- Respublikamiz mustaqillikka erishganidan boshlab Prezidentimiz farmoniga ko'ra, har bir oilani alohida yer uchastkasi bilan ta'minlash amalga oshirilmokda.
- Oila a'zolarining ma'lumotlilik darajasi ortganligi sababli alohida yashash ko'paydi.
- Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat oddiy oilalar ko'payishini takror etmokda.

**O'limning umumiy va maxsus koeffitsientlari. O'lim jadvali va uni tuzish.** O'lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblanildi. Aholi o'limi turli sabablar ntijasid ro'y beradi. Aholining tabiiy o'sishi hamda kamayishida muhim demografik jarayon bo'lib ishtirok etadi. O'limning ro'y berishida asosan endogen va ekzogen omillarni sabab qilib ko'satildi.

Endogen omillar- organizning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan omillardir. Odatda endogen omillar tufayli keksa yoshdagi aholi ko'proq o'lim topadi. Buni odatda me'yoriy hodisa deb baholashadi. Biroq aholining yosh qatlamida ham endogen sabablar tufayli o'lim hodisasi ro'y beradi. Bularga davosi yo'q irsiy kasalliklar, nojo'ya voqea-hodisalar kiradi.

Ekzogen omillar- odamlarda tashqi ta'sir bilan bog'liq paydo bo'ladigan o'limlar bo'lib bu omillar oqibatid aholining turli yoshdagi kishilari turli vaqtda turli joyda vafot etadilar. Ushbu omillarga ichki yuqumli kasalliklar, kasb kasalliklari, og'ir mehnat va mehnat sharoitlari oqibatida yuzaga kelgan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zahrlanish, narkomaniya, alkogolizm va hokazolar kiradi. Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini ximiyalashtirish natijasida atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

O'lim ko'rsatkicha o'rganilayotgan hudddagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasiga, aholining yashash sharoiti va sog'liqni-saqlash tizimining ahvoliga chambarchas bog'liq. Ushbu sohalarning rivojlanganlik darjasi qanchlik baland bo'lsa, o'lim ko'rsatkichi shunchalik past bo'ladi va aksincha. Aksariyat o'lim darajasi

yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda bularning darjasi past bo'lganligi kuztiladi. Masalan, Afrika davlatlarida dunyo bo'yicha umumiy o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 %, ba'zi joylarda 25 % ga ham yetadi (Nigerda- 24 %). O'lim darajasi baland bo'lgan ikkinchi mintaqa Yevropa hisoblandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan yuqori. O'limning umumiy ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlmaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy baquvvat bo'lishiga qaramasdan aholi o'rtasida o'lim ko'pligi bilan ajralib turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq. SHu boisdan fanda aholi o'limining yosh bo'yicha taxlili alohida o'rganildi.

Evropa aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichi yosh bo'yicha qaralganda bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda aksincha juda baland. Aholi yosh tarkibida keksalar ko'pligini inobatga olsak tabiiy ravishda bu umumiy o'lim ko'rsatkichiga ta'sir etishini aniqlaymiz. Bundan tashqari Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo'ladigan o'lim hodisasi ko'p uchraydi.

Tug'ilish darjasining pastligi, o'limning tug'ilishdan ko'pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa demografik vaziyatida aynan shu holat oddiy aholi tkror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Taqqoslash uchun tanlab olgan qit'amiz Afrikada esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi qoloqlik, sog'liqni saqlash sohasining yetarli rivojlanmaganligi, tug'ilayotgan farzandlar sonining haddan tashqari ko'pligi va ular o'rtasid o'limning yuqoriligi, umuiy o'lim ko'rsatkichining balandligiga olib kelmoqda. O'lim hodisasining katta yoki kichik ko'rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo'lgan bollar o'lii bilan bevosita bog'liq. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan go'daklar o'limi dunyo bo'yicha 56 tani tshkil etadi. SHundan Afrikada bu raqam 89 ta, Yevropada 9 ta, Okeaniyada 26 ta, Osiyoda 53 ta va Amerikada eng kam 7 taga teng (2004 yil). Ma'lumki, bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi bu birinchi yil bolalr hayotida ro'y beradigan o'lim hodisasidir. Go'daklar o'limini qiyoslash borasida maxsus shkaladan foydalaniddi.

**O'lim sabablari. Bolalar, go'daklar o'limi. Perinatal, neonatal, Postneonatal o'lim. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi.** Aholi o'limi aholini takror barpo bo'lishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Chunki har bir davlat aholisining tabiiy ko'payishi, ijtimoiy demografik guruhlarning shakllanishi aholining o'limi bilan uzviy bog'liqdir. O'lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblanildi. Aholi o'limi turli sabablar ntijasid ro'y beradi. Aholining tabiiy o'sishi hamda kamayishida muhim demografik jarayon bo'lib ishtirok etadi. O'limning ro'y berishida asosan endogen va ekzogen omillarni sabab qilib ko'satildi.

Endogen omillar- organizning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan omillardir. Odatda endogen omillar tufayli keksa yoshdagi aholi ko'proq o'lim topadi. Buni odatd me'yoriy hodisa deb baholashadi. Biroq aholining yosh qatlamid ham endogen sabblar tufayli o'lim hodisasi ro'y beradi. Bularga davosi yo'q irsiy kasalliklar, nojo'ya voqea-hodisalar kiradi.

Ekzogen omillar- odamlarda tashqi ta'sir bilan bog'liq paydo bo'ladigan o'limlar bo'lib bu omillar oqibatid aholining turli yoshdagi kishilari turli vaqtda turli joyda vafot

etadilar. Ushbu omillarga ichki yuqumli kasalliklar, kasb kasalliklari, og'ir mehnat va mehnat sharoitlari oqibatida yuzaga kelgan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zahrlanish, narkomaniya, alkogolizm va hokazolar kiradi. Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini ximiyalashtirish natijasida atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

O'lim ko'rsatkicha o'rganilayotgan huddagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasiga, aholining yashash sharoiti va sog'liqni-saqlash tizimining ahvoriga chambarchas bog'liq. Ushbu sohalarning rivojlanganlik darjasi qanchlik baland bo'lsa, o'lim ko'rsatkichi shunchalik past bo'ladi va aksincha. Aksariyat o'lim darjasi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda bularning darjasi past bo'lganligi kuztiladi. Masalan, Afrika davlatlarida dunyo bo'yicha umumiy o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 %, ba'zi joylarda 25 % ga ham yetadi (Nigerda- 24 %). O'lim darjasi baland bo'lgan ikkinchi mintaqa Yevropa hisoblandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan yuqori. O'limning umumiy ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlmaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy baquvvat bo'lishiga qaramasdan aholi o'rtasida o'lim ko'pligi bilan ajralib turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq. SHu boisdan fanda aholi o'limining yosh bo'yicha taxlili alohida o'rganildi. Evropa aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichi yosh bo'yicha qaralganda bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda aksincha juda baland. Aholi yosh tarkibida keksalar ko'pligini inobatga olsak tabiiy ravishda bu umumiy o'lim ko'rsatkichiga ta'sir etishini aniqlaymiz. Bundan tashqari Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo'ladigan o'lim hodisasi ko'p uchraydi.

Tug'ilish darjasining pastligi, o'limning tug'ilishdn ko'pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa demografik vaziyatida aynan shu holat oddiy aholi tkror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Taqqoslash uchun tanlab olgan qit'amiz Afrikada esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi qoloqlik, sog'liqni saqlash sohasining yetarli rivojlanmaganligi, tug'ilayotgan farzandlar sonining haddan tashqari ko'pligi va ular o'rtasid o'limning yuqoriligi, umuiy o'lim ko'rsatkichining balandligiga olib kelmoqda.

O'lim hodisasining katta yoki kichik ko'rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo'lgan bollar o'lii bilan bevosita bog'liq. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan go'daklar o'limi dunyo bo'yicha 56 tani tshkil etadi. Shundan Afrikada bu raqam 89 ta, Yevropada 9 ta, Okeaniyada 26 ta, Osiyoda 53 ta va Amerikada eng kam 7 taga teng (2004 yil).

Ma'lumki, bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi bu birinchi yil bolalar hayotida ro'y beradigan o'lim hodisasidir. Go'daklar o'limini qiyoslash borasida maxsus shkaladan foydalaniladi.

Go'daklar o'limi koeffitsentining shkalasi

Go'daklar o'limi koeffitsenti, %o da	Go'daklar o'limi darajasi
20 gacha	juda past
20-34	past

35-49	o'rta
50-64	baland
65 va undan yuqori	o'ta baland

Go'daklar o'limi koeffitsientining pasayishi aholi umumiy o'lim darajasining qisqarishida muhim ro o'ynaydi.

BMT ma'lumotlarining taxliliga ko'ra go'daklar o'limi ba'zi Osiyo davlatlarida 1-1.5 hatto 2 martaga oshganligi kuzatiladi. Bularga misol tariqasida quyidagi jadvalni keltirish o'rinlidir.

**go'daklar o'limi** – hayotining birinchi yilida sodir bo'lgan bolalar o'limi hodisasi;

**neonatal o'lim** – tug'ilishdan so'ng 0-27 kun oralig'ida sodir bo'lgan o'lim hodisasi;

**bolalar o'limi** – 0-4 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi hodisasi;

**perinatal o'lim** – homilaning 28 haftadan boshlab/ chaqaloq hayotining dastlabki 7 sutkasigacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

**onalar o'limi** – homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi asoratlar va abortlar oqibatida sodir bo'lgan ayollar o'limi hodisasi. Onalar o'limiga, o'lim sodir bo'lgan joyidan (tug'ruqxonada, ichki kasalliklar, jarrohlik, onkologiya, yuqumli kasalliklar shifoxonasi yoki bo'limlarida va boshqa joylarda), o'limning homiladorlik va tug'ish bilan bog'liqligidan (baxtsiz hodisalardan tashqari) hamda homiladorlik davridan qat'iy nazar, tuqqandan so'ng 42 kun davomida yoki homiladorlik davrida vafot etgan barcha tuqqanlar, homilador ayollar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi;

**o'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari;

100 000 aholiga nisbatan o'limning alohida sabablari koeffitsienti -hisobot yilida alohida sabablarga ko'ra o'lganlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 100 000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi;

Bolalar o'limi (0-4 yoshdagi bolalar) koeffitsienti - 0 yoshdan 4 yoshgacha o'lgan bolalarning har bir yoshi bo'yicha koeffitsientlari yig'indisidan iborat. Har bir yosh koeffitsienti go'daklar o'limi koeffitsientiga o'xshab hisoblanadi. 1 yoshgacha bolalar o'limi koeffitsienti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K1 = (U_{tj} / T_j + U_{t-1j} / T_{j-1}) * 1000,$$

bu yerda K1 – 1 yoshgacha bolalar o'limi koeffitsienti;

$U_{tj}$  - joriy yilda tug'ilib, shu yili o'lgan 1 yoshgacha bolalar soni;

$T_j$  – joriy yilda tug'ilganlar soni;

$U_{t-1j}$  – o'tgan yilda tug'ilib, joriy yilda o'lgan 1 yoshgacha bolalar soni;

$T_{j-1}$  – o'tgan yilda tug'ilganlar soni.

Ushbu tartibda 1,2,3,4 yoshlar bo'yicha ham koeffitsientlar hisoblanib, hosil qilingan 5 ta koeffitsient yig'indisi hisobga olinadi (**3-Jadval**).

### **5 yoshgacha (0-4 yosh) bolalar o'limi koeffitsientini hisoblash**

5 ёшгача ўлган болалар ёши	5 ёшгача ўлган болаларнинг туғилган йили	Мос ёшларда 5 ёшгача ўлган болалар сони (С43-жадвал)	Мос даврларда жами туғилган (тирик туғилган) болалар сони (А12-жадвал)	5 ёшгача болалар ўлими коэффициенти (1000 тирик туғилганларга nisbatan)
1	2	3	4	5
0 ёш	t – жорий давр	$Y_{ж}^t$ - жорий даврда туғилиб, жорий даврда ўлган болалар сони	$T_{ж}$ – жорий даврда тирик туғилганлар сони	$K_1 = (Y_{ж}^t / T_{ж} + Y_{ж-1}^{t-1} / T_{ж-1}) * 1000$
	t-1	$Y_{ж}^{t-1}$	$T_{ж-1}$	
1 ёш	t-1	$Y_{ж-1}^{t-1}$	$T_{ж-1}$	$K_2 = (Y_{ж-1}^{t-1} / T_{ж-1} + Y_{ж-2}^{t-2} / T_{ж-2}) * 1000$
	t-2	$Y_{ж-1}^{t-2}$	$T_{ж-2}$	
2 ёш	t-2	$Y_{ж-2}^{t-2}$	$T_{ж-2}$	$K_3 = (Y_{ж-2}^{t-2} / T_{ж-2} + Y_{ж-3}^{t-3} / T_{ж-3}) * 1000$
	t-3	$Y_{ж-2}^{t-3}$	$T_{ж-3}$	
3 ёш	t-3	$Y_{ж-3}^{t-3}$	$T_{ж-3}$	$K_4 = (Y_{ж-3}^{t-3} / T_{ж-3} + Y_{ж-4}^{t-4} / T_{ж-4}) * 1000$
	t-4	$Y_{ж-3}^{t-4}$	$T_{ж-4}$	
4 ёш	t-4	$Y_{ж-4}^{t-4}$	$T_{ж-4}$	$K_5 = (Y_{ж-4}^{t-4} / T_{ж-4} + Y_{ж-5}^{t-5} / T_{ж-5}) * 1000$
	t-5	$Y_{ж-4}^{t-5}$	$T_{ж-5}$	
<b>Жами</b>	<b>x</b>	<b>Y</b>	<b>x</b>	<b><math>K^5 = K_1 + K_2 + K_3 + K_4 + K_5</math></b>

**Dunyo aholisi o'limi va sabablari. O'zbekistonda aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi.** Aholining takror barpo bo'lishida aholi o'limining ahamiyati juda katta. U hoh kattalar, hoh go'daklar yoki onalar o'limi bo'lsada avlodlar almashinuvining ikkinchi muhim tomoni hisoblanadi. Aholining joylashishi, migratsiya ham o'limga ma'lum bir tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Aholi zich joylashgan joylarda turli xil epidemik kasalliklar tez tarqaladi, migratsiya oqimi yo'nalgan hududlardagi migranetlar o'zlari bilan infektsiya, kasallikni ham olib yurishadi. Oxir-oqibatda o'lim hodisasining avj olishiga olib keladi. Aholi o'limi ko'rsatkichi har qanday geografik hududdagi aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini belgilaydi. Hammamizga ma'lum yuqori aholi o'limi kuzatilayotgan davrlarda o'rtacha umr ko'rish past ko'rsatkichni tashkil qiladi. Statistik ma'lumotlar taxlilidan aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi dunda erkaklarda 63.3, ayollarda 67.9 yoshga teng (2004 yil). Rivojlangan davlatlar bu boradi yetakchi ya'ni, eng baland aholi o'rtacha umr ko'rish aynan shu davlatlarga to'g'ri keladi (erkaklar- 72.1, ayollar- 79.4 yosh).

O'rtacha umr ko'rish yoshi 80 va undan baland bo'lgani aksariyat ayollarda kuzatilmoqda. Erkaklarda deyarli yo'q. Ayollar o'rtasida 80 va undan katta umr ko'rish yoshiga ega bo'lgan davlatlarga Yaponiya- 81.9, Gonkong- 82.8, Finlndiya- 81.5, Shvetsiya- 82.6, Norvegiya- 81.9, Gretsiya- 80.9, Italiya- 81.9 va G'arbiy Yevropa (81.7) davlatlarining hammasi kiradi. Aynan mana shu sanb o'tilgan davlatlarda dunyo miqyosida eng kichik go'daklar o'limi kuzatiladi. Uzoq umr ko'rish yoshiga erishish har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lishi bilan birga sog'liqni saqlash, aholi sog'lom hayot tarzini tashkil etishdagi erishgan yutuqlari bilan belgilanadi.

O'limning yosh koeffitsienti hisobot yilida muayyan yoshda o'lganlar sonini shu yoshdagilarning o'rtacha yillik soniga bo'lish orqali hisoblanadi.

### Nazorat uchun savollar

1. Aholi takror barpo bo'lishi qanday jarayon va uning qanday ko'rsatkichlari mavjud?
2. Aholi takror barpo bo'lishining yig'indi, brutto va netto koeffitsientlari qanday

aniqlanadi?

3. Aholi takror barpo bo'lishiga demografik jarayonlar va migratsiya qanday tasir ko'rsatadi?
4. Demografik o'tish nazariyasi nima va uning qanday bosqichlari mavjud?
5. Tug'ilish koeffitsientlari nima va u qanday xisoblanadi?
6. Aholining reproduktiv mayli nima?
7. Oilani rejalashtirish nima va uning qanday usullari mavjud?

## 5-Mavzu. Nikoh va ajralish jarayonlari.

### Reja:

1. Nikoh sotsiologik va demografik kategoriya sifatida.
2. Nikoh holatini ifodalovchi ko'rsatkichlari, hududiy xususiyatlari.
3. Aholining nikoh va oilaviy tarkibi. Nikohning bekor etilishi-ajralish.
4. Ajralish koeffitsientlari va omillari, hududiy xususiyatlari.
5. Nikoh va ajralish o'rtasidagi bog'liqlik.
6. Nikohning aholi rivojlanishiga ta'siri.

**Tayanch iboralar.** *Nikoh, demografik kategoriya, aholining oilaviy tarkibi, ajralish, ajralish koeffitsientlari, FHDYo, sotsiologik kategoriya, monogamiya, Poliandriya, etnografik tadqiqot, Oilaning demografik mezonlari.*

**Nikoh sotsiologik va demografik kategoriya sifatida.** Nikoh-bu erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning, ularning bir-biriga va o'z bolalariga nisbatan huquqlari va majburiyatlarining jamiyat tomonidan qayd etiladigan va boshqariladigan shaklidir. Nikoh tarixan ko'p asrlik uzoq taraqqiyot yo'lini va ma'lum bir shakllarning boshqa shakllar bilan almashinuvini bosib o'tgan. Bu tarixiy o'zgarishlar ana shu soha bilan bog'liq maxsus tarixiy etnografik va tarixiy sotsiologik ilmiy adabiyotda yaxshi yoritilgan. Nikoh haqida so'z borar ekan uning huquqiy va boshqa turli ijtimoiy fanlarda turlicha talqin qilinishini ta'kidlash lozim. Deylik, huquqiy nuqtai nazardan, nikoh bu erkak va ayol o'rtasida erkin, ixtiyoriy, teng huquqli asosda tuzilgan ittifoq bo'lib, unda qonun talablariga rioya qilish va er-xotin o'rtasida shaxsiy hamda mulkiy qonunlar va majburiyatlarga so'zsiz bo'ysunish ta'kidlanadi. O'zbekistonda nikoh fuqarolik holati qayd etiladigan tashkilotlarda ro'yhatdan o'tkazilgandan keyingina qonuniy hisoblanadi va bu hozirgi vaqtda qabul qilingan oila kodeksi bo'yicha tartibga solib turiladi.

Nikoh demografiya, sotsiologiya, huquq, tarix va psixologiya kabi fanlar tomonidan tadqiq etiladi. Ilmiy adabiyotlarda nikohga quyidagicha ta'rif berilgan: **nikoh** — ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlangan va jamiyat tomonidan tartibga solinuvchi shaklidir. Nikohning huquqiy asoslari - nikoh tuzish va uni bekor qilish shartlari va tartiblari, er-xotinning huquq va majburiyatlari oila kodeksida batafsil yoritilgan.

Demografiya boshqa fanlardan farqli o'laroq nikohning makroiijtimoiy darajadagi asosiy parametrlarini tavsiflovchi insonlar va demografik hodisalar majmuini o'rganadi.

**Nikoh** — insonlar populyatsiyasida er-xotin juftligining shakllanish jarayonidir. *Nikoh demografik tahlilda real yoki gipotetik avlodga nisbatan qaraladi va u qonun yoki an'anaga binoan nikoh yoshiga yetgan, lekin hah nikohdan o'tmagan insonlar (erkak va ayol) o'rtasida tuziladi.*

Nikohning shartlari, shakllari va uni tuzish tartiblari turli mamlakat va xalqlarda turlicha bo'lgan hamda tarixiy rivojlanish jarayonlarida o'zgarib turgan.

Jinsiy munosabatlarning dastlabki ijtimoiy tartibga solingan shakli ibtidoiy jamoa tuzumining guruh nikohidir. **Guruh nikohi** qabilalar o'rtasida tuzilgan bo'lib, qabila ichida har qanday jinsiy aloqalar bo'hshiga ruxsat berilmagan. Ko'rinishidan guruh nikohi **dislokal**, ya'ni er va xotin birga yashamasdan bitta maishiy xo'jahk jamoasiga mansub bo'lmagan. Keyinchalik guruh nikohi torayib borib, avval bitta avlodga tegishli shaxslar, keyinchalik esa bir juft shaxslar orasida tuzilgan, ya'ni nikoh juftligiga aylangan.

Dastlab nikoh juftligida er va xotin birga yashagan, keyinchalik esa erxotining qabilasiga (matrilokal nikoh), keyinchalik xotin erining qabilasiga (patrilokal rukoh) o'tgan. Nikohning bu turiarida er va xotin o'rtasidagi mulk alohida bo'lgan, guruh nikohidagi ayrim belgilar saqlangan.

Demografiya nuqtai nazaridan esa nikoh deganda oila qurish va bolalar tug'ilishi hamda tug'ilish va o'lim faktorlari, ularning o'zgarish qonuniyatlari va hususiyatlari nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, demografiya nikohning erkak va ayol o'rtasidagi ittifoqning qonuniylashtirilgan yuridik shaklidan ko'ra amaldagi nikoh, ya'ni nikohga kiruvchilarning munosabatlariga e'tibor beradi. Buning uchun nikoh ma'lum biror bir davlat qonun-qoidalari asosida qayd etilishi shart emas. Umuman olganda demografiyada nikohning yuridik shakli ham muhim ahamiyat kasb etadi va shu asosda nikohsiz tug'ilish degan tushuncha ham bor.

Sotsiologik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, nikoh munosabatlarining rasmiy qayd etilgani yoki etilmagani, ularning yuridik tomondan rasmiylashtirilgani oila holatining sotsial institut sifatida eng muhim belgisi sanaladi. Keyingi yillarda nikohsiz yashash holatlari sodir bo'layotgani oila tushunchasi uchun inqiroziy holat hisoblanadi va bu o'z navbatida jamiyatda ijtimoiy holat keskinlashgani, sotsial ahloqiy normalarning salbiylashuvidan darak beradi. Bunday paytda oila tushunchasida, ayniqsa bolalar masalalarida sotsial muammolar kelib chiqadi. Mazkur imkoniyat boshqa tomondan huquqiy nikoh va oila birga yashashning yagona mezoniy shakli ekanligiga ham putur yetkazadi. Endi nikoh va nikoh munesabatlariga kelsak, bu yerda fanda bir muncha chalkashlik bor. Aniqrog'i, nikohning yuridik, demografik va sotsiologik jihatlari aniq ishlab chiqilmagan. SHu sababdan bo'lsa kerak, turli nashrlarda rasmiy nikoh tushunchasiga va qayd etilgan nikoh tushunchasiga turlicha baho berishadi. Ba'zan esa qayd etilmagan nikohlarni "fuqarolik nikohi" deb atashadi. Bu chalkashlikdan qutulish uchun fuqarolik nikohi deganda qayd etilgan nikohni tushunish kerak. "Amaldagi nikoh" masalasiga kelsak, uning huquqiy jihatlaridan qat'iy nazar, haqiqiy nikoh munosobatlari bo'lganligi e'tiborga olinishi kerak. Umuman olganda amaldagi nikohni qayd etilgan nikohga qarama-qarshi qo'yish ma'lum noaniqliklarga asoslangan; zero huquqiy nikoh shaklining borligi o'z navbatida amaldagi nikoh munosabatlari borligini inkor qilmaydi va aksincha, amaldagi nikoh bo'lishi uning huquqiy shakllarini inkor qilmaydi.

Nikohning turlari-qayd qilgan va amaldagi –bir-birini inkor qilmaydi. Aksari qayd qilingan nikohlar ayni paytda amaldagidir, shuningdek amaldagi nikohlarining ko'pchiligi esa –qayd qilinganlardir. Nikohlar ichida yolg'on nikohlar ham bor, ular qonuniy jihatdan rasmiylashtirilgan bo'lsada aslida bunda oila qurish emas balki uy-joy olish, mol-dunyoga ega bo'lish va shunga o'xshash huquqlar uchundir. Ayrim qayd qilingan nikohlar amalda tarqab ketgan bo'lsada, biroq ajralish rasmiylashtirilmagani sababli davom etadi. SHunday hollar ham bo'ladiki kimdir bir kishi bilan nikohdan o'tib

boshqasi bilan yashaydi. SHuning uchun qayd qilingan va qayd qilinmagan nikohlar mavjud deyish mumkin.

Nikohning xillari yoki shakllari deganda nikohga kiradigan yoki kirgan erkak va ayollarning nikoh ittifoqlari nazarda tutiladi. Nikoh xillari deganda monogamiya (bir nikohlilik) va poligamiya (ko'p nikohlilik) tushuniladi.

Monogamiya yoki monogam nikoh- bu bir erkakning bir ayol bilan nikohidir, poligamiya yoki poligam nikoh- bu bir erkakning bir necha ayol bilan nikohidir (ko'pxotinlilik), yoki bir ayolning bir necha erkak bilan nikohidir (ko'perlilik). Tarixiy etnografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarixda poligamiya monogamiyaga qaraganda ko'proq tarqalgan. Ayniqsa islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda.

Poliandriya yoki ko'perlilik nikoh shakli juda kam uchraydi; Hindiston va Tibetning ba'zi xalqlaridagina bor, u ham bo'lsa bitta ayolning bir nechta aka-ukalar bilan nikohda bo'lishi shaklidan iborat. Hozirgi vaqtda bogan sari poligamiya miqdori kamayib monogamiya ko'payib bormoqda. Hatto islom qoidalari poliginiya (ko'pxotinlilik)ni yo'l qo'ygan bo'lsada, biroq qonun bilan taqiqlangan.

Hozirgi davrda seriyali monogamiya, ya'ni takroriy, asosan erkak va ayollarning ajralgandan so'ng nikoh qurish hollari ko'payib bormoqda. Bu hodisa shunday keng tarqalmoqdaki, hatto ko'pgina tadqiqotchilar, ayniqsa jurnalistlar va siyosatchilar nikohni erkak va ayol o'rtasidagi umrbod ittifoq demay qo'yishdi. Aksincha uni vaqtincha birlashuv deb hisoblaydilar, uni xohlagan paytda xohlagan tomonning istagiga ko'ra bekor qilish mumkin deyishadi. Seriyali monogamiya va unga bo'lgan xayrixohlik oilaning institut sifatida krizisiga olib keladi va hozirgi demografik jarayonlarga o'ta sabiy ta'sir qiladi.

Nikohni qayd etish bu nikoh tanlovining natijasi, so'nggi bosqichi hisoblanadi. Nikoh tanlovi deganda nikohga kirish mumkin bo'lgan bir qancha shaxslar o'rtasida boradigan jarayon tushuniladi. Bunday paytda u yoki bu usul bilan konkret biror holatda yagona nikohga kiruvchi kishi (erkak yoki ayol) tanlanadi va u er (xotin) bo'ladi hamda ular yashaydilar. Buni oila doirasi deyiladi. Oila doirasi- bu nikohga kiruvchilarning guruhidan iborat.

Nikoh tanlovi jarayoni tarixan aniq jarayon hisoblanadi, u jamiyatda mavjud demografik, iqtisodiy, sotsial, sotsial – madaniy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq. Nikoh tanlovi jarayonining asosiy xususiyatlari turli xilda namoyon bo'ladi: turli madaniyatlarda va turlicha tarixiy taraqqiyot bosqichlarida har xil shaklda, boshqacha qilib aytganda nikohga kiruvchilar va nikohga kirish uchun tanlov imkoniyatlari va erkinligi xilma-xildir. Nikohga kirish imkoniyati deganda turli xil nikohga kiruvchilarning tarqalishi ko'zda tutilgan. Bunday holatda ularning qayta nikohga kirishi mumkinligi ehtimoli muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon tadqiqotlaridan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki nikohga kirmoqchi bo'lganlar, erkaklar orasida ham ayollar orasida ham, jamiyatning asosiy strukturalariga, shu jumladan sotsial, madaniy, iqtisodiy va psixologik elementlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Erkak va ayollar o'rtasidagi nikohga kirish imkoniyati mavjudligining buzilishi ularning faoliyati va hukmronligiga jinsiy, ahloqiy holatiga, niaoh koeffitsienti dinamikasiga, oila va tug'ilishning bir tekis borishiga keskin ta'sir ko'rsatadi.

Agar qayta nikohga kirish taqiqlanadigan bo'lsa, ya'ni shaxs sotsial-madaniy, ahloqiy va huquqiy ta'qiqlar ta'sirida monogamiya holati hukmron bo'lsa, bunday paytda nikohga kiruvchilar faqatgina hali nikohga kirmaganlardan iborat bo'lib qoladi.

Agar qayta nikohga kirish mumkin bo'lsa, ya'ni seriyali monogamiyaga yo'l qo'yilsa, bunday holatda nikohga kiruvchilarda tanlov imkoniyati kengayadi va unda



nikohga kirganlar ham, kirmaganlar ham bo'laveradi. Bunday paytda asosiy qoida, har bir kishi, u xoh erkak, xoh ayol bo'lsin nikohda bo'lgan va bo'lmaganligidan qat'iy nazar

### Nikoh turlarining tasnifi

Nikoh turlari va mezonlari	Nikoh turining nomlanishi	Ta'rifi (belgilar)
Juftni tanlash	Ekzogamiya	Juft faqat begona guruhdan tanlanadi
	Endogamiya	Juft faqat o'zining guruhidan tanlanadi
Nikoh guruhi o'lchami	Monogamiya	Bir erkakning faqat bitta ayol bilan tuziladigan nikohi
	Poligamiya	Bir erkakning bir nechta ayol yoki bir ayolning bir nechta erkak bilan tuziladigan nikohi
	Poliginiya	Ko'p xotinlik
	Poliandriya	Ko'p erlik
	Guruh nikohi	Bir nechta ayolning bir nechta erkak bilan nikoh ittifoqi
Er-xotinning yashash joyi	Juft oila	Monogamiyaning bir turi
	Patrilokal	Er va xotin ering ota-onasining uyida yashaydi
	Matrilokal	Xotinning ota-onasining uyida yashaydi
	Neolokal (Dislokali)	Er va xotin alohida yashaydi
Er-xotinning tengsizligi	Unilokal	Er va xotin birgalikda yashaydi
	Tengsiz	Er va xotinning jamiyatdagi o'ri, yoshi va daromadlari bir-biridan farq qiladi
Nikoh uchun to'lov	Sotib olinadigan	Ayol kishiga tovar sifatida qaraladi
	Sovg'a	Ayol kishi erkakning qarindoshlariga sovg'a qilinadi
	Ilohiy	Qizlarning xudolar bilan nikohdan o'tishi
	Badal evaziga	Nikoh shartnomasining tomonlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek badal miqdori ko'rsatilgan holda tuzilishi
	Qalin evaziga	Kelinning ota-onasiga qalin to'lash
O'g'irlash	O'g'irlash	Kelin yoki kuyovning o'g'irlanishi

nikohga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda nikohga kiruvchilar imkoniyati kengayadi.

Nikoh yoshi – bu qonun yoki odat nikohga kirishga ruxsat beradigan eng kichik yoshidir. Ko'pchilik mamlakatlarda nikoh yoshi qonun tomonidan nikohga kiruvchilarning jinsiy yetukligi, psixologik va sotsial yetukligi shuningdek an'analar, urf-odatlar va shunga o'xshash sharoitlarga qarab qonun tomonidan belgilanadi. Nikohga kirish uchun individual tanlov masalasiga kelsak, bunda ham turli jamoalar o'rtasida

katta farq bor. O'tmishda ba'zi madaniyatlar vakillarida ko'pincha nikoh ota-onalar, qarindoshlar yoki homiylar tomonidan tashkil qilingan. Boshqa bir guruh vakillarida esa nikohga kirish "erkin" tanlov asosiy o'rinda turgan, ya'ni bu masalani nikohga kiruvchilarning o'zlari hal qilganlar. Biroq har qanday holatda ham nikohga kirish va tanlash erkin holat emas. Nikohga kiruvchilar ma'lum bir madaniy, sotsial, psixologik va hatto sotsial biologik xarakterdagi faktorlar ta'siriga bo'ysunadilar. Sotsiologik nuqtai nazardan nikohga kirish o'z navbatida har bir odamda sotsial status o'zgarishini anglatadi, ya'ni bunday paytda nikoh statusi almashuvi yoki nikoh holati almashuvi yuz beradi. Demografiya aholining takror barpo etilishi haqidagi fan sifatida nikohga kirish (ajralish) holati bo'yicha umumiy jarayonlar shakllanishini, ya'ni nikoh statuslari almashuvlari umumiy jarayonlari-nikohga kirish, ajralish, beva qolish holatlari bilan birga, aholining nikoh statuslariga aniqrog'i nikoh strukturasi qarab taqsimlanishini o'rganadi.

### **Nikoh holatini ifodalovchi ko'rsatkichlari, hududiy xususiyatlari.**

**Nikohning umumiy koeffitsienti** muayyan hududdagi aholi orasidagi bir yilda har 1000 ta kishiga to'g'ri keladigan nikohlar sonini anglatadi.

Aytaylik:  $S$  — aholining o'rtacha yillik soni,

$T$  — ko'rsatkichni hisoblash lozim bo'lgan davr,

$B$  — tuzilgan nikohlar soni bo'lsa,

$1000$  — nikohning umumiy koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi;

$$b = B / ST \times 1000$$

Ushbu ko'rsatkichning kamchiligi shundaki, u aholining yosh tarkibi va nikoh tarkibiga bog'liq bo'lib, nikohni hududlararo qiyoslashni qiyinlashtiradi.

Aholi tarkibida aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omil oiladir. Nikohda turish va oila demografik jarayonlarning o'zgarishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy munosabatlarning shakllanishi jamiyat taraqqiyotidagi muhim bosqich bo'lib, insoniyat tarixida nikoh va oilaning turlicha shakllari vujudga kelgan. Buning asosiy sababi ham tabiiy, ham ijtimoiy iqtisodiy sharoit ta'siridir.

Oilaning monogam (yakka nikoh) va poligam (ko'p nikoh) shakllari mavjud. Monogam nikohda bir erkak va bir ayol oila quradi va bu shakl dunyoda eng ko'p tarqalgan. Poligam oilalar poliginiya (ko'p xotinelilik), poliandriya (ko'p erlilik) shaklda bo'ladi. Poliginiya ayni vaqtda bir qancha mamlakatlarda (Osiyo va Afrika) saqlanib qolgan. Poliandriya esa Janubiy Hindiston, Nepal va Markaziy Amerika hindu qabilalaridan gariblarda saqlanib qolgan bo'lib, juda kam uchraydi. Oilaning bunday shakllanishiga tabiiy va ijtimoiy sharoit ta'sir ko'rsatadi. Aholi sonini tartibga solishda nikoh katta rol o'ynaydi. Demografik siyosat asosan oila va nikohga katta e'tibor qaratadi. Binobarin nikohdan o'tish yoshini qonun bilan belgilash maqsadga muvofiq ishdir. Nikoh yoshini belgilashda mamlakatdagi demografik vaziyat hisobga olinadi. Eng erta nikoh yoshi Ispaniya va Irlandiyadadir erkaklar uchun 14 yosh, qizlar uchun 12 yoshdan. Rossiyada ham demografik vaziyatni hisobga olgan holda nikohga 14 yoshdan o'tishga ruxsat berilishi qayd qilingan. Bir qancha Osiyo davlatlarida (Hindiston, Pokiston va b.) 12-14 yoshda nikohdan o'tish odatiy holdir.

Oilaning demografik mezonlari quyidagicha:

1. Nikoh shakliga ko'ra (monogam, poligam, qayta tuzilgan)
2. Oila a'zolari tarkibiga ko'ra: oddiy (er-xotin va bolalar), murakkab (bir qancha avlodlar birgalikda yashaydigan oilalar M: bobo-buvi, ota-ona, farzandlar va h.k)
3. Oila a'zolarining hayotligiga ko'ra: Tugal yoki notugal oilalar

4. Oila a'zolari miqdoriga ko'ra: kichik oila (2-4 kishi), o'rta oila (5-6 k) katta oila (7-8 va undan ko'p kishi).

5. Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, kam, o'rtacha, ko'p bolali. Bu mezon turli mamlakatlarda turlichadir.

Oila vazifalari: oilaning demografik vazifasi-farzandlarning tug'ilishi, nashning yaratilishi.

Ijtimoiy vazifalar- farzandlar tarbiyasi, bilim darajasini oshirish.

Iqtisodiy vazifalar-oila a'zolarining moddiy jihatdan ta'minlash va mulkiy meros yaratish.

Aholining oilaviy holati haqidagi ma'lumot to'plashda uy xo'jaligi tushunchasidan foydalaniladi. Uy xo'jaligi tushunchasi oiladan farq qilib, unda faqat qarindoshlik munosabatlari asosida birikkan kishilargina emas balki, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar asosida birga yashovchi begona kishilar ham, alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi yolg'iz kishilar ham kiritiladi. Bu tushncha turli davlatlarda turlicha talqin qilinib, ba'zi davlatlarda kishilarning birga yashashi asos qilib olinsa, ba'zi mamlakatlarda birga xo'jalik yuritishlari asos qilib olinadi.

**Aholining nikoh va oilaviy tarkibi. Nikohning bekor etilishi-ajralish.** Nikoh holati (statusi) deganda individning nikoh institutiga nisbatan holati tushuniladi; mazkur holat u yoki bu mamlakatning urf-odatlar va huquqiy normalariga muvofiq belgilanadi. Hozirgi vaqtda aksari mamlakatlarning statistik idoralari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistik komissiyasi tavsiyanomalariga muvofiq nikoh statusi qoidalarini belgilashga harakat qiladilar. Bunga ko'ra nikoh holati yoki nikoh statusining quyidagi kategoriyalari nazarda tutilgan: nikohda bo'lmagan shaxslar; nikohda bo'lgan va birga yashovchi shaxslar; bevalar qolib yangi nikohga kirmaganlar; ajralib yangi nikohga kirmaganlar; nikohda bo'lib birga yashamaydiganlar; u yoki bu kategoriyaga kiritishning iloji bo'lmaganlar. Bu olti kategoriya nikoh holatining asosiy kategoriyalari bo'lib, jahonning ko'pgina mamlakatlaridagi demografik statistika tomonidan hisobga olinadi. Yuqorida sanab o'tilgan asosiy nikoh statuslaridan tashqari ayrim mamlakatlarning statistikasida uning boshqa xillarini ham uchratish mumkin. Masalan, ba'zan qayd qilingan va qayd qilinmagan nikohdagilarni alohida ajratib ko'rsatishadi va keyingi vaqtda bu ikki kategoriyaga, nikohsiz tug'ilganlarning soni ortib borishi bilan, qiziqish ko'paymoqda.

Ayrim mamlakatlarda mahalliy nikoh qonuni va urf-odatlardan kelib chiqib u yoki bu shakldagi nikohlar xususida boshqa statuslar ham belgilangan. Masalan, Afrikadagi bir qator mamlakatlarda aholi ro'yhati chog'ida statistika quyidagi nikoh statuslarini hisobga oladi: nikohga kirmaganlar; monogam nikohda turuvchilar; huquqiy, diniy qoidalar va xalq urf-odatlariga muvofiq tuzilgan nikohlar; huquqiy yoki erkin tarzda poligam, ya'ni ikkita xotin bilan yashovchilar; huquqiy yoki erkin tarzda birga yashovchi poligam, ya'ni uchta xotinliklar; poligam to'rtta va undan ortiq xotin bilan qonuniy yoki erkin tarzda birga yashovchilar; monogam erkin tarzda bir oydan kam bo'lmagan muddatga birga yashovchilar; huquqiy nikoh bekor qilinishi natijasida ajralganlar; nikohdagilarning birortasi o'linishi natijasida beva qolib huquqiy jihatdan qayd etilganlar; erkin nikoh ittifoqining bekor qilinishi natijasida ajralganlar; klassifikatsiyaga kiritib bo'lmaydigan holatlar.

Odamlar nikohga kirib, ajralib yoki beva qolib, o'zlarning nikoh statuslarini o'zgartiradilar, ya'ni bir nikoh holtidan boshqasiga o'tadilar. Mazkur o'zgarishlarjami aholi bo'yicha olib qaraganda ularning majmuasi nikoh strukturasi qayta barpo etilishini bildiradi.

Nikoh strukturasi – bu aholining nikoh holatlari (statuslari) bo'yicha taqsimlanishidir. Nikoh strukturasi aholini ro'yhatga olish yoki mikro ro'yhatga olish ma'lumotlari bo'yicha belgilanadi. Bunda odatda nikoh holatiga qarab jinsi, yoshi bo'yicha guruhlarga ajratiladi. Natijada aholining turli jins va yoshdagi nikoh strukturasi hosil bo'ladi. Bunday ishni aholi ro'yhatlari oalig'ida qilib bo'lmaydi, zero nikoh holati haqida ma'lumotlar yig'ish ancha mushkul.

Aholining nikoh strukturasi bilish oilaning shakllanisha va buzilishi, tug'ilish tendentsiyasining o'zgarishi, o'lish, aholining qayta barpo etilishi tendentsiyalarining o'zgarishini bilish nuqtai nazaridan zarurdir. Shu asosda demografik jarayonlarning o'tmishdagi dinamikasi va kelajakdagi o'zgarishlarini aniqlashga yordam beradi.

**Ajralish** – er-xotinning xayotlik davrida nikohning bekor etilishidir. Ajralish-murakkab sotsial jarayon bo'lib, qator omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ularga jamiyatda nikohning tutgan o'rni, nikoh turlari, har bir davlatda nikoh va ajralish haqidagi mavjud qonunlar, davlat tomonidan oila mustahkamligi borasida olib borilayotgan siyosat, ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, farzandsizlik, oila turmush tarzi, din, urf odatlar, alkogolizm va narkomaniya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida jamiyat taraqqiyotining turlicha bosqichlarida, davlatlarda, xalqlarda va aholi guruhlari ajralish darajasi turlicha bo'ladi. Ajralish jarayonini o'rganishda qator koeffitsientlardan foydalaniladi.

**Ajralish koeffitsientlari va omillari, hududiy xususiyatlari.** Ajralishning umumiy koeffitsienti- ma'lum davrdagi ajralish sonini shu davrdagi aholini o'rtacha soniga nisbatini ifodalaydi, va promilleda belgilanadi.

$$\dot{a} = \frac{A}{D} \cdot 1000 -$$

A - ma'lum davrdagi ajralish soni.

R - o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

Masalan, O'zbekistonda 2003-yil uchun ajralishning umumiy koeffitsientini topamiz:

A (ajralganlar soni, 2003-yil)- 17,6 ming

R<sub>2003</sub> - 25115,8

R<sub>2004</sub> - 25707,4

R\* (2003-yil uchun o'rtacha aholi soni)

R\* ni topamiz:

$$R^* = 25411,6 \quad \dot{a} = \frac{A}{D} \cdot 1000 = \frac{17600}{25411,6} \cdot 1000 = 0,7\%$$

Shuningdek, ajralishning yosh guruhlari koeffitsienti (ma'lum yosh guruhlari erkaklar va ayollarda sodir bo'lgan jami ajralishlar sonini shu yosh guruhidagi jami erkaklar va ayollarga nisbatan); ajralishning maxsus koeffitsienti (ma'lum yosh guruhida erkaklar yoki ayollarda sodir bo'lgan jami ajralishlar sonini shu yosh guruhidagi oilali erkaklar va ayollarga nisbatan) va nikoh davomiyligi bo'yicha ajralishning maxsus koeffitsient (nikohda turishning ma'lum davrida ajralganlar sonining ana shu davr boshida qayd etilgan jami nikohlar soniga nisbati) lari ham mavjud bo'lib, ular orqali ajralish jarayonidagi o'zgarishlar mukammal o'rganiladi. Ajralishning kamayishiga olib kelgan asosiy omil, davlat, din va xalq faollari tomonidan oilaga katta e'tibor berilishidir. Ma'lumki, qadimdan musulmon xalqlarida oila juda muqaddas xisoblangan, oila qurish, farzandlar ko'rish har bir oilaning burchi deb qaralgan. Oiladagi barcha munosabatlarni xamisha pok tutishga, to'g'ri yo'naltirishga harakat qilingan. Bu sifatlar Qur'oni Karim

suralarida ham, Xadislarda ham, tarixiy, badiiy va ilmiy manbalarda ham o'z ifodasini topgan. Ajralish omillari orasida asosiy o'rin demografik va ijtimoiy-iqtisodiy determinantlarga tegishli. Masalan, er-xotinlarning yoshi katta rol o'ynaydi. Mazkur demografik o'zgaruvchi uch xil turli madifikatsiyada namoyon bo'ladi: nikohga kirish yoshi, ajralish davridagi yoshi, ayol va erkak yoshi orasidagi farq. Birinchisi, ya'ni nikohga kirish yoshiga kelsak, tadqiqotlardan aniq bo'ladiki, mazkur o'zgaruvchidan bo'ladigan ajrimlar ehtimoli quyidagicha: dastlab u yosh nikohlardagi pasayib keladi, so'ng yana kattaroq yoshda tuzilgan nikohlarda ko'tariladi. Ajralishning eng kam ehtimoli maksimal nikohlilik yoshida tuzilgan nikohlarda mavjud. Ajralish davridagi yosh haqida so'z yuritsak, ajralish 20-30 yoshlar orasida maksimal ko'rsatkichga ega, so'ng asta-sekin kamayib 50 yoshdan katta yoshdagilar orasida eng past darajaga yetadi. Bunda ayollarda ajralishning maksimal yoshi ehtimoli erkaklarnikidan pastroq. Er va xotin yoshi orasidagi katta farq ajralish ehtimolini oshiradi, bunda ayniqsa xotin erdan kattaroq bo'lsa, ajrimlar ko'proq uchraydi. Ajralishning yana bir omili, bu nikohning davomiyligidir. Mazkur bog'liqlik ham qo'ng'iroqsimon xarakterga ega: dastlab ajralish ehtimoli oshib boradi va bunda maksimum nikohning birinchi va ikkinchi besh yilliklari chegarasiga to'g'ri keladi, so'ng ajralish ehtimolligi pasayib boradi. Ajralishlar ko'pligini determinatsiya qilishda nikohning tartib raqami alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur savolga doir ma'lumotlar kam bo'lsa-da, o'tkazilgan tadqiqotlar takror nikohlar o'rtasida ajralishlar ko'pligi yuqoriroq ekanini ko'rsatadi. Qayd etilmagan, ya'ni "sinov" nikohlar o'rtasidagi ajralish determinatsiyasi qiziqarli. Bunday juftliklar a'zolari o'z munosabatlarini qonuniylashtirilmayotganining sababi sifatida o'zini tekshirish va shu tarzda nikohni yanada mustahkamroq qilishni ko'rsatsalar ham, amalda bunday emas. Bunday proba hayotdan so'ng tuzilgan nikohlar nisbatan mustahkam emas va normal nikohlardan ko'ra tezroq tarqatilishi aniqlangan. Nikohga kirgunga qadar birga yashaganlar orasida nikohning dastlabki 10 yili mobaynida ajralish nikohgacha birga yashab ko'rmaganlarnikiga nisbatan 1/3ga ko'proq – 36 % 27 %ga qarshi. Buning sabablari nikohga bo'lgan qarashlarning sustroqligida va a'zolarning o'zini, bir-birini noto'g'ri tushunganida. Nikoh tuzilgunga qadar bu kabi "oila"larda tomonlar o'zlarining eng yaxshi jihatlarini namoyon qilishlari mumkin. Nikoh tuzilganidan so'ng esa bularning "asl" shaxsiyati namoyon bo'lishi va bu bir-birida yaxshi taassurot qoldirmasligi mumkin. Mazkur holat, avvalgi munosabatlarning buzilishi va natijada ajralishga olib kelishi ehtimoli yuqoriroq bo'lishiga olib keladi. SHvetsiyalik ayollardan 4966tasi so'rov qilinganida nikohgacha birga yashaganlar orasida ajralish koeffitsienti nikohgacha birga yashamaganlarnikidan tahminan 80 % yuqoriligi ayyon bo'ldi. Nikohgacha birga yashagan shaxslar nikoh mustahkamligiga ishonmay yoki umuman nikoh institutini inkor etib kelganlar va, aftidan, nikohni katta bosim ta'sirida tuzganlar. SHuningdek, qonuniy nikohga kirish albatta keyinchalik tomonlarning rollari o'zgarishi bilan bog'liq. Masalan, ikki tomon teng bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlar nikoh tuzilganidan keyin an'anaviy tomonga o'zgarishi mumkin. Yoki er-xotinlar erkinlik sharoitida birga yashagan hayotdagi o'zaro munosabatlar nikoh bilan o'rnatiladigan ijtimoiy va qonuniy cheklanishga umuman to'g'ri kelmasligiga duch keladilar. Nihoyat, nikohgacha birga yashash, bu ijtimoiy me'yorlarni buzish, degan dunyoqarash ham ahamiyatli bo'lib, hozircha ularda "pasportdagi muhr" mavjudligi talab qilinadi. Nikohgacha birga yashovchilar, bu ijtimoiy me'yorlarni buzuvchi shaxslar. Ular nikohgacha birga yashamagan shaxslarga nisbatan nikoh majburiyatlarida ma'suliyatni kamroq xis etadilar. Statistik ma'lumotlar va olimlarning izlanishlariga ko'ra, ko'payib borayotgan "sinov" nikohlar, ehtimol, nikohning mustahkamligini buzuvchi va ajralishlarni

ko'paytiruvchi omil sifatida o'z rolini oshirib boradi. Ajralishning muhim omillaridan biri, bu ajralish va uning sabablari haqidagi jamoatchilik fikri. Mazkur omilning ahamiyati so'nggi vaqtlarda oshib bormoqda. Maxsus sotsiologik izlanishlarning ko'rsatishicha, jamiyatning ajrimga nisbatan xolisligi o'sib, sabablar tarkibi ham o'zgarimoqda va bularga muvofiq ajralish jarayoni nafaqat ehtimoliy, balki shart bo'lgan hodisa, deb tushunilmoqda. Sabablar o'zgarayotgan yo'nalish, bu "ajralish faqatgina aniq uzrli sabablarga ko'ra (bepushtlik, bevafolik va h.k.) sodir bo'lishi mumkinligini" tan olgan fikrdan "er va xotin o'rtasida muhabbat yo'qligidan yuz berishi ehtimoli ham mavjud", degan xulosalarga kelib ajrashishga ahd qilishdir.

**Nikoh va ajralish o'rtasidagi bog'liqlik.** Demografiyada nikohda bo'lish butun boshli bir ko'rsatkichlar tizimi bilan o'lchanadi, ular uning shakllanish va o'zgarish tendentsiyalarini izohlab keladi. Ularning aksariyati uchun nikohni qayd etish holati umumiy ko'rsatkich hisoblanadi va shu sababdan faqat legal, yuridik rasmiylashtirilgan nikohlar nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda mazkur holat nikohda bo'lishni to'la real ko'rsata olmaydi, ayniqsa birga yashash hollari ko'b bo'lgan paytlarda.

Nikohda bo'lish –bu aholi tarkibida nikohdagi juftlar tashkil bo'lish jarayonidan iborat va o'z tarkibiga birinchi va qayta nikohlarni qamrab oladi. Beva qolish va ajralish jarayonlarini qo'shib hisoblaganda nikohda bo'lish aholining nikohda bo'lish strukturasi takror barpo bo'lishini anglatadi. Nikoh tushunchasi bitta juft erkak va ayolga tegishli. Nikohni qayd etishning yalpi jarayoni nikohda bo'lish deb ataladi. Biroq demografik adabiyotlarda "nikohda bo'lish" kengroq tushuncha: nikohda bo'lish deb nikohga kirish va nikohdan chiqish ya'ni ajralish yoki o'lim tufayli jarayonlarning majmuasini anglatadi (bunda " nikohda bo'lish " atamasi ajralish va beva qolish jarayonlarini ham qamrab oladi). Nikohning soni aholi soni va demografik strukturasi shu jumladan aholi nikoh strukturasi mutanosibliklarga bog'liq.

Demografiyada "nikohda bo'lish" keng tushuncha bo'lib nikohdagi juftlarning ommoviy shakllanish jarayonini aholi nikoh strukturasi shakllanish jarayonini anglatadi. Ana shu keng tushunchada nikohda bo'lish ajralish va beva qolish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Nikohda bo'lishni o'rganish nikohning qaytalanishi bilan yoki erkak va ayol o'rtasidagi ittifoq bilan bog'liq. Ular o'zoro ma'lum bir qonun va majburiyat shakllantiradilar va o'z navbatida qonunlar yoki odalarda qayd etilgan bo'ladi. Kengroq tushunchada olib qaraganda, zarurat tug'ilgan hollarda mazkur tushuncha boshqa turli hil qonunda qayd etilmagan nikohlarni ham qamrab oladi.

**Nikohning aholi rivojlanishiga ta'siri.** Aholining rivojlanishiga nikoh va uning koeffitsientlari ham muhim ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ahomli o'rtasida nikohga kiruvchilar va nikohdagilar shuningdek ajralganlarning hisobini olib borish juda muhimdir. Bu koeffitsientlar ham promilleda ifodalanadi va ularning formulasi tug'ilish va o'lim koeffitsientlari formulasi shaklida bo'ladi.

Demografik koeffitsientlarni hisoblaganda o'rtacha yillik aholi sonidan foydalaniladi. Masalan: 1 yilning aholi soni keyingi yilning aholi soniga qo'shib 2 ga bo'linadi.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Nikoh qanday kategoriya va tushuncha hisoblanadi?
2. Nikoh holati qanday ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi?
3. Nikohning qanday hududiy xususiyatlari mavjud?
4. Nikohning bekor etilishi qanday amalga oshiriladi?
5. Ajralish nima, uning qanday koiffitsientlari va omillari mavjud?
6. Nikoh va ajralish o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

7. O'zbekistonda nikoh yoshi nechki yosh etib belgilangan?
8. Nikoh yoshini yuqori yoki past bo'lishi tug'ilishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

## 6-Mavzu. Aholi migratsiyasi.

### Reja:

1. Migratsiya, uning turlar va omillari.
2. Xalqaro migratsiya. Xalqaro migratsiyaning iqtisodiy samaradorligi.
3. Ichki migratsiya va uning oqibatlarini.
4. Demografik o'tish nazariyasida migratsiya roli.
5. Migratsiyaning mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari.
6. O'zbekistonda migratsiya geografiyasi.

***Tayanch iboralar.** Migratsiya, xalqaro migratsiya, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, migratsiya qonunlari, demografik o'tish nazariyasi, migratsiyaning mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari, Migratsiya samaradorligi, migratsiya aylanmasi, migratsiya saldosi, migratsiya geografiyasi.*

**Migratsiya, uning turlar va omillari.** Migratsiya so'zi lotincha "migratio" so'zidan olingan bo'lib, ko'chib yurish, ya'ni bir hududdan ikkinchi bir hududga chegaralardan o'tib aholining almashinishini bildiradi. Aholining turli maqsadlarda, yangi yerlarni o'zlashtirish, daraomad topish, o'qish, yashash hamda siyosiy nuqtai-nazardan yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o'zgartirishiga uning mexanik harakati deyiladi.

Aholi migratsiyasi (ingl. Population migration) (lotincha "migratio"- ko'chish) – bu bir hududdan ikkinchi bir hududga chegaralardan o'tib aholining yashash joyini butunlay yoki uzoq va qisqa muddatga almashinishidir. Aholi migratsiyasini migratsiya oqimlari vujudga keltiradi, "migratsiya" tushunchasi ko'plik sonda ishlatiladi – "migratsiya", "xalqaro migratsiya" va boshqalar<sup>24</sup>.

Aholi migratsiyasi (lotincha "migratio" – "ko'chish") – odamlarning bir mintaqaga (mamlakat, shahar, qishloq)dan boshqasiga, qator hollarda katta guruh holida va uzoq masofaga ko'chishidir. Demografiyada aholi migratsiyasiga aholining mexanik harakati sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va maishiy sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin. Migratsiya yo'nalishi bo'yicha esa ichki va tashqi migratsiya farqlanadi. Ichki migratsiya – aholining bir mamlakat ichidagi harakatidir. Bunda qishloq (qishloq – shahar), shahar (shahar – qishloq), qishloq-lararo (qishloq – qishloq), shaharlararo (shahar – shahar) migratsiyasi nazarda tutiladi. Tashqi migratsiya – aholining mamlakat davlat chegarasining kesib o'tishidir. Tashqi migratsiya xalqaro migratsiya, deb ham ataladi. Bunda qit'alararo va qit'alar ichidagi migratsiya farqlanadi. Xalqaro migratsiyaga immigratsiya va emigratsiya tushunchalari xosdir. Immigratsiya – aholining boshqa mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik (Birlashgan Millatlar tashkiloti qoidalariga binoan 1 yildan uzoq muddatga) ko'chib kelishidir. Emigratsiya esa aholining o'z mamlakatini doimiy yoki vaqtinchalik tark etishidir<sup>25</sup>.

Aholi migratsiyasi ikki shaklda ichki migratsiya va tashqi migratsiya shaklida ro'y beradi. Agar aholi mamlakat ichida hududlar bo'ylab (shahar-qishloq, qishloq-shahar,

<sup>24</sup> <https://demografiya.uz/wiki/aholi-migratsiyasi-2/>

<sup>25</sup> <https://demografiya.uz/wiki/aholi-migratsiyasi/>

tuman-viloyat va hokazo) ko'chishni amalga oshirsa bunday migratsiya ichki migratsiya deyiladi. Aksincha, aholi o'zi yashab turgan mamlakatdan boshqa mamlakatlarga, qit'alarga ko'chib borsa bunday migratsiyani tashqi yoki xalqaro migratsiya deb ataymiz. Migratsiyaning har qanday turida ishtirok etgan kishilar migrantlar deyiladi. Tashqi migratsiya ikkig bo'linadi: emigratsiya va immigratsiya.

Emigratsiya- kishilarning doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatanidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi. Emigratsiyada qatnashgan aholi emigrantlar deb ataladi.

Immigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun biron bir mamlakatga boshqa davlatlardan ko'chib kelishi. Imigratsiyada qatnashgan aholi "immigrantlar" deyiladi.

Reemigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatnidan boshqa mamlakatga ko'chib ketib, muayyan muddatdan so'ng yana kaytib ko'chib kelishidir. Reemigratsiyada qatnashgan kishilar "reemigrantlar" deyildi.

Shuningdek, aholi migratsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra uch turga, ya'ni doimiy, vaqtincha (mavsumiy) va tebranma (mayatniksimon) migratsiyaga bo'linadi. Sabablariga qarab ixtiyoriy hamda majburiy migratsiya turlari ham mavjud.

Doimiy migratsiya- aholining uzoq muddatga (bir yildan oshiq) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

Mavsumiy migratsiya- aholining ma'lum bir vaqtga (mavsumga) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

Tebranma migratsiya- aholining bir joydan ikkinchi bir joyga har kuni yoki har haftada borib qaytishi. Bunga misol tariqasida Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridan aholining poytaxtimiz Toshkent shahriga turli maqsadlarda har kuni yoki bir haftaga kelib qatnaydiganlarni keltirish mumkin. Demak, tebranma migratsiya urbanizatsiya xarakteriga ega desak hatto bo'lmaydi. Sababi, tebranma migratsiyada ishtirok etganlarning aksariyati, qishloqdan tuman yoki viloyat markaziga, qishloq-shahar, kichik shaharlardan yirik shaharlarga tomon harakat qilishadi. Mayatniksimon migratsiyada ba'zan aholi bir davlat hududida yashab ikkinchi bir davlat hududiga ishlash, o'qish uchun har kuni yoki haftada chegaradan o'tib borib kelishadi. Bu G'arb davlatlarida yaqqol kuzatiladi.

***Migratsiya siyosati (ingl. Migration policy)*** – bu turli xil ijtimoiy jarayonlarga, jumladan ular tarkibiga kiradigan aholi migratsiyasiga ta'sir o'tkazadigan vositadir. Bu hokimiyat tuzilmalari darajasida umum qabul qilingan g'oyalar va konseptual jihatdan birlashgan vositalar tizimi bo'lib, uning yordamida eng avvalo davlat, shuningdek, boshqa jamoat institutlari muayyan prinsiplarga rioya qilgan holda qo'yilgan maqsadga erishishni o'z zimmasiga oladilar. Siyosat davlatning asosiy poydevorini (konstitutsiya, xalqaro huquqiy hujjatlar, va boshqalar) tashkil etadigan prinsiplarga muvofiq olib borilishi lozim. Siyosat faqat chora-tadbirlar tizimi bilan chegaralanmaydi, holbuki kechagina unga mazkur jarayonni boshqaruvchi tadbirlar to'plami sifatida munosabatda bo'linar edi. Migratsiya siyosati har qanday boshqa siyosatlar singari uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi, birinchisi – bu konsepsiya. U aholi migratsiyasi bo'yicha dasturiy hujjatlarni va demografik jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha shakllantirish mumkin bo'lgan huquqiy, axloqiy va mafkuraviy makon chegaralarini belgilaydigan qarashlarning tizimi, migratsion siyosatning poydevori hisoblanadi<sup>26</sup>.

<sup>26</sup> Демографический понятийный словарь /Под ред. проф. Л.Л. Рыбаковского. – М.: ЦСП, 2003, – стр.170).



**Migratsiyaning turlari.** Migratsiya juda keng qamrovli va murakab jarayon bo'lib, uning turli jihatlariga ko'ra: hududiy yo'nalishiga, muddatiga, tashkil etilgan yoki etilmaganiga, qonuniy yoki noqonuniyligiga qarab turlari mavjud.

Hududiy yo'nalishiga ko'ra migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga bo'linadi.

**Ichki migratsiya** deb biror bir mamlakat, viloyat yoki ma'muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishidir. Bu xil migratsiya ham o'z navbatida to'rt yo'nalishga bo'linadi: shahardan-shaharga, shahardan-qishloqqa, qishloqdan-shaharga, qishloqdan-qishloqqa.

**Tashqi migratsiya** deb aholining mamlakat tashqarisiga, jumladan qo'shni mamlakatlar yoki chet elga ko'chib ketishi yoki u yerdan ko'chib kelishidir. Tashqi migratsiyaning qit'alararo va qit'alar ichidagi turlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin.

Tashqi migratsiya to'g'risida gap ketar ekan emigratsiya, immigratsiya va reemigratsiya tushunchalariga qisqacha ta'rif berib o'tish lozim bo'ladi. «Immigratsiya- bu mamlakatga xorijiy fuqarolarning doimiy yashash yoki ishlash maqsadlarida kelishi bo'lsa, emmigratsiya esa bu jarayonning teskarisidir, ya'ni biror mamlakat fuqarolarining doimiy yashash yoki ishlash maqsadlarida xorijga chiqib ketishlaridir. Reemigratsiya va reimmigratsiya esa ko'chib kelgan yoki ko'chib ketganlarning kaytib kelishi va qaytib ketishidir. Immigratsiyada qatnashgan fuqarolar immigrantlar, emmigratsiya jarayonida ishtirok etuvchilar emigrantlar deb ataladi. SHuni alohida qayd etish lozimki, "Emmigrant" va "Immigrant" tushunchalari uchun xalqaro yagona ta'rif mavjud emas. Bu tushunchalar bo'yicha har bir davlatning o'z mezonlari bor. Masalan, Bolgariyada "immigrant" shu davlatga joylashish maqsadida boshqa davlatdan kelganlar; "emmigrant" esa Bolgariyani butunlay tashlab boshqa davlatga yashash uchun ketganlar. Pol'shada- oldin xorijda, ya'ni boshqa davlatda yashab, keyinchalik shu davlatga doimiy fuqarolik uchun kelganlar – "immigrantlar" deb; Pol'shani butunlay tashlab ketganlar esa "emigrantlar" deb ataladi. Rossiyada – Rossiyaga ishlash yoki o'qish maqsadida 1,5 yildan ko'p muhlatga kelganlar va ularning kuzatuvchilari "immigrantlar" deb; o'qish yoki ishlash uchun 1,5 oydan ko'p muhlatga boshqa davlatga ketganlar "emigrantlar" deb ataladi. AQSH da qonuniy asosda boshqa davlatlardan doimiy yashash maqsadida AQSH ga kelganlar "immigrantlar" deb ataladi. "Emigrantlar" ga esa ta'rif berilmagan.»<sup>27</sup>

**Muddatiga ko'ra** – migratsiyaning doimiy vaqtincha (mavsumiy) va tebranuvchi (mayatniksimon) turlari ajratiladi.

**Doimiy migratsiya**- bu aholining ko'chib ketgan joyida butunlay qolib ketishi yoki uzoqroq muddat qaytib kelmasligidir. Kishilarning nisbatan qisqa muddatdan so'ng ko'chib ketgan joylariga qaytib kelishlari vaqtinchalik migratsiyadir. Vaqtinchalik migratsiyaning eng muhim yo'nalishi mavsumiy migratsiya bo'lib, kishilarning yilning muayyan bir faslida chetga chiqishi yoki kelishi jarayonidir. Mavsumiy migratsiya asosan mehnat migratsiyasiga xos jarayon bo'lib aholi bandligida katta tebranishlar bo'ladigan va ishchi kuchiga talab katta bo'ladigan mavsumlarda kishilarning migratsion faolligi bir necha barobar ortib ketadi. Mavsumiy migratsiya ko'proq qishloq xo'jaligi, mehmonxona xo'jaligi singari ishchi kuchini ko'p talab etadigan va yuqori malaka talab etilmaydigan ishlar bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun yoz oylarida Turkiya, Shveysariya kabi davlatlarga xorijlik sayyoxlarning ko'plab kelishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan keskin ortadi. Bu esa daromad topish darajasi nisbatan pastroq bo'lgan davlatlardan ko'plab ishchilarning oqib kelishiga sabab bo'ladi.<sup>28</sup>

<sup>27</sup> Бүриева М.Р. Демография асослари. Т., 2002.

<sup>28</sup> Демографический энциклопедический словарь, М., 1985., 243-244- бет.

Migratsiyaning yana bir turi tebranuvchi (mayatniksimon) migratsiya bo'lib, aholining bir aholi punktidan ikkinchi bir aholi punktiga o'qish, ishlash va boshqa sabablarga ko'ra har kunlik qatnashidir. Bu tur migratsiya ko'proq ichki migratsiyaga xos bo'lib, xalqaro migratsiya doirasida davlatlararo yaxshi qo'shnichilik aloqalari yo'lga qo'yilgan chegaraoldi hududlarigagina xosdir.

Migratsiya jarayoni tashkil etilish nuqtai- nazaridan tashkil etilgan va tashkil etilmagan turlarga ajratiladi. Tashkil etilmagan migratsiya aholining o'z hohish va ihtiyorlari bilan avvaldan rejalashtirilmadan, stixiyali tarzda bo'lishi bo'lsa, tashkil etilgan migratsiya ijtimoiy zaruriya tufayli davlat tomonidan rejalashtirilgan tarzda sodir bo'ladi. Misol uchun, hozirgi kunda juda ko'p O'zbekiston fuqarolari Janubiy Koreya Respublikasida tashkillashtirilgan holda mehnat qilmoqdalar.

So'ngi yillarda migratsiyada, xususan xalqaro migratsiya jarayonlarida qonuniy va noqonuniy migranttsiya turlari alohida ajratib ko'rsatilmoqda..

**Qonuniy migratsiya-** bu kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tmagan holda, davlat organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va tegishli ruxsatnomalari bo'lgan holdagi ko'chishlaridir.

**Noqonuniy migratsiya** esa kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tgan va davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan holdagi hamda zaruriy xujjat, va ruxsat bo'lmagan holdagi ko'chishidir.

Ma'lumki migratsiya kishilarning doimiy va vaqtincha o'z yashash yoki ish joylarini o'zgartirishlari natijasidagi bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishlaridir. Tabiiyki aholi migratsiyasi qator omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu omillarni shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy, ijtimoiy va ekologik omillarga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Iqtisodiy omillar.** Aholi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar orasida iqtisodiy omillar eng muhimi hisoblanadi, chunki qolgan barcha omillar pirovardida iqtisodiy muammolarga aylanadi yoki iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Iqtisodiy omillar deganda har bir davlat iqtisodiy tizimining mustahkamligi, uning o'sish darajasi va rivojlanish ko'lamini tushuniladi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat sharoitlari va ish haqi o'rtasida yuzaga kelgan sezilarli farq ishchi kuchlarini mamlakatlararo ko'chib yurishiga sabab bo'luvchi muhim omil hisoblanadi. Masalan AQSH va Meksikadagi daromadlarning taxminan 10 barobarga farq qilishi meksikalik ishchilarni AQSH ga ish qidirib o'tishlarining asosiy sababi hisoblanadi. SHunday qilib yer yuzida rivojlangan boy va rivojlanayotgan iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan mamlakatlarning mavjudligi xalqaro migratsiya va jahon mehnat bozorining amal qilishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.<sup>29</sup>

**Demografik omillar.** Aholining o'sish sur'ati, aholi sonining ko'payishi yoki qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan omillar demografik omillar bo'lib sanaladi. Bunday omillar qatoriga birinchi navbatda aholining tabiiy o'sish darajasini kiritish mumkin, chunki tabiiy o'sish migratsion jarayonga ta'sir etishi bilan birgalikda migratsion jarayonning jadallashuv ham o'z navbatida tabiiy o'sishga sabab bo'lishi mumkin. Tabiiy o'sish natijasida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi yetishib chiqishiga, ya'ni migratsiya qilishi mumkin bo'lgan aholi ko'payishiga zamin yaratiladi. Shu o'rinda demografik omillarning iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Jumladan iqtisodiy o'sish bilan tabiiy o'sish o'rtasidagi farqning ortishi ham migratsiyaga katta ta'sir etadi. Ya'ni tabiiy o'sish sur'atlari iqtisodiy o'sish sur'atlaridan

<sup>29</sup> Хакимова М. ва бошқ. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Т.; 1997. 140-бет.

yuqoriroq bo'lsa mamlakatda ishsizlar sonining ortishiga va kishilarning chet elga ish izlab chiqishlariga sabab bo'ladi. Tabiiy o'sish sur'atlari iqtisodiy o'sish sur'atlaridan past bo'lsa mamlakatda ishchi kuchiga bo'lgan talab ko'tariladi va chet ellik ishchilarning ish izlab kelishlari ortadi. Misol uchun, 90- yillarning o'rtalarigacha Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti mamlakatlarida (AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Turkiya, Shveytsariya va Yevropa Ittifoqi davlatlari) iqtisodiy faol aholi yiliga o'rtacha 0,8 foiz ko'paygan, yalpi ichki milliy mahsulot hajmi esa 3 foizga oshgan.

**Siyosiy omillar.** Ayrim mamlakatlardagi, siyosiy vaziyatning barabar emasligi, ularning iqtisodiy ahvoriga ta'sir etib, mamlakat ishchi kuchinining chetga oqimini keskin kuchaytiradi. SHu jumladan turli siyosiy inqiroz va urushlar natijasida majburiy migrantlar (qochoqlar, deportatsiya qilinganlar) sonining ko'payishiga olib keladi. Sobiq Ittifoqning tarqalib ketishi natijasida nafaqat Ittifoq tarkibidagi davlatlarda balki unga qo'shni bo'lgan sotsialistik lager tarkibidagi davlatlarda siyosiy beqarorlik hollarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Uning natijasida majburiy migrantlar soni ko'paydi. Ekspertlarning ma'lumotiga ko'ra MDH davlatlarida ayni paytda (2003 y.) 1,8 mln. qochoqlar va majburiy migrantlar mavjud.

**Ijtimoiy omillar.** Aholi migratsiyasini keltirib chiqaruvchi omillar ichida ijtimoiy omillar ham kattagina ahamiyat kasb etadi. L.L. Ribakovskiy migratsiyaning ijtimoiy omillari deganda migratsion jarayonga ma'naviy omillarning ta'sirini tushunadi.<sup>30</sup>

M.Q. Qoraxonov migratsion jarayondagi ijtimoiy omillarni kishilarning malakasi va ma'umoti qanchalik yuqori darajada bo'lsa, uning migratsion harakatchanligi (mobilligi) shunchalik tez va u ongli ravishda malakasidan samarali foydalanish mumki bo'lgan joyni qidiradi.<sup>31</sup> Shu jumladan o'qish va kasbiy malakani oshirish maqsadlari ham ko'plab kishilarni, ayniqsa yoshlarni migratsiya qilishlariga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy omillar ichida etnik omillar ham o'ziga xos mavqega ega. Etnik omillarga- aholining an'analari, urf-odatlar, tili, turmush tarzi kabilarni kiritish mumkin. Ularning har biri migratsiya jarayonini jadallashtirishi yoki sekinlashtirish mumkin. Jumladan, o'zbek xalqining tarixan o'troqligi, o'z tug'ilgan va o'sgan joyiga bog'liqligi, o'rgangan qadriyatlar va turmush tarzini o'zgartirishga moyil emasligi tufayli sobiq Ittifoqdagi boshqa xalqlar ichida eng sust migratsion harakatchanlii bilan ajralib turadi. Biroq so'ngi bir necha yil ichida migrantlar tarkibida o'zbeklar salmog'ining tobora ortib borayotganligini ko'rish mumkin. Til omili ham migratsiyaga sezilarli ta'sir etadi. Kishilarning til bilish bilmasligi ham ularning migratsiya qilishiga yoki migratsiyadan tiyilib turishiga sabab bo'ladi. Misol uchun 1989 yilda o'zbek tiliga "Davlat tili" maqomining berilishi va davlat rasmiy idoralarida o'zbek tilida ish yuritishning lozimligi ta'minlanishi natijasida o'zbek tilini o'rganishni hohlamagan yoki o'rganmagan kishilarning boshqa hududlarga migratsiya qilishlariga sabab bo'ldi.

**Ekologik omillar.** XX asrning o'rtalaridan migratsiya omillari qatoriga ekologik omillar ham qo'shildi va borgan sari uning ko'lami tobora ortib bormoqda. Ekologik jihatdan o'z hayotlariga havf tug'iladigan joylardan kishilarning ko'chib ketishi tabiiy holdir. Misol uchun, O'zbekistonda ikkita yirik ekologik havf o'chog'i mavjud. Bular Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik havf o'chog'i va Surxondaryo viloyatining Tojikiston bilan chegara hududlari (Tursunzoda alyuminiy zavodi atmosferaga chiqindilarni chiqarishi natijasida) bo'lib, bu yerlardagi kishilar o'zlarining va avlodlarining kelajak taqdirini o'ylab boshqa ekologik jihatdan havsizroq hududlarga

<sup>30</sup> Рыбаковский Л.Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. М.; 1987.

<sup>31</sup> Караханов М.К. Некапиталистический путь развития и проблемы народонаселения. Т., 1982.

ko'chib ketmoqdalar. Birgina O'zbekistonning Orolbo'yi hududlaridan 90-yillarda Qozog'istonga- qariyb 30 ming, Turkmanistonga – 4 ming va O'zbekistonning boshqa hududlariga qariyb 20 ming kishi ko'chib ketishga majbur bo'lishgan.<sup>32</sup>

**Xalqaro migratsiya. Xalqaro migratsiyaning iqtisodiy samaradorligi.** Aholi o'zi yashab turgan mamlakatdan boshqa mamlakatlarga, qit'alarga ko'chib borsa bunday migratsiyani tashqi yoki xalqaro migratsiya deb ataymiz. Aholining migratsion harakatiga ko'plab omillar ta'sir etishi mumkin. Ularga ijtimoiy: siyosiy, milliy, diniy, ekologik, harbiy va demografik omillarni kiritish mumkin. Umuman xalqaro migratsiyani olti guruhga ajratiladi:

1.Oilaviy va boshqa sabablarga ko'ra, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ketgan emmigryntlar.

2.Migrant mehnatkashlar.

3.Nolegal immigrantlar.

4.Qochoqlar.

5.Studentlar, stajyor-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va o'qituvchilar.

6. Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar va h.k.

Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni mehnat migratsiyasi egallaydi. Chunki hozirgi davrda insonning yashaashi uchun iqtisodiy omilning ahamiyati kuchaydi. Dunyoda va uning alohida hududlarida jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy davrlarida turli ijtimoiy guruhlardagi migrao'ion harakatni o'rganishda migratsiya ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ayniqsa migratsiya jarayonini demografik nuqtai nazardan o'rganilganda uning ko'rsatkichlari atroflicha tahlil etiladi.

Migratsiya ko'rsatkichlari:

1.Migratsiyaning absolyut va nisbiy son ma'lumotlari.

2.Migratsion harakatning intensivligi yoki koeffitsienti ma'lum hududda yashovchi aholida har 100 kishiga to'g'ri keluvchi migrantlar soni).

3.Migratsiya saldosi (bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan, ko'chib ketgan aholining ayirmasiga) teng.

Aholining bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan ikkinchi muhitga o'tishi uning demografik mayliga (nikohga kirish va oila qurishiga, oiladagi farzandlar soniga, oila mustahkamligiga munosabati va h.k.) bevosita ta'sir etadi. Shuningdek, aholi migratsiyasi mehnat resurslari shakllanishida ham muhim omillardan hisoblanadi. Migrantlar oqimi aholining yosh jinsiy tarkibida o'z aksini topadi. Mehnat resurslari ortib boradi. Natijada qator muammolar yuzaga keladi yoki aksincha mehnat resurslarining kamayib ketish hollari ham yuzaga kelishi mumkinki, bu ham muammolarga sabab bo'ladi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra 2000 yilda dunyo bo'yicha 175 million xalqaro migrantlar mavjud bo'lgan. Bularan deyarli 50 foizi ayollar, qariyb 4 millioni qochoqlardir. 1990 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrda har 3/2 migrant SHimoliy Amerikaga to'g'ri kelgan. 1980 yilgacha kam rivojlangan davlatlarda xalqaro migrantlar umumiy sonining har 5/3 tasi o'ta rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Bugungi kunda iqtisodiyot o'ta muhim jglobal ahamiyatga ega bo'lgan bir vaqtda migrantlar oqimi tobora jadallashmoqda. Ayniqsa, ishga jolashish, ish topish maqsadida ayol migrantlar miqdori oshib bormoqda. Xalqaro aholining almashinishi aholini jo'ntuvchi (tranzit) va

<sup>32</sup> Alikhan Aman, Population migration in Uzbekistan (1998-1999). T., 2000. 84-ber.

qabul qiluvchi hududlar uchun iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va demografik ta'siri ahamiyatli bo'ladi.

Xalqaro migratsiyada aholi ko'chib ketayotgan, ko'chib kelayotgan migratsiya ohimini to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga ega. migratsiya natijasida noqonuniy odamlarni olib o'tish va sotish, OITS infeksiyasini va boshqa kasalliklarni u davlatdan bu davlatga tashish kabi noxush holatlar tobora rivojlanmoqda. Shuningdek, rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan davlatlarga migrantlarning pul o'tkazishi migratsiyaning iqtisodiy nuqtai-nazardan salbiy ko'rinishidir. Malakali mutaxassislar va erkaklar migratsiyada ishtirok etish, ayollarning oilada xo'jayin bo'lib qolishiga va hatto oilalarning buzilishiga ham olib kelmoqda.

Migrantlar tarkibini taxlilidan ularda asosan erkaklar va yoshlar ko'plab qatnashishini ta'kidlash lozim. Bolalar, ayollar va qariyalar yuqorida keltirilgan sabablar tufayli kamdan-kam yashash joyini o'zgartiradi.

Xalqaro migratsiyada ishtirok etib mamlakatimizga ko'chib kelayotganlarning aksariyatini ishbiarmonlar, tadbirkorlar, ilmiy hodimlar, elchixonalar hodimlari tashkil etadi. Bular vaqtincha yashab keyin vataniga qaytib ketishadi.

Kam sonli aholisi bo'lgan davlatlar uchun tashqi migratsiya (ko'chib ketish) demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xarakterga ega muammolarni keltirib chiqaradi. Respublikamiz aholisining xalqaro migratsiyadagi ishtiroki bunday munda muammolarga olib kelgani yo'q. Ammo, zamonaviy xalqaro aholi migratsiyasi masshtabi borgan sari kengayar ekan ko'p millatli aholisi bo'lgan O'zbekiston uchun davlatlararo migratsiya sezilarli ahamiyatga ega bo'ladi.

Manbalarda ko'rsatilishicha 90-yillar boshida dunyo bo'yicha 25 mehnatkash ishchi migrant ro'yxatga olingan. Ularning yarmidan ortig'i rivojlangan davlatlardan chiqqan bo'lib 3/2 qismi industrial rivojlangan davlatlarga borib joylashgan. Xalqaro migratsiyada oxirgi yillari aholi o'rtasida tabaqalanish kuchayganligi oqibatida noqonuniy migrantlar soni oshdi. Nelegal migrantlarning asosiy qismini yollanib ishlovchilar tashkil etmoqda. Bunday ishchi-migrantlar ko'pchilik davlatlar arzon ishchi kuchi sanaladi. 1990-yillardan keyin sobiq Ittifoq respublikalari aholisi ichida xuddiy shunday (nelegal) yashirin migratsiyada qatnashuvchi migrantlar soni ko'paydi, ayniqsa, aholisi soni ko'p, ishsizlik baland bo'lgan hududlarda bu yanada o'sdi. Yevropa, Osiyoning rivojlangan davlatlari, Rossiya (O'rta Osiyo respublikalari uchun) asosiy immigratsiya davlatlari bo'lib qoldi.

Migratsiya jarayonini boshqarish, yo'lga qo'yish har bir davlat migratsiya siyosatining bosh vazifasidir. Demak, davlatlararo, davlat ichidagi aholining mexanik harakatini to'g'ri tashkil etish malakali mutaxassislarni yo'qotish oldini olish, mutaxassislarni almashishni amalga oshirish, mavjud mehnat resurslaridan foydalanish yo'llarini izlab, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, aholi turmush darajasini ko'trish bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar oldidagi muammolardan hisoblanadi. Aholining mexanik harakati hudud ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmog'i lozim.

**Ichki migratsiya va uning oqibatlari.** Agar aholi mamlakat ichida hududlar bo'ylab (shahar-qishloq, qishloq-shahar, tuman-viloyat va hokazo) ko'chishni amalga oshirsa bunday migratsiya ichki migratsiya deyiladi.

Kengroq manoda *Ichki migratsiya* deb biror bir mamlakat, viloyat yoki ma'muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishidir. Bu xil migratsiya ham o'z navbatida to'rt yo'nalishga bo'linadi: shahardan-shaharga, shahardan-qishloqqa, qishloqdan-shaharga, qishloqdan-qishloqqa.

Xalqaro migratsiya jarayoni bilan birga mahalliy ichki migratsiya ham respublikada mustaqillik yillari ancha jonlandi. Ichki migratsiyada qishloqdan-shaharga va shahardan-shaharga yo'nalishlari bo'yicha aholi harakati kuchaydi. Ya'ni qishloq joylarda ba'zi korxonalar va xo'jaliklardagi ishlarning to'xtab qolishi aholining, ayniqsa yoshlarning ish izlab markaz shaharlarga qatnoviga olib keldi. Umuman O'zbekiston uchun ichki migratsiyada vaqtincha yashash joyini o'zgartiradiganlar va mayatniksimon migratsiyada ishtirok etadiganlar hamma davrlarda ustun bo'lib kelgan. Shaharlar o'rtasidagi aholi almashinishi ham kichik shaharlarda yashovchilarning yirik shaharlarga ko'chishi hisobiga ancha katta.

Mamlakat aholisini xalqaro va ichki migratsiyada ishtirok etishini ham salbiy, ham ijobiy tomonlarga egaligini yuqorida keltirib o'tgandik. O'zbekiston uchun chet davlatlarga ko'chib ketayotganlar ichidagi yetuk mutaxassislar katta yo'qotish hisoblanadi. Ayniqsa, fan, maktab, sog'liqni saqlash, huquq sohasidagi malakali yetuk mutaxassislar shular jumlasidandir.

**Demografik o'tish nazariyasida migratsiya roli.** Demografik o'tish, deb aholi takror barpo bo'lishini, bir turdan ikkinchi turga (kengaygan aholi takror barpo bo'lishidan, qisqargan aholi takror barpo bo'lishiga) o'tishiga aytiladi. Demografik o'tish kontseptsiyasi fanda birinchi marta frantsuz demografi L.Landri tomonidan 1903-1934 yillarda yaratilgan va uni demografik revolyutsiya deb atalgan. 1945 yilda amerikalik demograf F.Noutsteyn «Demografik o'tish» iborasini taklif etdi.

XIX asrning oxirida aholi tug'ilishi va o'lim xollari biologik qonuniyatlargagina emas, balki sotsial shart-sharoitlar bilan bog'liq holda sodir etilishi qayd etilgan. Jamiyat tarixiy rivojlanishi jarayonida aholi takror barpo bo'lishida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. 1950 yillarga kelib, jamiyatda demografik jarayonlar (nikoq, tug'ilish va o'limni) boshqarish jarayoni keng tarqaldi. Jamiyat taraqqiyotida ro'y bergan yirik ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar, Aholining demografik mayliga bevosita ta'sir etdi. Ayniqsa, qator davlatlarda Aholining farzandlar soniga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ko'pbolalik o'rnini o'rtacha bolalik, kam bolalik egallay boshladi. Oilani ko'p farzandga bo'lgan talabi asta-sekin urbanizatsiya jarayoni, sanoatni rivojlanishi, ayollar bilim darajasini oshib borishi, ijtimoiy qayotdagi o'rnini o'zgarib borishi bilan bog'liq holda kamaya bordi. SHuningdek jamiyatda ilm-fanning, ayniqsa tibbiyotning rivojlanishi, aholiga tibbiy xizmatning keng tarqalishi aholi o'rtasida o'limni keskin kamayishiga, o'rtacha umr ko'rish davrini esa uzayishiga sabab bo'ldi. Xomiladorlikni oldini oluvchi vositalar xaqidagi bilimlar muntazam shakllanib bordi. Bu vositalardan foydalanish, esa keng tarqala boshladi. Qator davlatlarda tug'ilishni nisbati yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi, aholi sonini birdan o'sib borishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon dunyodagi rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa 1960-1970 yillarda keskin tus oldi. Aholi sonini tez sur'atlar bilan ko'payib borishini aholishunos olimlar «Demografik revolyutsiya» yoki «Demografik portlash» deb atadilar. Aholining bunday tez sur'at bilan ko'payib borishi qar bir davlat uchun ijtimoiy iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi. Natijada ko'pgina davlatlar o'sib borayotgan aholi sonini cheklashga qarakat qildilar, «Tug'ilishni nazorat etish» dasturi qabul qilindi va tug'ilish jarayoni ekzogen (tashqi) omillar ta'sirida boshqarila boshlandi. Aholi takror barpo bo'lishini tashkil etgan ikki asosiy jarayon tug'ilish va o'limni boshqarilishi aholi takror barpo bo'lish sur'atini, o'zgarishiga olib keldi. Aholi takror barpo bo'lishi bir turdan ikkinchi turga o'ta boshladi. Ushbu xolni yuqorida qayd etilganidek-«demografik o'tish», deb belgilandi. Demografik o'tish jarayoni bosqichma-bosqich sodir bo'ldi. Muttaxassislar tomonidan demografik o'tish to'rt bosqichga ajratildi.

Birinchi bosqich. Bu bosqich rivojlangan mamlakatlarda XX asr o'rtalarida kuzatildi. Unda aholi o'rtasida tug'ilish va o'lim xollari kamaya boshladi. Lekin o'lim tug'ilishga qaraganda juda tez sur'at bilan kamayadi. Ba'zi davlatlarda esa tug'ilish deyarli kamaymaydi. Natijada Aholining tabiiy o'sishi juda yuqori darajada bo'ladi.

Ikkinchi bosqich. O'limning kamayishi jarayoni davom etadi va kamayishi eng kulminatsion nuqtaga yetadi. Tug'ilishning kamayish sur'ati esa jadallashadi. Natijada, aholi tabiiy o'sishi sekinlasha boradi.

Uchinchi bosqich. Ushbu bosqichda yuqori bosqichlarda ro'y bergan tug'ilishni va o'limni kamayishi, aholi o'rtacha umr ko'rishi muddatini uzayishi natijasida aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payib boradi. Bu xol o'lim xolatini ko'payib borishiga olib keladi. Tug'ilish yana ham kamayib boradi va oddiy aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'ladi. Ya'ni netto koeffitsient 1 ga tenglashadi. Boshqacha qilib aytganda. Qar bir ona o'z o'rniga faqat bittadan qizni-bo'lajak onani qoldiradi holos. Bu bosqichda aholi yosh tarkibida stabillashuv to'liq kuzatilmaydi. Aholi tarkibida o'lim xollari kam bo'lgan guruq-yoshlar salmog'i nisbatan baland bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda o'lim hollari yuqori darajada bo'ladi. O'lim va tug'ilish koeffitsientlari tenglashadi. Demografik stabillashuv jarayoni tugallanadi.

**Migratsiyaning mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari.** Migratsiya jarayonini tavsiflashda qator miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Miqdoriy ko'rsatkichlar aholi mexnaik harakatining dunyo miqyosida, ma'lum bir davrlardagi holatini aniq, asosli ifodalashga xizmat qiladi.

Migratsiyaning miqdoriy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

1. Migratsiyaning mutloq va nisbiy ma'lumotlari.
2. Migratsiya koeffitsienti.
3. Migratsiya saldosini.

Ma'lum hududda yashovchi aholining har 100 kishisiga to'g'ri keluvchi migrantlar soni migratsion harakatning intensivligi yoki koeffitsientini ko'rsatadi. U yiliga o'rtacha taxminan 5-6 foizga teng, lekin bu raqam turli joylarda katta farq qiladi.

Biron bir davlat, shahar, tuman, qishloqdagi migratsiyalarning samaradorligi-migratsiya saldosini deyiladi, u bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan ko'chib ketgan aholining ayirmasiga teng. Migratsiya saldosini ijobiy yoki salbiy bo'ladi va u absolyut (masalan, yiliga 5000 kishi) hamda nisbiy ko'rsatkichlarda (100 yoki 1000 kishi hisobiga) ifodalanadi.

Aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi aholi geografiyasiga, tarkibi va dinamikasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir nafaqat kichik, alohida aholi manzilgohlarid, balki yirik materik, region, mamlakatlar doirasida ham seziladi. SHuningdek, aholining mexanik harakati natijasida aholi soni, zichligi, uning ko'payishi ko'rsatkichlari va demografik vaziyat ham o'zgaradi. Bu o'zgarish salbiy va ijobiy tusga ega bo'ladi.

Aholi migratsiyasining salbiy tomoni shundaki, migrantlar oqimi yo'nalgan rayonlarda ko'chib kelganlar soni, ko'chib ketganlar sonidan ortiq bo'ladi. Aholi soni o'sib boradi, yosh tarkibi, ko'chish jaryonlaridan faol ishtirok etuvchi yoshlar salmog'iing yuqoriligi bilan farq qiladi. Bu xol kelajakda aholi ko'chib kelayotgan regionlardagi demografik vaziyatni yaxshilashga va aholi tabiiy harakati sur'atlarining oshishiga imkon beradi. Bir paytlar O'zbekistonning Mirzacho'l, Qarshi cho'llari hududiga Farg'ona vodiysi, Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlaridan aholi ko'chib kelib joylashgan. Bu yuqorida keltirilgan holatlarga misol bo'lishi bilan birga yetishmayotgan mehnat resursining ta'minlanishiga ham yordam berdi.

Aholi ko'chib ketayotgan hududlardan katta yoshdagi kishilar salmog'ining kamayishi ro'y beradi. Natijada tug'ilish nisbatan kamayadi, o'lining o'rtacha miqdori yuqori bo'ladi, aholining o'sish sur'atlari pasayadi yoki uning soni kamayib boradi. Aholining tabiiy harakati aholi ko'chib ketgan va aholi ko'chib kelgan hududlarda bir-biridan keskin farq qiladi. Chunki har ikki jarayonda ham aholining jinsiy, yosh tarkibida u yoki bu tarzda buzilishlar ro'y beradi. Bu aholining tabiiy harakati sur'atiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aholining jinsiy va yosh tarkibidagi, uning o'sish sur'atlaridagi o'zgarishlar, mehnat resurslarining keragidan ortib ketishiga yoki ularning yetishmasligiga olib keladi. Umuman olganda, aholi migratsiyalari- bu mamlakatning turli hududlari va xalq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida mehnat resurslarini qayta taqsimlanishining vositasidir. Chunki, asosan ma'lum kasb malakaga ega bo'lgan kishilar ko'chib yuradilar. Yangi qurilish va qishloq xo'jalik yerlari o'zlashtirilayotgan hududlarga malakali ishchi kuchi kelishi, ularning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtiradi, ishlab chiqarishning nisbatan mukammal texnika turlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Migrantlar tarkibi ayrim hududlar aholisining madaniy darajasiga, bilimiga ta'sir ko'rsatadi, etnik assimilyatsiya jarayonlarini va ko'p tillikning tarqalishini belgilab beradi. Turli xil etnik guruhlarning aralashishi oqibatida yangi etnik birliklar paydo bo'lishiga, ommaviy aholining ko'chishi yoki ko'chirilishi sabab bo'ladi. Masalan, respublikamizga Ulug' Vatan urushi yillari, 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan so'ng ommaviy rusiyzabon millatig mansub kishilarning ko'chib kelishi mintaqa aholisining tarkibi, etnik tuzilishida o'zgarishlarga sharoit yaratadi. Boshqa millat vakillari ko'chib kelgan hududlar, yangi o'zlashtirilgan yerlar aholisi irqiy va milliy tuzilishiga ko'ra xilma-xil bo'ldi. Aholi migratsiyalari ilgari odamlar yashamagan hududlarni aholi bilan ta'minlashga va o'zlashtirishga, aholi tarqalgan yirik yangi areallarni barpo etishga, mamlakat ayrim qismlari orasidagi iqtisodiy va sotsial rivojlanish darajalarini tenglashtirishga imkon beradi. Bunda migratsiyalarning yo'nalishlari hududiy bo'lgan iqtisodiy va sotsial vazifalarning hal etishga yordam berishi zarurdir. Migratsiya jarayonlarini boshqarishda davlat migratsiyalar va ularning geografiyasi to'g'risidagi miqdoriy ko'rsatkichlardan kishilarning ko'chib yurish sabablar haqidagi xilma-xil ma'lumotlardan foydalaniladi. Ana shu asosda aholining u yoki bu hududga migratsiyasini rag'batlantiruvchi tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshiriladi. Bu tadbirlar ko'pincha katta harajat talab qiladi. Migratsiyani vujudga keltiruvchi sabablar qilib iqtisodiy, siyosiy va ixtiyoriy ko'chib yurishlar ko'rsatiladi. Aytaylik ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi aholi o'zi yashab turgan joyga nisbatan yashash darajasi ustun bo'lgan hududga ko'chib o'tishni iqtisodiy sabab bilan bog'laymiz. Davlat tuzumidagi siyosiy vaziyat va undagi o'zgarishlar, chegaralarning qayta ko'rilishi oqibatida aholi manzilgohlarining u yoki bu davlat chegarasiga o'tish va hokazo sabablar aholining ko'chib yurishiga olib keladi. Bunga misol tariqasida sobiq Ittifoqning parchalib har bir davlat mustaqillikka erishuvi millatlarning u davlatdan bu davlatga ko'chib o'tishini tezlashtiradi. Ko'plab rusiyzabon kishilarning o'z ona vatanlariga qaytib ketishi, chet davlatlarga ko'chib ketish hollari shular jumlasidandir. Uchinchi sabab qilib turli xil baxtsiz hodisa, tabiiy sharoit, turmush tarzidagi noqulayliklar tufayli aholi ixtiyoriy ravishda bir joydan- ikkinchi joyga ko'chib o'tadi. So'nggi o'n yilda migratsiya masshtabi mamlakatimizda ham, mamlakatlararo ham kengayib u siyosiy ahamiyat kasb etmoqda.

**O'zbekistonda migratsiya geografiyasi.** Sobiq Ittifoq respublikalaridagi iqtisodiy ahvolning pasayishi, xo'jalik aloqalarining uzilishi, turmush darajasidagi noxushliklar, ishlab chiqarish korxonalarining to'xtab qolishi kabilar ishsizlik muammosini keltirib



chiqardi. Natijada Rossiyadan aholi xorij dvltlariga ish izlab, yaxshiroq daromad topish maqsadlarida chimqib ketmoqdalar. Bu esa yanada aholi soning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Rossiyaga ko'chib kelayotgan immigrantlar O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istondandir.

O'zbekistondan ham xorijga, Rossiyaga va boshqa hududlarga turli maqsadlarda migratsiyada ishtirok etib chiqib ketayotganlar hammamizga ma'lum. Respublikamizdan chiqib ketayotgan emigrantlar tarkibida birinchidan bir vaqtlr kelib qolgan rusiyzabon millatga mansub kishilar, ularning farzandlari yana vatanlariga qaytishmoqda. Ikkinchidan yahudiylar, nemislar, greklar, qozoqlar, mesxeti turklar o'z ona yurtlariga yoki boshqa davlatlarga ko'chib ketishmoqda. Bunday migratsiyani etnik migratsiya deb ham atash mumkin. Uchinchidan, mahalliy millat vakillari (o'beklar) ichidan ham ish izlab, o'qish yoki qarindoshlari orqali boshqa joylarga borib yashash maqsadlarida tashqi migratsiyada faol ishtirok etishmoqdaki- bu ommaviy mehnat migratsiyasi hisoblanadi. Ushbu migratsiyada ishtirok etayotganlar vaqtincha va doimiy yashash uchun ketishadi. O'zbekiston aholisining xalqaro migratsiyadagi ishtiroki ko'proq chetga ko'chib ketuvchilar hisobiga bo'lib migratsiya sal'dosi manfiy tus olgan. Xalqaro migratsiyada ishtirok etib mamlakatimizga ko'chib kelayotganlarning aksariyatini ishbiarmonlar, tadbirkorlar, ilmiy hodimlar, elchixona hodimlari tashkil etadi. Bular vaqtincha yashab keyin vataniga qaytib ketishadi. Xalqaro migratsiya jarayoni bilan birga mahalliy ichki migratsiya ham respublikada mustaqillik yillari ancha jonlandi. Ichki migratsiyada qishloqdan-shaharga va shahardan-shaharga yo'nalishlari bo'yicha aholi harakati kuchaydi. Ya'ni qishloq joylarda ba'zi korxonalar va xo'jaliklardagi ishlarning to'xtab qolishi aholining, ayniqsa yoshlarning ish izlab markaz shaharlarga qatnoviga olib keldi. Umuman O'zbekiston uchun ichki migratsiyada vaqtincha yashash joyini o'zgartiradiganlar va mayatniksimon migratsiyada ishtirok etadiganlar hamma davrlarda ustun bo'lib kelgan. SHaharlar o'rtasidagi aholi almashinishi ham kichik shaharlarda yashovchilarning yirik shaharlarga ko'chishi hisobiga ancha katta. Mamlakat aholisini xalqaro va ichki migratsiyada ishtirok etishini ham salbiy, ham ijobiy tomonlrga egaligini yuqorida keltirib o'tgandik. O'zbekiston uchun chet davlatlarga ko'chib ketayotganlar ichidagi yetuk mutaxassislar katta yo'qotish hisoblanadi. Ayniqsa, fan, maktab, sog'liqni saqlash, huquq sohasidagi malakali yetuk mutaxassislar shular jumlasidandir.

Kam sonli aholisi bo'lgan davlatlar uchun tashqi migratsiya (ko'chib ketish) demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xarakterga ega muammolarni keltirib chiqaradi. Respublikamiz aholisining xalqaro migratsiyadagi ishtiroki bunday munday muammolarga olib kelgani yo'q. Ammo, zamonaviy xalqaro aholi migratsiyasi masshtabi borgan sari kengayar ekan ko'p millatli aholisi bo'ldgan O'zbekiston uchun davlatlararo migratsiya sezilarli axamiyatga ega bo'ladi. Manbalarda ko'rsatilishicha 90-yillar boshida dunyo bo'yicha 25 mehnatkash ishchi migrant ro'yxatga olingan. Ularning yarmidan ortig'i rivojlangan davlatlardn chiqqan bo'lib 3/2 qismi industrial rivojlangan davlatlarga borib joylashgan. Xalqaro migratsiyada oxirgi yillari aholi o'rtasida tabaqalanish kuchayganligi oqibatida noqonuniy migrantlar soni oshdi. Nelegal migrantlarning asosiy qismini yollanib ishlovchilar tashkil etmoqda. Bunday ishchi-migrantlar ko'pchilik dvlatlar arzon ishchi kuchi sanaladi. 1990-yillardn keyin sobiq Ittifoq respublikalri aholisi ichida xuddiy shunday (nelegal) yashirin migratsiyada qatnashuvchi migrantlar soni ko'paydi, ayniqsa, aholisi soni ko'p, ishsizlik baland bo'lgan hududlarda bu yanada o'sdi. Yevropa, Osiyoning rivojlangan davlatlari, Rossiya (O'rta Osiyo respublikalari uchun) asosiy immigratsiya davlatlari bo'lib qoldi.

Migratsiya jarayonini boshqarish, yo'lga qo'yish har bir davlat migratsiya siyosatining bosh vazifasidir. Demak, davlatlararo, davlat ichidagi aholining mexanik harakatini to'g'ri tashkil etish malakali mutaxassislarni yo'qotish oldini olish, mutaxassislarni almashishni amalga oshirish, mavjud mehnat resurslaridan foydalanish yo'llarini izlab, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, aholi turmush darajasini ko'trish bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar oldidagi muammolardan hisoblanadi. Aholining mexanik harakati hudud ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmog'i lozim.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Aholi migratsiyasi nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Aholi migratsiyasini qanday omillar keltirib chiqaradi?
3. Xalqaro migratsiya nima va u iqtisodiy samaradorlikka qanday tasir o'tkizadi?
4. Ichki migratsiya qanday oqibatlarga olib keladi?
5. Migratsiyaning qanday ko'rsatkichlari mavjud?
6. Bugungi kunda O'zbekistonda migratsiya geografiyasi qanday holatda?

### **7-Mavzu. Demografik prognozlashtirish.**

#### **Reja:**

1. Demografik prognoz va uning turlari.
2. Demografik prognozlashtirishning metodologik asoslari va yondoshuvlari.
3. Demografik prognoz metodlari.
4. Aholi prognozida matematikaning roli.
5. Demografik prognozlar tarixi.
6. Demografik jarayonlarni: tug'ilish, o'limni prognoz qilish.

**Tayanch iboralar.** *Demografik prognoz, demografik prognoz metodlari, qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli demografik bashoratlar, demografik yondashuv, matematik usul, prognoz aniqligi, "yosh siljitish" metodi, filosofik yondashuv, otsilogik yondashuv, ekologik qarash.*

**Demografik prognoz va uning turlari.** *Demografik bashorat* deganda ma'lum hudud aholisining soni, tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash tushuniladi. Qar qanday ijtimoiy-iqtisodiy bashoratlar, demografik bashorat zaminida tuziladi. Kelajakda ishlab chiqarish lozim bo'lgan maxsulotlar miqdorini rejalashtirish, aholiga xizmat qiluvchi barcha sotsial soqalarni rivojlantirish uchun avvalo kelajakdagi aholi soni, yosh-jinsiy tarkibi, oilalar sonini bilish lozimdir. Ayniqsa, Aholining yosh tarkibi bo'yicha bashorati muqim ahamiyatga egadir. Kelajakda maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari, maktablar, oliy va maxsus o'quv yurtlarini qurilishini rejalashtirish uchun kelajakda qancha bola maktabgacha muassasalariga qatnashi mumkin, qancha bola maktab yoshiga yetishi. qancha bola maktabni tugatib oliy va maxsus o'quv yurtlariga borishi xaqidagi ma'lumotlar zarurdir.

Demografik prognoz aholi harakatining asosiy ko'rsatkichlarini va istiqboldagi demografik vaziyatni: aholining son va sifat tavsiflarini, yosh-jins va oilaviy tarkibini, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, migratsiya jarayonlarini ilmiy asoslangan holda oldindan ko'ra bilishdir. Demografik prognozning zarurati ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish vazifalari bilan uzviy bog'liqdir.

Dastavvalgi demografik prognozsiz mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, turarjoy qurilishi, ijtimoiy infra-tuzilmani, sog'liqni saqlash, xalq ta'limini, pensiya tizimini rivojlantirish istiqbollarini, geosiyosiy vazifalarni hal etishni tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham aholi soni va tarkibining, alohida demografik jarayonlarning dinamikasi xalqaro, davlat va nohukumat tashkilotlari, ilmiy muassasalar umumiy faoliyatining muhim qismi hisoblanadi.

Demografik prognoz tug'ilish va o'limning kelajakdagi dinamikasiga doir ayrim gipotezalar asosida amalga oshiriladi. Bugungi kunda demografik prognozlashtirishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud:

- **global prognozlar** dunyo miqyosidagi demografik rivojlanish bashoratlaridir. Prognozlashtirishning mazkur yo'nalishida aholi takror hosil bo'linishining ko'plab omil va ko'rsatkichlari hisobga olinadi;

- **mintaqaviy prognozlar** – ular bevosita davlatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejalari bilan bog'liq. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalashtirilayotganda aholi takror hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, demografik jarayonlarning tavsiflari hisobga olinadi. Shuningdek, mintaqaviy prognozlar hudud aholisi soni va tarkibining istiqboldagi dinamikasi haqidagi ma'lumotlarni beradi. Ulardan ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy siyosati, madaniyat, sport, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish, aholini iste'mol tovarlari bilan ta'minlash va ularni ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa sohalarning istiqbol prognozlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Demografik prognozlar tahliliy, me'yoriy, ogohlantiruvchi va funksiyaviy shakllarda bo'ladi.

**Tahliliy prognozlar.** Bu prognozning maqsadi – aholi takror hosili qilinishining aholining kelajakdagi soni va tarkibiga,

Hisoblanadi yosh-jinsiy tarkibi xaqidagi bashorat tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi uchun ham muxim ahamiyat kasb etadi. Aholi yosh-jinsiy tarkibi bo'yicha tuzilgan bashorat asosida kelajakda qancha bolalar va ayollar shifokorlari, Aholining keksa guruqiga xizmat qiluvchi kardiologlar, onkologlar, nevropotologlar kabi muttaxassislar tayyorlash rejalashtiriladi.

Kelajakda, yangi ish o'rinlarini tayyorlash, xalq xo'jaligi soqalarini rivojlantirish istiqbollarini aniqlashda esa mehnat yoshidagi aholi xaqidagi bashorat ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman, iqtisodiyot va hisoblanadi ijtimoiy qayotining barcha qirralari istiqbolini rejalashtirishda shu sotsial jarayonlarning qatnashchilari, iste'molchilari va yaratuvchilari bo'lmish, aholi guruqlari xaqidagi demografik bashorat zarurdir. Aks holda kelajak uchun rejalashtirilgan qar qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ijobiy natija bermaydi.

Demografik bashorat, demografiya fani va demografik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Demografik bashorat-bashorat etilayotgan davrga qarab, qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'ladi.

*Qisqa muddatli demografik bashorat* – 5 yilga mo'ljallangan bo'lib, turli xo'jalik va rejalashtirish tashkilotlarida ko'proq qo'llaniladi. Qisqa muddatli bashoratda aniqlik darajasi nisbatan yuqori bo'ladi. Chunki 5 yil davomida hisoblanadi o'limi va tug'ilish jarayonida ham keskin o'zgarish ro'y bermaydi. Mehnat resurslari, farzand ko'rish yoshidagi aholi guruqi, nafaqa yoshidagi aholi guruqlari xaqidagi ma'lumotlar aniq bo'ladi. Asosan tug'iladigan bolalar soni maxsus qisob-kitoblar, uslublar orqali hisoblanadi.

*O'rta muddatli demografik bashoratlar*-30 yilgacha bo'lgan davr uchun hisoblanadi. Ushbu bashoratda hisoblanadi tug'ilish va o'lim jarayonlari, aholi migratsiyasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ilmiy asosda o'rganiladi va bashorat tuzishda qisobga olinadi.

*Uzoq muddatli demografik bashoratlar* 30-60 yilga mo'ljallanadi. Bunday bashoratlar aholi tug'ilishi va o'limining kelajakdagi o'zgarishlar xaqidagi gipotezalarga asoslanadi. Uzoq muddatli demografik bashoratda aholi migratsiyasini qisobga olish bir muncha murakkabroq kechadi. Chunki aholi migratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bir qatorda jamiyatda, tabiatda yuz bergan tasodifiy jarayonlar bilan ham bog'liqdir. Shu tufayli uzoq muddatli demografik bashoratlarning aniqlik darajasi nisbatan pastroq bo'lishi mumkin.

**Regionlar bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar va bashoratlar 1975-2015 yy.**  
(Kvasha A.YA., Iontseva V.A. bo'yicha)

Regionlar	Aholi soni (mln)	O'rtacha umr davri	Shahar aholisi %	Yosh guruhlarning aholi sonidagi ulushi %	
				15 yoshgacha	65 yosh va undan katta
<b>Dunyo bo'yicha</b>					
1995	5759	64,7	45,2	31,9	6,5
2015	7609	70,2	55,6	27,1	7,8
<b>Rivojlangan davlatlar</b>					
1995	1224	74,6	74,2	20,9	12,9
2015	1366	77,5	80,8	19,5	15,4
<b>Rivojlanayotgan davlatlar</b>					
1995	4515	62,4	37,2	34,9	4,8
2015	6242	68,6	50,1	28,9	6,2
<b>Afrika</b>					
1995	744	53,0	34,7	44,8	3,1
2015	1265	61,1	47,6	40,0	3,3
<b>Lotin Amerikasi</b>					
1995	482	68,0	74,2	33,8	5,1
2015	637	72,0	81,8	26,4	7,1
<b>Shimoliy Amerika</b>					
1995	292	76,1	76,4	21,8	12,6
2015	341	78,8	82,2	19,0	14,4
<b>Osiyo</b>					
1995	3408	64,8	31,2	32,2	5,4
2015	4461	71,1	47,3	25,5	7,3
<b>Yevropa</b>					
1995	516	75,2	75,0	19,0	14,1
2015	540	78,0	81,6	18,2	16,8

**Demografik prognozlashtirishning metodologik asoslari va yondoshuvlari.**  
**Demografik prognoz metodlari.** Demografik bashoratlar ishlab chiqishda demografiya fani, birinchi navbatda o'rganilayotgan hudud yoki ijtimoiy guruh aholisining demografik maylini (demografik jarayonlariga bo'lgan munosabati) atroflicha tahlil etadi va ayni shu asosda demografik jarayonlarda kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarni ko'rsatib beradi.

Demografik bashoratning eng oddiy uslubi aholi umumiy sonini ma'lum davridagi o'zgarishini aniqlashdir. Bu uslubda bashorat qilinayotgan davrning boshlanishidagi

demografik holat asos qilib olinadi va shu holatga asosan bashorat qilinadigan davr uchun aholi soni hisoblanadi. Ushbu uslub quyidagi formulada o'z aksini topgan:

$$P_1 = P_0 x e^{k \cdot x \cdot t}$$

*R1*-bashorat qilinayotgan davrning oxiridagi aholi soni.

*R0*-bashorat etilayotgan davrning boshlanishidagi aholi soni.

*K*- bashorat qilinayotgan davr uchun nazarda tutilgan Aholining o'sishi.

*t*- bashorat etilayotgan davr.

*e*-natural logarifmlar asosi.

Yuqorida qayd etilgan uslub yordamida ma'lum hududdagi Aholining umumiy soni bashorat etiladi. Lekin, bu bashorat aholi sonidagi o'zgarishni juda aniq ko'rsata olmaydi. Chunki bashorat etilayotgan davrda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni o'zgarishi bilan bog'liq holda tug'ilish, o'lim va aholi migratsiyasida keskin o'zgarishlar ham bulishi mumkinki, ular aholi soniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Demografik tadqiqotlarda Aholining yosh va jinsiy tarkibi bo'yicha bashorat etish juda ahamiyatli bo'lib, unda aholi tarkibidagi o'zgarishlar nisbatan aniq yoritiladi. Aholining yosh-jinsi bo'yicha bashorat etishda yosh guruqlarning «surish» uslubi qo'llaniladi. Bunday uslubda bashorat etilayotgan davrda qar bir yosh guruqini bashorat etilayotgan davr boshidagi mavjud miqdori olinadi. Undan bir yil davomida o'lganlar sonini ayirib, keyingi yilga shu guruqi soni aniqlanadi. Masalan, 2000 yil 1 yanvarda 11 yoshga kirganlar soni, 1999 yil 1 yanvarda 10 yoshga kirganlar sonidan, 1.01.1999 y.-1.01.2000y davomida 10 yoshdan 11 yoshgacha o'lgan bolalar sonini ayirmasiga teng. Ana shu tarzda qar bir yosh guruqini «surib» keyingi yil uchun aholi soni aniklanadi. Lekin, bunday uslubda bashorat etish uchun yosh guruqlari bo'yicha o'lim hollari, ya'ni «o'lim jadvali» qisoblangan bo'lishi lozim

Yosh guruqlarni surish uslubi bilan bashorat qilinganda, bashorat etilayotgan davr boshidan keyingi yil uchun tug'ilganlar soni, ya'ni «R» yoshdagilarni aniqlash lozim bo'ladi. Masalan. bashorat etilayotgan davrimiz 1999 yildan boshlansa, 1999 yilda tug'ilganlar, ya'ni «O» yoshdagilar aniq, ular 2000 yilda 1 yoshga to'ladilar. Lekin, 2000 yil uchun tug'ilajak bolalar sonini aniqlash lozim bo'ladi. Buning uchun farzand ko'rish yosh guruqlaridagi (15-19, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39, 40-44 va 45-49 yosh guruqlari) ayollar sonini shu yosh guruqidagi tug'ilish koeffitsientiga ko'paytiriladi va keyingi yili shu guruqdagi qar 1000 ta ayol nechta farzand ko'rishni aniqlanadi. Masalan, O'zbekistonda 1999 yilda 15-19 yoshli ayollar «X» ni tashkil etgan. SHu yili 15-19 qar 1000 ta ayolga nisbatan «U» farzand tug'ilgan.

Demak,  $X_{1999}^{15-19} \cdot Y_{1999}^{15-19} = Z_{2000}^{15-19}$  ga teng. Ana shunday uslub bilan qar bir yosh guruqida keyingi 2000 yilda tug'ilajak bolalar soni aniqlanadi. Qar bir yosh guruqida tug'ilishi mumkin bo'lgan bolalar soni aniqlanib, hammasi ko'shiladi:

$$Z_{2000}^{15-19} + Z_{2000}^{20-24} + Z_{2000}^{25-29} + \dots + Z_{2000}^{45-49} = \sum Z_{2000}^{15-49}$$

va 2000 yilda tug'ilishi mumkin bo'lgan jami bolalar soni aniqlanadi.

Shu tariqa 2001, 2002, 2003 va keyingi bashorat etilayotgan yillar uchun ham tug'ilajak bolalar soni aniqlanadi. Faqat buning uchun, yosh guruqlari bo'yicha tug'ilish koeffitsientlari, tug'ilishdagi o'zgarishlar, o'lim hollari, migratsiya, aholi reproduktiv maylidagi o'zgarishlarni mutaxassislar tomonidan qisobga olinadi.

Demografik bashoratda mehnat yoshidagi Aholining yosh-jinsiy ma'lumot, kasb-malakasi bo'yicha kelajak tarkibini aniqlash aloqida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ana

shu bashorat asosida qar bir davlat va uning hududlarida kelajakdagi mehnat resurslari balansi ishlab chiqiladi.

Aholining oilaviy tarkibini bashorat etish ham muqim demografik tadqiqotdir. Chunki oila juda ko'p maqsulotlarni iste'molchisi hisoblanadi. Kelajakda oilalarning tarkibi qanday bo'ladi, Aholining necha foizi yolg'iz yashaydi, necha foizi oddiy oilalarda, necha foizi 2-3 avlod vakillari yashovchi murakkab oilalarda istiqomat etadilar. Yosh oilalar salmog'i qanday bo'ladi? Ana shu savollarga oila tarkibini bashorat etish orqali javob beriladi hamda shu bashorat asosida aholiga turar joy, yashash uchun kerak bo'lgan barcha maqsulotlar ishlab chiqish rejalashtiriladi.

**Aholi prognozida matematikaning roli.** Zamonaviy statisti qadar axolini prognozlashning qator usullari yaratilib, ular har xil modellarga asoslangan, har xil anikdikka ega. Axolining kelajakdagi sonini anikdashdagi eng oddiy modellar uning umumiy soni o'zgarishini tavsiflaydi. Bu modellarni prognozlash matematik funktsiyalarni qo'llashga asoslanilgan. Axoli soni o'zgarishi grafik tuzuvchi usiliga ega bo'lgani uchun ular ba'zi matematik qiyshiq chiziqlarni eslatadi. Shuning uchun axolining amaldagi dinamikasini matematik qiyshiq chiziqlar yordamida silliqlash masalasi ko'riladi. Ular orasida eng ko'p tarqalgani ko'rsatuvchi parabola va mantiqiy funktsiya hisoblanadi.

Qandaydir avvalgi davr uchun aholi sonini silliqlaganda hisobdagi va amaldagi ma'lumotlarning mos kelishi bundan keyin ham mos kelishini yoxud qabul qilingan funktsiyalarni prognozlash maqsadlarida qo'llash mumkinligini anglatadi.

1891 yilda amerikalik astronom G. Pritchett AQSh aholisi sonini avvaldan aniqlash maqsadida uchinchi tartibli paraboladan foydalanishni taklif etdi. SHU qiyshiq chiziq asosida 1790-1880 yillardagi aholi sonini silliqlash natijalari amaldagi ma'lumotlar bilan mos kelgan. Uchinchi tartibli parabola asosidagi 1880 yil prognozi ma'lumotlari amaldagisi bilan eng ko'p (55 ming) farq qilgan. AQSh aholisi shu nisbatda ortib boradi deb, Pritchett aholi sonini 1000 yil avval hisob –kitob qilgan. Ammo vaqt o'tgan sari amaldagi son bilan prognozdagi sonlar farqi ortib bordi. Ma'lum bo'lishicha, avvallari aholi o'sishini tasvirlash uchun yaroqli bo'lgan parabola prognozlash uchun yaroqsiz ekan.

Aholining avvalgi va kelajakdagi o'sishini tavsiflash uchun ko'rsatuvchi yoki eksponentsial qiyshiq chiziq qo'llanilib, unda prognoz davri bilan birga aholining tabiiy o'sish koeffitsienti ham hisobga olingan. Agar tabiiy o'sish koeffitsienti  $K$  ma'lum vaqt oralig'i uchun o'zgarmas deb hisoblansa, eksponentsial qonuniga asosan, aholi sonining o'sishini hisoblash mumkin:

$$S_t = S_0 * e^{kt}$$

Agar qandaydir momentga ( $S_0$ ) aholi soni va tabiiy o'sish koeffitsienti ma'lum bo'lsa, keltirilgan formula asosida  $t$  yildan so'nggi aholi sonini hisoblash mumkin. Ammo bu model asosida aholining yosh tarkibi, tug'ilish va o'lish darajasi haqidagi ma'lumotlarni olish va bu ko'rsatkichlar orasidagi proporsiyalarni o'rganish ham mumkin emas.

Lekin aytish mumkinki,  $K > 0$  bo'lsa, aholi soni o'sadi, agar  $K < 0$  bo'lsa, kamayadi,  $K = 0$  bo'lsa, uzgarmay qoladi.

Eksponentsial qonundan foydalanib, ma'lum davr o'tgandan so'ng aholi ma'lum songa teng bo'lishi uchun qancha vaqt kerakligini ham aytish mumkin.

**Demografik prognozlar tarixi.** Demografik bashorat etish o'z tarixiga egadir. Bu boradagi eng dastlabki qarakatlar qadimgi Rim va Gretsiyada kuzatilgan. Ilmiy asoslangan birinchi demografik bashoratlar XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlarida

L.Eyler, T.Maltus, Pirla-Ridalar tomonidan yaratilgan. XX asrning 20 yilaridan boshlab aholi o'sishining asosiy komponentlari, tug'ilish, o'lim jarayonlaridagi o'zgarishlarni qisobga olgan holda, takomillashgan uslublar yordamida demografik bashoratlar qisoblana boshlandi. Ana shu yillarda Frantsiya, Germaniya, Italiya, Daniya davlatlari aholisining kelajakdagi miqdori demografik bashoratlar orqali aniqlandi.

1921 yili E.M.Tarasov, S.G.Strumilinlar 1921-1941 yillar uchun Rossiya aholisining demografik istiqbolini ishlab chiqdilar.

A.S.Novosel'skiy, V.V.Poevskiy, M.V.Ptux, Yu.A.Korchak-CHepurkovskiy, A.P.Komnko, B.Babaninlar tomonidan ham demografik bashoratlar ishlab chiqilgan. Demografik bashoratning uslublari esa Rossiyalik aholishinus olimlar A.Ya.Boyarskiy, B.TS.Urlanis, V.A.Borisov ishlarida keng o'rin olgan.

O'zbekistonda demografik bashoratlarni ishlab chiqish, asosan 1960 yillardan boshlanadi. Respublikada dastlabki demografik bashoratlar aholishinus olim M.K.Qoraxonov raqbarligida 1962-1980 yillarda ishlab chiqilgan. Keyinchalik respublikada qar tomonlama mukammal demografik bashoratlar ishlab chiqish rivojlandi. Bu borada aholishunos olimlar I.R. Mullajonov R.N. Ubaydullaeva, N.S. Ali-Qoriev, O.B. Ota-Mirzaev, A.Qayumov, M.R.Bo'rieva, L.P.Maksakova va boshqalarning ilmiy ishlarini keltirish mumkin.

**Demografik jarayonlarni: tug'ilish, o'limni prognoz qilish.** Demografik bashoratda mehnat yoshidagi aholini yosh-jinsiy, ma'lumot, kasb-malakasi bo'yicha kelajak tarkibini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ana shu bashorat asosida har bir davlat va uning hududlarida kelajakdagi mehnat resurslari balansi ishlab chiqiladi.

Aholining oilaviy tarkibini bashorat etish ham muhim demografik tadqiqotdir. Chunki oila juda ko'p mahsulotlarning iste'molchisi hisoblanadi. Kelajakda oilaning tarkibi qanday bo'ladi, aholining necha foizi yolg'iz yashaydi, necha foizi oddiy oilalalarda, necha foizi 2-3 avlod vakillari yashovchi murakkab oilalarda istiqomat etadilar. Yosh oilalar salmog'i qanday bo'ladi? Ana shu savollarga oila tarkibini bashorat etish orqali javob beriladi hamda shu bashorat asosida aholiga turar joy yashash uchun kerak bo'lgan barcha mahsulotlar ishlab chiqish rejalashtiriladi.

Aholining qayta barpo bo'lishi haqidagi prognozlar o'tgan asrning 80-yillarida ko'p variantli tus oldi. Shulardan bevosita hozirgi Markaziy Osiyo mamlakatlari haqidagi tadqiqotlar D.Veresev ishlaridan o'rin egallagan. Ularning prognozlari to'rtta vaziyatni e'tiborga olgan holda amalga oshirilgan: birinchidan, o'sha davrda Sobiq Ittifoq tarkibidagi musulmon respublikalaridagi tug'ilish koeffitsienti boshqa mintaqalardan farq qilishga e'tibor qaratilgan. Biroq, bu prognozlar biologik xarakter kasb etgani holda respublikalararo migratsiyani hisobiga olmagan. Unda barcha ittifoqdagi boshqa respublikalarga xos tug'ilish koeffitsientlarining pasayishi musulmon respublikalarida kuzatilmaganligini aholining qayta barpo bo'lishining oddiy rejimi XX asr oxiriga qadar davom etishi prognoz qilinadi. Bunda muallif (D.Veresev) kelgusida bu mamlakatlarning birmuncha islomlashuvini va reproduktiv targ'ibotlar o'zini oqlamasligini e'tirof etgan. Natijada bu kabi ob'ektiv demografik omillar demografik bosqichlarining birdan ikkinchisiga o'tishiga to'sqinlik qilishini e'tirof etgan. Boshqa tadqiqotchilar (E.Andreev, S.Perechkov 1975; P.Vensan, 1945) aholining qayta barpo bo'lishiga iqtisodiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatishini ya'ni aholining birlamchi dehqonchilik ishlaridan sanoat ishlab chiqarishga o'tishi jamoat ishlariga ko'plab ayollarning jalb etilishi tug'ilishning kamayishiga sabab bo'lishini e'tirof etishgan.

Ikkinchidan, d,Veresev aholining qayta barpo bo'lishida tashqi migratsiyani e'tiborga olmaganligini tadqiqotlarining eng muhim kamchiligi sifatida e'tirof etadi.

Shuningdek, T.Ivanov va I.Kalinyuk (1979) larning tadqiqot ishlarida ham migratsiyaning aholining qayta barpo bo'lishiga ta'siri ifoda etilmagan. D.Veresev sovet hukumatining migratsiyani boshqarishdagi siyosatining mantiqsizligini o'z davrida qayd etdi (1987). U iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun emigratsion siyosatni tashqi kuchlar bosimida idora etishni qoralagan.

Uchinchidan, D.Veresev prognozi aholining o'rtacha umr ko'rishi qisqartirilgan variantning qo'llanganligini oldingi tadqiqotchilar prognozlaridan farqli jihati sifatida ajratib ko'rsatadi. U bu ko'rsatkichning davriy tebranishi prognoz ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir etmasligini ta'kidlagan.

To'rtinchidan, oldingi tadqiqotlarda ham, D.Veresev prognozlarida ham aholining qayta barpo bo'lishiga fojeali omillar ta'siri e'tiborga olinmagan. Biroq, katta masshatbda Chernobil fojeasi singari fojea yuz bermagan bo'lsada, Sobiq Ittifoqning emirilishi katta hududni ishg'ol etgan. imperiyadagi siyosiy o'zgarishlar aholi qayta barpo bo'lishida katta o'zgarishlarni sodir etdi va mamlakatlar oldigi talay yangi muammolarini qo'ydi. Albatta, o'z davrida umumiy ko'rinishga ega bo'lgan aholining qayta barpo bo'lishidagi bu kabi tadqiqotlar o'z natijalariga ko'ra ham Markaziy Osiyodagi demografik jarayonlar o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyodagi demografik jarayonlarning spetsifik jihatlari to'g'risida O.Ota-Mirzaev ta'kidlaganidek «Sotsial demografik stereotip o'z kelajakka qadar hech bo'lmaganda joriy yuz yillik oxiriga qadar saqlanib qoladi. Markaziy Osiyo respublikalaridagi tub aholining asosiy qismida tug'ilishning yuqoriligi saqlanib qolishi ko'pchilik mahalliy olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Shundan farqli holatda M.Amanekov Turkmanistonda tug'ilishning pasayishi holati faollashuvi haqidagi ma'lumotlar keltirad. A.G.Vishnevskiy O'rta Osiyo va boshqa mintaqalarda tug'ilishning yuqoriligi sababli aholining qayta barpo etilishini prognozlashga va aniq natijalarga erishishga nazariy tahlil ham butun dunyo tajribasidan kelib chiqib yondashishi ham yoki alohida olib borilgan aniq tadqiqot ham yordam berolmadi deydi. Tug'ilishning yuqoriligi milliy xususiyat emas, dunyoda hech bir xalq yo'qki, uning tarixida tug'ilishning yuqoriligi an'anasi kuzatilmasa, qachonki tarixiy taraqqiyot bu an'adan ob'ektiv asosda mahrum etar ekan, u bir muddat inertsiya kuchi singari saqlanib qoladi. Bu inertsianing qancha muddat davom etishi joy va vaqtning ko'plab xususiyatlari bilan bog'liq. Shuningdek, bu bog'liqlik o'tmishdagi inertsianing hozirgi talablaridan kuchli emasligi bilan izohlanadi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Demografik prognoz nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Demografik prognozashtirishda qanday metodlardan foydalaniladi?
3. Demografik prognozashtirishda qanday yondashuvlardan foydalaniladi?
4. Aholini prognozashtirishda matematikaning roli qanday?
5. Tug'ilish va o'limni qanday prognoz qilish mumkin?

### **8-Mavzu. Demografik siyosat.**

#### **Reja:**

1. Demografik siyosat: mohiyati, maqsadi, tarixi, samaradorligi va vazifalari.
2. Demografik siyosat o'tkazish usullari va mintaqaviy demografik siyosatlar.
3. Tug'ilish, o'lim jarayonlarida olib borilayotgan siyosat.
4. Xalqaro migratsiya jarayonini boshqarishda demografik siyosat.



## 5. O'zbekistonda demografik siyosat o'tkazish va uning maqsadi.

**Tayanch iboralar.** *Demografik siyosat, siyosat mohiyati, demografik siyosat maqsadi, demografik siyosat vazifalari, mintaqaviy demografik siyosat, demografik ekspertiza, aholi siyosati, migratsion siyosat.*

### **Demografik siyosat: mohiyati, maqsadi, tarixi, samaradorligi va vazifalari.**


Demografik siyosat davlat organlari va ijtimoiy institutlarning aholini takror hosil jarayonlarini tartibga solish sohasidagi aniq maqsadni ko'zlagan faoliyatidir. Uning tarkibi siyosiy faoliyat boshqa sohalarda bo'lgani kabi ikki muhim va o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan: demografik maqsadlarni belgilash hamda ularni amalga oshirishdan iborat.

Demografik siyosatning maqsadi va vazifalari, qoida bo'yicha, qonunlar, hukumat qarorlari, siyosiy va strategik dasturlar, joriy rejalarda o'z ifodasini topadi.

Demografik siyosatning ob'yekti – umuman mamlakat yoki uning mintaqalari aholisi, oilalar, uy xo'jaliklaridir.

Demografik siyosatning asosiy yo'nalishlari, odatda, quyidagilarni qamrab oladi:

- oila, ona va bolalarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish;
- ayollarning oilaviy vazifalarni bajarishlarini ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratish;
- aholining kasallanishi va o'lim darajasini kamaytirish, umr ko'rish davomiyligini uzaytirish uchun zarur choralarni ko'rish;
- aholining turmush darajasi va turmush sifatini oshirish;
- aholining joylashishi, urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish;
- migratsiya jarayonlarini tartibga solish (8.1-rasm).



## 8.1-rasm. Davlatning demografik siyosati

Davlatning demografik siyosatini o'tkazishda ma'muriy-huquqiy iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik uslublardan foydalaniladi.

Ma'muriy-huquqiy uslubda aholining takror hosil bo'lishini tartibga solishga qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat organlari va ijtimoiy institutlar orqali ta'sir ko'rsatiladi. Oilanikoh munosabatlari, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, gender siyosatiga doir qonun hujjatlari, hukumat dasturlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Iqtisodiy uslub tug'ilish darajasini oshirishni rag'batlantirish, umr ko'rish davomiyligini uzaytirishga qaratilgan shartsharoitlarni yaxshilashni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi tadbirlarni qamrab oladi.

Davlatning demografik siyosatini amalga oshirishning ijtimoiy-psixologik uslubi aholini "demografik tarbiyalash", deb ham ataladi. U fuqarolarning oilaga, oila tarkibiga, sog'lom turmush tarziga munosabatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ayniqsa, ota-onalarning "demografik savodxonligi"ga katta e'tibor beriladi. Demografik tarbiyaning yana bir muhim yo'nalishi aholining demografik mayliga ta'sir ko'rsatishdir. Demografik tarbiyalash, asosan, ijtimoiy institutlar, ta'lim va targ'ibot muassasalari, ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi.

XVII asrdayoq Fransiya Yevropada birinchilardan bo'lib o'z aholisi soni ko'payishini rag'batlantirish siyosatini amalga oshira boshlagan. Bunga ko'p jihatdan Fransiyaning Germaniya bilan 30 yillik (1618-1648 yillar) urushda katta talafot ko'rgani sabab bo'lgan. XVIII asrda esa manufaktura ishlab chiqarishining kengayishi bilan ishchi kuchiga talab kuchaygan va sanoati rivojlanayotgan davlatlarda tug'ilishni ko'paytirish qo'llab-quvvatlangan.

XIX asrning oxirgi choragida urushlar natijasida Germaniya va Belgiyada ham katta yo'qotishlar oqibatida aholining jiddiy ravishda kamayishi boshlandi. Bu ushbu mamlakatlar hukumatlarini tug'ilishni rag'batlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga undadi. Ayni paytda sog'liqni saqlash va aholiga ommaviy tibbiy yordam ko'rsatish davlat dasturlari qabul qilindi.

XX asr davomida turli davlatlarda demografik siyosatdagi ustuvorliklar mahalliy sharoit va vaziyatlardan kelib chiqqan holda o'zgarib turdi. Lekin jahondagi barcha mamlakatlarga xos bo'lgan demografiya siyosatining ikki eng muhim yo'nalishi: sog'liqni muhofaza qilish va o'lim darajasini kamaytirishga investisiyalarni ko'paytirish hamda tug'ilishni davlat tomonidan rag'batlantirishdan bosqichma-bosqich bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va farzandlar soniga bog'liq ravishda aholining iqtisodiy tengsizligi darajasini pasaytirishga o'tishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Demografik siyosat-aholi siyosatning asosiy qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlari va turli davlatlarida o'ziga xos xususiyatlarga, yo'nalishlarga egadir. Aholi siyosati demografik siyosatga qaraganda keng qamrovli bo'lib, aholini rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo'nalishi hisoblanadi. Demografik siyosat – aholi siyosatining uzviy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi aholining miqdoriy o'sishini boshqarishdan iborat chora tadbirlar majmuidir.

Ushbu yo'nalishlar ijtimoiy siyosatning ish bilan bandlikni ta'minlash, sog'liqni saqlash, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, turarjoy qurilishi, xizmat ko'rsatish sohalarini

rivojlantirish, nogironlar va mehnatga layoqatsiz yo‘qlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabi maqsad va vazifalari bilan muvofiqlashtirilishi kerak<sup>33</sup>.

Demografik siyosatni o‘tkazish quyidagi shart-sharoitlarga rioya qilishni talab etadi:

- demografik siyosat strategiyasi, maqsadlari va vazifalari, belgilangan rejalarni amalga oshirish muddatlari belgilangan yaxlit konsepsiyaning mavjudligi;
- qabul qilingan konsepsiya barcha tadbirlarini moliyalashtirish manbalari;
- demografik siyosatni amalga oshirish uchun mas’ul davlat organlari va ijtimoiy institutlar.

Aholi rivojlanishi esa, o‘z maqsadida uning ham miqdoriy, ham sifatiy jihatlarini o‘zgarib borishida namoyon bo‘ladi. Aholining miqdoriy rivojlanishi deganda ma’lum davrda, ma’lum hudud aholisi yoki millatining son jihatidan o‘zgarib borishi tushiniladi. Aholining sifatiy rivojlanishi esa, asosan uning salomatligi, o‘rtacha umr ko‘rishi, bilim darajasi va ma’lum tarbiya olishi komilligida o‘z ifodasini topadi. Aholi rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzviy qismi bo‘lib, u o‘z ichiga asosan oilani, oila muhitini olar edi. Keyinchlik sanoat asta-sekin rivojlanib borishi natijasida mehnatga tayyorlashda maxsus bilimlar, maxsus faoliyat zarur bo‘lib qoldi. Bu zarurat davlatda ta’lim tizimini yanada rivojlantirishda, yoshlarga maxsus bilim berib, kasb-hunar o‘rgatishga ehtiyoj yaratdi. Natijada davlatimizda ta’lim tizimi tashkil topdi va rivojlandi. Hozirgi davrda O‘zbekistonda aholi siyosatining asosiy maqsadi uning sifatiy rivojlanishini tashkil etishdan iboratdir. Aholining sifatiy rivojlanishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- aholi salomatligining holati, bolalar va onalar o‘limi o‘rtacha umr davri;
- aholining ta’lim darajasi va uning tarkibi;
- aholining kasb-hunarga tayyorlik darajasi;
- aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy mobilligi;
- aholining urbanizatsiyalshganligi;
- aholining hududiy harakati;
- aholining ma’naviy madaniy qadriyatlari va ularni saqlash, e’zozlash.

Respublikada aholi siyosati o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘g‘inlardan tashkil topgan. Ushbu bo‘g‘inlarga demografik siyosat, aholi migratsiyasi, urbanizatsiya va bandlik siyosatlarini kiritish mumkin.

Demografik siyosat aholi siyosatini uzviy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi aholini miqdoriy rivojlanishi bosqichlaridan iboratdir. Demografik siyosatning asosiy obykti aholining takror barpo bo‘lish jarayoni hisoblanadi. Demografik siyosat orqali kutilgan, istalgan aholi takror barpo turiga erishiladi. Ma’lumki aholi takror barpo bo‘lishi tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish kabi demografik jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois ushbu jarayonlarni siyosat yo‘li bilan jamiyat tomonidan boshqarilishi ham demografik siyosat vaziyatlaridandir. Jamiyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, demografik jarayonlarni, ayniqsa tug‘ilish, nikohni jamiyat tomonidan boshqarilganligini guvohi bo‘lamiz. Hatto bu haqida eng qadimgi olimlar Aflotun va Arastu asarlarida ham uchraydi. Qadimgi Rimda tug‘ilish va nikohni ozod insonlar o‘rtasida qo‘llab – quvvatlovchi qonunlar qabul qilingan.

Feodalistik jamiyatda esa din tomonidan shunday qattiq qonunlar yaratilganki, ularda nikoh, cheklanmagan tug‘ilish va katta oilalar aholini muntazam ko‘payib borishi omili sifatida himoya qilingan, qo‘llab–quvvatlangan. Evropada kapitalistik ishlab

<sup>33</sup> Абдурахмонов Қ.Х. ва бошқалар. Демография. Дарслик. – Т.: Иқтисодиёт, 2014. -364 б.

chiqarish usulini rivojlanishi esa demografik jarayonlarda yangi muammolarni, yo'nalishlarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Sanoatni rivojlanishini shahar turmushi tarzini kengayishi, ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi tufayli, oilada farzandga bo'lgan talab kamaydi. Ko'p bolali ayollarda, kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida qator iqtisodiy muammolar vujudga keldi, natijada tug'ilish o'z-o'zidan kamaya boshladi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli rivojlangan Fransiya va boshqa Evropa davlatlarida tug'ilish 19 asrning birinchi o'n yilligidan boshlab kamaya bordi. Ushbu davlatlarda 20 asirga kelib aholini ta'biy o'sishi nihoyatda kamayib ketdi.

Aholi takror barpo bo'lishi kengaygan turdan qisqargan turga o'tdi. Natijada bu davlatlarda aholini qarishi "Demografik qarish" jarayoni sodir bo'ldi. Bu ham davlat tomonidan maxsus demografik siyosat olib borishni taqozo etdi. 1946-yilda Fransiyada tug'ilishni ko'tarish orqali aholi miqdori ko'payishiga erishish maqsadida oilalarga birinchi va ikkinchi ayniqsa uchinchi farzandlarining tug'ilishida alohida nafaqa ajratildi. 1960-1970-yillarda tug'ilishni ko'tarish maqsadidan demografik siyosat boshqa rivojlangan davlatlarda ham olib borildi. Lekin ushbu davlatlardagi siyosiy mulkchilik shakli tug'ilishni ko'paytirish uchun hamma chora tadbirlarni qo'llashda ba'zi muammolarni keltirib chiqarar edi .

Shu bois Evropadagi rivojlangan davlatlarda tug'ilish darajasini ko'tarib, optimal, normal holga keltirish juda mushkul bo'lmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa, aksincha 1960-1990-yillarda tug'ilishning yuqori darajada turganligini va o'lim hollarining keskin kamayganligi natijasida aholining tabiiy o'sishi juda yuqori darajada bo'ldi. Natijada Osiyo, Afrika va janubiy Amerikada joylashgan qator rivojlanayotgan davlatlarda aholi soni birdan ko'payib ketdi. Bu holni demograf mutaxassislar "Demografik portlash" deb atadilar. Ushbu davlatlarda iqtisodiy imkoniyati cheklangan, holda aholisining bunday tez ko'payishi tug'ilishini cheklashga majbur etdi. Natijada rivojlanayotgan davlatlarga davlat tomonidan "oilani rejalashtirish" ya'ni "tug'ilishini nazorat etish" borasida demografik siyosat olib boriladi masalan, Xitoyda bir oilaga bir bola siyosati olib boriladi.

Bizga ma'lumki, demografik siyosat-muayyan davlatda aholi sonini me'yor darajasida tartibga solish uchun («Oilani rejalashtirish» ya'ni «tug'ilishni nazorat etish»), davlat tomonidan olib boriladigan siyosat bo'lib, bu siyosat iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy, ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

**Demografik siyosat** ya'ni hukumatning tug'ilish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi zarur ekanligi dunyoning barcha mamlakatlarida – demografik vaziyat va aholining ko'payish darajasi qanday ekanligidan qat'iy nazar tan olingan. Demografik siyosatning asosiy maqsadi ayni vaqtda mamlakatda mavjud demografik jarayonlarni o'zgartirish yoki qo'llashdir.

Demografik vaziyatga bog'liq holda demografik siyosatning 2 tipi mavjud: tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan ( bu – asosan rivojlangan mamlakatlarga xos) va tug'ilishni pasaytirishga qaratilgan (rivojlanayotgan davlatlarga xos). Demografik siyosatni amalga oshirish ko'p hollarda ahloqiy-ma'naviy, shuningdek moliyaviy etishmovchilik kabi qiyinchiliklarga duch keladi.

1953 yilda Oilani Rejalashtirish Xalqaro Federatsiyasi tashkil etildi. Oilani rejalashtirish dasturlari ishlab chiqilib tug'ilishni kamaytirishga qaratilgan turli choralar qo'llanila boshlandi.

**Demografik siyosat o'tkazish usullari. Mintaqaviy demografik siyosatlar.** Demografik siyosat o'tkazish uslublarini shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin:

- *Iqtisodiy;*
- *Ma'muriy-huquqiy;*
- *Ijtimoiy-psixologik (tarbiyaviy);*

Iqtisodiy uslub asosan tug'ilish darajasi pasayib ketgan aholi takror barpo bo'lishi, aholi ko'payishini ta'minlay olmagan hollarda qo'llaniladi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador ayollarga (ma'lum davrda) u farzand ko'rgandan keyin va farzandi 2-9 yoshga etgunga qadar maxsus nafaqalar ajratiladi, birinchi, ikkinchi, uchunchi farzandlarga iqtisodiy yordam beriladi. Ko'p bolali oilalarga ham iqtisodiy yordamlar berib boriladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi yosh bolasi bor ayollarga ish joylaridan bazi bir imtiyozlar beriladi, ularga ham farzandlarini tarbiyalab, ham ijtimoiy faoliyatlarini davom ettirish uchun sharoit yaratiladi shuningdek bazi davlatlarda kam ta'minlangan oilalarga ham iqtisodiy yordam ajratiladi.

Tug'ilishni ko'tarish borasida olib boriladigan iqtisodiy uslubni yana biri nikohga kirgan yosh oilalarni turar joy bilan ta'minlash borasida davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar. Shuningdek, bolalar kiyimlari oziq-ovqatlarini arzon narxda sotish maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatining sifatini yaxshilash bolalar va onalar salomatligini davlat tomonidan muhofaza etilishi aholiga maishiy xizmat ko'rsatish kabilar ham aholi takror barpo bo'lishiga ijobiy ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar hisoblanadi.

Ma'muriy-huquqiy uslubga aholi takror barpo bo'lishi, oilalar tashkil topishiga turli qonunlar orqali ta'sir ko'rsatish kiradi. Masalan, abort (homilani sun'iy yo'l bilan yo'q qilish) larni qonun bilan man etilishi, nikoh yoshlarini ko'tarilishi, aholi migrasion harakatini cheklash, yoki rivojlantirish oila buzilganda, er va xotin ajrashganda ona va bola huquqlarni qonuniy himoyasi, bolani ota-ona oldidagi burchini qonuniy belgilash, homilador ayolni ishga qabul qilishda, yoki ishdan bo'shatishda ular huquqlarini qonuniy himoyasi, nafaqa ajratishda bolalar sonini hisobga olish kabi jarayonlardir.

Ijtimoiy-psixologik uslub, yoki aholini "demografik tarbiyalash". Aholini demografik tarbiyalashda avvalo yosh avlodda oilaga, oilada kutilayotgan farzandlar soniga bo'lgan munosabatini davlat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi salomatligiga mos ravishda shakllantirish lozim. Bunda oila asosiy tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarning "demografik savodliligi" ga katta etibor berilmog'i lozim. Demografik tarbiyaning yana bir muhim o'chog'i ommaviy axborot orqali demografik mayliga ta'sir etish mumkin. Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lmog'i lozim. Shundagina aholini ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlarini aks ettirgan holda rivojlanib boradi.

*Mintaqaviy demografik siyosatlar.* Ma'lumki, aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish, o'lim, nikoq, ajralish kabi demografik jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois ushbu jarayonlarni siyosat yo'li bilan jamiyat tomonidan boshqarilishi ham demografik siyosatni vazifalaridandir. Jamiyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, demografik jarayonlarni, ayniqsa tug'ilish, nikoqni jamiyat tomonidan boshqarilganligini guvoqi bo'lamiz. Xatto bu xaqida eng qadimgi olimlar Aflotun va Arastu asarlarida ham uchraydi. Qadimgi Rimda tug'ilish va nikoqni ozod insonlar o'rtasida qo'llab-quvvatlovchi, qonunlar qabul qilingan. Feodalistik jamiyatda esa din tomonidan shunday qattiq qonunlar yaratilganki, ularda nikoq, cheklanmagan tug'ilish va katta oilalar hisoblanadi muntazam ko'payib borishini omili sifatida qimoya qilingan, qo'llab-quvvatlangan. Kapitalistik ishlab chiqarish usulini rivojlanishi esa demografik jarayonlarda yangi muammolarni, yo'nalishlarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Kapitalizmدا sanoatni rivojlanishi Shahar turmush tarzini kengayishi, ayollarni ijtimoiy

ishlab chiqarishda ishtirok etishi tufayli, oilada farzandga bo'lgan talab kamaydi. Ko'p bolali oilalarda, kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida qator iqtisodiy muammolar vujudga keldi. Natijada, tug'ilish o'z-o'zidan kamaya boshladi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli rivojlangan Frantsiya va boshqa Yevropa davlatlarida tug'ilish 19 asrning birinchi o'n yilligidan boshlab kamaya bordi. Ushbu davlatlarda 20 asrga kelib hisoblanadi tabiiy o'sishi niqoyatda kamayib ketdi. Aholi takror barpo bo'lishi kengaygan turdan, qisqargan turga o'tdi. Natijada bu davlatlarda hisoblanadi qarish-ya'ni «Demografik qarish» jarayoni sodir bo'ldi. Bu hol davlat tomonidan maxsus demografik siyosat olib borishni taqozo etdi. 1946 yilda Frantsiyada tug'ilishni ko'tarish orqali aholi miqdoriy ko'payishiga erishish maqsadida oilalarga birinchi va ikkinchi, ayniqsa uchinchi farzandlarining tug'ilishida aloqida nafaqa ajratildi. 1960-1970 yillarda tug'ilishni ko'tarish maqsadidagi demografik siyosat boshqa rivojlangan kapitalistik davlatlarda ham olib borildi. Lekin ushbu davlatlardagi xususiy mulkchilik formasi tug'ilishni ko'paytirish uchun hamma chora-tadbirlarni qo'llashda ba'zi muammolarni keltirib chiqar edi. SHu bois Yevropadagi rivojlangan davlatlarda tug'ilish darajasini ko'tarib, optimal, normal holga keltirish juda mushkul bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda esa, aksincha 1960-1970 yillarda tug'ilishning yug'ori darajada turganligi va o'lim hollarining keskin kamayganligi natijasida Aholining tabiiy o'sishi juda yuqori darajada bo'ldi. Natijada Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikada joylashgan qator rivojlanayotgan davlatlarda aholi soni birdan ko'payib ketdi. Bu holni demograf muttaxassislar «demografik portlash», deb atadilar. Ushbu davlatlarda iqtisodiy imkoniyati cheklangan holda aholisining bunday tez ko'payishi, tug'ilishni cheklashga majbur etdi. Natijada ushbu davlatlarda davlat tomonidan «Oilani rejalashtirish» ya'ni «tug'ilishni nazorat etish» borasida demografik siyosat olib borildi.

**Tug'ilish, o'lim jarayonlarida olib borilayotgan siyosat.** Planetamizda tug'ilishning territoriyalar bo'ylab bunday farq qilishi, avvalo u davlat aholisining moddiy va madaniy turmush darajasiga, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligiga, hamda shu davlat xalqining asrlar davomida shakllanib, saqlanib kelayotgan milliy urf-odatlariga, qolaversa diniga bog'liqdir. Bulardan tashqari, tug'ilishga Aholining jins va yosh bo'yicha taqsimlanishi, nikoxdan o'tish va ajralish ko'rsatkichlari kabi qator demografik omillar, psixologik omillar, tibbiyot rivojlanishi, hamda qar bir davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta'sir qiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, keyingi 20-25 yil ichida dunyoning deyarli hamma qismida tug'ilishning kamayib borishi kuzatilmoqda.

1970-1999 yillar davomida tug'ilishning eng tez kamayishi Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi (shu davr ichida 1,6 marta kamaygan). Uning sabablariga bir nazar solib ko'raylik-chi. Asosiy sabablardan biri Shahar aholisining o'sishi bo'lgan. Masalan, AQSh va Kanadada Shahar aholisining 1950-1999 yillarda 64%dan 75-79%gacha o'sgan. Bundan tashqari, tug'ilishning kamayishiga ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda, yollanma ishlarda qatnashishi ham sabab bo'lgan. Masalan, Kanadada 1931 yil moddiy ishlab chiqarishda qatnashuvchi Aholining 17% ayollar bo'lgan bo'lsa, 1980-1999 yillarda esa bu ko'rsatkich 40%dan oshib ketdi. Shimoliy Amerikada tug'ilishning kamayishiga olib kelgan muqim sabablardan yana biri ajralishning nikoqdan ko'pligidir. Qozirgi davrda AQShda qar yili qayd etilgan nikoqlarning 50%ga yaqini buzilganligi ma'lum. Tabiiy xolki, nikoqning qisqa vaqt davom etishi oilada bola sonining o'z-o'zidan kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, SHimoliy Amerikada ishsizlar sonining tobora ortib borishi, ertangi kunga ishonchsizlik bilan qarash kabi xususiyatlari ham tug'ilishni kamaytiradi.

Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib kelmoqda. Buni Xorijiy Osiyoning eng yirik davlatlari – Xitoy va Hindiston misolida ko'rishimiz mumkin.

Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970 yillardan boshlab aholi o'rtasida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshladi. Natijada, Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, 1970-1974 yil qar bir ayol o'zining farzand ko'rish davrida o'rtacha 4,8 farzand ko'rgan bo'lsa, 1986-1990 yillarda –2,1, 1999 yili 1,8 tadan farzand ko'rishgan.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga oilani rejalashtirish asotsiatsiyasi, Hindiston tibbiyot assotsiatsiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlar kiradi.

Hindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodlilik darajasining oshishi ham ta'sir etmoqda. Masalan, 1971 yili Hindiston aholisining 29,4% savodli edi. Qozirgi davrda 40% dan yuqori aholi savodlidir.

Tug'ilishni nazorat qilish, hamda xalqning savodi darajasini ko'tarish, tibbiyotni rivojlantirish natijasida Hindiston davlati tug'ilishni ancha kamaytirishga erishgan. Masalan, 1970-1999 yillarda qar bir ayol o'z umri davomida ko'rgan farzandlari soni 5,4 dan 3,4 gacha kamaydi.

Ma'lumki, Xorijiy Osiyo aholisining 70% dan ko'prog'ini Xitoy va Hindiston aholisi tashkil etadi. Shuning Xitoy va Hindistonda tug'ilishning nisbatan kamayishi butun Xorijiy Osiyo bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir qildi. 1970-1999 yillarda tug'ilish Xorijiy Osiyoda deyarli 2 barobar kamaydi.

Ana shu davrda tug'ilishning yig'indi koeffitsienti Xorijiy Yevropa 2,1 dan 1,4 ga, Avstraliya va Okeaniyada 3,1 dan 2,4 ga, Afrikada 6,5 dan 5,4 ga kamaygan.

Tug'ilishning ana shunday kamayib borishi, Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Maldova davlatlarida ham kuzatiladi. 1970 yilda tug'ilishning umumiy kofitsienti Rossiyada 14,6%; Ukrainada-15,2%; Belorussiyada 16,2% va Moldovada –19, %<sub>0</sub> bo'lgan. 1999 yilda esa bu ko'rsatkich mos ravishda Rossiya, Belorusiya va Ukrainada 9%<sub>0</sub>ni, Moldovada esa 13%<sub>0</sub> tashkil etdi. Boltiqbo'yi, Zakavkaziya va Markaziy Osiyo resublikalarida ham keyingi 30-40 yil ichida tug'ilish keskin kamayganligini guvoxi bo'lamiz.

**Xalqaro migratsiya jarayonini boshqarishda demografik siyosat.** Aholining migratsion harakatiga ko'plab omillar ta'sir etishi mumkin. Ularga ijtimoiy: siyosiy, milliy, diniy, ekologik, harbiy va demografik omillarni kiritish mumkin. Umuman xalqaro migratsiyani olti guruhga ajratiladi:

1. Oilaviy va boshqa sabablarga kura, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ketgan emmigrantlar.

2. Migrant – mehnatkashlar.

3. Nolegal immigrantlar.

4. Qochoqlar.

5. Studentlar, stajer-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va uqituvchilar.

6. Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar-turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar va h.k.

Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni mehnat migratsiyasi egallaydi. Chunki hozirgi davrda insonning yashashi uchun iqtisodiy omilning ahamiyati kuchaydi.

Dunyoda va uning alohida hududlarida jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy davrlarida turli ijtimoiy guruhlaridagi migratsion harakatni o'rganishda migratsiya ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ayniqsa migratsiya jarayonini demografik nuqtai nazardan o'rganilganda uning ko'rsatkichlari atroflicha tahlil etiladi.

**Umumlashtirish:** Ma'lumki migratsiya aholi ko'chib kelgan hududning ham, ko'chib ketgan hududning ham demografik holatiga ta'sir qiladi. 1980 yillarda aholi o'sishida tashqi migratsiyaning roli AQSh, Kanada, Frantsiya, Avstraliya kabi davlatlarda o'rtacha 25 foizni tashkil etgan. Boshqacha so'z bilan aytilsa, yuqorida qayd etilgan davlatlarda aholi o'sishining  $\frac{1}{4}$  qismini immigrantlar tashkil etgan.

Migrantlar oqimi yo'nalgan hududlarda, migratsiya saldosini ijobiy, ya'ni ko'chib kelganlar soni, ko'chib ketganlar sonidan ortiq bo'ladi. Natijada bunday hududlarda aholi soni o'sib boradi. Bu hol o'z navbatida nikoh holatiga, oilalar miqdorining oshib borishiga, tug'ilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholi ko'chib ketayotgan hududlarda esa yoshlar salmog'i, jami aholi tarkibida kamayib boradi, mehnat yoshidan katta bo'lgan aholi salmog'i esa ortib borib, hududning demografik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan ikkinchi muhitga o'tishi uning demografik mayliga (nikohga kirish va oila qurishiga, oiladagi farzandlar soniga, oila mustahkamligiga munosabati va h.k.) bevosita ta'sir etadi. Shuningdek, aholi migratsiyasi mehnat resurslari shakllanishida ham muhim omillardan hisoblanadi. Migrantlar oqimi aholining yosh jinsiy tarkibida o'z aksini topadi. Mehnat resurslari ortib boradi. Natijada qator muammolar yuzaga keladi yoki aksincha mehnat resurslarining kamayib ketish hollari ham yuzaga kelishi mumkin.

**O'zbekistonda demografik siyosat o'tkazish va uning maqsadi.** O'zbekistonda demografik siyosatning barcha usullaridan foydalaniladi. Ayniqsa ijtimoiya-psihologik usullaridan keng foydalanilmoqda. Respublikamizda yuritilayotgan demografik siyosat natijasida aholi o'sishi so'nggi 20 yil ichida 3% dan 1,5% ga pasaydi. Bunda aholi o'rtasida tushintirish, targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Demografik siyosat yuritishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalaniladi. Bunda respublikamiz aholisiga farzand ko'rishni rag'batlantirish xamda muhofaza qilish bilan birga "Normal oila", "so'g'lom farzand" tushunchalari tushuntirib boriladi. O'zbekiston Respublikasi "oila kodeksi" da belgilangan qonunlar asosida oilalar barpo qilinmoqda va davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy muxofazasi ta'minlanmoqda.

Aholi siyosatining maqsadi davlat tomonidan Aholining ham miqdoriy (normal, optimal darajada) ham sifatii rivojlanishini ta'minlashdir.

Aholi rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir etib borish tarixiy jarayondir. Ushbu jarayon jamiyat taraqqiyotining qar bir bosqichida, shu davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga mos holda, aloqida mazmunga ega bo'lgan. Jumladan, feodalizm sharoitida aholi rivojlanishining asosiy elementi bo'lgan ta'lim tizimi, nisbatan kam taraqqiy etgan edi. Masalan, O'zbekistonda masjidlar, madrasalar qoshida ta'lim tizimi joriy etilgan. Ularni moddiy ta'minlash maqsadida davlat va ayrim mulkdorlar tomonidan vaqf mulklari ajratilgan. Insonni meqnatga tayyorlash, jamiyat a'zosi uchun zarur bo'lgan bilimlarni axloqiy sifatlarni yosh avlod; asosan oiladan, oila muqitida olar edi. Keyinchalik sanoat asta-sekin rivojlanib borishi natijasida meqnatga tayyorlashda maqsus bilimlar, maxsus faoliyat zarur bo'lib qoldi. Bu zarurat davlatda ta'lim tizimini yanada rivojlanishiga, yoshlarga maxsus bilim berib, kasb-qunar o'rgatishga eqtiyoj yaratdi. Natijada. O'lkamizda ta'lim tizimi tashkil topdi va rivojlandi. Qozirgi davrda O'zbekistonda aholi siyosatining asosiy maqsadi uning sifatii rivojlanishini tashkil etishdan iboratdir. Aholining sifatii rivojlanishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:



- aholi salomatligining xolati, bolalar va onalar o'limi o'rtacha umr davri:
- Aholining ta'lim darajasi va uning tarkibi:
- Aholining kasb-qunarga tayyorgarlik darajasi:
- Aholining sotsial tarkibi va sotsial mobilligi:
- Aholining urbanizatsiyalashganligi:
- Aholining hududiy qarakati:
- Aholining ma'naviy madaniy qadriyatlari va ularni saqlash, e'zozlash.

Respublikada aholi siyosati o'zaro chambarchas bog'langan bo'g'inlardan tashkil topgan. Ushbu bo'g'inlarga demografik siyosat, aholi migratsiyasi, urbanizatsiya va bandlik siyosatlarini kiritish mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Demografik siyosat nima va nimaga olib boriladi?
2. Demografik siyosat olib borishning asosiy maqsadi nima?
3. Demografik siyosat dunyo mintaqalarida qanday farq qiladi?
4. Dunyoda tug'ilish va o'limga bog'liq qanday demografik siyosatlar olib borilmoqda?
5. O'zbekistonda qanday demografik siyosat olib borilmoqda?
6. Xalqaro migratsiya jarayoniga demografik siyosat qanday tasir ko'rsatadi?
7. Xitoy va Hindistonda qanday demografik siyosat olib borilmoqda?
8. Demografik siyosatning qanday turlari mavjud?

### **9-Mavzu. Dunyo aholisining ko'payishi va joylanishi.**

#### **Reja:**

1. Jahon aholisi rivojlanish ananalari va global modeli.
2. Dunyo aholisi dinamikasi.
3. Aholi o'sishi va iqtisodiy rivojlanish.
4. Aholi soni bo'yicha davlatlar ro'yxati.
5. Demografik krizis va rivojlangan mamlakatlarda aholi rivojlanishi.
6. Kishlik jamiyatining dastlabki davrlaridan to hozirgacha bo'lgan dunyo aholisining o'sish dinamikasi.
7. Dunyo aholisi ko'payishining hududiy xususiyatlari.
8. Jahoning ayrim hududlaridagi demografik vaziyat tahlili..

**Tayanch iboralar.** *Jahon aholisi, Aholi rivojlanishining global modeli, dunyo aholisi dinamikasi, aholi o'sishi, demografik krizis, demografik o'tish, aholining o'sishi, aholining o'rtacha umr ko'rishi, demografik vaziyat, demografik siyosat, demografik tanglik, demografik qish, demografik jarayon.*

**Jahon aholisi rivojlanish ananalari va global modeli.** Ilmiy manbalarda qayd etilishicha planetamizda inson paydo bo'lganiga taxminan bir million yildan oshgan. Lekin yer kurrasida yashagan aholi soni qaqida aniq va to'liq ma'lumotlar to'plash tarixan ancha kech boshlangan. Aholi soni haqidagi eng dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi davrga ta'lluqli bo'lib, bu davrda yer kurrasida bor yo'g'i bir necha yuz ming kishi yashagan, xolos Arxeolog va demograf olimlarning qisoblaricha, dunyo aholisi soni butun insoniyat tarixi davomida doimo ko'payib kelgan Biroq Aholining o'sishi sur'ati jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham bir tarzda bo'lmagan. Ba'zi tarixiy

davrlarda ocharchilik, tabiiy ofatlar, turli kasalliklarning tarqalishi, urushlar natijasida aholi qirilib ketgan va soni qisqargan. Masalan, butun dunyoda 8-14 asrda epidemiyadan 15 million aholi o'lgan; 19 asrda ocharchilikdan 25 million aholi xayotdan ko'z yumgan; birinchi jahon urushida 20 million, ikkinchi jahon urushida esa 40 milliondan ko'p aholi o'lgan.

Shuni aytish kerakki, qar bir davr aholisining ko'payishi va rivojlanishi shu davrning ishlab chiqarish usuli va munosabatlariga, turmush darajasiga, yashash sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lgan.

Ibtidoiy jamoa davrida, ya'ni bundan chamasi 15 ming yil ilgari Aholining yashash sharoiti juda og'ir edi Insonlar g'orlarda istiqomat qilishgan. Tog'-toshlardagi tabiiy g'orlar odamlar uchun yakkayu-yagona boshpana vazifasini o'tagan. Eng muqimi qorin to'yg'azish, bir joyda tunash bo'lgan. Ular ovchilik bilan kun ko'rishgan, tabiiy ofatlarga qarshi kurasha olmaganlar. Muqitning tabiiy ta'siriga ongli choralar qo'llay bilmaslik sababli aholi o'rtasida o'lim ham yuqori bo'lgan. Odamlar ochlikdan, turli kasalliklardan, tabiiy ofatlardan va qabilalar o'rtasida bo'lib turgan urushlardan ko'p nobud bo'lishgan. Bolalar o'limi juda yuqori bo'lgan. Aholining , o'rtacha umr ko'rishi ham juda qisqa bo'lgan. Manbalarda yozilishicha, ibtidoiy jamoa davrida kishilarning o'rtacha umr ko'rishi 20-25 yoshni tashkil qilgan, xolos. Ibtidoiy davr odamlari qozirgi davr kishilariga nisbatan 3-3,5 marta kam yashaganlar. SHunday bo'lsa-da, aholi soni sekinlik bilan ko'payib borgan. Aholi ko'payishining sababi tug'ilishning fiziologik imkoniyat darajasida bo'lganligidir. Bu davrda tug'ilish juda yuqori bo'lib, qar 1000 aholiga 45-50 kishini tashkil etgan. Qozir esa bu ko'rsatkich o'rtacha 23-25 kishini tashkil etmoqda. Demak, bir tomondan insonning tabiiy muqit oldida ojizligi, o'zaro nizolari, uning soni jiqatdan kamayishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, tug'ilish yuqori bo'lganligini sababli, aholi soni o'sib borgan. Biroq, o'lim, ayniqsa, bolalar o'limi, yuqori bo'lganligi sababli yuqori tug'ilish Aholining yuqori tabiiy o'sishini to'la ta'minlay olmagan.

Ibtidoiy jamoa davrida aholi sekin o'sishining yana bir muqim sababi-ayollar aqvolining og'irligidir. Ular erkaklar bilan bir qatorda ov qilishda qatnashganlar. Turmush sharoitining og'irligidan, tibbiy xizmatni yo'qligidan ayollar o'rtasida o'lim juda yuqori bo'lgan. Ayniqsa, ayollar bola ko'rish davrida ko'p qalok bo'lganlar. Bu davr ayollarning aksariyat qismi bola ko'rish davrini to'la yashamaganlar.

Ibtidoiy jamoa davrida Janubiy Osiyo, Yevropaning janubiy qismlarida, Afrika qit'asida aholi nisbatan zich yashagan. Yevrosiyo materigining shimoliy rayonlarida, Avstraliya va Amerika qit'alarida odamlar juda siyrak joylashganlar. Ularning umumiy soni, taxminan, 100-200 ming kishini tashkil etgan, xolos.

Insonning yashash uchun kurashi borib-borib, jamiyat taraqqiyotida progressiv o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlana borib, kishilar dastlab chorvachilik, keyinroq esa deqqonchilik bilan shug'ullanishga o'tdilar, ochlikka, kasalliklarga qarshi kurash boshladilar. Endi ular meqnat qilib, moddiy maqsulotlar yaratardilar. Qunarmandchilik, savdo rivojlandi va Shaharlar paydo bo'la boshladi. Inson qayotidagi bu ijobiy o'zgarishlar ularning qayot sharoitini yaxshiladi. Bu esa dunyo aholisining ko'payish sura'tini tezlashtirdi.

Ishlab chiqarish kuchlarining yanada takomillashuvi aholi o'rtasida sinflar va davlat paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyat asta-sekin ibtidoiy tuzumdan quldorlik davriga (sinfli jamiyatga) o'tdi. Jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy va madaniy qayoti rivojlana boshladi. Dunyoning aholi zichroq joylashgan qismlarida (Misr, Suriya, Bobil) madaniyat markazlari vujudga kela boshladi. Jamiyat taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar

Aholining ko'payishini tezlashtirdi. Sinfy jamiyatda Aholining o'sish sur'ati ibtidoiy tuzum davriga nisbatan ancha tez edi. Buning asosiy sababi tug'ilishining yuqoriligidir. Tug'ilishning yuqoriligi esa ayollarning erta nikoqga kirishi, tug'ilishning cheklanmaganligi, hamda ko'pbolalikni xalq, davlat va din tomonidan quvvatlanishi bilan bog'liq edi. Lekin quldorlik tuzumi davrida ham aholi o'ratsida o'lim ancha yuqori bo'lgan. Sababi-ko'pgina qishloq va Shaharlarda Aholining juda zich joylashuvi va gigiena-sanitariya sharoitlarning yo'qligi tufayli yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligidir.

**Dunyo aholisi dinamikasi.** Eramizning boshida yer shari aholisining soni 200-250 mln. kishi atrofida edi. Aholining asosiy qismi Rim imperiyasida, Xitoyda va Hindistonda joylashgan. Ushbu soqaga ta'lluqli adabiyotlarda ko'rsatilishicha, planetamiz aholisi 300 mln. atrofida bo'lgan va uning asosiy qismi Osiyoda yashagan. Agar dastlabki 500 yilda (1000-1500 yillar) yer yuzi aholisi 135 millionga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750 yillarda yoki 250 yilda esa bu ko'rsatkich 288 millionni tashkil qildi, ya'ni Aholining o'sishi 2 marta tezlashdi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Aholining o'sishi yanada tezlashdi. Yigirmanchi asrdan boshlab yer shari aholisi qar yili I foizga ko'paya boshladi.

Dunyo aholisining 1000 yildan 2000 yilgacha bo'lgan o'sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko'paygan davr XX asrdir. Agar yer shari aholisining 1 milliardga yetishi uchun salkam 850 yil kerak bo'lgan bo'lsa, 2 milliardga yetishi uchun esa 85 yil; 3 milliardga yetishi uchun 25 yil, 4 milliardga o'tishi uchun-15 yil; 5 milliardga o'tishi uchun -20 yil va 6 milliardga o'tishi uchun -15 yil vaqt kerak bo'ldi (jadval).

Dunyo aholisining eng tez sur'at bilan o'sgan davri 1960-1985 yillar bo'lib, shu davrda yer yuzi aholisi yiliga o'rtacha 2 foizdan ko'paydi. 1980 yillardan boshlab Aholining o'sish sura'ti bir oz pasaydi; xozirda Aholining o'rtacha yillik o'sishi 1,4 foizni tashkil etmoqda. Bu xol, keyingi 20-30 yillar davomida qator rivojlanayotgan davlatlarda tug'ilishni nazorat etish jarayonini keng tarqalganligi bilan bog'liqdir.

**Dunyo aholisining o'sishi (mln kishi qisobida)<sup>1</sup>.**

Sana (yillar)	Dunyo aholisi	Sana	Dunyo aholisi
Eramizdan oldingi 400 yil	153	1900	1634
0	252	1910	1755
Eramizning 400 yili	205	1920	1811
800	224	1930	2070
1000	305	1940	2295
1200	400	1950	2527
1500	440	1960	3060
1600	578	1970	3727
1700	680	1980	4430
1750	728	1993	5510
1800	954	2000	6000
1850	1248	2025	8039

<sup>1</sup> БМТ башорати жадвал Н.В.Алисов, Б.С.Хорев. Экологическая и социальная географии мира (М., 2000 г с-92); Демографический энциклопедический словарь (М., 1985 г с 72) Народо-населения мира 1998 г. фонд ООН в области народо населения.

Yer kurrasi aholisi bugungi kunda 6 miliarddan oshdi BMT ma'lumotlariga qaraganda, dunyo aholisi 2015 yilgacha qar yili 86 million kishidan ko'payib borar ekan. Bu ko'pmi yoki kammi?

Aholi o'sib borishi va uning oqibatlarini xaqida ilmiy manbalarda turlicha fikrlar mavjud. Ulardan asosiylari aholi ko'payib borishi dunyo tabiiy resurslariga salbiy ta'sir etishi va hisoblanadi oziq-ovqat bilan ta'minlash mushkullashishi qaqida bo'lib, u XVIII asrdan-T. Mal'tus davridan-boshlab mavjuddir. XX asr olimlarining qisob-kitoblariga qaraganda esa yer yuzida va okeanlarda mavjud resurslar bilan 10 milliardlab hisoblanadi ta'minlash mumkin ekan. SHunday bo'lsa-da, yer kurrasida tinmay o'sib borayotgan hisoblanadi oziq-ovqat bilan ta'minlash ba'zi hududlarda muammo bo'lib kelmoqda. Qozirgi davrda BMT ma'lumotlariga qaraganda, dunyoda 1 milliard aholi qashshoqlikda yashaydi, 500 million aholi qorni to'yib ovqat yemaydi, qar kuni ochlikdan 35 ming kishi vafot etmoqda.

Janubiy Osiyo, Afrika, va Lotin Amerikasida joylashgan 36 davlat o'z aholisini resurslari bilan ta'minlay olmaydi.

Darqaqiqat, yer yuzida va okeanlarda hisoblanadi oziq-ovqat bilan ta'minlashga qodir resurslar beqisobdir. Lekin bu resurslar inson istiqomat etib kelayotgan hududlar bo'yicha bir tekisda taqsimlanmagan. Natijada, Aholining o'sishi yuqori va tabiiy resurslari kam, dunyodagi mavjud tabiiy resurslardan foydalanish mushkul bo'lgan hududlarda qator muammolar kelib chiqmoqda. Bugungi kunda inson va uning faoliyati bilan bog'liq eng qatarli muammo yerni, suvni va o'simlik dunyosining ifloslanishidir. Ba'zi davlatlarda aholiga toza ichimlik suvi sotiladi. Masalan, Mal'tada toza ichimlik suvi maqalliy vinodan ham qimmat turadi. Aholi juda tez o'sib borayotgan, lekin oziq-ovqat muammolari mavjud Afrika kabi hududlarda insoniyat uchun qavfli SPID va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi, aholi zich hududlarda tuproq xosildorligining kamayib borishi, tabiiy o'rmonlar maydonining qisqarib ketishi, qavo, tuproq, suvning ifloslanishi natijasida azon teshigining xosil bo'lishi va Aholining kasallanishi darajasi oshib, inson immunitetining kuchsizlanib borishi yuqorida qayd etilgan muammolardandir.

**Aholi o'sishi va iqtisodiy rivojlanish.** Dunyo axolisining o'sish dinamikasiga nazar tashlasak, uning sar'ati borgan sari tezlashayotganligini ko'rish mumkin. Odam paydo bo'lgan paytlarda uning o'sish sur'ati past bo'lgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, ming yilda aholi 2 foizga ko'paygan. Vaqt o'tishi bilan axolining o'sish sur'atlari tezlashib borgan. Eramizning boshlarida er shari aholisi 300 mln kishi bo'lan bo'lsa, 1650 yilga kelganda bu raqam 2 barobarga ko'paygan.

XIX-Asrning o'rtalarida er shari aholisi 1 mlrd kishiga etdi. Axolining ikkinchi mlrd kishining qo'shilishi uchun 80 yil, uchinchi mlrd kishining qo'shilishi uchun 30 yil, to'rtinchi mlrd kishining qo'shilishi uchun esa 15 yil kifoyadir. Bu holat dunyo axolisi o'sish sur'atlarini 1976 yilga qadar juda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq lning barcha qismlarida bu ko'rsatkichldar bir xil bo'lmagan. Osiyo va Lotin Amerikasida o'sish darajasi hozirgi kunga qadar yuqori sur'atlarda saqlanib qolmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida esa axolining o'sish sur'atini anchagina pastlab qolganini kuzatish mumkin. Axolining o'sish sur'atlarini dunyoning turli regionlarida turlicha bo'lishiga har xil sabablar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida sog'likni saqlash tizimi, qishloq xo'jaligini rivojlanishi, oziq-ovqat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning roli alohida ahamiyatga ega.

Dunyo axolisining madaniy saviyasini ortib borishi bilan o'z-o'zidan tabiiy ko'payish jarayoni ham pastlab bormoqda. SHunday qilib, dunyo axolisining o'sish

dinamikasi ko'plab va xilma xil omillar ta'sirida bo'ladi. Keyingi 20-30 yil ichidagi o'sish esa, ko'proq tabiiy o'sishdagi hududiy farqlar bilan bog'liq. Ana shu davrga xos bo'lgan "demografik" ta'sirini ham aniq ko'rish mumkin. Xo'sh kelajakda dunyo axolisining o'sishi qanday bo'ladi? Demograf olimlar fikricha, hozirgi davr axolining maksimal o'sish davridir. Hozirgi kunda oilada tug'ilishni tartibga solib turiladigan mamlakatlarda planetamiz aholisining 30 % yashamoqda. Kelajakda dunyoning boshqa qismlarida ham aholi bilim va madaniyat darajasining oshib borishi bilan tug'ilish ham kamaya boradi.

Professor V.TS.Urlandis fikricha, taxminan 21-asrning boshlarida bu jarayon planetamizning barcha axolisini qamrab oladi. Olimning taxminicha, 20-asrning qolgan yillarida tug'ilishni tartibga solish keng yoyilgan mamlakatlarda Amerika Yaponiya axolisining o'sish sur'ati 0,9 % dan yuqori bo'lmaydi. Dunyo axolisining o'sishi va bu o'sishning sur'atlari yuqoridja aytilganidek davom etsa, 21-asr o'rtalariga borganda, dunyo axolisi 8 mlrd kishiga, 21-asr oxirlarida esa 11-12 mlrd kishiga etadi. BMT ekspertlari xisobiga ko'ra 2000 yilda dunyo axolisi 6 mlrd 280 mln kishi, shu jumladan Osiyo aholisi 3870 mln, Lotin Amerikasi axolisi 595, horijiy evropa axolisi 570, Afrika axolisi, 520, Astraliya va Okeaniya axolisi 30 mln kishi bo'ladi. Umuman dunyo axolisining o'sish sur'atlari kelajakda pasayib boradi. Be tendentsiya hoziroq sezila boshladi, ma'lum bir davrga kelib esa, planetamiz axolisining soni staillashadi.

Axolining territorial joylanishi - er yuzining kishilar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan juda uzoq tarixiy arayonning natijasidir. Yer sharining turli qismlarida, turli mamlakatlarda axolining territorial jolanishi va zichligi tarixiy sotsial-iqtisodiy va tabiiy faktorlar ta'sirida vujudga keladi. Bu asosiy faktor dunyoning turli qismlarida ham territorial va ham vaqt nqtai nazardan bir xil emasligi va hech qachon bunday bo'lmasligi o'z-o'zidan ma'lum. Yer sharining axolining territorial joylanishi va zichligida bir qancha katta farqlar bor, ular uzoq tarixiy davrda va xilma-xil faktorlar ta'sirida vujudga keladi. Bulardan eng asosiylari tarixiy, tabiiy va boshqa faktorlardir. Axoli zichligiga xo'jalikning ta'siri kata, albatta. Jumladan, buni yuqoridagi qisqacha obzordan ko'rish mumkin. Axoli qancha zich bo'lsa, xo'jalik shuncha taraqqiy etgan degan xato fikrni olg'a surgan edilar. Bu fikr butunlay noto'g'ri ekanligini shundan bilsa ham bo'ladi, eng rivojlangan AQShda axoli rivojlanayotgan ko'pgina qoloq mamlakatlardagidan ko'ra siyrak.

Shunday qilib, olimlarning axoli zichligining ortib borishi, jamiyat taraqqiyotiga xal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi degan fikrlari butunlay asossizdir. Aksincha axolining takror barpo qilinishi axoli sonining ko'payib borishini ijtimoiy taraqqiyotning muhim shart-sharoiti deb hisoblaydi. Axoli sonining ko'paya borishi ishlab chiqarishni kengaytirish, uni taraqqiyotga ega. Axoli soni haddan tashqari kam bo'lganda ijtimoiy ishlab chiqarishning taraqqiyoti susayishi rayonlarda va davlatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ketishi mumkin.

**Aholi soni bo'yicha davlatlar ro'yxati.** Bu yerda mustaqil davlatlardan tashqari ba'zi nomustaqil hududlar aholisi soni ham keltirilgan. Shuningdek, ro'yxatda har bir davlat (hudud) aholisi dunyo aholisining necha foizini tashkil qilishi ham ko'rsatilgan[1]. Suveren davlat hududiga kiruvchi davlatlar (masalan, Birlashgan Qirollik hududiga kiruvchi davlatlar), davlatlar organizatsiyalari (masalan, Yevropa Ittifoqi) va muntazam aholisiga ega bo'lmagan hududlar (masalan, Antarktida) ushbu ro'yxatda ko'rsatilmagan.

Jadvaldagi raqamlar milliy aholini ro'yxatdan o'tkazish muassasalarining so'nggi ma'lumotlariga binoan va yaxlit holda keltirilgan. Bunday muassasasi mavjud bo'lmagan davlatlar uchun ma'lumot BMTning iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bo'yicha

departamenti bahosi asosida keltirilgan. Aholi ro'yxati har xil davlatlarda har xil vaqtda, har xil aniqlik bilan hisoblanishi sababli, davlatlarni ushbu jadvalda ko'rsatilgan aholi soni bo'yicha qiyoslash xato xulosalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, davlatlar aholisi sonining yig'indisi dunyo aholisi soniga teng bo'lmasligi mumkin.

Dunyo aholisining soni 2030-yilda 8,5 milliard kishi, 2050-yilda 9,7 milliard kishi, 2100-yilda esa 11,2 milliard kishiga yetadi, deb xabar beradi "UzDaily.uz" BMT Kotibiyatining iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha bo'limi hisobotiga tayanib. Hisobotda qayd etilishicha, Yer sayyorasi aholisining soni o'sishda davom etmoqda. Aholi soni ortishining deyarli yarmi Afrika mamlakatlariga to'g'ri keladi. Yaqin o'n yillar ichida aynan Afrika va Osiyo davlatlari aholisida sezilarli o'sish qayd etiladi. Shuningdek, Hindiston davlatining aholi soni bo'yicha Xitoyni quvib o'tishi kutilmoqda. Hisobot ma'lumotlariga qaraganda, dunyo aholisi soni 2015-yilda 7,3 milliardga yetgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilgidan bir millionga ortiqdir.

**Demografik krizis. Rivojlangan mamlakatlarda aholi rivojlanishi. Ikkinchi demografik o'tish. Uchinchi demografik o'tish.** Aholi ko'payishining 1-tipi: "Demografik krizis". Bu tur uchun tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining nisbatan past ekanligi xosdir. Bunga Shimoliy Amerika va Evropa davlatlari misol bo'ladi. Masalan: GFR, Daniya, Italiya, Avstriya, Vengriya, Bolgariya, Latviya. Bu mamlakatlarda tug'ilishning kamayishiga shahar aholisining tez ortishi (shaharlarda tug'ilish qishloqlardan kam bo'ladi), ayollarning ishlab chiqarishga ko'p jalb etilishi, erkaklar salmog'ining nisbatan kamligi (15 mln.kishiga Xorijiy Yevropada), katta yoshdagilar salmog'ining ortib, kichik yoshdagilar salmog'ining kamayishi sabab bo'ladi. Aholining tabiiy ko'payishi har 1000 kishiga 4 ta va undan kam. Masalan: Germaniyada oilaning o'rtacha me'yori 2,7 kishi. Har 4 oilaning 1 tasi farzandsiz. Rossiyada ham tabiiy ko'payish ancha past bo'lib, ko'p bolali oilalarning kamayishi kam bolali oilalarning ko'payishi kuzatilinmoqda. Oilaning o'rtacha me'yori 3,2 kishini tashkil etadi. Bu mamlakatlarda tug'ilishning va tabiiy ko'payishning o'sishiga qaratilgan demografik siyosat olib borilmoqda.

Aholi ko'payishining 2-tipi: "Demografik faollik yoki portlash". Bu turi uchun tug'ilish va tabiiy ko'payishning yuqori, juda yuqori va o'limning kamligi xosdir. Aholi ko'payishining bu turi rivojlanayotgan davlatlar uchun xos bo'lib, asosiy sabablari: mustaqillikdan keyingi hozirgi zamon tibbiyoti, sanitariya-gigiena yutuqlaridan keng foydalanish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, ekonomika taraqqiyot darajasining pastligi, qishloq xo'jaligining usturligi (bolalar ishi hisoblanadi), savodsizlik, sanitariya madaniyatining etarli emasligi, ayollarning oilada va jamiyatda erksizligi, nikohga erta kirishi, ko'p bolalikni rag'batlantiruvchi diniy, iqtisodiy (mat-geroy 10 ta bolali), milliy, mahalliy odatlar.

Tug'ilish va tabiiy ko'payish yuqori bo'lgan mamlakatlar asosan Osiyo, Afrika davlatlardir. Bularda oilaning o'rtacha miqdori 6 kishi. Aholining tabiiy ko'payishi 1000:30 kishi. 90 yillari tug'ilish (1000:54) va tabiiy ko'payish (1000:41) eng yuqori bo'lgan davlat Keniya bo'lgan. Aholi ko'payishining sur'ati shunday saqlansa 17 yilda mamlakat aholisi 2 barobar ko'payadi. Buyuk Britaniya aholisining 2 hissa ko'payishi uchun 630 yil kerak bo'ladi.

Demografik portlash XX asrning 60 yillari paydo bo'lgan. Demografik portlash asosan Horijiy Osiyo mamlakatlarida kuzatilinmoqda. Ma'lumki, aholisi soni 100 mln dan ortiq bo'lgan mamlakatlarning 7 tasi Osiyoda joylashgan. Bu mamlakatlarda demografik siyosat aholi tabiiy ko'payishini kamaytirishga qaratilgan (hatto konstitusiyaga kiritilgan).

Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha yer shari aholisi asrimiz boshidan to hozirgi davrga (2000 y) qadar 3,2 marta ko'paygan. XX asr dunyo aholisining eng tez sur'at bilan ko'paygan davrdir. Aholining tez sur'at bilan ko'payishi asosan rivojlanayotgan davlatlar xisobiga bo'lmoqda. Agar 1950-1990 yillarda aholi butun yer sharida yiliga o'rtacha 1,8% ko'paygan bo'lsa, rivojlangan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 0,9%ni va rivojlanayotgan davlatlarda esa 2,1 % ni tashkil qiladi. Ushbu davrda rivojlanayotgan davlatlar aholisining ko'payib borishi va ularning dunyo aholisidagi salmog'ini 67 foizdan 77 foizga yetishiga olib keldi. Natijada, rivojlangan davlatlar aholisining dunyo aholisidagi salmog'i 33 foizdan 23 foizga tushib qoldi.

Keyingi 30-40 yil ichida rivojlanayotgan davlatlar aholisi tez ko'payib borishi qator mutaxassislarni «dunyoda aholi ortiqchaligi paydo bo'ladi»- degan tashvishga ham olib keldi. Rivojlanayotgan davlatlarda aholi ko'payishi va omillarini mukammal o'rgangan demograf olimlar fikricha esa, ushbu davlatlarda aholi ko'payishining asosiy sababi o'limning keskin kamayishi, tug'ilish darajasining yuqoriligi, hamda o'rtacha umr ko'rish muddatining oshganligidir. Qozirgi paytda dunyo aholisining deyarli 60% Xorijiy Osiyoda, 12% ga yaqini-Afrikada, 13%- Amerikada, 10% Xorijiy Yevropada, 0,5%- Avstraliya va okeaniyada, hamda 6%- sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davlatlarda istiqomat qilishadi.

Aholi sonining tez oshib borishi Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilib, ularda aholi yiliga 2,5-3% dan ko'payib bormoqda.

Aholining ushbu tarzda tez ko'payishi qachongacha davom etarkin? Statistik ma'lumtlar, maxsus ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, keyingi 20-30 yil davomida yer shari aholisining ko'payish sur'ati anchagina sekinlashgan. Bu hol avvalo tug'ilishning asta sekin kamayib borishi bilan bog'liqdir.

Tug'ilishning kamayib borishi tarixiy jarayon bo'lib, qar bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, insoniyat o'z taraqqiyoti davomida bir necha ijtimoiy –iqtisodiy bosqichlarni bosib o'tdi.

Tug'ilish darajasi jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham bir xil bo'lavermagan. Yuqorida aytganimizdek kapitalistik formatsiyagacha mavjud bo'lgan davrlarda tug'ilish biologik qarakterga ega bo'lgan, ya'ni cheklanmagan. Ko'pbolalik jamiyat tomonidan ham quvvatlangan. Bu xolni hozirgi jamiyat taraqqiyot bosqichida turib tasavvur qilish mushkulroq albatta. Masalaning tub moqiyatiga nazar tashlashga to'g'ri keladi, qaysiki o'sha o'tmish zamonlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liqdir. Quldorlik davrida ham, feodalizmga ham ko'pbolalikdan qar bir oila va shu bilan birga jamiyat ham manfaatdor edi. Nega shunday? Eng avval oilada bolaning iqtisodiy roli juda katta edi. Ko'pgina mamlakatlarda oila yumushlarida, xunarmandchilikda, dexqonchilikda va chorvachilikda bolalar meqnatidan foydalanilgan. Oilada iqtisodiy daromadning bir qismi bevosita bolalarning meqnati orqali xosil qilingan. Demak, bola meqnati milliy daromadning ma'lum ulushini tashkil etgani sababli, u jamiyat tomonidan qo'llab quvvatlangan. Qatto ba'zi davlatlarda, masalan, Rossiyada deqqonlarga ishlash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitda, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, qar bir oila bolalar sonini ko'paytirishdan manfaatdor bo'lgan.

Kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi bilan sanoat tez rivojlana boshladi, yangi-yangi Shaharlar paydo bo'ldi. Ko'pchilik aholi ish qidirib qishloqdan Shaharga ko'chib kela boshladi. Shahar aholisining o'sib borishi natijasida bir tomondan Shaharlarda turar joy, oziq-ovqat muammolari kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomondan fan texnika taraqqiy etib, ishsizlik vujudga keldi. Uchinchidan, kapitalistik ishlab

chiqarishda ayollar va bolalar meqnatiga juda kam xaq to'lanar edi. Jamiyatda bunday o'zgarishlar oilada bolalar sonini cheklashga, tug'ilishning qisqarishiga olib keldi. Aholisining asosiy qismi Shaharlarda yashovchi Xorijiy Yevropa mamlakatlarida tug'ilish ayniqsa kamayib ketdi. Masalan, Angliyada 1850 yillarda Aholining 50% Shaharlarda yashagan va qar ming kishi xisobiga tug'ilgan bolalar soni o'rtacha 32,6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, qozirgi aholinng 80%ga yaqini Shaharlarda yashaydi va qar ming kishiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 100ni tashkil qiladi. Yoki Frantsiyani olib qaraylik. Bu mamlakatda 1850 yildan to xozirgacha Shahar aholisi 25,5 dan 74 % gacha ko'paydi. Qar ming kishi xisobiga tug'ilgan bolalar soni esa 26,2 dan, 13,7 gacha kamaydi. Germaniya federativ respublikasida esa Aholining 94% Shaharlarda istiqomat qilishadi. Tug'ilish ko'rsatkichi esa 9%<sub>0</sub>ni tashkil etadi xolos, va dunyoda tug'ilish eng kam davlatlardan xisoblanadi.

Yer yuzida tug'ilishning kamayishi asosan XVIII asrning ikkinchi yarmida /arbiy Yevropa davlatlarida boshlanib, keyinchalik bu qit'aning boqa mamlakatlariga, undan so'ng esa AQSH, Kanada, Avstraliya va Yaponiyaga tarqaldi. Ayniqsa, iqtisodiy jiqatdan taraqqiy etgan davlatlarda tug'ilish tez kamaya boshladi. Ushbu davlatlarda 1750-1800 yillarda qar ming kishi xisobiga 38 ta bola tug'ilgan bo'lsa, 1970-1990 yillarda bu ko'rsatkich 16ni, 1999yili 12 ni tashkil qildi. Boshqacha qilib aytganda, tug'ilish 3 martadan ko'proq qisqargan. Endi xuddi ana shu davlatlar uchun rivojlanayotgan mamalatlardagi tug'ilishni qiyoslaydigan bo'lsak, boshqacha axvolni guvoxi bo'lamiz. Ularda 1750—1790 yillarda qar ming kishi xisobiga 41 tadan bola tug'ilgan va 1970-1990 yillarda esa qar 1000 kishi xisobiga tug'ilgan bola 34 ni, 1999 yili esa 25 ni tashkil qilgan. Demak rivojlanayotgan davlatlarda tug'ilishning kamayishi, nisbatan olib qaralganda, ancha sekin borgan. Xozirgi davrda tug'ilish yer shari bo'yicha bir xil emas.

#### Dunyo xududlari bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichlari (1999 y)\*

Dunyo hududlari	Tug'ilshning umumiy koefitsienti	Tug'ilshning yig'indi koefitsienti
Dunyo bo'yicha	23	2,9
Afrika	39	5,4
Amerika	21	2,5
Osiyo	23	2,8
Yevropa	11	1,4
Avstraliya va Okeaniya	18	2,4
Rossiya	9	1,2

\*Jadval «Население и общества», Moskva, Avgust 1999 №38: jurnali ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari guvoxlik berishicha dunyo kontinentlari bo'ylab eng yuqori tug'ilish Afrikada, eng pasti esa Yevropa davlatlarida ekan.

Yuqorida qayd etilganidek, keyingi 20-25 yil ichida dunyoning deyarli hamma qismida tug'ilishning kamayib borishi kuzatilmoqda.

1970-1999 yillar davomida tug'ilishning eng tez kamayishi SHimoliy Amerikaga to'g'ri keladi (shu davr ichida 1,6 marta kamaygan). Uning sabablariga bir nazar solib ko'raylik-chi. Asosiy sabablardan biri Shahar aholisining o'sishi bo'lgan. Masalan, AQSH va Kanadada Shahar aholisining 1950-1999 yillarda 64%dan 75-79%gacha o'sgan. Bundan tashqari, tug'ilishning kamayishiga ayollarning ijtimoiy ishlab



chiqarishda, yollanma ishlarda qatnashishi ham sabab bo'lgan. Masalan, Kanadada 1931 yil moddiy ishlab chiqarishda qatnashuvchi Aholining 17% ayollar bo'lgan bo'lsa, 1980-1999 yillarda esa bu ko'rsatkich 40%dan oshib ketdi. SHimoliy Amerikada tug'ilishning kamayishiga olib kelgan muqim sabablardan yana biri ajralishning nikoqdan ko'pligidir. Qozirgi davrda AQSHda qar yili qayd etilgan nikoqlarning 50%ga yaqini buzilganligi ma'lum. Tabiiy xolki, nikoqning qisqa vaqt davom etishi oilada bola sonining o'z-o'zidan kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, SHimoliy Amerikada ishsizlar sonining tobora ortib borishi, ertangi kunga ishonchsizlik bilan qarash kabi xususiyatlari ham tug'ilishni kamaytiradi.

Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib kelmoqda. Buni Xorijiy Osiyoning eng yirik davlatlari – Xitoy va Hindiston misolida ko'rishimiz mumkin.

Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970 yillardan boshlab aholi o'rtasida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshladi. Natijada, Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, 1970-1974 yil har bir ayol o'zining farzand ko'rish davrida o'rtacha 4,8 farzand ko'rgan bo'lsa, 1986-1990 yillarda –2,1, 1999 yili 1,8 tadan farzand ko'rishgan.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga oilani rejalashtirish asotsiatsiyasi, Hindiston tibbiyot assotsiatsiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlar kiradi. Hindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodlilik darajasining oshishi ham ta'sir etmoqda. Masalan, 1971 yili Hindiston aholisining 29,4% savodli edi. Qozirgi davrda 40% dan yuqori aholi savodlidir.

Tug'ilishni nazorat qilish, hamda xalqning savodi darajasini ko'tarish, tibbiyotni rivojlantirish natijasida Hindiston davlati tug'ilishni ancha kamaytirishga erishgan. Masalan, 1970-1999 yillarda qar bir ayol o'z umri davomida ko'rgan farzandlari soni 5,4 dan 3,4 gacha kamaydi.

Ma'lumki, Xorijiy Osiyo aholisining 70% dan ko'prog'ini Xitoy va Hindiston aholisi tashkil etadi. SHuning Xitoy va Hindistonda tug'ilishning nisbatan kamayishi butun Xorijiy Osiyo bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir qildi. 1970-1999 yillarda tug'ilish Xorijiy Osiyoda deyarli 2 barobar kamaydi. Ana shu davrda tug'ilishning yig'indi koeffitsienti Xorijiy Yevropa 2,1 dan 1,4 ga, Avstraliya va Okeaniyada 3,1 dan 2,4 ga, Afrikada 6,5 dan 5,4 ga kamaygan. Tug'ilishning ana shunday kamayib borishi, Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Maldova davlatlarida ham kuzatiladi. 1970 yilda tug'ilishning umumiy kofitsienti Rossiyada 14,6%<sub>0</sub>; Ukrainada-15,2%<sub>0</sub>; Belorussiyada 16,2%<sub>0</sub> va Moldovada –19, %<sub>0</sub> bo'lgan. 1999 yilda esa bu ko'rsatkich mos ravishda Rossiya, Belorusiya va Ukrainada 9%<sub>0</sub>ni, Moldovada esa 13%<sub>0</sub> tashkil etdi. Boltiqbo'yi, Zakavkaziya va Markaziy Osiyo resublikalarida ham keyingi 30-40 yil ichida tug'ilish keskin kamayganligini guvoxi bo'lamiz.

**Kishlik jamiyatining dastlabki davrlaridan to hozirgacha bo'lgan dunyo aholisining o'sish dinamikasi.** Bir necha ming yillar mobaynida o'limning juda yuqori va aholi o'sish sur'atlarining past bo'lishligi o'zining asosli sabablariga egadir. Dastavval, bu - moddiy va sanitar-gigiyenik shart sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, qolaversa, vaqt-vaqti bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat, vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qirilib ketishi bilan bop'langandir. Yer sharida bunday ofatlar 200-400, 1200-1300, 1600-1650-yillar ichida qayd etilgan bo'lib,

o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi, 1300-1400-yillar davomida qora o'lat epidemiyasining ta'sirida yer yuzasi aholi sonining 1/4 qismidan ajradi. Aholi ko'rsatkichlariga oxiri ko'rinmayotgan urushlar ham katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Urushlar XVIII asrda 5,2 mln., XIX asrda 5,5 mln., XX asrda esa deyarli 50 mln. kishining yostig'ini quritdi.

XIX asrgacha bo'lgan davrda demografik jarayonlarda sezilarli o'zgarishlar bo'lmadi. Undan keyingi davrlarda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik o'tish davriga xos jarayonlar boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarining keskin o'zgarishi, turmushning nisbatan yaxshilanishi, aholining yosh tarkibidagi siljishlar va boshqa omillar bilan bog'landi.

Demograf olimlar demografik o'tish davri 4 ta ketma-ket keluvchi bosqichni o'z ichiga olishligini ilmiy asoslab berganlar. Birinchi bosqich uchun tug'ilishning yuqori darajada saqlanishi va o'limning keskin qisqarishi oqibatida vujudga keluvchi juda yuqori darajadagi tabiiy o'sish xosdir. Ikkinchi bosqich ko'p bolali oiladan kam bolali oilaga o'tish o'limning qisqarishi, tug'ilishning esa undan ham ko'p miqyosda qisqarishi natijasida tabiiy o'sishning kamayishi bilan ifodalanadi. Uchinchi bosqichda, awalambor, aholi ichida qariyalar sonining o'sishi hamda tug'ilishning asta-sekin pasayishi natijasida umumiy o'limning nisbiy darajasi birmuncha ko'tariladi. Mazkur bosqichda aholi soni juda oz miqdorda va jadal sur'atlarda o'sadi yoki qisqaradi (depopulyatsiya jarayoni). To'rtinchi bosqichda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari tenglashadi, aholi sonining tabiiy-umumiy o'sishi umuman barham topadi.

Demografik o'tish davri dastavval Yevropada XVIII asrda boshlandi. Shunda tabiiy o'sish koeffitsienti 20-30 promillega teng bo'ldi. Buni haqiqatan ham demografik inqilob deb atash mumkin. Chunki 10-20 yil oldin atigi 5-10 promillega teng bo'lgan tabiiy o'sish koeffitsienti qisqa vaqt ichida 2-3 marta oshdi. Ushbu jarayon Yevropada 100-150 yil davom etdi. Undan keyingi davrda Yevropa mamlakatlari demografik o'tishning uchinchi bosqichida bo'ldilar. Binobarin, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Italiya, Daniya, Vengriya, Niderlandiyada aholining oddiy tabiiy-takror barpo etilishi ayrim yillarda ta'minlanmayapti, ya'ni o'lganlar soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'p bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tish jarayonining birinchi bosqichini o'tmoqdalar.

AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari ikkinchi bosqichini boshdan kechirmoqdalar. Xitoy va boshqa mamlakatlar ushbu ikkinchi bosqichga o'tish arafasida turibdi. O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo mamlakatlarida birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish uchun zamin tayyorlandi. Bu jarayon yaqin 10-15 yil mobaynida boshlansa ajab emas. Dunyo aholisi soni so'nggi 60 yil ichida 2,6 marta o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich Osiyo (2,9) va Afrika (4,5) ga xos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Yevropada 1,3 martaga teng bo'ldi. So'nggi yillarda Yer yuzi aholisining mutlaq soni yiliga o'rtacha 90 mln. kishiga oshmoqda. Afrika, Markaziy va Janubiy Osiyo, Markaziy Amerikada aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi kuzatilmoqda. Shu vaqtning o'zida Yevropaning ayrim regionlarida aholi soni, juda past sur'atlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti.

#### Dunyo aholisi sonining davrlar bo'yicha o'zgarishi

Yilnoma	Davr	Davrning davom etishi (yil)	Davr boshida aholi soni (mln.k)	Aholi soining o'rtacha yillik o'sishi (%)
Miloddan avvalgi	Neolit	5000	10	

7000 yil ilgari				
Miloddan 2000 yil ilgari	Antik	2000	50	0,03
0 (yangi era)	Yangi earning boshlanishi, o`rta asrning dastlabki davri	2000	230	0,1
1000-yil	O`rta asrlar	1000	305	0,02
1500-yil	O`rta asrlarning yakuniy davri	500	440	0,1
1650-yil	Yangi zamonning boshlanishi	150	550	0,3
1800-yil	Yangi zamon	150	952	0,5
1900-yil	Yangi zamonning yakuniy davri	100	1656	0,8
1950-yil	Eng yangi zamon	50	2527	1,0
1980-yil	Yaqin o`tgan davr	30	4430	1,9
2001-yil	Hozirgi davr	33	6134	1,5
2013-yil			7095	1,2

Aholi dinamikasidagi farqlar mamlakatlarda mavjud aholi soni va ular egallagan o`rinlarda o`z aksini topmoqda. Dunyoda aholisining soni bo'yicha yetakchi 25 mamlakat aniqlanib, ular egallagan o`rinlarda 1985-2004-yillarda bo`lib o`tgan o'zgarishlarning tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

- ana shu yillarda va 2025-yillargacha bo`lgan davrda birinchi to`rtlik mamlakatlarining nomi, o`rni o'zgarmaydi (Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya);

- mamlakatlar aholisining sonidagi farq kamaymoqda (birinchi mamlakatda 25 mamlakatga nisbatan aholi soni 28 marotaba ko'p bo'lgan bo'lsa. bu ko'rsatkich 2013-yilda 25 martaga teng bo'ldi);

- ushbu mamlakatlarning asosiy qismi Osiyoga (1985-yilda 11 ta, 2013-yilda 12 ta) to'g'ri keladi. Yevropada 1985-yilda 6 ta, 2013-yilda 5 ta shunday mamlakat bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar Amerika bo'yicha tegishli tarzda 3 va 3 ga, Afrikada ham 3 va 4 ga tengdir. Ikki Yevrosiyo mamlakati: Rossiya va Turkiya alohida guruhga kiritilgan. Dunyo va uning qit'olari, materiklari hamda ayrim regionlari bo'yicha aholi tabiiy harakatini ifodalovchi koeffitsientlar quyidagi jadvalda berilgan. Dunyoda yuqori darajadagi tug'ilish koeffitsientlari Afrika materigiga regionlar ichida Afrikaning barcha hududlariga hamda Markaziy Amerika, Janubiy va Janubi-g'arbiy Osiyo regionlariga, past darajadagi tug'ilish koeffitsientlari esa Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyo hamda Avstraliya va Okeaniyaga xosdir. O'lim koeffitsientining yuqori ko'rsatkichlari Afrika va Yevropada, Markaziy va Janubiy Osiyo regionlarida kuzatilmoqda. Tabiiy o'sish Afrika, Markaziy Amerika, Janubi-g'arbiy Osiyo hamda Markaziy va Janubiy Osiyoda yuqori koeffitsientlarga ega. Ushbu ko'rsatkich Yevropada nolga, Rossiyada esa minus 2-3 promillega teng. Rossiyada immigratsiya katta miqdorga ega bo'lmaganda depopulyatsiya jarayoni, ya'ni aholi sonining qisqarishi undan ham sezilarli bo'lardi.

**Tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish koeffitsiyentlari  
(1000 kishiga nisbatan, 2012-yilgi ma'lumotlar)**

Qit'a, materik va mintaqalar	Tug'ilish koeff.	O'lim koeff.	Tabiiy o'sish koeff.	Go'daklar o'limi koeff. (5 yoshgacha)	O'rtacha umr davri	
					erkaklar	ayollar

				<b>bo'lgan 1000 bolaga)</b>		
Butun dunyo	21	9	12	73	66	69
Afrika	34	13	21	114	53	55
Amerika, o'rtacha ko'rsatkich	20	8	12	24	73	77
Shimoliy Amerika	19	8	11	7	77	82
Markaziy Amerika	23	7	16	26	70	75
Janubiy Amerika	21	8	13	23	69	73
Karib havzasi	21	8	13	28	69	72
Osiyo, o'rtacha ko'rsatkich	23	9	14	68	65	68
Janubi-g'arbiy Osiyo	26	9	17	86	63	64
Janubi-sharqiy Osiyo	23	8	15	51	64	67
Sharqiy Osiyo	16	6	10	29	71	75
Rossiya	11	14	3	13	60	72
Avstraliya va Okeaniya	17	8	9	7	75	78
Yevropa	11	10	1	7	76	82

Aholi soni va uning tarkibiga go'daklar o'limi ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Yer sharida 2003-yilda jami 8331 ming bola bir yoshga yetmasdan o'lganligi qayd etildi. Shundan, 1310 mingi Hindistonga, 708 mingi Xitoyga to'g'ri keladi. Pokiston, Bangladesh, Indoneziya, KXDR, Braziliya, Nigeriya, Efiopiya kabi mamlakatlarda hozirgi vaqtda yiliga 200-500 ming bola bir yoshga yetmasdan o'lmoqda. Bolalar o'limi koeffitsienti Afg'oniston, Angola, Burkina-Faso, Burundi, KDR, Mali, Mozambik, Niger, Nigeriya, Ruanda, Serre-Leone, Chad kabi mamlakatlarda 200 dan yuqori, 32 mamlakatda 100-200 promillega boradi.

Bolalar o'limi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot darajasi bilan teskari aloqaga ega. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bolalar o'limi koeffitsiyenti 3 (Shvetsiya) dan 8 promillegacha (AQSH) o'zgaradi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyati beqaror, iqtisodiy qoloq bo'lgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich, odatda, 100 dan ortiq, ayrim hollarda 200 dan ham yuqori darajaga (Nigeriya – 240, Serra-Leone - 250) egaligi bilan ajralib turadi.

Yer shari aholisining o'rtacha umr davri 2012-yilda 67 yoshga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, Shvetsiya, Shveysariya ... jami 29 davlat) 78-83 yoshni, qoloq mamlakatlarda (80 dan ortiq) 39-59 yoshni tashkil etdi. O'rtacha umr davrining eng yuqori ko'rsatkichlari Yaponiyaga (83 yosh) hamda Shvetsiya, Shveysariya va Islandiyaga (81 yosh), Avstraliya, Kanada, Avstriya, Isroil, Norvegiya va Fransiyaga (79 yosh), eng past ko'rsatkichlari esa MAR, Zambiya, Malavi, Mozambik, Serra-Leone, Zimbabve (37-43 yosh) kabi mamlakatlarga xosdir.

#### **Yer yuzi aholisi sonining o'sish sur'atlari (1950-2012-yillar)**

<b>Yil</b>	<b>Aholi soni, mln. kishi</b>	<b>Davr ichida o'sish, mln. kishi</b>	<b>O'rtacha yillik o'sish, mln. kishi</b>
1950	2515		
1960	3091	504	50
1970	3698	679	68

1980	4450	752	75
1990	5292	842	84
2001	6134	959	96
2012	7095	961	87

O`zbekistonda o`rtacha umr ko`rish davri erkaklarda 67 yoshga, ayollarda esa 73 yoshga, o`rtachasi esa 73,5 yoshga teng. Tarixiy manbalar Qadimgi Rim va Qadimgi Yunonistonda o`rtacha umr ko`rish davri 25 yoshga teng bo`lganligini asoslaydi. O`rta asrlarda bu ko`rsatkich taxminan 30 yoshgacha ko`tarildi. Mana shu o`rtacha ko`rsatkichlar umr ko`rish davri yuqori bo`lgan kishilar mavjudligini inkor qilmaydi. Masalan, Yuliy Sezar o`ldirilganda 60 yoshdan o`tgan edi. Aflotun 81 yoshda vafot etgan.

Umr davrini ko`rsatuvchi umumiy yo`nalishning mavjudligiga qaramasdan ko`rsatkichlar o`rtasida sezilarli farqlar mavjud. Bu ko`rsatkich Yevropa bilan Afrika o`rtasida 1950-yilda 27 yoshni tashkil etdi. Dunyo miqyosida o`rtacha umr ko`rish davri 62 yil ichida 19 yoshga oshdi. Bu ko`rsatkich Osiyoda 27 yoshga, Afrikada qariyb 30 yoshga, Yevropada esa 15 yoshga teng bo`ldi. Shunga qaramasdan, ayrim qit`alar va regionlarda erkaklar va ayollar o`rtasidagi farq hanuzgacha kattaligicha qolmoqda.

**Dunyo aholisi ko`payishining hududiy xususiyatlari.** Aholi-jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va ayni paytda asosiy iste`molchisi hamdir. Aholining tabiiy o`sishi: tug`ilish, o`lim va tabiiy ko`payish hodisalarining yig`indisidan kelib chiqadi. Bu hodisalar aholining to`xtovsiz tiklanib va avlodlarning yangilanib turishini ta`minlaydi.

Jahonda tug`ilish koeffitsienti 21 ‰ bo`lgani holatda, bu ko`rsatkich – Gvineya Bisau, liberiya, KDR kabi davlatlarda 50 ‰.

Aksincha, GFRda, Xitoy Makaosida - 8‰, Yaponiya, Tayvan, Litva, Avstriya, Belorussiyada - 9‰ (2007 y).

O`lim koeffitsienti dunyo bo`yicha 9‰ bo`lgani holatida, bu ko`rsatkich Svazilendda 29‰, Botsvanada 27‰, angolada 22‰.

Aksincha, Katar, Quvayt, BAA kabi davlatlarda 2 ‰ ga teng (2007 y).

O`lim darajasi dastavval kishilar hayotining moddiy sharoitiga-ovqatlanishiga, mehnat va ro`zg`orning sanitariya-gigiena sharoitiga, sog`liqni saqlash ishlari taraqqiyotiga bog`liq.

Tug`ilish darajasi –jamiyatning sosial-iqtisodiy tuzilishiga (rivojlangan yoki qoloqligi), jamiyat va oilada kishilar o`rtasidagi o`zaro a`loqalarga bog`liq. Odatda kishilarning moddiy farovonligi va madaniyati o`sgan sari, ayollarning ishlab chiqarishga va ijtimoiy faoliyatga ko`proq jalb etilgan sari, bolalarning o`qish muddatlari uzaygan sari, nikoh yoshi kechikkan sari (ilgari 14 yoshda uylagan, 9 yoshdan kuyovga bergan) bo`lsa, hozirda ayrim mamlakatlarda 30 yoshdan o`tib oila qurmoqda. Masalan: Prosta Mariya filmida. G`arb mamlakatlaridagi korchalon xonimlar tug`ishni butunlay xohlashmayapti (implantasiya).

**Jahoning ayrim hududlaridagi demografik vaziyat tahlili.** Nisbatan yaqin o`tmishda, antibiotiklar davri va ochlik tarqalib ketishidan oldin ham, odamlar uning sonlari haqida alohida o`ylamadilar. Shuning uchun ham doimiy urushlar va ommaviy ochlik millionlab odamlarni o`ldirgan.

Ayniqsa, ikki tomonlama urushlar bo`lib, barcha urushayotgan tomonlarning yo`qotishlari 70-80 million kishidan oshib ketgan. Tarixchilar 100 milliondan ortiq yo`qotilganiga ishonishadi, chunki Xitoyda yaponiyalik militarчилarning harakati bugungi kunda juda ko`plab fuqarolarni o`ldirgan bo`lsa-da, hozirgacha o`rganilmagan.

Bugungi kunda boshqa global muammolar ham mavjud. Demografik muammolar ularning orasida eng jiddiy va muhim ahamiyatga ega. Ammo insoniyat sonining keskin o'sishi bizning kunlarimizda boshlangan deb hisoblanmasligi kerak. Uzoq o'tmishda, ayrim mamlakatlar aholisining keskin o'sishi ham bor, ularning ko'pchiligi global ma'noda juda jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Aholining keskin pandemiyasi hali ijobiy xususiyatga ega deb hisoblashadi. Holbuki, bu holatda barcha mamlakatlar «yoshroq» bo'lishsa, tibbiyot uchun sarf-harajatlar past bo'ladi. Lekin bularning hammasi yaxshi.

Tilovarlarning soni keskin oshadi, ta'lim xarajatlari ko'payadi, ta'lim muassasalarini tugatgan mutaxassislar soni ortib bormoqda, mamlakat o'z ishlarini ta'minlay olmaydi. Mehnat bozorida ko'plab yosh va sog'lom odamlar juda kamtarona ish uchun ishlashga tayyor. Natijada, ularning mehnat xarajatlari (shu pennyasiz) minimal darajaga tushadi.

Jinoyat, qaroqchilik va qotillikning ortishi tezda davlatning "kartochkasi" ga aylanadi. Bugungi global muammolarning ko'pchiligi bunga amal qiladi. Demografik muammolar ko'pincha davlatda yuz beradigan salbiy jarayonlarning aksini ko'rsatadi. Jamiyatning yangi fuqarolarni foydali mehnat bilan ishg'ol eta olmasligi, uy-joy ta'minoti, oziq-ovqat va ta'lim olishni istamasligi ichki siyosatning kuchsizligidan dalolat beradi. Biroq, hamma narsa dahshatli emas. Agar biror mamlakat xalqaro hamkorlar bilan yaqin aloqada bo'lsa va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlamoqda bo'lsa, unda yosh avlodning bir qismi boshqa davlatlarning mehnat bozorlarida o'zini topishi mumkin.

Bundan tashqari, ichki mehnat bozorini tushirishga imkon beradigan va jamiyatning demografik muammolarini biroz yaxshilashga imkon beradigan mavsumiy ish o'rinlari katta ahamiyatga ega.

Afsus, lekin bu holatda davlatning rivojlanish darajasi eng muhim rol o'ynaydi. Evropada oq aholi sonining tez o'sishi, bolalar uchun yaxshi uy-joy va ta'lim narxi yuqori bo'lganligi sababli imkonsiz bo'lsa, Afrikadan va uchinchi dunyo mamlakatlaridan kelgan muhojirlarning to'lqini uchun bunday kichik narsalar muhim emas.

Davlat imtiyozlaridan mamnun bo'lib, ular doimiy ravishda yangi bolalarni ishlab chiqaradigan kichik ijaraga olingan uylarda osongina yig'ilishadi. Natijada, soliq to'lovchilarning bo'ynida o'tirgan parazitlar soni keskin oshadi. Ijtimoiy keskinlik oshib bormoqda, ish haqi miqdori pasayib, ishsizlik ommaviy ravishda paydo bo'ladi, chunki barcha "mahalliy" postlar past narxda ishlashga rozi bo'lgan muhojirlar tomonidan ommaviy ravishda tashkil etiladi. Mana, demografik muammolarning sabablari. "Birinchi skripka" mutlaqo davlatni o'ynashi kerak. Muammoni echishdan voz kechsa, unda yaxshi narsa bo'lmaydi.

Agar butun global muammolarni murakkab sharoitda ko'rib chiqsak, demografik muammolar odatda predispozitsiya qiluvchi omil hisoblanadi, lekin yuqorida keltirilgan barcha oqibatlarga olib keladigan sabab emas.

Barcha muammolarning asosiy manbai har doim davlatning yomon ijtimoiy siyosati yoki bunday yo'qligi. Xuddi shu Afrikadan foydalaning. Jahon hamjamiyati kontratseptsiya vositalarini sotib olish uchun katta mablag' ajratadi, ammo bugungi kunda hech kim ularning reklama bilan shug'ullanmaydi, bu zamonaviy jamiyatning demografik muammolarini ko'taradi.

Bundan tashqari, Markaziy Afrikaning aksariyat hududlarida aholi allaqachon bunday g'ayriinsoniy holatga keltirilgandir: bu sohada ishlaydigan yoki tilanchilik qiladigan ko'plab bolalar oilaning omon qolish uchun yagona vositasidir. Ular o'sib-ulg'ayib, butun mintaqani yanada katta tartibsizlikka olib borishda davom etayotgan

ko'plab qurolli guruhlar safiga qo'shilishadi. Buning sababi - ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi, hech qanday rasmiy daromad manbai yo'qligi.

Ma'lumki, zamonaviy tsivilizatsiyani iste'mol qilish normal inson biologik ehtiyojlari darajasidan ming baravar yuqori. Hatto eng kambag'al davlatlar ham bir necha yuz yil avval qilgan ishlaridan ko'proq iste'mol qiladilar.

Albatta, odamlar sonining keskin o'sishi, uning katta qismini umumiy qashshoqlashuvi va davlat tuzilmalarining bularning barchasini nazorat qilishning kamida bir qismini tashkil eta olmasligi tufayli resurslarni oqilona iste'mol qilish ortadi. Natijada hunarmandchilik korxonalarining toksik zaharli chiqindilari, axlat tog'lari va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ayrim chora-tadbirlarga to'liq e'tibor bermaslik ko'paymoqda. Natijada, mamlakat ekologik falokat yoqasida turibdi va aholi ochlikdan o'limgacha o'tiradi.

Zamonaviy demografik muammolar faqat so'nggi yillarda boshlangan deb o'ylaysizmi?

Xuddi shu Afrikada, butun viloyatlardagi 60-larning o'rtasidan beri odamlar oziq-ovqat etishmasligidan azob chekishdi. G'arbdagi dorilar umr ko'rish davomiyligini oshirishga imkon berdi, lekin uning umr yo'ldoshi bir xil bo'lib qoldi.

Ko'pgina bolalar tug'ilib, oziq-ovqat uchun ko'proq erlar kerak edi. Va u erda qishloq xo'jaligi va shu kungacha chiziqli-yong'in usuli qo'llanilmoqda. Natijada, unumdor tuproqlarning gektarlari shamol eroziyasiga va sho'r yuvilishiga bog'liq bo'lgan cho'llarga aylantirildi.

Bularning hammasi global muammolar. Demografik muammoning (siz ko'rib turganingizdek) zamonaviy tsivilizatsiyaning foydalariga keskin kirib boruvchi o'tish madaniyatining o'ziga xos xususiyati. Ular o'zlarini qayta tiklay olmaydi yoki istamaydi, buning natijasida urushga olib kelishi mumkin bo'lgan og'ir ijtimoiy va madaniy qarama-qarshilik mavjud.

Biroq bizning dunyomizda demografik muammolar aksincha nuqtai nazardan qaraydigan ko'plab davlatlar mavjud. Biz rivojlangan davlatlar haqida gapiramiz, chunki bu muammo -reproduktiv yoshdagi odamlar oilalarni shakllantirishni xohlamasliklari, bolalarni tug'masliklari.

Natijada muhojirlar mahalliy xalqlarning o'rnini egallashadi, bu esa ko'pincha ushbu hududlarda yashovchi etnoslarning ijtimoiy-madaniy tarkibiy qismini to'liq yo'q qilishga yordam beradi. Albatta, bu hayotni tasdiqlaydigan final emas, lekin davlatning faol aralashuvisiz va ishtirokisiz bunday muammo hal etilmaydi.

Xo'sh, demografik muammolarni hal qilish yo'llari qanday? Hodisaning sabablaridan mantiqiy hal qilish usullari. Birinchidan, aholi turmush darajasini ko'tarish va uning tibbiy xizmatlarini yaxshilash uchun mutlaqo zarur. Ma'lumki, kambag'al mamlakatlarda onalar odatda ko'pgina farzandlarni faqat urf-odatlar tufayli emas, balki chaqaloq o'limining yuqori darajasi bilan ham tug'dirishga majburdirlar.

Agar har bir bola omon qolsa, u o'nlab bolalarni tug'ishi uchun mantiqiy bo'lmaydi. Afsuski, Evropada bir xil muhojirlar uchun yaxshi tibbiy yordam faqatgina tug'ilishni boshlashiga olib keldi. Taxminan xuddi shu narsa Haitida kuzatiladi, bu erda aholining aksariyati qashshoqlik chegarasidan ancha past bo'lib, doimiy ravishda tug'ilishni davom ettirmoqda. Turli jamoat tashkilotlari ko'plab imtiyozlarni to'laydi, bu esa hayot uchun etarli bo'ladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Aholi rivojlanishining global modeli nima?

2. Dunyo aholisining rivojlanish bosqichlarini nechiga bo'lish mumkin?
3. Aholi o'sishi nima va u qanday amalga oshadi?
4. O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyoda qanday mavqega ega?
5. Rivojlangan mamlakatlarda aholi ko'payishi qanday holatda?
6. Demografik krizis nima?
7. Dunyo aholisi ko'payishi davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. Dunyo aholisi ko'payishi qanday salbiy va ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?



**«DEMOGRAFIYA»**

FANIDAN

**AMALIY MASHG`ULOTLAR**

# DEMOGRAFIYA FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

## Amaliy mashg'ulotlar uchun mavzular:

### **1-amaliy mashg'ulot. Demografiya fani shakllanish tarixi.**

Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi va uning asosiy bosqichlari. Demografiyaning fanlar tizimi va tarkibini. Demografiyani boshqa fanlar bilan aloqasi. Fanning obyekti, predmeti va asosiy vazifalari. Fandagi asosiy tushunchalar (demografiya, aholi, aholishunoslik, aholi takror barpo bo'lishi, demografik jarayonlar, demografik xulq, demografik vaziyat, demografik tarkib, demografik hodisa).

### **2-amaliy mashg'ulot. Aholi ro'yxati: dasturlari, maqsadi, vazifalari, ta'rixi, muddati.**

Demografik jarayonlarni hisobga olish. Aholini qayd etish tizimi va aholining joriy hisobi hamda aholi registrlari. Aholi ro'yxati va ro'yxatga olish dasturlari. Aholini ro'yxatga olishning maqsad va vazifalari. Aholini ro'yxatga olish tarixi va uning muddatlari.

### **3- amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlarida oilani rejalashtirish va uy xo'jaligi.**

Oila va uy xo'jaligi tushunchalari. Nikoh tushunchasi, uning turlari va vujudga kelish omillari. Oilani jamiyatdagi o'rni va vazifalarini hamda oila turlari. Oilani rejalashtirishning mintaqaviy xususiyatlari. O'zbekistonda oilani rejalashtirish jarayoni.

### **4-amaliy mashg'ulot. Dunyo aholisining jinsiy va milliy tarkibi hududiy xususiyatlari.**

Jins, millat, xalq va aholi tushunchalari. Dunyo aholising jinsiy tarkibi, uning vujudga kelishi va hududiy xususiyatlari. Dunyo aholising milliy tarkibi, uning vujudga kelishi va hududiy xususiyatlari. Dunyo aholisining milliy va jinsiy tarkibini aks ettirgan karta. O'zbekiston aholising milliy va jinsiy tarkibi.

### **5-amaliy mashg'ulot. Aholi o'limi va salomatlik. Perintal o'lim muammosi.**

Aholi o'limi va salomatligi tushunchalari. Aholi o'limini keltirib chiqaradigan sabab va omillari. Dunyo aholisi o'lim ko'rsatkichlarini hududiy tafovutlari. Tu'gilish va o'lim jarayonini bog'liq tomonlari. Dunyoda aholi salomatligi va o'rtacha umr ko'rish yoshini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

Aholi o'limi va salomatligi. Aholi o'limini keltirib chiqaradigan sabab va omillar. Dunyo aholisi o'lim ko'rsatkichlari. Tu'gilish va o'lim jarayonini bog'liq tomonlari. Dunyoda aholi salomatligi va o'rtacha umr ko'rish yoshini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

### **6-amaliy mashg'ulot. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishi geografiyasi.**

Amaliy mashg'ulotning maqsadi talabalarni daryolar suv rejimining davrlari va ularning elemen O'zbekiston aholisining demografik shakllanish tarixi. O'zbekiston aholisining hududiy jiylashuvi va zichligi. O'zbekistonda aholining tabiiy ko'payishi va uning hududiy tafovutlari. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishida migratsiya

va demografik siyosatning roli. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishini yillar kesimidagi jadvali.

**7-amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishi va demografik o'tish bosqichlari.**

Dunyo mamlakatlarida aholining takror barpo bo'lishi, uning sabab va oqibatlari. Dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishining hududiy tafovutlari. Dunyoda aholi takror bo'lishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Aholi takror barpo bo'lishini ko'rsatkichlari. Demografik o'tish tushunchasi va uning bosqichlari.

**8-amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlari demografik siyosati (bironta davlat misolida)**

Demografik siyosat. Demografik siyosat o'tkazish usullari. Demografik siyosatning maqsadi, tarixi va vazifalari. Dunyo mamlakatlaridagi demografik siyosat xilma-xilligi. Xitoy, Rossiya, Germaniya va O'zbekistondagi demografik siyosat.

**9-amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlari aholisi migratsiya jarayonlari va demografik siyosati.**

Aholi migratsiyasi, uning turlari va omillari. Dunyo mamlakatlarida aholi migratsiya jarayonlarini hududiy tafovutlari. Aholi migratsiyasining ijobiy va salbiy tomonlari. Aholi migratsiyasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari. Demografik siyosat. Dunyo mamlakatlarida olib borilayotgan demografik siyosat.

**10-amaliy mashg'ulot. O'zbekiston demografik rivojlanishi.**

O'zbekistonda aholining demografik rivojlanish tarixi. O'zbekiston aholisining bugungi kundagi demografik holati. O'zbekistonda tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari. Viloyatlarning aholi soni, zichligi, tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari. O'zbekistonda aholining migratsiyasi, urbanizatsiyasi, milliy tarkibi, ijtimoiy tarkibi, jins va yosh tarkibi.

**11-amaliy mashg'ulot. Viloyatlar doirasida aholi tabiiy harakat ko'rsatkichlarini hisoblash.**

Viloyatlar doirasida aholi zichligi, aholining o'rtacha yoshi va demografik yuk koeffitsienti. Viloyatlar doirasida aholining tug'ilish va o'lim koeffitsientlarini hisoblash. Viloyatlar doirasida bolalar o'limi koeffitsientini hisoblash.

**12-amaliy mashg'ulot. Aholi soni dinamikasi, nisbiy va mutloq ko'rsatkichlarini, ko'payish suratlarini hisoblash.**

Doimiy aholi sonini baholash va hisoblash. Tug'ilganlar va o'lganlar soni. Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar ko'rsatkichlari. Aholining o'sishi, kamayishi va o'sish sur'atlari. Aholining tabiiy o'sish koeffitsienti.

**13-amaliy mashg'ulot. Viloyatlar aholi sonini prognoz qilish.**

Demografik prognoz va uning turlari. Demografik prognoz metodlari. Demografik prognozlar tarixi. Maruza va adabiyotlarda foydalanib viloyatlar aholi soni. Aholini prognoz qilishda matematikaning roli.

**14-amaliy mashg'ulot. Ichki migratsiya va uning oqibatlari.**

Migratsiya va uning turlari. Migratsiyani keltirib chiqaruvchi omillar. Migratsiyasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari. Ichki migratsiya va uning oqibatlari.

**15-amaliy mashg'ulot. Aholi ko'payishiga filosofik yondashuvlar.**

Aholi takror barpo bo'lishi va takror barpo bo'lish turlari. Aholi takror bo'lishing netto va brutto koefitsientlari. Aholi ko'payishi va ko'payish sur'atlari. Aholi ko'payishiga bo'lgan filosofik, sotsiologik, ekologik qarashlar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## Demografiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

<b>Amaliy mashg'ulot mavzularini taqsimlanishi</b>		
<b>№</b>	<b>Amaliy mashg'ulot mavzulari</b>	<b>Soati</b>
1	Demografiya fani shakllanish tarixi.	2
2	Aholi ro'yxati: dasturlari, maqsadi, vazifalari, ta'rixi, muddati.	2
3	Dunyo mamlakatlarida oilani rejalashtirish va uy xo'jaligi.	2
4	Dunyo aholisining jinsiy va milliy tarkibi hududiy xususiyatlari.	2
5	Aholi o'limi va salomatlik. Perintal o'lim muammosi.	2
6	O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishi geografiyasi.	2
7	Dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishi va demografik o'tish bosqichlari.	2
8	Dunyo mamlakatlari demografik siyosati (bironta davlat misolida).	2
9	Dunyo mamlakatlari aholisi migratsiya jarayonlari va demografik siyosati.	2
10	O'zbekiston demografik rivojlanishi.	2
11	Viloyatlar doirasida aholi tabiiy harakat ko'rsatkichlarini hisoblash.	2
12	Aholi soni dinamikasi, nisbiy va mutloq ko'rsatkichlarini, ko'payish suratlarini hisoblash.	2
13	Viloyatlar aholi sonini prognoz qilish.	2
14	Ichki migratsiya va uning oqibatlari.	2
15	Aholi ko'payishiga filosofik yondashuvlar.	2
<b>Jami</b>		<b>30 soat</b>

## 1-Amaliy mashg'ulot: Demografiya fani shakllanish tarixi.

**Ishdan maqsad:** Talabalarda demografiya fani, uni alohida fan sifatida shakllanish tarixi, fandagi asosiy tushunchalar va tamoyillar, tadqiqot usullari va boshqa fanlar bilan aloqasi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

### *Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:*

1. Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi va uning asosiy bosqichlari haqida tushuncha bering.
2. Demografiyaning fanlar tizimi va tarkibini tushuntiring.
3. Demografiyani boshqa fanlar bilan aloqasi haqida yozma tavsif bering.
4. Fanning obyekti, predmeti va asosiy vazifalarini tushuntiring.
5. Fandagi asosiy tushunchalarga ta'rif bering.


### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

**№-1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

- Demografiya –
- Aholi –
- Aholishunoslik –
- Aholi takror barpo bo'lishi –
- Demografik jarayonlar –
- Demografik xulq –
- Demografik vaziyat -
- Demografik tarkib –
- Demografik hodisa –

**№-2. Demografiya fanlar tizimini klasterda aks ettiring.**

Klaster chismasini rangli qalab bilan amaliy mashg'ulot daftariga yoki alohida bir dona A4 formatdagi listga chizing.



***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noшиr нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

## **2-Amaliy mashg'ulot: Aholi ro'yxati: dasturlari, maqsadi, vazifalari, ta'rixi, muddati.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda aholi, aholi ro'yxati, aholini ro'yxatga olish dasturlari, aholini ro'yxatga olishdan maqsad, ro'yxatga olish vazifalari, ro'yxatga olish ta'rixi va muddati haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

### *Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:*

1. Demografik jarayonlarni hisobga olishni tushuntiring.
2. Aholini qayd etish tizimi va aholining joriy hisobi hamda aholi registrlariga ta'rif bering.
3. Aholi ro'yxati va ro'yxatga olish dasturlariga yozma tavsif bering.
4. Aholini ro'yxatga olishning maqsad va vazifalarini tushuntiring.
5. Aholini ro'yxatga olish tarixi va uning muddatlariga yozma tavsif bering.

### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

#### **Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

• **Aholini ro'yxatga olish dasturi** - Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish amalga oshiriladigan savollar ro'yxati Aholini ro'yxatga olish dasturidir. Aholini ro'yxatga olish dasturi quyidagi savollarni o'z ichiga oladi:

• **Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish** - Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining Davlat

budjeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

• **Aholini ro‘yxatga oluvchi xodimlarning huquq va majburiyatlari. Ro‘yxatga oluvchi xodimlar:**

• ro‘yxatga olish varag‘iga binoan respondentlardan shaxsga doir ma‘lumotlarni olish;

• aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq ishlarni bajarganlik uchun mehnatiga haq olish huquqiga ega.

• Ro‘yxatga oluvchi xodimlar:

• shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ishni boshlashdan oldin respondentga o‘z guvohnomasini ko‘rsatishi;

• o‘z vakolatlariga muvofiq ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishi;

• shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ish jarayonida Aholini ro‘yxatga olish dasturida belgilangan savollar ro‘yxatiga rioya etishi, ularning mazmuni buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

• shaxsga doir ma‘lumotlarning maxfiyligini ta‘minlashi, ularning mazmunini oshkor qilmasligi shart.

• **Aholini ro‘yxatga olish sanasi** - aholi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish va hisobga olish amalga oshiriladigan aniq payt (yil, oy, kun va soat);

• **Aholini ro‘yxatga olish dasturi** (ingl. Respondent, Interviewee) – shaxsiy ma‘lumotlarni yig‘ishda foydalaniladigan savollar ro‘yxati.

• **Aholini ro‘yxatga olish** (ingl. Population census) – mamlakatning barcha hududlarida yagona davlat statistika uslubiyoti asosida o‘tkaziladigan, belgilangan sanaga aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy holatini tavsiflovchi ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va umumlashtirish, yakuniy ma‘lumotlarni keng mmaga tarqatish va undan foydalanish jarayoni.

• **Aholini ro‘yxatga olishning kritik lahzasi** (ingl. Critical moment of census) – butun mamlakat uchun aniq, yagona vaqt bo‘lib, aholini ro‘yxatga olishda olinadigan barcha ma‘lumotlarning boshlanish va tugash muddatidir. Aholini ro‘yxatga olish dasturida ko‘zda tutilgan hamma demografik va boshqa hodisalarni hisobga olishda, uni o‘tkazish davomiyligi qanday bo‘lishidan qa‘tiy nazar, kritik lahzadagi holati bo‘yicha qayd etiladi. Bu lahza boshlanganidan keyin tug‘ilganlar hisobga olinmaydi, bu paytda ular hali tug‘ilmagan bo‘lishadi; aksincha kritik lahza boshlanganidan keyin o‘lganlar aholi ro‘yxati davrida huddi tiriklar sifatida hisobga olinadi. Shunga o‘xshash holda ro‘yxatga olishda nikoh holati (nikoh yoki ajrashishni qayd etish sanasi bo‘yicha) va aholining ijtimoiy-demografik xususiyatlari qayd qilinadi.

• **Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish muddati** (ingl. Dates/period of population census) – shaxsiy ma‘lumotlarni yig‘ish amalga oshiriladigan vaqt oralig‘i.

• **Aholini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi** Aholini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir.

• **Aholini ro‘yxatga olishning asosiy vazifalari.** Aholini ro‘yxatga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash, xotin-qizlar va bolalar yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, oilalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha choralarni ishlab



chiqish maqsadida aholi tarkibidagi, mamlakatning demografik vaziyatdagi o'zgarishlarni baholashga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirish;

- shaharlarni va boshqa aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, mehnat resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanishning uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognozlarini hamda dasturlarini tayyorlash;
- aholini ro'yxatga olishlar oralig'idagi davrda aholi soni va tarkibining joriy hisobini, hisob-kitoblarini hamda prognozlarini amalga oshirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish.

• **Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish** - Aholini ro'yxatga olishni o'tkazish sanasida chaqiruv asosida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar bo'lgan, shuningdek kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga jalb etilgan harbiy xizmatchilar bo'lgan va ularning yopiq hududlarda yashayotgan oila a'zosi bo'lgan respondentlar haqidagi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish harbiy qism komandiri yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

- Aholini ro'yxatga olishni o'tkazish sanasida:
- bolalar internatlarida, tarbiya muassasalarida, "Bolalar shaharchalari"da;
- ijtimoiy muassasalarda;
- diniy muassasalarda;
- shifoxonalarda va boshqa sog'liqni saqlash tashkilotlarida;

***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

### 3-Amaliy mashg'ulot: Dunyo mamlakatlarida oilani rejalashtirish va uy xo'jaligi.

**Ishdan maqsad:** Talabalarda oila, uning xususiyatlari, jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, uning dunyo mamlakatlaridagi xilma-xilligi, oilani rejalashtirish va uy xo'jaligi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

#### *Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:*

1. Oila va uy xo'jaligi tushunchalariga tarif bering.
2. Nikoh tushunchasi, uning turlari va vujudga kelish omillariga yozma tavsif bering.
3. Oilani jamiyatdagi o'rni va vazifalarini hamda oila turlariga yozma tavsif bering.
4. Oilani rejalashtirishning mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qiling.
5. O'zbekistonda oilani rejalashtirish jarayoni.

#### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

**Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

- **Oilaning o'rtacha o'lchami (ingl. Average family size)** – bu oilaning o'rtacha kattaligi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblashda faqat oilada doimiy yashovchi oila a'zolari e'tiborga olinadi.

- **Oila (ingl. Family)** (demografik nuqtai-nazardan) – bu umumiy budjet va qarindosh-urug' yoki boshqa xossalariga ko'ra birlashgan o'zaro birga yashovchi kishilar guruhidir.

- **Oilani rejalashtirish (ingl. Family planning)** – farzandlar tug'ilishini oila ichida tartibga solish. Oilani rejalashtirishning ma'naviy-axloqiy va huquqiy asoslari ongli ota-onalikni nazarda tutib, ota-onaning ongli ravishda oilada farzandlar sonini va ularning tug'ilishi (tug'ilish taqvim) o'rtasidagi davrlarni belgilash huquqini beradi. Oilani rejalashtirish reproduktiv faoliyatni nazorat qilish orqali homiladorlik va undan saqlanishni, homiladorlikni oldini olish va tugatishni oilaviy tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Oilani rejalashtirish nafaqat oilada farzandlar sonini, balki ota-onalarning yoshini hisobga olgan holda tug'ish vaqtini ham belgilashga yordam beradi. Oilani rejalashtirish go'daklar o'limini kamaytirish, ona va bola salomatligini mustahkamlash, ikkinchi darajali bepushtlikni kamaytirishga olib keladi. Ba'zi xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarda oilani rejalashtirish deganda oilalarda farzandlar sonini cheklashni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan dasturlar tushuniladi.

- **Oila** – fiziologik-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishning nikoh asosida tartibga solinadigan tizimi bo'lib, bir-biri bilan ijtimoiy-ruhiy jihatdan qarindosh-urug'chilik munosabatlari asosida iqtisodiy jihatdan mulkiy munosabatlar uyg'unligida birgalikda faoliyat yurituvchi kishilar birikuvidir.

- **Oila** — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga boglangan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va

ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

- **Nuklear oila (ingl. Nuclear family) (lotinchadan nucleus – yadro)** – er va xotin faqat har qanday yoshdagi uylanmagan o'g'illari yoki tumushga chiqmagan qizlari bilan yoki farzandsiz (to'liq nuklear oila), yohud yolg'iz ona (ota) bolalari bilan (to'liqsiz nuklear oila) birga yashaydigan oila. Ba'zan sinonimi sifatida oddiy oila termini ishlatiladi. Er xotindan birining ota – onasi yoki qarindoshlari, yolg'iz ona (ota), agarda ular alohida yashashsada, ammo nuklear oila bilan farzandlar, keksalar va kasallarni parvarish qilish bilan bog'liq yaqin aloqada bo'lishadi, bir-biriga moddiy va iqtisodiy o'zaro yordam beradiganlar nuklear oila tarkibiga kirmaydi, bunday tashkilot “oila guruhi”, (amerika adabiyotlarida “o'zgartirilgan kengaygan oila” [modifiedextendedfamily]), deb nomlanadi. Oila boshidan nuklear bo'lishi mumkin, agar er va xotindan biri yoki ikkalasi ham yetim bo'lib qolgan bo'lsa yoki to'ygacha ota-onasidan ajralgan bo'lsa, er xotin juftligining ajralishi natijasida yoki yolg'iz ota – ona oxirgi ota-onasidan biri o'limi tufayli ham nuklearga aylanadi.

- **Nikoh (ingl. Wedlock)** – bu ijtimoiy tan olingan erkak va ayolning xo'jalik maishiy va jinsiy ittifoqi. Nikoh rasmiy qayd etilgan, ya'ni qonunchilikka muvofiq yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan va rasmiy qayd etilmagan bo'lishi mumkin. Odatda rasmiy qayd etilmagan nikoh shunday ittifoq hisoblanadiki, unda o'zaro birga yashaydigan erkak va ayol bir birini er va xotin hisoblaydi va ijtimoiy muhit nuqtai nazaridan ham shunday tan olinadi. Qayd etilgan yoki rasmiy amalda nikoh munosabatlari shakllanganligi yoki yo'qligidan qat'iy nazar oila qurish maqsadi bilan erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan shakli nikoh hisoblanishi mumkin.

- **Nikoh indeksi** – demografik ko'rsatkich bo'lib, nikohdagi juftlikning biron-bir belgisi (yoshi, millati, ma'lumoti, daromadi va h.k.)ga qarab tanlash darajasini o'lchash uchun qo'llaniladi. Nikohning gomogamiya (tortilish, intilish) va geterogamiya (qochish) indeksleri farqlanadi.

- **Nikohga kirishning o'rtacha yoshi** (ingl. Average age of first marriage) – nikohda bo'lishning muhim ko'rsatkichlaridan biri. Uni aholi ro'yxati ma'lumotlari va joriy hisob ma'lumotlari asosida hisoblash mumkin. Joriy hisob ma'lumotlari bo'yicha hisoblashda shu yilda nikohga kiruvchilarning (ajrashganlarning) yoshi bo'yicha taqsimlanishi to'g'risida ma'lumotlardan foydalaniladi.

***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.

8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -T.: «ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ НАШРИЁТ-МАТБАА УЙИ», 2020.424 bet.
11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

#### **4-Amaliy mashg'ulot: Dunyo aholisining jinsiy va milliy tarkibi hududiy xususiyatlari.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda aholi, aholi tarkibi, aholining yosh-jins tarkibi, dunyo aholisining jinsiy va milliy tarkiblari, uni vujudga kelishi hamda hududiy xususiyatari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

##### *Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:*

1. Jins, millat, xalq va aholi tushunchalariga tarif bering.
2. Dunyo aholisining jinsiy tarkibi, uning vujudga kelishi va hududiy xususiyatlarini tahlil qiling.
3. Dunyo aholisining milliy tarkibi, uning vujudga kelishi va hududiy xususiyatlarini tahlil qiling.
4. Dunyo aholisining milliy va jinsiy tarkibini aks ettirgan karta tuzing.
5. O'zbekiston aholisining milliy va jinsiy tarkibini o'rganing va uni hududiy xususiyatlarini tahlil qilish.

##### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

- Mintaqalar bo'yicha jinsiy va milliy tarkibni tahlil qiling.

№	Mintaqalar	Jinsiy tarkib		Milliy tarkib	
<b>1.</b>	<b>Yevropa</b>				
<b>2.</b>	<b>Osiyo</b>				
<b>3.</b>	<b>Shimoy Amerika</b>				
<b>4.</b>	<b>Lotin Amerikasi va Karib havzasi</b>				
<b>5.</b>	<b>Afrika</b>				
<b>6.</b>	<b>Avstraliya va Okeaniya</b>				

**Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

- **Jinslarning birlamchi nisbati** – urug'lantirishdagi erkak gamet (homila) sonining ayollar homilasi soniga nisbatidir. Avvallari ushbu nisbat taxminan 100 ayol

homilalariga nisbatan 125-130 erkak homilalari to'g'ri keladi, deb hisoblangan. Jinslarning birlamchi nisbati bevosita hisoblab chiqila olmaydi. Odatda, jinslarning birlamchi nisbatini tirik tug'ilganlar orasidagi jinsiy farqlar, ona qornidagi kech o'lim holati va ichki sabablar tufayli abortlar haqidagi ma'lumotlarni hisob-lashga asoslangan bilvosita usuldan foydalanish qabul qilingan. Ushbu usuldan foydalanishga asoslangan maksimal baholashdagi jinslarning birlamchi nisbati 170 ta erkak homilasiga 100 ta ayol homilasi to'g'ri kelishi aniqlangan, lekin odatda, bu ko'rsatkich kamroq bo'ladi. Xususan, zamonaviy, qat'iy uslubiy ma'lumotlar ushbu ko'rsatkich 115 ga teng kelishini ko'rsatmoqda. Biroq ushbu barcha baholashlar asosan mavhumiy tavsifga ega bo'lib, bu tushib qolish ehtimoli katta bo'lgan urug'lantirishning birinchi haftalari o'lim xavfidagi jinlar farqi to'g'risidagi ma'lumotlarni yetarli bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

- **Jinslarning ikkilamchi nisbati** – tirik tug'ilganlar orasida o'g'il bolalar sonining qizlarga nisbatidir. U asosiy biologik o'zgarish ko'rsatkich hisoblanadi va taxminan 100 ta qizlarga nisbatan o'g'il bolalarning 105-106 ta tug'ilishiga teng yoki boshqacha aytganda, har 1000 ta yangi tug'ilgan go'dakka doimo taxminan 512 ta o'g'il bola va 488 ta qiz bola to'g'ri keladi. Jinslarning ikkilamchi nisbatda doimiy kattalik bo'lishiga qaramay bir qator omillar ta'siri bilan o'zgarib turadi. Xususan, nikohsiz bolalar o'rtasidagiga nisbatan nikohdagilar orasida o'g'il bolalar soni ko'proq bo'ladi. Tug'ilganlar orasidagi o'g'il bolalar hissasi onalar yoshining ulg'ayishi va tug'ilish tartib raqamining o'sishi bilan kamayib boradi. Masalan, 20 yoshgacha bo'lgan onalarda har 100 ta qizaloqqa 130 ta o'g'il bola to'g'ri keladi, 38-42 yoshdagi onalarda esa u atigi 90 tani tashkil qiladi, xolos.

- **Jinslarning uchlamchi nisbati** – reproduktiv yoshdagi yoki boshqa yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollarning o'zaro tengligidir. Jinslarning birlamchi va ikkilamchi nisbatidan farqli o'laroq jinslarning uchlamchi nisbati o'limning yosh-jins bo'yicha tabaqalanish xususiyatlari va migratsiya harakatchiligiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Jinslarning uchlamchi nisbati ikkilamchi nisbat bilan birga-likda demografiyaning qiziqishlari doirasiga kiradi, chunki aholi-ning takror hosil bo'lish tavsiflari va ayrim demografik jarayonlar ularga bog'liq bo'ladi. Ular faol va istiqboldagi nikoh darajasiga, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga ta'sir o'tkazadi. Aynan shuning uchun demograflar umumiy aholining jinsiy tarkibini o'rganishda ushbu ko'rsatkichlarga alohida e'tibor beradi. Jahon aholisining jins tarkibi erkaklar soni ko'pligi xususiyatiga ega. Dunyoda erkaklar ayollarga nisbatan 20-30 million kishiga ko'p. Umuman, har 100 ta qiz bola hisobiga 104-107 o'g'il bola tug'iladi.

- **Jinsiy inqilob** - bu yoshlarning isyonkorona harakati bilan bog'liq jinsiy munosabatlar sohasida an'anaviy me'yorlar, cheklovlar va ta'qiqlarning tubdan buzilishidir.

- **Aholining milliy tarkibi** – muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo'yicha tarkibi.

- **Aholining jinsiy tarkibi** – aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir. Demografiyada jinsiy tarkibni tasavvur qilishda quyidagi ikkita yondashuv mavjud:

- birinchisi – jami aholi tarkibidagi yoki ayrim yosh guruh-laridagi erkak va ayollar mutlaq soni va ulushining oddiy hisobi;
- ikkinchisi – jami aholi tarkibidagi yoki ayrim yosh guruh-laridagi erkaklar sonining ayollar soniga nisbati (yoki aksincha).

Odatda, jinlar nisbati erkaklar sonining har 100 yoki 1000 ayolga to'g'ri keladigan nisbati orqali hisoblab chiqilishi bilan aniqlanadi (yoki ba'zan ayollar sonining

har 100 yoki 1000 erkakka to'g'ri keladigan nisbati). Aholining jins tarkibi uchta omilning birgalikdagi ta'siriga bog'liq:

- 1) tirik tug'ilganlar orasidagi o'g'il bolalar sonining qiz bolalar soniga nisbati;
- 2) o'limning tabaqalanishi, ya'ni turli yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'lim darajasining farqi;
- 3) migratsiya sur'atidagi jinslar farqi.

• **Millat** – uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etno- madaniy jarayonda, anik xududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, uziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli.

• **Aholi** (ingl. Population) – bu bir qator ijtimoiy fanlarning asosiy tushunchalaridan biri, demografiyaning markaziy kategoriyasi. Eng umumiy ta'rifga ko'ra, aholi- bu tabiiy ravishda tarixan rivojlanib boradigan va hayotini takror barpo qilish va ishlab chiqarish jarayonida bevosita to'xtovsiz doimiy ravishda yangilanib boradigan insoniyat jamiyatining asosiy moddiy tarkibiy qismi bo'lgan odamlar to'plami. Uning rivojlanishining har bir bosqichida aholi, aniq odamlarning tarixiy to'plami sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari odamlar, kelgusida ma'lum birliklar (masalan, etnik, diniy va boshq.) bilan o'zaro bog'langan holda, u yoki bu mamlakatda, uning hududlarida aholining nisbatan barqaror to'plamini shakllantirib, jamiyatni hududiy tashkil etishga mos holda, makon ichida o'zlarining xayot faoliyatini amalga oshiradi.

• **Xalq** - bu odamlar jamoasi bo'lib, ularning tili, madaniyati, san'ati, dini boshqa jihatlarini birgalikda aks ettiradi. Xalq tushunchasi keng bo'lib jihatlar bilan birlashtiriladigan odamlar yig'indisiga aytiladi. Masalan biz O'zbekiston aholisi va o'zbek xalqi deymiz.

• **Xalq** - 1) muayyan mamlakatning barcha aholisi; 2) tarixiy birlikning turli shakllari (qabila, elat, millat). Xalqlarning kelib chiqqan tarixini (etnogenezini) va shakllanish jarayonini o'rganishda ijtimoiy fanlarda "etnos" (yun. "xalq") va "etnik birlik" iboralari qo'llaniladi.

#### *Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:*

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.

11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

## 5-Amaliy mashg'ulot: Aholi o'limi va salomatlik. Perintal o'lim muammosi.

**Ishdan maqsad:** Talabalarda aholi o'limi, uning kelib chiqish sababari, aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi, aholi o'limini hududiy tafovutlari, aholi salomatligi va uni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.


**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

### *Amaliy mashg'ulot topshiriqlari*

1. Aholi o'limi va salomatligi tushunchalariga tarif bering.
2. Aholi o'limini keltirib chiqaradigan sabab va omillarini tahlil qiling.
3. Dunyo aholisi o'lim ko'rsatkichlarini hududiy tafovutlarini tahlil qiling.
4. Tu'gilish va o'lim jarayonini bog'liq tomonlarini izohlab bering.
5. Dunyoda aholi salomatligi va o'rtacha umr ko'rish yoshini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qiling.

### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

1. "Aholi o'limi sabablari" klasterini tuzing




2. Dunyo aholisini o'limiga olib kelayotgan Top-20 ta sababni ro'yxatini jadval asosida tuzing va izohlang. Manba: <http://deathmeters.info/>

№	Aholi o'limiga olib kelayotgan sabab	Bu sababdan dunyo aholisining necha foizi vafot etayotgani	Bir yilda bu kasallikdan dunyo aholisining qanchasi vafot etgan (mln. kishi)
1.	Yurak ishemik kasalligi	16,59 %	1 842 293 (08.03.2023)

2.			
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			
8.			

3. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari ulushi aks etilgan doiraviy diagramma tuzing!



#### 4. Quyidagi atamalarni yod oling:

- **Aholini ro'yxatga olish vaqti (ingl. Date of population census)** – aholi ro'yxati o'tkazish kuni (bir kunlik aholi ro'yxati) yoki aholi ro'yxati (agarda u bir necha kun davomida o'tkazilsa) boshlangan birinchi kun, oy, yil. Mamlakatlarning ko'pgina qismlarida aholi ro'yxati 0 va 1 bilan yakunlanadigan yillarda o'tkaziladi. Ro'yxat o'tkazish oyini tanlashda aholining mavsumiy harakatchanligidagi o'zgarishlar, ro'yxat o'tkazayotgan xodimlar ishlarining iqlim sharoiti va mamlakatning alohida geografik mintaqalariga borish imkoniyati, bandligi bo'yicha aholi tarkibidagi mavsumiy o'zgarishlar e'tiborga olinadi.

- **Aholi o'limi (ingl. Population mortality) (o'lim)** – bu turli yoshdagilarda sodir bo'ladigan alohida o'lim holatlaridan iborat avlodning yo'qolib borish jarayoni. U ko'p sonli biologik va sotsial omillarga bog'liq. Demografik tahlil qilish nuqtai nazaridan omillarni endogen (inson organizmining ichki rivojlanishi natijasida paydo bo'ladigan) va ekzogen (tashqi muhit ta'siri bilan bog'liq), omillarga bo'lish muhim ahamiyatga ega.

- **Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbai (demografik ma'lumotlar manbai)** (ingl. Sources of population/demographic data, Sources of information on population) – aholining ro'yxati, tabiiy va mexanik harakatning joriy hisobi, maxsus tanlama tadqiqotlar. Aholini ro'yxatga olish va tabiiy hamda migratsion harakatlarining joriy hisob ma'lumotlari bo'yicha statistik ishlanmalar natijalari statistik to'plamlarda chop etiladi.

- **Aholi umr ko'rish davomiyligi** – bu jahon mamlakatlarida kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi bo'lib, u yoki bu davlatning ijtimoiy-demografik rivojlanishining eng muhim mezonlaridan biridir. Mazkur ma'lumotlar milliy institutlar va xalqaro tashkilotlardan olinib, Birlashgan Millatlar tashkiloti Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamentining Aholishunoslik bo'limida jamlanadi va qayta ishlanadi.



*Kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi erkaklar va ayollarga alohida-alohida hisoblab chiqilishi mumkin.*

• **Aholi o'limi** - O'lim (boshqa nomlari: vafot, qazo, ajal) tirik organizm faoliyatini tutib turuvchi barcha biologik funksiyalarning to'xtatishidir. O'limga olib keluvchi fenomenlar sirasiga keksayish, yirtqichlik, ochlik, kasallik, xudkushlik, qotillik, baxtsiz hodisa, jarohat kabilar kiradi.

• **O'lim** — organizm hayot faoliyatining butunlay to'xtashi, ortga qaytmas jarayon.

#### ***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народоноселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://deathmeters.info/>
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

## **6-Amaliy mashg'ulot. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishi geografiyasi.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda aholi takror barpo bo'lishi, uning sabab va oqibatlari, hududiy tafovutlari, O'zbekistonda aholi takror barpo bo'lishi geografiyasi, O'zbekiston aholisining o'sish sur'atlari va dinamikasi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

#### ***Amaliy mashg'ulot topshiriqlari***

1. O'zbekiston aholisining demografik shakllanish tarixi haqida yozma tavsif bering.
2. O'zbekiston aholisining hududiy joylashuvi va zichligini tahlil qiling.
3. O'zbekistonda aholining tabiiy ko'payishi va uning hududiy tafovutlarini tahlil qiling.
4. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishida migratsiya va demografik siyosatning rolini tushuntiring.

5. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishini yillar kesimidagi jadvalini tuzish va tahlil qilish.

**Qo'shimcha topshiriqlar:**

**1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

**Aholi takror barpo bo'lishining brutto ko'effitsiyenti (ingl. Gross reproduction rate) (aholi takror barpo bo'lishining yalpi ko'effitsiyenti)** – o'limning ta'sirini hisobga olmaydigan avlodlarning almashish ko'rsatkichi; aholini takror barpo bo'lishining va tug'ilish rejimining umumlashtiruvchi xususiyatlaridan biri. Ushbu ko'effitsiyent (R) an'anaviy ravishda ayollar (gipotetik avlod) uchun hisoblab chiqiladi, ammo erkaklar uchun ham huddi shunday hisoblab chiqilishi mumkin. Aholi takror barpo bo'lishining brutto- ko'effitsiyenti hisob-kitob yilida tug'ilish yosh bo'yicha ko'effitsiyentining darajasi saqlangan holda, reproduktiv davr oxirigacha yashagan bir ayolda tug'ilgan qizlarning o'rtacha sonini ifodalaydi. Ko'rsatkich qo'yidagi formula bilan hisoblanadi:

$$R = \delta F \Sigma$$

bu yerda  $\delta$ -yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida qizlarning nisbati;  $F \Sigma$  – tug'ilishning yig'indi ko'effitsiyenti. Aholini takror barpo bo'lishining brutto-ko'effitsiyenti netto ko'effitsiyentdan farqli o'laroq qizlarning ona yoshiga yetgunga qadar o'limini hisobga olmaydi, shuning uchun onalar avlodini qizlar avlodi bilan almashtirish ko'lamini baholash uchun universal mezon sifatida qaralmaydi.

**Aholini takror barpo bo'lishining sof ko'effitsiyenti (ingl. Net reproduction rate) (aholi takror barpo bo'lishining netto-ko'effitsiyenti Byok-Kuchinskiy ko'effitsiyenti)** – ayol avlodining o'rnini bosishning miqdoriy o'lchovidir, onalar avlodining qizlar avlodi bilan almashinishidir. Aholini takror barpo bo'lishining netto-ko'effitsiyenti aholini takror barpo bo'lishining ko'effitsiyentlar tizimida markaziy o'rinni egallaydi va aholini takror barpo bo'lish tartibini umumlashtiruvchi xususiyatga ega. Aholi takror barpo bo'lishining netto-ko'effitsiyenti ayol uchun ham erkak uchun ham hisoblab chiqilishi mumkin, ammo aksariyat hollarda ayollar uchun ishlatiladi. Bu umri mobaynida reproduktiv davri oxiriga qadar yashagan bir ayoldan tug'ilish va o'lim darajasining joriy holatida tug'ilgan qizlarning o'rtacha sonini ifodalaydi. Soddalashtirilgan tarzda aholi takror barpo bo'lishining netto-ko'effitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanishi mumkin:

$$R_o = R_l x,$$

bu yerda R – aholi takror barpo bo'lishining brutto- ko'effitsiyenti,  $l_x$ - farzandlarning tug'ilishida onaning o'rtacha yoshiga yetgan ayollar soni, bu yosh 26 dan 30 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida tebranib turadi.

**Aholi tabiiy ko'payishi ko'effitsiyenti (ingl. Rate of natural population growth/increase)** – bu tug'ilishning o'limdan ortib ketishi (yoki kamayishi) oqibatida ma'lum bir yilda aholi soni o'sishini (yoki qisqarishi) promillelarda aks ettiruvchi ko'rsatkich. Ushbu ko'rsatkich immigratsiya va emigratsiyaning ta'sirini o'z ichiga olmaydi.

$$K_{tk} = \frac{\text{tug'ilganlar soni} - \text{o'lganlar soni}}{\text{aholining o'rtacha yillik soni}} * 1000$$

Tabiiy ko'payish ko'effitsiyenti tug'ilish va o'lim ko'effitsiyentini qo'llash yordamida ham hisoblanishi mumkin:

$$K_{tk} = \text{tug'ilish ko'effitsiyenti} - \text{o'lim ko'effitsiyenti}$$

**Avlod** – muayyan bir vaqtda tug'ilgan insonlarga tegishli bo'lib, ko'pincha bir kalendar yiliga teng. Shu bilan birga, demografiyada ota-onalar nolinchi, ularning farzandlari birinchi, nevaralari esa ikkinchi avlod hisoblanadi.

**Onalar o'limi** – homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi asoratlar va abortlar oqibatida sodir bo'lgan ayollar o'limi hodisasi. Onalar o'limiga, o'lim sodir bo'lgan joyidan (tug'ruqxonada, ichki kasalliklar, jarrohlik, onkologiya, yuqumli kasalliklar shifoxonasi yoki bo'limlarida va boshqa joylarda), o'limning homiladorlik va tug'ish bilan bog'liqligidan (baxtsiz hodisalardan tashqari) hamda homiladorlik davridan qat'iy nazar, tuqqandan so'ng 42 kun davomida yoki homiladorlik davrida vafot etgan barcha tuqqanlar, homilador ayollar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

«Aqlning oqib o'tishi» - yuqori malakali mutaxassislarning mamlakatlararo migratsiyasi.

**2. Quyidagi jadvallar asosida hududlar bo'yicha tug'ilish va o'lim hollarini tahlil qiling.**

**Tug'ilganlar soni – Jami (yilda; kishi)**

Hududlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>622 835</b>	<b>625 106</b>	<b>679 519</b>	<b>718 036</b>	<b>734 141</b>	<b>726 170</b>	<b>715 519</b>	<b>768 520</b>	<b>814 960</b>	<b>841 817</b>	<b>905 211</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	35 840	38 207	39 100	40 883	41 345	39 427	37 754	40 108	41 137	39 286	40 272
Andijon	56 662	58 277	64 239	67 905	69 562	68 784	67 368	72 387	77 603	81 425	84 664
Buxoro	32 948	34 257	36 743	38 291	39 352	38 297	37 228	40 338	41 141	41 555	43 173
Jizzax	25 191	25 400	27 484	29 912	31 887	31 566	30 984	33 801	36 457	38 118	41 313
Qashqadaryo	64 074	65 225	71 860	75 649	78 543	77 684	76 687	81 919	86 728	90 330	97 079
Navoiy	18 045	18 067	19 300	20 116	20 259	20 837	20 563	21 595	22 770	23 888	26 576
Namangan	52 203	50 603	56 859	62 285	61 980	62 164	61 380	66 490	71 830	74 720	79 968
Samarqand	73 903	74 137	82 390	87 833	88 649	88 295	89 956	98 909	100 656	101 414	110 455
Surxandaryo	54 114	52 512	56 539	60 717	64 424	62 638	64 908	68 259	72 680	74 658	80 975
Sirdaryo	15 559	15 754	16 701	17 427	17 862	17 623	17 627	18 349	20 744	21 053	23 244
Toshkent	53 545	52 875	55 128	57 848	58 692	57 190	54 794	59 300	64 086	65 954	72 659
Farg'ona	67 746	66 989	73 671	76 697	79 241	78 587	75 501	81 414	87 751	93 037	99 146
Xorazm	35 116	34 731	37 858	40 248	39 543	39 199	37 619	40 103	41 092	41 978	42 653
Toshkent sh.	37 889	38 072	41 647	42 225	42 802	43 879	43 150	45 548	50 285	54 401	63 034

Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

**O'lganlar soni – Jami (yilda; kishi)**

Hududlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>143 253</b>	<b>145 988</b>	<b>145 672</b>	<b>149 761</b>	<b>152 035</b>	<b>154 791</b>	<b>160 723</b>	<b>154 913</b>	<b>154 570</b>	<b>175 625</b>	<b>174 541</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 184	8 208	8 134	8 157	8 094	8 396	8 661	8 602	8 461	9 164	8 756
Andijon	13 933	14 160	14 188	14 519	14 860	15 084	16 122	15 377	14 656	15 797	16 409
Buxoro	7 521	7 486	7 662	7 708	7 976	8 013	8 336	7 978	8 335	10 055	9 129
Jizzax	4 554	4 746	4 895	5 109	5 348	5 433	5 760	5 596	5 519	6 021	5 930
Qashqadaryo	10 895	11 010	11 044	11 961	11 954	12 553	13 201	13 023	12 661	13 911	14 981
Navoiy	4 107	4 153	4 103	4 188	4 110	4 401	4 472	4 161	4 378	5 038	4 848
Namangan	11 174	11 551	11 407	11 848	12 236	12 276	13 066	12 200	12 534	13 536	13 542
Samarqand	14 605	15 002	15 227	15 381	15 895	16 146	16 661	16 254	16 444	18 404	18 808
Surxandaryo	9 023	9 309	9 503	9 702	9 887	10 380	11 330	10 698	10 544	11 931	12 786
Sirdaryo	3 465	3 645	3 648	3 719	3 786	4 012	4 032	3 794	3 852	3 958	4 173
Toshkent	15 455	15 990	15 809	16 215	16 251	16 281	16 470	16 307	16 035	18 400	18 121
Farg'ona	16 708	16 824	16 696	17 280	17 437	17 141	17 927	16 975	17 202	18 540	18 703
Xorazm	7 084	7 675	7 269	7 780	7 855	8 158	8 324	8 203	8 467	9 671	9 463
Toshkent sh.	16545	16229	16087	16194	16346	16517	16361	15745	15482	21199	18892

Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

*Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:*

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noшиr нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -T.: «Иновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://deathmeters.info/>
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

**7-Amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishi va demografik o'tish bosqichlari.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda aholi takror barpo bo'lishi, uning sabab va oqibatlari, hududiy tafovutlari, dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishi geografiyasi, dunyo mamlakatlarida aholining o'sish sur'atlari va dinamikasi, demografik o'tish bosqichlari va uning jahon davlatlaridagi tafovutlari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

*Amaliy mashg'ulot topshiriqlari*

1. Dunyo mamlakatlarida aholining takror barpo bo'lishi haqida tushuncha bering.
2. Dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishining hududiy tafovutlarini tahlil qiling.
3. Dunyoda aholi takror bo'lishiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qiling.
4. Aholi takror barpo bo'lishini ko'rsatkichlarini tahlil qiling.
5. Demografik o'tish tushunchasi va uning bosqichlari.

**Qo'shimcha topshiriqlar:**

1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.

- **Aholining takror barpo bo'lishi** (ingl. Reproduction of population) - Bunda bir avlod vakillarining yangi bir avlod vakillari bilan uzluksiz almashinishi orqali ma'lum kishilar miqdorining doimiy yangilanib borish jarayoni tushuniladi. Aholi takror barpo bo'lishi mohiyatan uni tashkil etuvchi ikki jarayonning o'zaro ta'siri hisoblanadi: tug'ilish va o'lim.

- **Aholining qisqargan takror barpo bo'lishi** – bu turda hayotni tark etayotgan avlodning mutlaq soni hayotga kirib kelayotgan avlod sonidan ortiq bo'ladi. Aholi takror barpo bo'lishining bunday turi aholisining tabiiy o'sishi nolga teng yoki o'lim tug'ilishdan ko'p bo'lgan mamlakatlar uchun xos. Demografiyada bu “depopulyatsiya” (fransuzcha “depopulatin” so'zidan) yoki “demografik inqiroz”, deb ataladi. Aholining qisqargan takror hosil qilinishi xos bo'lgan mamlakatlarga fuqarolarining qirilib ketish xavfi tahdid soladi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda aholining qisqargan takror barpo bo'lishi, odatda, urbanizatsiya oqibatlari sifatida ko'riladi. Chunki ana shunday jamiyatlarda farzandlar ota-onalar uchun “ortiqcha” bo'ladi. Ma'lumki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishi taraqqiy etgan. Ushbu ishlab chiqarishlar uchun yuqori malakali mutaxassislar talab qilinadi. Ana shunday xodim-larni tayyorlashga ularni 21-23 yil davomida o'qitish lozim. Shu bilan birga oilada ikkinchi yoki uchinchi farzand ko'rishga ayollarning ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatga keng jalb etilganligi “xalaqit” beradi.

- **Aholining oddiy takror barpo bo'lishi** – bu turda ota-onalari avlodini almashtirayotgan farzandlar avlodining mutlaq soni teng bo'ladi. Bunday jamiyatda barqaror jins-yosh tarkibi shakllanadi. Shuning uchun uni “muqim tur”, deb ham ataladi. Aholining mazkur takror barpo bo'lishi uchun tug'ilish va o'limning, shuningdek, aholi tabiiy o'sishining past ko'rsatkichlari xos bo'ladi. Bunday holatda aholining umumiy soni ko'paymaydi, ayrim noqulay vaziyatlar yuzaga kelsa, jamiyat aholining qisqargan takror barpo bo'lishi turiga o'tib ketishi ehtimoli katta. Ular uchun quyidagilar xos: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi; oilalarda daromadning ortib borishi, farzandlar sonining kamayishi; urbanizatsiya darajasining yuqoriligi (75,0 %gacha); jamiyatda ayollar maqomi va rolining ortishi; jamiyatda yangi qadriyatlar shakllanishi; aholi tarkibida katta yoshdagi aholining ko'payishi va boshqalar.

- **Aholining kengaygan takror barpo bo'lishi** – bu turda hayotni tark etayotgan avlodning mutlaq soni hayotga kirib kelayotgan avlod sonidan ortiq bo'ladi. Natijada aholining jins-yosh tarkibining taraqqiy etuvchi turi shakllanadi, uning mutlaq soni ortib boradi. Bunday tur uchun tug'ilishning va aholi tabiiy o'sishining yuqori, o'limning nisbatan past ko'rsatkichlari xos bo'ladi. Aholining kengaygan takror barpo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy sabablari quyidagilardan iborat: iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining pastligi, iqtisodiyot-da qishloq xo'jaligining katta salmoqqa egaligi; urbanizatsiya darajasining nisbatan pastligi (41,0 %gacha, qishloq joylarida tug'ilish yuqoriroq darajada bo'ladi); ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xosligi, ko'p farzandlikni rag'batlantiradigan diniy aqidalar; ayollarning kamsitilishi, nikohlarning erta tuzilishi; zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan epidemiya kasalliklariga qarshi kurashda foydalanish, sanitariya madaniyatining ortishi; musulmon mamlakatlarida oila rejalashtirilishining man etilishi va boshqalar.

- **Demografik portlash** (ingl. Population/Demographic explosion) – demografik o'tishni bildiruvchi aholini takror barpo bo'lishining oraliq turini o'rnatilishi natijasida aholi sonining o'sishini keskin tezlashishi. Odatda, bu davrda o'lim darajasining pasayishi tug'ilishning pasayishidan ancha ustundir, natijada aholining jadal o'sishi kuzatiladi, va bu holat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining obyektiv talablari

bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Demografik portlash vaqtinchalik hodisa. Demografik o‘tish davrida tug‘ilish va o‘lim turlari va tartibining buzilgan muvofiqligi qayta tiklanadi, aholining takror barpo bo‘lishining oraliq turi asosiyga o‘zgaradi va demografik portlash to‘xtaydi.

- **Depopulyatsiya** (ingl. Depopulation) – mamlakatlar va hududlar aholisi mutloq sonining kamayishi yoki uning qisqargan aholi takror barpo bo‘lishi, bunda kelayotgan avlod vakillari o‘zidan oldingi avlod vakillaridan kam bo‘ladi. Aslida agar o‘limning umumiy koeffitsiyenti tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti kattaligidan ortib ketsa, depopulyatsiya boshlanadi, ya’ni aholining kamayishi kuzatiladi. “Depopulyatsiya” atamasi odatda aholi takror barpo bo‘lishi tartibini bildirib, aholi takror barpo bo‘lishi netto koeffitsiyenti qiymati birdan kam bo‘lganligini ifodalaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlarda depopulyatsiya demografik inqirozning bir ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Depopulyatsiya shuningdek, urushlar, epidemiyalar, halokatli talofatlar tufayli ham sodir bo‘lishi mumkin.

- **Demografik inqilob** (Ingl. Demographic revolution) – Tarixiy rivojlanish jarayonida aholi takror barpo bo‘lishidagi tub o‘zgarishlarni izohlash uchun kiritilgan atama. Zamonaviy demografiyada “demografik inqilob” atamasi o‘rniga qoida tarzda “demografik o‘tish” atamasi ishlatiladi. Shu bilan birga, aholi takror barpo bo‘lish jarayonidagi bosqichma-bosqich sifatli o‘zgarishlarni o‘zida ifoda etadigan demografik inqilobni demografik o‘tishning eng avj nuqtasi sifatida qarab chiqib, demografik inqilob va demografik o‘tishga ajratiladi.

- **Demografik o‘tish** (Ingl. Demographic transition) – zamonaviy demografiyada aholi takror barpo bo‘lish turlari almashinishini izohlash uchun qo‘llaniladigan konsepsiya. XIX asrning oxiriga kelib, insonlarda tug‘ilish va o‘lim darajasi biologik qonuniyatlar bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan belgilanadi, shu bilan birga tarixiy rivojlanish jarayonida aholi takror barpo bo‘lishi turlarida chuqur sifatli o‘zgarishlar yuz beradi. Aholi takror barpo bo‘lishi turlarining toifasi va o‘zining zamonaviy ko‘rinishi ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichiga xos bo‘lgan demografik jarayonlar (tug‘ilish, o‘lim, nikoh) jadalligining umumiylikini o‘z ichiga oladi. BMTning demografik prognozlarida demografik o‘tishning 4 ta bosqichi ajratilib ko‘rsatiladigan sxemadan foydalaniladi, uning yakuniy natijasi sifatida aholi soni o‘sishi barqarorlashadi. Birinchi bosqichda o‘lim koeffitsiyenti pasayishi tug‘ilish koeffitsiyenti pasayishidan o‘zib ketadi, natijada, aholi tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti eng yuqori darajaga ko‘tariladi. Ikkinchi bosqichda o‘lim koeffitsiyenti kamayishda davom etib, eng quyi darajaga yetadi, biroq tug‘ilish koeffitsiyenti undan ham tezroq kamaygani bois, aholining o‘sishi asta sekinlashadi. Uchinchi bosqich uchun aholi qarishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘lim koeffitsiyentining ko‘tarilishi va ayni vaqtda tug‘ilishning kamayishi xos bo‘ladi. Uchinchi bosqichning oxiriga kelib, tug‘ilish koeffitsiyenti oddiy aholi takror barpo bo‘lishi darajasiga yaqinlashadi, o‘lim koeffitsiyenti esa bu darajadan pastligicha qoladi. To‘rtinchi fazada o‘lim koeffitsiyenti ko‘tariladi, tug‘ilish koeffitsiyenti bilan yaqinlashadi, demografik barqarorlashish jarayoni yakuniga yetadi.

- Demografik o‘tish konsepsiyasi quyidagi tezislariga asoslangan:
  - ✓ 1) barcha jamiyatlarda tug‘ilishning turi iqtisodiy jihatdan ratsional bo‘lib, oila turi va oiladagi iqtisodiy munosabatlar tabiati bilan belgilanadi;
  - ✓ 2) agrar iqtisodiyot umumiy iqtisodiy faoliyat asosida birlashgan yaqin qarindoshlar guruhidan iborat katta oilaga asoslanib, bunday oilada ne‘matlar oqimi kichik avlodlardan kattalarga tomon yo‘naltiriladi, bu esa tug‘ilish o‘sishining iqtisodiy asoslanishini ta‘minlaydi.

✓ 3) industrial iqtisodiyot oilani jamiyatning asosiy iqtisodiy bo'g'ini sifatidagi vazifasidan mahrum etadi, oila nuklear oilaga aylanadi va bu farzandsizlikni keltirib chiqaradi;

✓ 4) an'anaviyo'ziga xos tug'ilish turiga ega bo'lgan katta oila, ijtimoiy ishlab chiqarishning industrial shakllanishiga moslasha oladi.

• Demografik o'tish to'g'risidagi tasavvurda aholi takror barpo bo'lishi tarixiy turlarining ijtimoiy jihatdan asoslangan almashinuvi sifatida qaralishi – bu demografiya fanidagi muhim nazariy yo'nalishi hisoblanadi, ammo demografik mayli, tizimi, sharoitlarini va o'z navbatida, muayyan ijtimoiy va iqtisodiy omillardan kelib chiqqan holda, aholi takror barpo bo'lishi turlari shakllanishini tushuntirib beruvchi umum tan olingan yo'riqnomaga ega emas.

• **Demografik inqiroz** – aholining takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar tufayli sodir bo'ladigan jarayon. Demografiya tarixida XIX asrning oxiriga qadar demografik inqirozga ocharchilik, epidemiya va urushlar sabab bo'lgan. Bu omillarga tayangan holda aholining o'limi ortgan va o'z-o'zidan aholi sonining kamayishiga, dunyoning ba'zi mamlakat va mintaqalarida, alohida hududlarda umuman odamlarning qirilib ketishiga olib kelgan. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tug'ilish sonining keskin pasayishi aholi mutlaq sonining kamayishiga, ya'ni demografik inqirozga olib keldi.

***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography. - Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народнонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://deathmeters.info/>
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

## 8-Amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlari demografik siyosati (bironta davlat misolida).

**Ishdan maqsad:** Talabalarda demografik siyosat, uning mohiyati, maqsadi, tarixi, samaradorligi va vazifalari, demografik siyosat o'tkazish usullari, tug'ilish, o'lim jarayonlarida olib borilayotgan sisosatlar, dunyo mamlakatlaridagi demografik siyosatlar xilma-xilligi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

### *Amaliy mashg'ulot topshiriqlari*

1. Demografik siyosat haqida tushuncha bering.
2. Demografik siyosat o'tkazish usullari.
3. Demografik siyosatning maqsadi, tarixi va vazifalari.
4. Dunyo mamlakatlaridagi demografik siyosat xilma-xilligini tahlil qiling.
5. Xitoy, Hindiston, Pokiston, Rossiya, Germaniya va O'zbekistondagi demografik siyosatni tahlil qiling.

### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

1. **Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

• **Demografik siyosat** (Ingl. Demographic policy) – aniq belgilangan ijtimoiy sohalarga, shu jumladan demografik jarayonlarga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir etish vositasi (mexanizm). Demografik siyosat deganda, hokimiyat tuzilmalari darajasida umumqabul qilingan g'oyalar tizimi tushuniladi va konseptual tarzda birlashtirilgan vositalar yordami bilan davlat, shuningdek, boshqa jamoat institutlari mamlakatning hozirgi hamda kelgusi rivojlanish bosqichlarida aniq maqsadlarga erishishni o'z zimmasiga oladilar. Demografik siyosat umumiy ijtimoiy siyosatning bir qismi hisoblanadi. Konsepsiya va harakatlar dasturi (rejalar) demografik siyosatning ikki ajralmas, holbuki, mazmuni bo'yicha turlicha bo'lgan qismlarini tashkil etadi.

• **Demografik sig'im** hudud resurslari hisobidan aholining eng muhim kundalik ehtiyojlari qondirilgan taqdirda aholining shu hududda yashashi mumkin bo'lgan eng ko'p sonini anlatadi. Demografik sig'imni o'rganish, odatda, aholining optimal sonini yoki zichligini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda demografik sig'imni aniqlash yo'llari va usullari turlicha bo'lishi mumkin.

• **Demografik oyna** – mehnatga layoqatli yoshdagi aholining nisbati eng katta bo'lgan mamlakatning demografik rivojlanishidagi vaqt davri. Bunday holatda aholi yosh bo'lib, mehnatga layoqatli aholining ulushi maksimal darajaga etganida va demografik yuk koeffitsienti mehnatga layoqatli aholining har 100 kishiga 50 dan kam bo'lganida, ya'ni qaramog'ida bo'lganlardan ikki baravar ko'p ishchi kuchi bo'lganida mumkin bo'ladi. Qoida tariqasida, qulay imkoniyatlarning demografik oynasi 30-40 yil davomida ochiq qoladi.

• **Demografik statistika** (ingl. Demographic statistics, Population statistics) – aholi soni, tarkibi, joylanishi, takror barpo bo'lishi va demografik jarayonlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil etish. Demografik statistika aholi va demografik hodisalarni (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish) statistik kuzatuv usullari, shu bilan birga aholi ro'yxati o'tkazish, demografik hodisalar va migratsiyaning joriy hisobi usullarini ishlab chiqadi. Mamlakatlar yoki uning mintaqalari aholisining holati, ya'ni uning soni, yoshi, jinsi, nikoh holati bo'yicha taqsimlanishi hamda boshqa



belgilari xaqidagi ma'lumotlari aholi ahvolidning lahzalik suratini beradigan aholi ro'yxati asosida olinadi.

• **Demografik siyosatni o'tkazish uslublari.** Davlatning demografik siyosatini o'tkazishda ma'muriy-huquqiy iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik uslublardan foydalaniladi. Ma'muriy-huquqiy uslubda aholining takror hosil bo'lishini tartibga solishga qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat organlari va ijtimoiy institutlar orqali ta'sir ko'rsatiladi. Oila-nikoh munosabatlari, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, gender siyosatiga doir qonun hujjatlari, hukumat dasturlari va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtisodiy uslub tug'ilish darajasini oshirishni rag'batlantirish, umr ko'rish davomiyligini uzaytirishga qarartilgan shart-sharoitlarni yaxshilashni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi tadbirlarni qamrab oladi. Davlatning demografik siyosatini amalga oshirishning ijtimoiy-psixologik uslubi aholini "demografik tarbiyalash", deb ham ataladi. U fuqarolarning oilaga, oila tarkibiga, sog'lom turmush tarziga munosabatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ayniq-sa, ota-onalarning "demografik savodxonligi"ga katta e'tibor beriladi. Demografik tarbiyaning yana bir muhim yo'nalishi aholining demografik mayliga ta'sir ko'rsatishdir. Demografik tarbiyalash, asosan, ijtimoiy institutlar, ta'lim va targ'ibot muassasalari, ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi.

• **Demografik siyosat** davlat organlari va ijtimoiy institutlarning aholini takror hosil jarayonlarini tartibga solish sohasidagi aniq maqsadni ko'zlagan faoliyatidir. Uning tarkibi siyosiy faoliyat boshqa sohalarda bo'lgani kabi ikki muhim va o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan: demografik maqsadlarni belgilash hamda ularni amalga oshirishdan iborat. Demografik siyosatning maqsadi va vazifalari, qoida bo'yicha, qonunlar, hukumat qarorlari, siyosiy va strategik dasturlar, joriy rejalarda o'z ifodasini topadi.

• **Demografik siyosatning obyekti** – umuman mamlakat yoki uning mintaqalari aholisi, oilalar, uy xo'jaliklaridir. Demografik siyosatning asosiy yo'nalishlari, odatda, quyida-gilarni qamrab oladi: oila, ona va bolalarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish; ayollarning oilaviy vazifalarni bajarishlarini ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; aholining kasallanishi va o'lim darajasini kamaytirish, umr ko'rish davomiyligini uzaytirish uchun zarur choralarni ko'rish; aholining turmush darajasi va turmush sifatini oshirish; aholining joylashishi, urbanizatsiya jarayonlarini takomil-lashtirish; migratsiya jarayonlarini tartibga solish.

• **Demografik dividend** (Ingl Demographic dividend) – "Demografik imkoniyatlar darcha"sidan samarali foydalanish natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu natija o'z-o'zidan emas, balki, mehnat bozorida va kasb-hunar ta'limi sohasida muvofiqlashtirilgan samarali siyosatlarni olib borish zaruriyati bilan belgilanadi. Aks holda, bu imkoniyatlar tahdidlarga aylanishi mumkin.

## 2. Quyidagi jadvalda tug'ilishni rag'batlantiruvchi va cheklovchi demografik siyosat olib boruvchi davlatlarni aks ettiring

№	Tug'ilishni rag'batlantiruvchi demografik siyosat olib boruvchi davlatlar	Tug'ilishni cheklovchi demografik siyosat olib boruvchi davlatlar
1.		
2.		

3.		
4.		
5.		
...		

***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народнонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. “Aholi geografiyasi”. Darslik. – Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://deathmeters.info/>
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>
16. <https://www.rus-lib.ru/book/31/eb/08/170-190.html>
17. <https://www.un.org/development/desa/pd/content/population-policies-0>
18. <https://www.un.org/development/desa/pd/data/world-population-policies>

## **9-Amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlari aholisi migratsiya jarayonlari va demografik siyosati.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda aholi migratsiyasi, uning turlari va omillari, migratsiya oqibatlari, dunyoda aholi migratsiyasi jarayonini holati, uning salbiy va ijobiy oqibatlari, migratsiyaning davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tasiri, uning mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari, migratsiya samaradorligi, migratsiya aylanmasi, migratsiya saldosi, aholi migratsiyasining O'zbekistondagi holati haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

### ***Amaliy mashg'ulot topshiriqlari***

1. Aholi migratsiyasi, uning turlari va omillariga yozma tavsif bering.
2. Dunyo mamlakatlarida aholi migratsiya jarayonlarini hududiy tafovutlarini tahlil qiling.
3. Aholi migratsiyasining ijobiy va salbiy tomonlarini tushuntiring.
4. Aholi migratsiyasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari haqida tushuncha bering.
5. Migratsiya siyosati haqida tushuncha bering.
6. Dunyo mamlakatlarida olib borilayotgan migratsiya siyosatini tahlil qiling.

### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

#### **1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

- **Migratsiyani hisobga olish** (ingl. Migration records) – bu migrantlarning yashash joyini o'zgartirish hodisasini joriy tartibda aholining maxsus tadqiqotlarida va ro'yxatga olish davrida qayd etish orqali amalga oshiriladi.

- **Mehnat migratsiyasi** (ingl. Labour migration) – bu ish qidirib topish va bandlik bilan bog'liq hudud bo'ylab odamlarning almashinishini o'zida ifodalaydigan migratsiyaning bir turi. Bu mamlakat ichida va shu bilan birga mamlakatlar o'rtasida amalga oshishi mumkin. Mehnat migratsiyasi mamlakat ichidadoimiy, ya'ni yashash joyini o'zgartirishi bilan; yoki vaqtincha, ya'ni yashash joyini o'zgartirmasdan (bunday holda mehnat migratsiyasining epizodik, mavsumiy, mayatniksimon shakllarini ajratish lozim) amalga oshishini taqozo etadi. Xalqaro mehnat migratsiyasi ham doimiy bo'lishi mumkin, ya'ni doimiy yashash uchun bir davlatdan boshqa davlatga ko'chishi bilan bog'liq. Muddatiga ko'ra cheklangan (bunday holda, nemischadan “mehmon ishchilar”, «gastarbeiter» termini ishlatiladi), kontrakt bo'yicha; mavsumiy migratsiya, chegara oldi ishchilari migratsiyasi («frontalerlar»)da mehnat migratsiyasi vaqtincha xarakter kasb etadi.

- **Migratsiya qoldig'i** (saldosi) (ingl. Net migration) – kelganlar va ketganlar soni o'rtasidagi farq migratsion ko'payish, migratsiya qoldig'i va netto migratsiya, deb nomlanadi. Agarda aholining tabiiy ko'payishi (kamayishi) va umumiy ko'payishi (u xaqida nisbatan aniq ma'lumotlarni aholi ro'yxati o'rtasidagi davr uchun olish mumkin) haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, migratsion ko'payish umumiy va tabiiy ko'payish o'rtasidagi farqi sifatida topiladi.

- **Migratsion oqim** (angl. Migration flow) – bu migratsiya yo'nalishi ko'rsatkichlaridan biri. U muayyan berilgan vaqt davomida kirish va chiqish umumiy rayonlariga ega bo'lgan migrantlarning (yoki migratsiya) jami miqdorini o'zida ifodalaydi. Asosiy migratsion oqimlaridan tashqi va ichki migratsiyani ajratish mumkin, biroq ular tarkibidan bir butun muayyan oqimlar (masalan, tashqi migratsiyadan Rossiyaga yoki Turkiyaga, ichkidan qishloq-shahar migratsiyasi, shahar joylar ichida, ya'ni, shahar va shahar tipidagi posyolka o'rtasida; qishloq joylar ichida, qishloq aholi manzilgohlari o'rtasida va boshqalar) vujudga keladi. Migratsiya jarayonlarini tahlil qilganda, tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, har qanday mintaqaga kelganlar umumiy sonidan har bir boshqa mintaqalardan kelganlar oqimini ajratish mumkin. Migratsion oqimlar, bir-biriga qarama-qarshi, ya'ni to'g'riga va orqaga bo'linadi. Ular miqyosiga ko'ra teng bo'lmasligi mumkin. Bir biriga qarama-qarshi bo'lgan oqimning o'lchamiga ko'ra kattasi hukmron migratsion oqim, ikkinchisi esa kamroq shiddatli, deb nomlanadi. Migratsiya jarayonlarini tahlil qilish, migratsiya yo'nalishlarini aniqlash, mamlakatda migratsiya jarayonlarini ixchamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish uchun zarurdir. Bu migratsiya koeffitsiyentlari yordamida amalga oshiriladi.

• **Migratsion salohiyat** (ingl. Migration potential) (lotinchadan potential – kuch, qudrat) – bu, mamlakatlarga kelib joylashayotgan migrantlarning tarkibiga qulay munosabatidan va migratsion oqimlarini mamlakatdan yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, aholi sonining immigratsiya imkonini baholash.

• **Migratsion salohiyat** deganda, qabul qiluvchi mamlakatlar uchun donor mamlakatlardagi migratsion resurslarning mavjudligi ham tushuniladi. Ammo uning holati nafaqat donor mamlakatlarning imkoniyatlariga, balki qabul qiluvchi mamlakatlar uchun migrantlarning ma‘qul keladigan tarkibiga, shu bilan birga ularni qabul qilishdagi yo‘lga qo‘yilgan sharoitlarga bog‘liq. Ushbu keltirilganlarga asosan, qoida tariqasida, davlat manfaatlariga mos keladigan, puxta o‘ylangan qarorlar qabul qilinadi.

• **Migratsiya siyosati** (ingl. Migration policy) – bu turli xil ijtimoiy jarayonlarga, jumladan ular tarkibiga kiradigan aholi migratsiyasiga ta‘sir o‘tkazadigan vositadir. Bu hokimiyat tuzilmalari darajasida umum qabul qilingan g‘oyalar va konseptual jihatdan birlashgan vositalar tizimi bo‘lib, uning yordamida eng avvalo davlat, shuningdek, boshqa jamoat institutlari muayyan prinsiplarga rioya qilgan holda qo‘yilgan maqsadga erishishni o‘z zimmasiga oladilar. Siyosat davlatning asosiy poydevorini (konstitutsiya, xalqaro huquqiy hujjatlar, va boshqalar) tashkil etadigan prinsiplarga muvofiq olib borilishi lozim. Siyosat faqat chora-tadbirlar tizimi bilan chegaralanmaydi, holbuki kechagina unga mazkur jarayonni boshqaruvchi tadbirlar to‘plami sifatida munosabatda bo‘linar edi. Migratsiya siyosati har qanday boshqa siyosatlar singari uchta tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi, birinchisi – bu konsepsiya. U aholi migratsiyasi bo‘yicha dasturiy hujjatlarni va demografik jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha shakllantirish mumkin bo‘lgan huquqiy, axloqiy va mafkuraviy makon chegaralarini belgilaydigan qarashlarning tizimi, migratsion siyosatning poydevori hisoblanadi<sup>34</sup>.

• **Migrant** (ingl. Migrant) (lotinchadan. migrans /migrantis/ – ko‘chib joylashmoq) –bu aholi migratsiyasini ilm fan sifatida keng ta‘riflashda, turistik joylarga, rekratsion va ish maqsadida boshqa aholi punktiga qisqa safar uyushtiradigan, yohud muntazam (har kuni, har hafta) ikkita aholi manzilgohi o‘rtasida mokisimon almashinadigan, yohud turli muddatlarga (bir oy va undan ko‘p) doimiy yashash joyini boshqa joylarda vaqtincha ishlash uchun tashlab ketadi, yoki doimiy yashash uchun ko‘chib borib joylashadigan har qaysi inson migrant hisoblanadi. “Migrant” tor ma‘noda — bu doimiy yashash joyini o‘zgartirib, boshqa joyga (aholi punkti) ko‘chib kelgan kishi. Migrantning oldingi yashab turgan aholi punktidan chiqib ketishi uning ichki ishlar organlari pasport stolida (avval – chiqish va ro‘yxatga qo‘yish) registratsiyasi o‘chirilishi bilan, ko‘chib kelishi esa yangi yashash joyiga doimiy registratsiya qilinishi bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda chiqib ketish, ikkinchi holatda kirib kelish varag‘i to‘ldiriladi.

• **Migratsiya jadalligi** (ingl. Migration intensity) – migratsion jarayonlarning jadalligi koeffitsiyentlari eng ko‘p qo‘llaniladigan nisbiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Ular turli tumanlarda aholining migratsion harakatchanligini solishtirishga imkon beradi. Jadallik ma‘lum muhitdagi qandaydir hodisaning qaytalanishini tavsiflaydi va to‘g‘ri kasrda, ya‘ni bunda alohida turdagi hodisalar soni suratida, asosiy to‘plam maxrajida ifodalanadi. Bu ko‘rsatkichlar kelganlar (chiqib ketganlar, migratsion aylanama, saldo migratsiya) sonini aholining o‘rtacha yillik soniga bo‘lish orqali aniqlaniladi. Ular foizlarda yoki promilleda, aniqrog‘i hisoblashda har 100 yoki har 1000 aholiga nisbatan ifodalanadi.

<sup>34</sup> Демографический понятийный словарь /Под ред. проф. Л.Л. Рыбаковского. – М.: ЦСП, 2003, – стр.170).

• **Migratsiya jarayoni uchun bosqichliligi konsepsiyasi** - T.I.Zaslavskaya va L.L.Rûbakovskiy tomonidan 1970-1980 yillarda ishlab chiqilgan boʻlib, shundan kelib chiqadiki, aholi migratsiyasi (qaytarilmaydigan) makon boʻyicha qayd qilingan bir qator migratsiya hodisalarini ifodalaydigan jarayon hisoblanadi:

- boshlangʻich bosqich (potensial migratsiya);
- asosiy bosqich (aholining koʻpayib ketishi);
- yakuniy bosqich (koʻchib kelgan joyda yashab ketish).

***Amaliy mashgʻulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. Oʻquv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. Oʻquv qoʻllanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. “Aholi geografiyasi”. Darslik. – Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Doʻsmonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://deathmeters.info/>
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

## **10-Amaliy mashgʻulot. Oʻzbekiston demografik rivojlanishi.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda Oʻzbekiston aholisining demografik rivojlanishi, bugungi holati, tugʻilish, oʻlim va tabiiy oʻsishi, ularning hududlar boʻyicha xilma-xilligi, asosiy sabablari va oqibatlarini haqida bilim va koʻnikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** Oʻquv uslubiy majmua, xarita, internet maʼlumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qoʻshimcha adabiyotlar.

### ***Amaliy mashgʻulot topshiriqlari***

1. Oʻzbekistonda aholining demografik rivojlanish tarixi.
2. Oʻzbekiston aholisining bugungi kundagi demografik holatini tahlil qiling.
3. Oʻzbekistonda tugʻilish, oʻlim va tabiiy oʻsish koʻrsatkichlari tahlili va hududiy tafovutlari.


4. Viloyatlarning aholi soni, zichligi, tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarini aks ettirgan jadval tuzing va tahlil qiling.
5. O'zbekistonda aholining migratsiyasi, urbanizatsiyasi, milliy tarkibi, ijtimoiy tarkibi, jins va yosh tarkibini tahlil qiling.

**Qo'shimcha topshiriqlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi zichligini yozuvsiz xaritaga tushuring.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi zichligi**

(2022- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi).



**2. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

✓ **Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

✓ **Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

✓ **Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

✓ **Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

✓ **Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

✓ **1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

✓ **1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

✓ **Go‘daklar o‘limi** – hayotining birinchi yilida sodir bo‘lgan bolalar o‘limi hodisasi.

✓ **O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

✓ **Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

✓ **1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

✓ **Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

✓ **Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlar iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

✓ **Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

*Amaliy mashg‘ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:*

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O‘quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O‘quv qo‘llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. “Aholi geografiyasi”. Darslik. – Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do’smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>

## **11-Amaliy mashg'ulot. Viloyatlar doirasida aholi tabiiy harakat ko'rsatkichlarini hisoblash.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda O'zbekiston viloyatlari doirasida aholi tabiiy harakat ko'rsatkichlarini hisoblashni o'rganish va hisoblash natijalarini umumlashtirib bashoratlar qilish, ko'rsatkichlarni hisoblash metodlari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

### *Amaliy mashg'ulot topshiriqlari*

1. Viloyatlar doirasida aholi zichligi, aholining o'rtacha yoshi va demografik yuk koeffitsientini hisoblash va tahlil qilish.
2. Viloyatlar doirasida aholining tug'ilish va o'lim koeffitsientlarini hisoblash va tahlil qilish.
3. Viloyatlar doirasida bolalar o'limi koeffitsientini hisoblash va tahlil qilish.

### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

#### **1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

• **Aholining zichligi** (ingl. Population density) – muayyan hududda aholining joylanish darajasi, yer maydoni (odatda 1 km.kv.) birligiga to'g'ri keladigan doimiy aholi soni. Keltirilayotgan aholining fizik zichligi ko'rsatkichi bilan bir qatorda demografiyada boshqa ko'rsatkichlar ham ishlatiladi. Masalan, shaharlar aholisi zichligi (aholining shaharda mujassamlashuvi), sug'oriladigan, ekin ekiladigan yerga to'g'ri keladigan aholi zichligi va boshqalar.

• **Demografik xavfsizlik** (Ingl. Demographic security) – bu hayot jarayonini va avlodlarning to'xtovsiz ravishda tabiiy qayta tiklanishini, tashqi omillarning asossiz ta'siridagi aholi takror barpo bo'lishi uchun yetarli bo'lgan shunday demografik jarayonlarni, davlatning geosiyosiy qiziqishlarini inson resurslari bilan taminlashni himoyalanganlik holatidir. Aholi bu yerda asosiy obyekt sifatida namoyon bo'lib, u siz siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va milliy xavfsizlikning boshqa turlari amaliy ahamiyatga ega emas. Insonlargagina faqat tegishli bo'lgan har qanday tahdidlarning real ko'rinishi, natijada, jamiyat hayotiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

• **Urbanizatsiya** (ingl. Urbanization) (frans. urbanisation, angl. urbanization, lotincha. urbanus – shaharlik, urbs – shahar) – jamiyat rivojlanishida shaharlar roli ortishining tarixiy jarayoni bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdagi o'zgarishlarni, eng avvalo aholi manzilgohlari joylanishi, uning ijtimoiy kasbiy, demografik tarkibi, turmush tarzi, madaniyati va boshqalarni qamrab oladi. Urbanizatsiya-ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining tarixan qo'shilgan shakllari asosida ro'y beradigan ko'p tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va geografik jarayondir. O'ta tor demografik-statistik ta'rifga ko'ra, urbanizatsiya-bu shaharlarning, ayniqsa, katta shaharlarning o'sishi, mamlakatda, mintaqada, dunyoda shahar aholisi salmog'ining ortishidir (aholining urbanizatsiyasi)<sup>35</sup>.

<sup>35</sup> (Демографический понятийный словарь /Под ред. проф. Л.Л. Рыбаковского. – М.: ЦСП, 2003, – стр. 311).



- **Urbanizatsiya** (lotincha “urbs” – “shahar” soʻzidan) – jamiyatni rivojlantirishda shahar rolining ortishi jarayonidir. Shaharlarda sanoatning rivojlanishi, ularning siyosiy va madaniy funksiyalari-ning kengayishi, hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi ana shu jarayon xususiyatlaridir. Urbanizatsiya uchun shahar atrofidagi qishloq-lardan shaharlarga, kichik shaharlardan megapolislarga tebranishli migratsiya xosdir.

- **Yosh** – bu insonning tugʻilishidan to uning hayotidagi u yoki bu daqiqasigacha oqib oʻtgan vaqtdir. Yosh yillarda, oylarda (hayotning birinchi yillarida), haftalarda (hayotning birinchi oylarida), kunlarda va soatlarda hisoblanadi. Yosh insonning tugʻilishidan boshlab uning oʻsishi, rivojlanishi, voyaga yetishi va qarishidan iborat hayot tavsifidir. Yaʼni yosh inson tugʻilgan vaqtdan soʻng kechgan umrining davomiyligidir.

- **Oʻrtacha yillik aholi** (ingl. Average annual population) – bir yildagi aholining oʻrtacha soni; aholining yil boshi va yil oxiridagi soni mavjud boʻlgan holda aholining oʻrtacha yillik miqdorining yarmi soni aniqlanadi yoki yil boshidagi aholi soni qoʻshilgan bir yildagi aholi soni koʻpayishining yarmiga; har oyning boshidagi aholi soni mavjud boʻlganda aholining oʻrtacha xronologik yillik soni hisoblanadi: bunda yil boshidagi aholi sonining yarmi yigʻindisidan 1/12, har oyning boshidagi soni va yil oxiridagi sonining yarmi olinadi.

- **Oʻlimning umumiy koeffitsienti** muayyan hududdagi aholining 1000 nafari hisobiga yil davomida oʻlganlar sonini ifoda qiladi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$m = \frac{M}{P} \times 1000 ,$$

bu yerda: M – oʻrganilayotgan davrdagi oʻlganlarning umumiy soni; R – oʻrganilayotgan davrdagi aholining oʻrtacha soni. Mazkur koeffitsient hisoblab chiqishning soddaligi va maʼlumotning mavjudligi sababli keng qoʻllaniladi. Ayni vaqtda, baʼzi millat vakillari hamda kichik hududiy aholi manzilgohlari uchun jins va yoshga oid aniq maʼlumotlarni olish imkoni boʻlmaganligi bois oʻlimning umumiy koeffitsienti oʻlim darajasini aniqlash va baholash uchun qoʻllaniladigan yagona uslub hisoblanadi.

- **Oʻlimning umumiy koeffitsiyenti** (ingl. Total mortality rate) – ushbu yilda har 1000 ta kishiga nisbatan oʻlganlar soni. Oʻlim koeffitsiyenti koʻp hollarda aholining yosh tarkibiga bogʻliq. Davlatlar oʻrtasida oʻlimni taqqoslaganda, sogʻliqni saqlash holati haqida, iqtisodiy ahvoli va atrof muhit sharoiti toʻgʻrisida xulosa qilishdan oldin, aholining yosh tarkibidagi farqlarni hisobga olish lozim.

$$O'UK = \frac{\text{o'rtacha o'lganlar soni}}{\text{o'rtacha yillik aholi soni}} * 1000$$

- **Demografik yuk koeffitsiyenti** (ingl. Age dependency ratio) – mehnatga layoqatsiz yoshdagi aholi sonining (15 yoshgacha va 65 yoshdan kattalar) mehnatga layoqatli yoshdagi (15 yoshdan 64 yoshgacha) aholi soniga nisbatini oʻzida ifoda etadi. Demografik yuk koeffitsiyentidan koʻp hollarda mehnatga layoqatli yosh chegarasidan tashqarida boʻlgan ayrim kishilar u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishda ishtirok etishi va ayni vaqtda iqtisodiy faollik yoshidagi shaxs boʻla turib amalda esa iqtisodiy qaram hisoblanishiga qaramasdan, mehnatga layoqatli aholiga tushadigan iqtisodiy yuk koʻrsatkichi sifatida foydalaniladi. Tugʻilish darajasi juda yuqori boʻlgan davlatlarning umumiy aholi sonida bolalar ulushining kattaligi bois, odatda eng katta demografik yuk koeffitsiyentiga ega boʻlishadi. Demografik yuk koeffitsiyenti baʼzan yuqori yoshdagi (65 yosh va undan katta aholi sonining 15 dan 64 yoshgacha yoshdagi aholiga nisbati)

shaxslarda demografik yuk va qaramoqda bo'lgan bolalar (15 yoshgacha bo'lgan yoshdagi aholining 15 dan 64 yoshgacha bo'lgan yoshdagi aholiga nisbati) yukiga bo'linadi.

$$K_{dyu} = \frac{15 \text{ yoshgacha bo'lgan aholi} + 65 \text{ yosh va undan katta yoshdagi aholi}}{15 \text{ yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan aholi}}$$

(Izoh: O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining yosh chegaralari ayollar uchun 16-54 yosh va erkaklar uchun 16-59 yoshbelgilangan)

- **Tug'ilishning yig'indi ko'effitsiyenti** (ingl. Total fertility rate) – bir ayol o'zining reproduktiv davri davomida yosh ko'effitsiyentlari hisoblangan yildagidek har bir yosh guruhida tug'ilish darajasi o'zgarish bo'lib qolgan sharoitda o'rta hisobda tug'ishi mumkin bo'lgan bolalar sonini ifodalaydi. TYK-tug'ilish darajasini baholash uchun eng foydali ko'rsatkichlardan biridir, chunki u hozirgi kunda ayollarning qancha farzandi borligi haqida eng yaxshi ma'lumot beradi. TYK barcha ayollar orasida ayni vaqtda mavjud bo'lgan o'rtacha tug'ilish darajasini ifodalaydi. Tug'ilishning yig'indi ko'effitsiyenti 4 – dan yuqori bo'lsa, ko'rsatkich baland, 2,15- dan kam bo'lsa past ko'rsatkich hisoblanadi.

- **Tug'ilishning umumiy ko'effitsiyenti** (ingl. Crude birth rate) -tug'ilish ko'effitsiyenti – shuningdek, tug'ilishning umumiy ko'effitsiyenti, deb ataladi) – mazkur yilda har 1000 ta aholi soniga nisbatan tirik tug'ilgan bolalar soni. Tug'ilish ko'effitsiyentlari kabi yillik ko'rsatkichlarning aksariyati demografik holat hisoblanib yil o'rtasidagi (1 iyul) holat bo'yicha yil davomidagi holatning o'rtacha ko'rsatkich hisoblanadi;

$$TUK = \frac{\text{tug'ilganlar soni}}{\text{aholining o'rtacha yillik soni}} * 1000$$

Tug'ilganlar soni aholi soni o'zgarishining tarkibiy qismlaridan biridir. Tug'ilish ko'effitsiyentini aholi soni o'zgarishining barcha omillarini hisobga olgan aholi soni o'sish sur'ati bilan adashtirmaslik lozim.

- **Tug'ilishning umumiy soni** (ingl. Total number of births) – umumiy tug'ilish (fertillik) ko'effitsiyenti orqali ifodalanadi va qo'yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$n = N/T * P * 1000,$$

bu yerda: T-davr (yil); P- aholini o'rtacha yillik soni; N-bu davrda tug'ilganlar soni. Umumiy tug'ilish darajasi promilleda (har 1000 kishiga nisbatan) hisoblanadi. Demograflarning fikriga ko'ra, tug'ilish umumiy ko'effitsiyenti darajasi 16-promilledan kam bo'lsa, past, 16 dan 24 promillegacha o'rtacha, 30 dan 39 promillegacha yuqori, 40-promilledan baland o'ta yuqoriligini ifodalaydi. Tug'ilishning umumiy ko'effitsiyentining qiymati nafaqat tug'ilishning intensivligiga, balki aholining yosh – jins va nikoh tarkibiga bog'liq bo'lib tug'ilish darajasi haqida umumiy ma'lumot beradi.

- **Demografik yuk** (ingl. Demographic burden) – bu aholi yosh tarkibining umumlashtiruvchi miqdoriy tavsifi bo'lib, mehnatga layoqatsiz aholi sonining mehnat yoshidagi aholi soniga nisbatini o'zida ifoda etadi. Demografik yukning umumiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, mehnatga layoqatli yoshdan kichik va mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi sonini mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbatini alohida ko'rib chiqish ham demografik, ham ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazaridan muhimdir.

- **Bolalar o'limi** (ingl. Child mortality) – bu tushunchaga nisbatan umumqabul qilingan mezon mavjud emas. Eng avvalo bu tushuncha go'daklar o'limi sinonimi sifatida ishlatilgan. Hozirgi vaqtda xalqaro solishtirishga ko'ra bolalar o'limi deganda 5

yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi tushuniladi. Tegishli ko'rsatkich hayot jadvali bo'yicha tug'ilganidan 5 yoshgacha o'lish ehtimoli sifatida hisoblanadi.

***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

**12-Amaliy mashg'ulot. Aholi soni dinamikasi, nisbiy va mutloq ko'rsatkichlarini, ko'payish suratlarini hisoblash.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda aholi soni va uning dinamikasi, aholi sonining nisbiy va mutloq ko'rsatkichlari, ko'payishi va ko'payish sur'atlarini hisoblash haqida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

***Amaliy mashg'ulot topshiriqlari***

1. Aholi soni dinamikasi haqida tushuncha bering.
2. Doimiy aholi sonini baholash va hisoblash va tahlil qilish.
3. Aholi sonining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari haqida tushuncha bering.
4. Tug'ilganlar va o'lganlar sonini hisoblash va tahlil qilish.
5. Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish.
6. Aholining o'sishi, kamayishi va o'sish sur'atlarini hisoblash va tahlil qilish.
7. Aholining tabiiy o'sish koeffitsientini hisoblash va tahlil qilish..

**Qo'shimcha topshiriqlar:**

## 1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.

- **Doimiy aholi** ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezonini sifatida olti oyga teng davr olinadi.

- **Doimiy aholi** (ingl. Resident/Permanent population) – bu ro'yxatga olish vaqtida aholini hisobga olishning asosiy toifasi bo'lib, ma'lum bir hududda doimiy yashovchilar, shu bilan birga, vaqtincha yashamayotgan fuqarolar, ya'ni ularning yo'q bo'lgan vaqti 6 oydan oshmagan odamlar to'plamini o'zida ifoda etadi. Bu termin yangi o'zlashtirilgan rayonlar aholisini differensiyalash uchun qo'llaniladi. Ushbu rayonlar aholisining shakllanishida sezilarli salmog'i migratsiyaga ham tegishli bo'ladi. Aholi uzoq yillar barqaror bo'lmaydi va migratsiyada jadal ishtirok etishadi. Bundan tashqari uning ma'lum bir qismi o'troqlashadi va doimiy yashovchilar tarkibiga o'tadi.

- **Aholi soni** (ingl. Population size) – ma'lum bir hududda yashaydigan, miqdor jihatdan o'lchanadigan odamlar to'plami; ma'lum hududda yashaydigan jamiyatning miqdoriy hajmini o'zida ifoda etadigan, mutloq lahzalik ko'rsatkich. Dunyoning har qanday mamlakati ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining tahlilida dastlabki asosiy ma'lumotlardan bo'lib, u eng keng tarqalgan umumiy miqdoriy demografik ko'rsatkichlardan biridir. Aholi soni tug'ilishlar, o'limlar va migratsiyaning natijasida muntazam o'zgarib turadi, u ma'lum bir davrning holati bo'yicha o'lchanadi va baholanadi: aholi ro'yhati kritik lahzasi, yil boshida (1 yanvarga), yil oxirida (31 dekabr) yoki yil o'rtasida. Aholi soni har yili 1 yanvarga o'tgan yilgi 1 yanvar ma'lumotlaridan kelib chiqib, tabiiy (tug'ilganlar va o'lganlar soni o'rtasidagi farq) va migratsion (kelganlar va ketganlar soni orasidagi farq) ko'payishlar, shu bilan birga yil davomidagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar natijasida aholi sonidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda aniqlaniladi.

$$S(t+1) = S(t) + B(t) - M(t) + U(t) - V(t) + T(t)$$

bu yerda,  $S(t)$  – yil boshidagi aholi soni  $t$ ;  $B(t)$  – bir yilda tug'ilganlar  $t$ ;  $M(t)$  – o'lganlar soni;  $U(t)$  – ushbu hududga kelganlar soni (ushbu mamlakatga) va  $V(t)$  – shu yilda undan chiqib ketganlar  $t$ ;  $T(t)$  – esa, hudud chegarasining o'zgarishi natijasida, aholi sonidagi o'zgarishlar. Bu kattalik chegaralar qisqarganligi yoki kengayganligiga bog'liq ravishda minus bilan yoki plus bilan tenglamaga kirishi mumkin. Bu har qanday ma'muriy-hududiy birliklar uchun formulaning umumiy ko'rinishi. Hududning jami aholisi bo'yicha sonini hisoblashda, uning a'zosi  $T(t)=0$ . Bunday holda, agarda mintaqada ma'muriy hududiy o'zgarishlar ro'y bergan bo'lsa, masalan, bir qancha qishloq aholi punktlari shaharga aylantirilgansa, unda qishloq va shahar aholisi uchun bunday qo'shilish noldan (qishloq aholisi uchun bu belgi “minus”, shahar aholisi uchun esa “plus”) yuqori bo'ladi.

- **O'limning umumiy koeffitsiyenti** (ingl. Total mortality rate) – ushbu yilda har 1000 ta kishiga nisbatan o'lganlar soni. O'lim koeffitsiyenti ko'p hollarda aholining yosh tarkibiga bog'liq. Davlatlar o'rtasida o'limni taqqoslaganda, sog'liqni saqlash holati haqida, iqtisodiy ahvoli va atrof muhit sharoiti to'g'risida xulosa qilishdan oldin, aholining yosh tarkibidagi farqlarni hisobga olish lozim.

$$O'UK = \frac{\text{o'rtacha o'lganlar soni}}{\text{o'rtacha yillik aholi soni}} * 1000$$

- **Tug'ilishning maxsus koeffitsienti** bevosita farzandni dunyoga keltiradigan reproduktiv yoshdagi (15–49 yosh, ayrim mamlakatlarda 15–44 yosh) ayollarga nisbatan qo'llaniladi. Bunda ushbu koeffitsient yil davomidagi tug'ilish umumiy sonining reproduktiv yoshdagi ayollar yillik o'rtacha soniga teng:

$$CBR = (B : F) \times 1000 \%,$$

bunda: CBR – tug‘ilishning maxsus koeffitsienti;

V – bir yilda tug‘ilishning mutlaq soni;

F – reproduktiv yoshdagi ayollarning yillik o‘rtacha soni.

Agar reproduktiv yoshdagilar doirasida eng ko‘p bola tug‘adigan ayollar (30 yoshgacha) ko‘proq bo‘lsa, tug‘ilishning maxsus koeffitsienti yuqori, aksincha, aholi tarkibida reproduktiv salohiyati tugab bora-digan yoki tugagan avlodlar ko‘p bo‘lsa, u holda tug‘ilishning maxsus koeffitsienti past bo‘ladi.

- **Kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi** (ingl. Life expectancy) – agarda joriy yildagi o‘limning yosh koeffitsiyenti erkak yoki ayol umrining oxirigacha saqlanib qolganda, inson yashashi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha yillarning o‘rtacha miqdorini hisoblash. Kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi-bu gipotetik ko‘rsatkich bo‘lib, u inson hayoti davomidagi o‘limning joriy ko‘rsatkichlari va o‘limning amaldagi o‘zgarishlariga (yaxshilanishiga) asoslanadi. Har bir odamning umr davomiyligi erkak va ayolning voyaga yetishi bilan o‘zgarib boradi va o‘lim tendensiyalari ham o‘zgaradi. Binobarin, kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi mohiyatan jins, yosh va irqiy tarkibiga bog‘liq ravishda farq qiladi, bu mezonlar, qoida tariqasida, har biri bo‘yicha alohida ko‘rsatiladi. Tug‘ilganda kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi salomatlik holatining yaxshi indikator bo‘lib, umr ko‘rish davomiyligi barcha ko‘rsatkichlari ichida eng keng qo‘llaniladigani hisoblanadi.

- **Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti** (ingl. Crude birth rate) -tug‘ilish koeffitsiyenti – shuningdek, tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti, deb ataladi) – mazkur yilda har 1000 ta aholi soniga nisbatan tirik tug‘ilgan bolalar soni. Tug‘ilish koeffitsiyentlari kabi yillik ko‘rsatkichlarning aksariyati demografik holat hisoblanib yil o‘rtasidagi (1 iyul) holat bo‘yicha yil davomidagi holatning o‘rtacha ko‘rsatkich hisoblanadi;

$$TUK = \frac{\text{tug' ilganlar soni}}{\text{aholining o'rtacha yillik soni}} * 1000$$

Tug‘ilganlar soni aholi soni o‘zgarishining tarkibiy qismlaridan biridir. Tug‘ilish koeffitsiyentini aholi soni o‘zgarishining barcha omillarini hisobga olgan aholi soni o‘sinh sur‘ati bilan adashtirmaslik lozim.

- **Ajralish koeffitsiyenti** (ingl. Divorce rate) (yoki ajralishning umumiy koeffitsiyenti)- mazkur yildagi ajralishlar sonini xar 1000 ta aholiga nisbatini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkich nikohni bekor qilayotganlar sonidan emas, balki ajralishlar miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi.

$$AUK = \frac{\text{ajralishlar soni}}{\text{aholining o'rtacha yillik soni}} * 1000$$

- **Nikoh koeffitsiyenti** (ingl. Marriage rates) (nikohning umumiy koeffitsiyenti, deb ham nomlanadi) – ma‘lum davrdagi har 1000 ta kishiga to‘g‘ri keladigan nikohlar sonini anglatadi. Bu raqam nikohga kiruvchilar miqdoridan emas, balki, umumiy nikohlar ya‘ni, birinchi nikohga kiradiganlar va qayta nikoh qurganlarni qamrab olgan miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

$$NUK = \frac{\text{nikohlar soni}}{\text{aholining o'rtacha yillik soni}} * 1000$$

***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

**13-Amaliy mashg'ulot. Viloyatlar aholi sonini prognoz qilish.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda demografik prognoz, viloyatlar aholi sonini tahlil qilib uning kelgusidagi sonini prognoz qilish va prognoz qilish usullari haqida bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

***Amaliy mashg'ulot topshiriqlari***

1. Demografik prognoz va uning turlari haqida yozma tavsif bering.
2. Demografik prognoz metodlari haqida yozma tavsif bering.
3. Demografik prognozlar tarixi haqida yozma tavsif bering.
4. Ma'ruza, qo'shimcha manba va adabiyotlarda foydalanib viloyatlar aholi sonini prognoz qiling (bironta viloyat misolida)
5. Aholini prognoz qilishda matematikaning rolini.

**Qo'shimcha topshiriqlar:**

**1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

• **Demografik prognoz** - (Ingl.Demographic forecast) (yunonchadan «prognosis») – oldindan ko'rish, oldindan aytish)-uning mohiyati istiqbolda demografik jarayonlar rivojlanishini ilmiy asoslangan holda prognoz qilishdan iborat. Demografik prognoz zamonaviy aholi takror barpo bo'lishi an'analarini har tomonlama majmualar tadqiq etish asosida, kelgusi yillardagi aholi takror barpo bo'lishining asosiy ko'rsatkichlaridagi

mumkin bo'lgan o'zgarishlari jihatidan amalga oshiriladi. Tahlil natijalari bo'yicha, kelajakda demografik ko'rsatkichlarning (tug'ilish, o'lim, aholi migratsiyasi) o'zgarish ehtimoli va mavjud zamonaviy tendensiyalarni saqlab qolish haqidagi tahminlardan kelib chiqib, prognoz davridagi aholi soni, yosh-jins tarkibi, aholi joylanishi baholanadi.

• **Demografik prognoz** – bu aholi harakatining asosiy parametrlarini va istiqboldagi demografik vaziyatni, aholining son va sifat tavsiflarini, yosh-jins va oilaviy tarkibini, tug'ilish, o'lim, migratsiya jarayonlarini ilmiy asoslangan holda oldindan ko'ra bilishdir. Demografik prognoz aholi harakatining asosiy ko'rsatkichlarini va istiqboldagi demografik vaziyatni: aholining son va sifat tavsiflarini, yosh-jins va oilaviy tarkibini, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, migratsiya jarayonlarini ilmiy asoslangan holda oldindan ko'ra bilishdir. Demografik prognozning zarurati ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish vazifalari bilan uzviy bog'liqdir. Dastavvalgi demografik prognoz mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, turarjoy qurilishi, ijtimoiy infratuzilmani, sog'liqni saqlash, xalq ta'limini, pensiya tizimini rivojlantirish istiqbollari, geosiyosiy vazifalarni hal etishni tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham aholi soni va tarkibining, alohida demografik jarayonlarning dinamikasi xalqaro, davlat va nohukumat tashkilotlari, ilmiy muassasalar umumiy faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Demografik prognoz tug'ilish va o'limning kelajakdagi dinamikasiga doir ayrim gipotezalar asosida amalga oshiriladi. Bugungi kunda demografik prognozashtirishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud:

- global prognozlar dunyo miqyosidagi demografik rivojlanish bashoratlaridir. Prognozashtirishning mazkur yo'nalishida aholi takror hosil bo'linishining ko'plab omil va ko'rsatkichlari hisobga olinadi;
- mintaqaviy prognozlar – ular bevosita davlatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejalari bilan bog'liq. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalashtirilayotganda aholi takror hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, demografik jarayonlarning tavsiflari hisobga olinadi. Shuningdek, mintaqaviy prognozlar hudud aholisi soni va tarkibining istiqboldagi dinamikasi haqidagi ma'lumotlarni beradi. Ulardan ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy siyosati, madaniyat, sport, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish, aholini iste'mol tovarlari bilan ta'minlash va ularni ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa sohalarning istiqbol prognozlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

• **Demografik prognozashtirish usullari** aholining istiqboldagi tarkibi va miqdoriga ta'sirini qiyoslash orqali aholi o'zgari-shining ba'zi tarkibiy qismlari rolini baholash imkonini beradi. Aholini prognozashtirishda ekstropolyatsiya, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, imitatsion modellashtirish, yoshlar bo'yicha siljish va boshqa qator usullardan foydalaniladi. Masalan, kishilarning demografik xulq-atvorini o'rganar ekan-miz, biz amaldagi ijtimoiy-psixologik me'yorlarni aniqlaymiz va shundan kelib chiqqan holda insonlarning xatti-harakati ularning ushbu masalalar bo'yicha fikriga bog'liq, deb hisoblaymiz. Oila nechta bolaga ega bo'lishini xohlashini bilishgina emas, balki nima uchun farzandlari bo'lishi yoki bo'lmasligini xohlashi (yoki xohlamasligi) va nima uchun ko'p emas, bitta yoki ikkita bola ko'rishni istashini aniqlash muhimdir. Mavjud sharoitlarda oila nechta farzandni (kutilayotgan bolalar miqdori) ta'minlay olishini va mavjud turmush sharoiti, o'z imkoniyatlarini e'tiborga olmagan holda qancha farzand ko'rishini xohlashini aniqlash muhim. Bunday tadqiqotlar asosida demografik qadriyatlarining shakllanishi va aholining o'sish zaxiralarini belgi-lab olish maqsadi yotadi.

• **Tahliliy prognozlar** – aholi takror barpo bo‘lishining aholining kelajakdagi soni va tarkibiga, umuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ehtimol tutilgan ta’sirini baholash orqali aholi takror hosil qilinishining hozirgi davrdagi xususiyatlarini tadqiq etishdir. Tahliliy prognozlar uchun demografik jarayonlarni bashorat qilishdan ham ko‘proq mazkur jarayonlar bilan bog‘liq muammolarni aniqlash muhimdir. Tahliliy prognozlar, odatda, uzoq muddatlidir. U ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni belgilash, jumladan demografiya siyosati rejalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Masalan, O‘zbekistonda aholi, mehnat resurslari soni, jins-yosh tarkibi istiqbollarga doir bashoratlar tahliliy prognozlarga kiradi.

• **Ogohlantiruvchi prognozlar** tahliliy prognozlarning turlaridan biridir. Bunday prognozlarning maqsadi – tarkib topgan demografik vaziyat va uning o‘zgarishi natijasida ehtimol tutilayotgan xavflardan ogohlantirishdir. Bunday eng mashhur prognozlardan biri T.R. Maltusning mashhur aholishunoslik qonunidir. U aholi geometrik, tirikchilik vositalari esa arifmetik sur’atda ortayotganligini, natijada aholi soni keskin ko‘payishini karomat qilib, bu qanday ayanchli oqibatlariga (qashshoqlik, epidemiyalar, tartibsizliklar, urush-lar va h.k.lar) olib kelishi mumkinligidan ogohlantirgan. Hozirgi davrda bunday ogohlantiruvchi prognozlarga Rim klubining aholi soni ko‘payishi, shuningdek, mineral va energetika resurslaridan foydalanishning ortishi oqibatida ehtimol tutilayotgan turli dahshatli fojealarga doir farazlari misol bo‘la oladi. Ogohlantiruvchi prognozlar bo‘yicha ehtimol tutilayotgan xavflarning oldini olish uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi zarur bo‘ladi.

• **Funksiyaviy prognozlar** siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, davlat va xo‘jalik boshqaruvi sohalarida qarorlar qabul qilish uchun aholi to‘g‘risida zarur prognozlar olish maqsadida tuziladi. Funksiyaviy prognoz biror-bir tashkilot, korxonalar, ta’lim muassasalari, davlat organlarining amaliy maqsadlari va vazifalariga xizmat qiladigan prognozlardir. U turli ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar amal etishini ta’minlaydigan aholi guruhlari, oilalar, uy xo‘jaliklarining istiqboldagi soni va tarkibini aniqlashga da’vat etilgan. Funksiyaviy nuqtai nazardan yuqorida qayd etilgan ijtimoiy institutlar bilan ma’lum darajada bog‘liq barcha kishilarni ikki: ijtimoiy tarkiblarga mansub, mahsulotlar ishlab chiqaradigan, xizmatlar ko‘rsatadigan, ne’matlar yaratadiganlar hamda bu mahsulot-lar, xizmatlar va ne’matlarni iste’mol qiladigan guruhga ajratish mumkin. Bundan tegishli ravishda ikki funksiyaviy toifa: “aholi taklifi prognozlari” yoki “demografik taklif prognozlari” hamda “aholi talabi prognozlari” yoki “demografik talab prognoz-lari” kelib chiqadi. Barcha funksiyaviy prognozlar bitta mantiqiy usulda, o‘xshash hisoblash tartibiga asoslangan. Jumladan, funksiyaviy guruhlarini istiqbolli baholash quyidagichadir:

$$F(i,j,t) = P(i,j,t) \times r(i,j,t) \times u(i,j,t) \times c(i,j,t),$$

bu yerda:  $F(i,j,t)$  – prognoz qilinayotgan  $i$  yoshidagi  $j$  jinsiga mansub  $t$  vaqtidagi funksiyaviy guruhning soni;

$P(i,j,t)$  –  $i$  yoshidagi  $j$  jinsiga mansub  $t$  vaqtidagi yosh guruhining prognoz qilinayotgan soni;

$r(i,j,t)$  –  $i$  yoshidagi  $j$  jinsiga mansub  $t$  vaqtidagi yosh guruhi funksiyaviy tez-tezligi;

$u(i,j,t)$  –  $i$  yoshidagi bir funksiyaviy guruh sonining  $t$  vaqtidagi shu jinsga mansub boshqa guruh soniga nisbati;

$c(i,j,t)$  – funksiyaviy kichik guruhning  $i$  yoshidagi  $j$  jinsiga mansub  $t$  vaqtidagi yosh guruhi umumiy sonidagi ulushi.

Masalan, maktab o‘quvchilari va talabalar sonining prognozi amalga oshirilayotgan bo‘lsa,  $r(i,j,t)$  ko‘rsatkichi ma’lum guruhda ta’lim bilan qamrab olinganlar sonini



bildiradi. O'qituvchilarga ehtiyojni aniqlash uchun  $u(i,t)$  ko'rsatkichidan foydalaniladi. U ta'limning har bir bosqichida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar sonini ko'rsatadi. Ixtisosliklar va yo'nalishlar guruhlarini bo'yicha talabalarning sonini prognoz qilish uchun  $c(i,j,t)$  ko'rsatkichidan foydalaniladi. U talabalarning umumiy sonida ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olayotganlarning ulushini ifodalaydi. Funktsiyaviy prognozlashning asosiy vazifasi  $r(i,j,t)$ ,  $u(i,j,t)$  va  $c(i,j,t)$  ko'rsatkichlarini istiqbolli baholashdir. Buning uchun ekono-mometrik modellardan yoki maqsadli (me'yoriy) ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

***Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиёва З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. "Aholi geografiyasi". Darslik. – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do'smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

#### **14-Amaliy mashg'ulot. Ichki migratsiya va uning oqibatlarini.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda migratsiya, uning turlari, ichki migratsiya, uning asosiy yo'nalishlari, uni keltirib chiqaruvchi sabablar va uning oqibatlarini haqida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

***Amaliy mashg'ulot topshiriqlari***

1. Migratsiya va uning turlari haqida yozma tavsif bering.
2. Migratsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qiling.
3. Migratsiyasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari haqida yozma tavsif bering.
4. Ichki migratsiya va uning oqibatlarini tahlil qiling.

## **Qo'shimcha topshiriqlar:**

### **1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

**Migratsiya jadalligi** (ingl. Migration intensity) – migratsion jarayonlarning jadalligi koeffitsiyentlari eng ko'p qo'llaniladigan nisbiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Ular turli tumanlarda aholining migratsion harakatchanligini solishtirishga imkon beradi. Jadallik ma'lum muhitdagi qandaydir hodisaning qaytalanishini tavsiflaydi va to'g'ri kasrda, ya'ni bunda alohida turdagi hodisalar soni suratida, asosiy to'plam maxrajida ifodalanadi. Bu ko'rsatkichlar kelganlar (chiqib ketganlar, migratsion aylanama, saldo migratsiya) sonini aholining o'rtacha yillik soniga bo'lish orqali aniqlaniladi. Ular foizlarda yoki promilleda, aniqrog'i hisoblashda har 100 yoki har 1000 aholiga nisbatan ifodalanadi.

**Migratsiya siyosati** (ingl. Migration policy) – bu turli xil ijtimoiy jarayonlarga, jumladan ular tarkibiga kiradigan aholi migratsiyasiga ta'sir o'tkazadigan vositadir. Bu hokimiyat tuzilmalari darajasida umum qabul qilingan g'oyalar va konseptual jihatdan birlashgan vositalar tizimi bo'lib, uning yordamida eng avvalo davlat, shuningdek, boshqa jamoat institutlari muayyan prinsiplarga rioya qilgan holda qo'yilgan maqsadga erishishni o'z zimmasiga oladilar.

**Migrant** (ingl. Migrant) (lotinchadan. migrans /migrantis/ – ko'chib joylashmoq) –bu aholi migratsiyasini ilm fan sifatida keng ta'riflashda, turistik joylarga, rekratsion va ish maqsadida boshqa aholi punktiga qisqa safar uyushtiradigan, yohud muntazam (har kuni, har hafta) ikkita aholi manzilgohi o'rtasida mokisimon almashinadigan, yohud turli muddatlarga (bir oy va undan ko'p) doimiy yashash joyini boshqa joylarda vaqtincha ishlash uchun tashlab ketadi, yoki doimiy yashash uchun ko'chib borib joylashadigan har qaysi inson migrant hisoblanadi.

**Migratsion salohiyat** (ingl. Migration potential) (lotinchadan potential – kuch, qudrat) – bu, mamlakatlarga kelib joylashayotgan migrantlarning tarkibiga qulay munosabatidan va migratsion oqimlarini mamlakatdan yo'naltirilganligidan kelib chiqib, aholi sonining immigratsiya imkonini baholash.

**Migratsion salohiyat** deganda, qabul qiluvchi mamlakatlar uchun donor mamlakatlardagi migratsion resurslarning mavjudligi ham tushuniladi. Ammo uning holati nafaqat donor mamlakatlarning imkoniyatlariga, balki qabul qiluvchi mamlakatlar uchun migrantlarning ma'qul keladigan tarkibiga, shu bilan birga ularni qabul qilishdagi yo'lga qo'yilgan sharoitlarga bog'liq. Ushbu keltirilganlarga asosan, qoida tariqasida, davlat manfaatlariga mos keladigan, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilinadi.

**Migratsion oqim** (ingl. Migration flow) – bu migratsiya yo'nalishi ko'rsatkichlaridan biri. U muayyan berilgan vaqt davomida kirish va chiqish umumiy rayonlariga ega bo'lgan migrantlarning (yoki migratsiya) jami miqdorini o'zida ifodalaydi. Asosiy migratsion oqimlaridan tashqi va ichki migratsiyani ajratish mumkin, biroq ular tarkibidan bir butun muayyan oqimlar (masalan, tashqi migratsiyadan Rossiyaga yoki Turkiyaga, ichkidan qishloq-shahar migratsiyasi, shahar joylar ichida, ya'ni, shahar va shahar tipidagi posyolka o'rtasida; qishloq joylar ichida, qishloq aholi manzilgohlari o'rtasida va boshqalar) vujudga keladi. Migratsiya jarayonlarini tahlil qilganda, tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, har qanday mintaqaga kelganlar umumiy sonidan har bir boshqa mintaqalardan kelganlar oqimini ajratish mumkin.

**Migratsiya qoldig'i** (saldosi) (ingl. Net migration) – kelganlar va ketganlar soni o'rtasidagi farq migratsion ko'payish, migratsiya qoldig'i va netto migratsiya, deb

nomlanadi. Agarda aholining tabiiy ko‘payishi (kamayishi) va umumiy ko‘payishi (u xaqida nisbatan aniq ma’lumotlarni aholi ro‘yxati o‘rtasidagi davr uchun olish mumkin) haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, migratsion ko‘payish umumiy va tabiiy ko‘payish o‘rtasidagi farqi sifatida topiladi.

**Mehnat migratsiyasi** (ingl. Labour migration) – bu ish qidirib topish va bandlik bilan bog‘liq hudud bo‘ylab odamlarning almashinishini o‘zida ifodalaydigan migratsiyaning bir turi. Bu mamlakat ichida va shu bilan birga mamlakatlar o‘rtasida amalga oshishi mumkin. Mehnat migratsiyasi mamlakat ichidadoimiy, ya’ni yashash joyini o‘zgartirishi bilan; yoki vaqtincha, ya’ni yashash joyini o‘zgartirmasdan (bunday holda mehnat migratsiyasining epizodik, mavsumiy, mayatniksimon shakllarini ajratish lozim) amalga oshishini taqozo etadi. Xalqaro mehnat migratsiyasi ham doimiy bo‘lishi mumkin, ya’ni doimiy yashash uchun bir davlatdan boshqa davlatga ko‘chishi bilan bog‘liq. Muddatiga ko‘ra cheklangan (bunday holda, nemischadan “mehmon ishchilar”, «gastarbeiter» termini ishlatiladi), kontrakt bo‘yicha; mavsumiy migratsiya, chegara oldi ishchilari migratsiyasi («frontalerlar»)da mehnat migratsiyasi vaqtincha xarakter kasb etadi.

**Mehnat migratsiyasi** mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq makoniy ko‘chib yurishidir.

**Migratsiyani hisobga olish** (ingl. Migration records) – bu migrantlarning yashash joyini o‘zgartirish hodisasini joriy tartibda aholining maxsus tadqiqotlarida va ro‘yxatga olish davrida qayd etish orqali amalga oshiriladi.

**Emigratsiya** (ingl. Emigration) (lotinchada yemigro – jo‘nab ketmoq, qayta joylashmoq) – bu muayyan mamlakatning mahalliy yoki doimiy yashovchilarining kamida 12 oy davomida (BMT tavsiyalariga binoan) yashash maqsadi bilan boshqa mamlakatga chiqib ketishi.

**Tashqi migratsiya** (ingl. External migration) – bu turli maqsadlar bilan uzoq muddatga mo‘ljallab mamlakatdan tashqariga aholining harakatlar majmui. Mohiyatiga ko‘ra, u xalqaro yoki davlatlararo bo‘ladi.

***Amaliy mashg‘ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O‘quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O‘quv qo‘llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. “Aholi geografiyasi”. Darslik. – Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do‘smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.

11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

## **15-Amaliy mashg'ulot. Aholi ko'payishiga filosofik yondashuvlar.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarda aholi ko'payishi, ko'payish sur'atlari, unga tasir etuvchi omillar, aholi ko'payiga turli yondashuvlar haqida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

**Ish uchun kerakli jihozlar:** O'quv uslubiy majmua, xarita, internet ma'lumotlari, daftar va ruchka, rangli qalamlar, demografiyaga oid qo'shimcha adabiyotlar.

### *Amaliy mashg'ulot topshiriqlari*

1. Aholi takror barpo bo'lishi va takror barpo bo'lish turlari haqida tushuncha bering.
2. Aholi takror bo'lishing netto va brutto koefitsientlari haqida yozma tavsif bering.
3. Aholi ko'payishi va ko'payish sur'atlari haqida yozma tavsif bering.
4. Aholi ko'payishiga bo'lgan filosofik, sotsiologik, ekologik qarashlar haqida tushuncha bering.

#### **Qo'shimcha topshiriqlar:**

##### **1. Quyidagi atamalarning lug'aviy ma'nosini yozing va yod oling.**

- **Ko'p farzandli oila** (ingl. Large family) – bu demografiyada 5 va undan ko'p farzandli bo'lgan oila.

- **Kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi** (ingl. Life expectancy) – agarda joriy yildagi o'limning yosh koefitsiyenti erkak yoki ayol umrining oxirigacha saqlanib qolganda, inson yashashi mumkin bo'lgan qo'shimcha yillarning o'rtacha miqdorini hisoblash. Kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi-bu gipotetik ko'rsatkich bo'lib, u inson hayoti davomidagi o'limning joriy ko'rsatkichlari va o'limning amaldagi o'zgarishlariga (yaxshilanishiga) asoslanadi. Har bir odamning umr davomiyligi erkak va ayolning voyaga yetishi bilan o'zgarib boradi va o'lim tendensiyalari ham o'zgaradi. Binobarin, kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi mohiyatan jins, yosh va irqiy tarkibiga bog'liq ravishda farq qiladi, bu mezonlar, qoida tariqasida, har biri bo'yicha alohida ko'rsatiladi. Tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi salomatlik holatining yaxshi indikator bo'lib, umr ko'rish davomiyligi barcha ko'rsatkichlari ichida eng keng qo'llaniladigani hisoblanadi.

- **Aholining takror barpo bo'lishi** (ingl. Reproduction of population)-Bunda bir avlod vakillarining yangi bir avlod vakillari bilan uzluksiz almashinishi orqali ma'lum kishilar miqdorining doimiy yangilanib borish jarayoni tushuniladi. Aholi takror barpo bo'lishi mohiyatan uni tashkil etuvchi ikki jarayonning o'zaro ta'siri hisoblanadi: tug'ilish va o'lim. Aholi takror barpo bo'lishining uch turi ajratiladi: kengaygan, oddiy va qisqargan.

- **Tug'ilish** (ingl. Fertility) – ma'lum bir intensivlikka ega bo'lgan umuman ijtimoiy hulq-atvor me'yorlari va xususan reproduktiv hulq-atvor me'yorlari bilan cheklangan avlod yoki avlod guruhini (aholini) tashkil etuvchi odamlar majmuasida nasl qoldirish jarayoni.

• **Tug‘ilish** bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelish jarayoni tushuniladi. Hozirgi o‘lim darajasi past bo‘lgan sharoitlarda tug‘ilish jarayoni aholi takror barpo bo‘lishidagi yetakchi omil sanalib, uning tartibi (toraytirilgan, oddiy, kengaytirilgan) va yosh-jinsiy tarkib evolyusiyasining umumiy yo‘nalishini belgilaydi.

• **Tug‘ilish taqvimi** (ingl. Births calendar) – farzand ko‘rish davri yoki doimiy nikoh davri davomida tug‘ilishning vaqt davomida taqsimlanishi. Tug‘ilish taqvimi tug‘ishni yakunlash yoshiga yetgan ayollarning real avlodini tug‘ish davrini tavsiflaydi.

• **Tirik tug‘ilish** (ingl. Live births) – tug‘ilishlar sonini hisobga olishda ishlatiladigan bolaning tirik tug‘ilishini anglatadigan tushuncha. Ayrim mamlakatlarda tirik tug‘ilishning ta‘riflari bir- biriga o‘xshamaydi.

• **Tabiiy tug‘ilish** tushunchasi ilmiy iste‘molga ilk bor 1961 yilda fransuz demografi L. Anri tomonidan kiritilgan. Olim bu tushunchani tug‘ilishni nazorat qilish yo‘llaridan biri sifatida ishlatgan. Hozirgi vaqtda bu tushuncha oiladagi farzandlar soni va tug‘ilish davrlarini rejalashtiruvchi oilali jamiyatga xosdir. Shu bois, tug‘ilish holati va darajalarini tahlil qilish amaliyotida tabiiy tug‘ilish konsepsiyasi oila muhitida tug‘ilishni cheklash darajasining taxminiy baholanishida qo‘llaniladi. Bugungi kunda tabiiy tug‘ilish darajasini aniqlashdagi asosiy yondashuv – tug‘ilish darajasini kontraseptiv (homiladorlikning oldini oluvchi) vositalardan foydalanmaydigan, abort qilmaydigan, pushtlilikning pasayishiga sabab bo‘ladigan ommaviy kasalliklarga uchramaydigan, nikohsizlik va nikohga kech kirish udumlarini qabul qilmagan ma‘lum aholining tug‘ilish darajalariga tenglashtirilishidir.

• **Tug‘ilishni tartibga solish** demografik siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri. Yuqorida qayd qilinganidek, davlatlarning tug‘ilishni tartibga solishga qaratilgan siyosatida ikki xil yondashuv kuzatiladi. Birinchi yondashuvga moyil mamlakatlarda demografik o‘tish hali tugallanmagan va tug‘ilish darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, ularni asosan aholi sonining o‘sish sur‘atlarini kamaytirish va shu yo‘l bilan mamlakat iqtisodiyoti va resurslariga bo‘lgan demografik bosimni pasaytirish muammosi tashvishga soladi. Ushbu masalada eng faol siyosatni aholisining soni jihatidan dunyoda eng ko‘p hisoblangan Xitoy va Hindiston olib boradi. Bu mamlakatlar turli xil, jumladan, regressiv chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘li bilan aholi soni ortishi sur‘atlarini iloji boricha pasaytirishga urinmoqda. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari iqtisodiy jihatdan rivojlangan, biroq tug‘ilish darajasi hatto aholining oddiy takror hosil qilinishini ta‘minlashga qodir bo‘lmagan mamlakatlardir. Biroq bu davlatlar ham tug‘ilishni tartibga solish siyosatini amalga oshirishda o‘zaro farq qiladi. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada tug‘ilish darajasi aholining takror hosil etilishini ta‘minlay olmayotganligiga qaramay, bu ularning ichki va tashqi manfaatlarini hamda ehtiyojlari uchun yetarli, deb hisoblanadi. Mazkur davlatlarda farzandlar ko‘rish shaxsning va oilaning xususiy ishi, aholi sonining o‘sishi esa mamlakatga iqtisodiy, ijtimoiy yoki ekologik foyda keltirmaydi, degan fikr ustun turadi.

• **Tug‘ilishning umumiy soni** (ingl. Total number of births) – umumiy tug‘ilish (fertillik) koeffitsiyenti orqali ifodalanadi va qo‘yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$n = N/T \cdot P \cdot 1000,$$

bu yerda: T-davr (yil); P- aholini o‘rtacha yillik soni; N-bu davrda tug‘ilganlar soni. Umumiy tug‘ilish darajasi promilleda (har 1000 kishiga nisbatan) hisoblanadi. Demograflarning fikriga ko‘ra, tug‘ilish umumiy koeffitsiyenti darajasi 16-promilledan kam bo‘lsa, past, 16 dan 24 promillegacha o‘rtacha, 30 dan 39 promillegacha yuqori, 40-promilledan baland o‘ta yuqoriligini ifodalaydi. Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyentining

qiymati nafaqat tug‘ilishning intensivligiga, balki aholining yosh – jins va nikoh tarkibiga bog‘liq bo‘lib tug‘ilish darajasi haqida umumiy ma’lumot beradi.

• **O‘limning umumiy koeffitsienti** muayyan hududdagi aholining 1000 nafari hisobiga yil davomida o‘lganlar sonini ifoda qiladi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$m = \frac{M}{P} \times 1000 ,$$

bu yerda: M – o‘rganilayotgan davrdagi o‘lganlarning umumiy soni; R – o‘rganilayotgan davrdagi aholining o‘rtacha soni. Mazkur koeffitsient hisoblab chiqishning soddaligi va ma’lumotning mavjudligi sababli keng qo‘llaniladi. Ayni vaqtda, ba’zi millat vakillari hamda kichik hududiy aholi manzilgohlari uchun jins va yoshga oid aniq ma’lumotlarni olish imkoni bo‘lmaganligi bois o‘limning umumiy koeffitsienti o‘lim darajasini aniqlash va baholash uchun qo‘llaniladigan yagona uslub hisoblanadi.

***Amaliy mashg‘ulotni bajarish uchun foydalanish tavsiya etilgan adabiyot va internet resurslariga havolalar:***

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув кўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 2001.
5. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O‘quv qollanma. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
7. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
8. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O‘quv qo‘llanma. - Т.: TDIU, 2010. - 324 bet.
9. Tojiyeva Z.N. “Aholi geografiyasi”. Darslik. – Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019, - 254 bet
10. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do‘smonov. Demografiya -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.424 bet.
11. <http://www.demoscope.ru>.
12. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
13. <http://stat.uz>.
14. <http://ziyo.net>
15. <https://demografiya.uz/>

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.



## Mustaqil ta'lim tashkil etshining shakli va mazmuni.

### “Demografiya” fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishning maqsad va vazifalari

Talaba mustaqil shii O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining “Talabalar mustaqil shilarini tashkil etshi to'g'risida”gi 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli buyrug'i va “Talabalar mustaqil shiini tashkil etshi va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnoma” asosida tashkil etiladi.

Talaba mustaqil shii o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talaba mustaqil shini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanshi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganshi;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirshi;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida shilash;
- mavzuga oid karta-sxemalar va turli chizmalar tayyorlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot shilarini bajarshi bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganshi;
- fanlar bo'yicha uyga berilgan topshiriqlarni bajarshi;
- mavzular bo'yicha slaydlar, prezentatsiyalar tayyorlash.
- mavzular bo'yicha slaydlar, prezentatsiyalar tayyorlash.

Mustaqil shini bajarshi uchun har bir mustaqil shi yuzasidan talabalarga ko'rsatma va tavsiyalar berib boriladi va mashg'ulotlarda talabalarga yetkaziladi.

#### Mustaqil shilarni nazorat qilish va topshiriqlarni qabul qilish shakllari

Talabalar mustaqil shiini nazorat qilish bevosita fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Mustaqil shi topshiriqlarni o'qitiladigan fan xususiyatidan kelib chiqib quyidagi shakllarda qabul qilish tavsiya etiladi.

- ◆ esse yozish
- ◆ infografika tuzish
- ◆ kartalar shilash
- ◆ plakat va chizmalar
- ◆ slaydlar
- ◆ tarqatma materiallar
- ◆ test savollari
- ◆ savollar ombori tuzish
- ◆ mavzuni tahlil qilish
- ◆ keys-stadiylar tuzish

"Demografiya" fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarshi, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topshi yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanshilar olib borshi, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravshida ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarining darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy kobilyatini rivojlantiradi.



Uy vazifalarini tekshirshi va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirshi darajasini tekshirshi va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan xar darsda amalga oshiriladi.

"**Demografiya**" fanidan mustaqil shi majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi katta mavzular ko'rinshida shakllantirilgan.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Dunyo mamlakatlari o'rtasida migratsiya jarayonlari: xalqaro, mehnat migratsiyasi.
2. Demografik globalizatsiya davrida nikoh bozori.
3. "Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.
4. O'zbekiston aholisi, demografik jarayonlari
5. Depopulyatsiya va aholi qarishi muammolari
6. Demografik modernizatsiyalash va demografik globalizatsiya
7. Aholi o'sishi va oziq ovqat muammolari
8. Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati
9. Oilani rejalashtirish dasturlari
10. Xalqaro aholi migratsiyasi
11. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi
12. MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati
13. Geodemografiya va demogeografiya
14. XX asr demografiyasi
15. Nikoh va ajralish
16. Dunyo aholisi o'limi, sabablari va epidemiologik o'tish
17. Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlari
18. Oilani rejalashtirish
19. Farg'ona viloyatining demografik rivojlanishi va mehnat resurslari
20. O'zbekiston shaharlarida nikoh jarayoni ko'rsatkichlarining tadrijiy o'zgarishi
21. O'zbekiston shaharlarida ajralish jarayoni ko'rsatkichlarining tadrijiy o'zgarishi
22. Braziliya aholisi
23. O'zbekistonda nikoh jarayonlari
24. Dunyo aholisining ko'payishi
25. O'zbekiston shaharlarining demografik tarkibi va uni o'rganish manbalari
26. O'zbekiston hududida demografik o'zgarishlarning urbanizatsiyaga ta'siri
27. Aholining ijtimoiy tarkibi
28. Mexnat resurslari va aholi bandligi muammosi
29. Migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar
30. Markaziy Osiyo aholisi muammolari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan dolzarb mavzu bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, kurs ishi yozish, konspekt yozish, glossariy tuzish, individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish, keys-topshiriqlarini bajarish, mavzuli portfoliolar tuzish, axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash, manbalar bilan ishlash, infografika tuzish, chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish, multimediali taqdimotlar yaratish, darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash, darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash va

uni taqdimot qilish talab etiladi.

Mustaqil o'qib-o'rganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda talabalar quyidagi **vazifa** va **majburiyatlarni** amalga oshirishi lozim:

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to'liq o'zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashishi, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo'lishi, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi, jamoada ishlay olish kompetentsiyasini o'zlashtirishi.

Mustaqil ishga qo'yilgan baho (ballar) bo'yicha e'tirozlar bo'lgan taqdirda, talaba belgilangan muddat tugaganidan keyin 24 (yigirma to'rt) soat (1 sutka) davomida dekanat (registrator ofis)ga elektron platforma orqali ariza bilan murojaat qilishi mumkin

<b>Mustaqil ta'lim mavzularini taqsimlanishi</b>				
<b>No</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Mustaqil ta'lim turi</b>	<b>Bajarish shakli</b>	<b>soati</b>
<b>1</b>	Dunyo mamlakatlari o'rtasida migratsiya jarayonlari: xalqaro, mehnat migratsiyasi.	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>2</b>	Demografik globalizatsiya davrida nikoh bozori.	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	seminar-konferentsiyalarga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>3</b>	"Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	seminar-konferentsiyalarga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>4</b>	O'zbekiston aholisi, demografik jarayonlari	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>5</b>	Depopulyatsiya va aholi qarishi muammolari	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	FAQ-frequently asked questions orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga javob izlash	2
<b>6</b>	Demografik modernizatsiyalash va demografik globalizatsiya	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	FAQ-frequently asked questions orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga javob izlash	2
<b>7</b>	Aholi o'sishi va oziq ovqat muammolari	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	kollokviumlarga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>8</b>	Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2

9	Oilani rejalashtirish dasturlari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
10	Xalqaro aholi migratsiyasi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
11	Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	multimediali taqdimotlar yaratish	2
12	MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	multimediali taqdimotlar yaratish	2
13	Geodemografiya va demogeografiya	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	manbalar bilan ishlash	2
14	XX asr demografiyasi	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	keys-topshiriqlarini bajarish	2
15	Nikoh va ajralish	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	manbalar bilan ishlash	2
16	Dunyo aholisi o'limi, sabablari va epidemiologik o'tish	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
17	Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlarini	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	infografika tuzish	2
18	Oilani rejalashtirish	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	chizma-tasviriy modellar yaratish	2
19	Farg'ona viloyatining demografik rivojlanishi va mehnat resurslari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
20	O'zbekiston shaharlarida nikoh jarayoni ko'rsatkichlarining tadrijiy o'zgarishi	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
21	O'zbekiston shaharlarida ajralish jarayoni ko'rsatkichlarining tadrijiy o'zgarishi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
22	Braziliya aholisi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
23	O'zbekistonda nikoh jarayonlari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
24	Dunyo aholisining ko'payishi	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	multimediali taqdimotlar yaratish	2
25	O'zbekiston shaharlarining demografik tarkibi va uni	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil	axborot-tahliliy materiallar bilan	2

	o'rganish manbalari	ishlar	ishlash	
<b>26</b>	O'zbekiston hududida demografik o'zgarishlarning urbanizatsiyaga ta'siri	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
<b>27</b>	Aholining ijtimoiy tarkibi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
<b>28</b>	Mexnat resurslari va aholi bandligi muammosi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
<b>29</b>	Migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	multimediali taqdimotlar yaratish	2
<b>30</b>	Markaziy Osiyo aholisi muammolari	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	multimediali taqdimotlar yaratish	2
<b>Jami</b>				<b>60</b>

## «DEMOGRAFIYA» FANIDAN GLOSSORIY

**Ruurbanizatsiya**-shahardan ko'chib borgan aholining qishloq joylarda shahar hayoti va madaniyatini yoyishi.

**Aglomeratsiya, aholi punktlari aglomeratsiyasi** – aholi punktlari, asosan shaharlar, shuningdek, qishloqlarning intensiv xo'jalik mehnat va madaniy- maishiy hamda rekratsion aloqalar bilan bog'lanib, yagona birlikni tashkil qilgan kompakt hududli guruhi.

**Aglomeratsiya (Agglomeration)**-yirik shahar atrofida qator shahar va qishloqlarning mujassamlashuvi va o'zaro bog'liq holda rivojlanishi.Uning uchun bir yoki bir necha yirik shahar (yadrosi), ikki yoki undan ortiq yo'ldosh shahar, yadro va yo'ldosh shaharlar o'rtasida kamida ikki soatli aholi aloqalari bo'lishi lozim.

**Aholi daromadlari** – barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida tushumlar hamda ko'rsatilgan bepul xizmatlar summasi; aholining milliy daromaddagi hissasi.

**Aholi migratsiyasi(Migration of population)** – aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi.

**Aholi migratsiyasi**-aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bo'g'liq ko'chishi.

**Aholi zichligi** – muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud (viloyat, tuman) aholi sonini shu hudud er maydoniga (odatda 1 km. ga) taqsimlash bilan hisoblab chiqariladi.

**Aholi zichligi (Density of population)** – muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud (viloyat, tuman) aholi sonini shu hudud er maydoniga (odatda 1 km. ga) taqsimlash bilan hisoblab chiqariladi.

**Aholi zichligi**-maydon birligiga . odatda 1 km.kv. ga to'g'ri keluvchi aholi soni tushuniladi. Millat - insonlarning tarixan shakllangan umumjamo'a guruhlari. Millatga hayot moddiy sharoitlari va hududning umumiyliigi, til va milliy xarakter birligi xosdir

**Aholining milliy tarkibi** – muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo'yicha tarkibi.

**Aholining tabiiy o'sishi (Natural growth of population)**– ma'lum davr ichida tug'ilganlar va o'lganlar soni o'rtasidagi farq.

**Antropogen ta'sir** – insonning xo'jalik faoliyati natijasida tabiat va uning resurslariga ko'rsatadigan ta'siri

**Antropologiya** (grek tilidan – antropos – “inson”) inson organizmining evolyusiyasi va undagi jismoniy o'zgarishlarning kelib chiqish qonuniyatlari, shuningdek irqlarning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'rganib, u aholi geografiyasi bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati turmush sharoiti va madaniyatidagi hududiy xususiyatlarni o'rganadi.

**Demografik statistika, aholi statistikasi** – statistika fani tarmog'i, aholi yoki uning alohida guruhlarining soni, tarkibi, joylashishi va takror barpo bo'lishi haqida statistik uslub asosida ma'lumotlar to'plash, uni qayta ishlash, tahlil qilishni o'rganadi.

**Deportatsiya** – (lot. «deportatio» – badarg'a, surgun qilish) – jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburiy chiqarib yuborish, haydash.

**Doimiy migratsiya**- aholining uzoq muddatga (bir yildan oshiq) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

**Dunyoning siyosiy kartasi**- jahon davlatlarining vujudga kelishi, rivojlanishi, siyosiy-hududiy qurilishi bilan bog`liq murakkab siyosiy, ijtimoiy, hududiy, iqtisodiy jarayonlarning uyg`unligini o`zida mujassam etuvchi insoniyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti ko`zgusidir.

**Dunyoviy shaharlar (The worldwide cities)**- muayyan soha yoki tarmoq va yo`nalishga ixtisoslashgan, aholi sonidan qat'iy nazar jahon ahamiyatiga molik bo`lgan shaharlar.

**Dezurbanizatsiya (Deurbanisation)**- yirik shaharlardan aholining atrofga ko`chib ketish (qochish) hollari.

**Emigratsiya**- kishilarning doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o`z vatanidan boshqa mamlakatlarga ko`chib ketishi. Emigratsiyada qatnashgan aholi emigrantlar deb ataladi.

**Envayromentologiya**- atrof muhit to`g`risidagi majmual fan.

**Geoekologiya** – ekologiyani yuqori bosqichdagi ekosistemalarni, shu jumladan biosferani o`rganuvchi fan.

**Geografik muhit** – tabiatning insoniyat jamiyati mavjud bo`lgan, odamning butun hayoti va ishlab chiqarish faoliyati ro`y beradigan qismi.

**Geosiyosat, geografik siyosat** – siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyosat termini muayyan bir mamlakat o`rni, tabiiy boyliklari iqlimi va boshqa geografik omillarning davlat tashqi siyosatiga (geografik siyosiy strategiyasi va h.k.) muayyan ta'sirni ifodalash uchun ishlatiladi. Geosiyosat tushunchasini birinchi bor R. Chellen (Shvetsiya) ilmiy muomalaga kiritgan.

**Gigiena (yunoncha-sog`lom)** - kishilar sog`lig`iga turmush va mehnat sharoitlari ta'sirini o`rganadi hamda kasalliklarni oldini olish, yashash uchun eng qulay sharoit yaratish, sog`liqni saqlash va uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

**Genofond** – ma'lum guruhdagi individlarning (populyatsiyalar, populyatsiyalar guruhi yoki turning) barcha genlari yig`indisi

**Ijtimoiy ishlab chiqarish** – jamiyat yoki milliy iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun kerak bo`ladigan ne`matlarni yaratishga yunaltirilgan iqtisodiy faoliyatlar majmui. Bu faoliyat natijasida yalpi milliy maxsulot, shu jumladan yalpi ichki mahsulot va milliy daromad ishlab chiqariladi.

**Ijtimoiy tuzum**-jamiyatning muayyan taraqqiyot bosqichiga xos bo`lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi. Ijtimoiy tuzum jamiyatda qanday ijtimoiy munosabatlar amal qilishini aks ettiradi.

**Immigrantlar** – (lot. «immigrans» – ko`chib keluvchi) bir davlatdan boshqa bir davlat xududiga doimiy yoki uzoq vaqt istiqomat qilish uchun ko`chib kelgan fuqorolar.

**Immigratsiya**- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun biron bir mamlakatga boshqa davlatlardan ko`chib kelishi. Imigratsiyada qatnashgan aholi “immigrantlar” deyiladi.

**Iqtisodiy geografiya**- ishlab chiqarish kuchlarining butun dunyo, mamlakatlar, mintaqalar bo`yicha Hududiy joylashishi va rivojlanishi muammolarini o`rganuvchi fandır

**Iqtisodiy rayon, iqtisodiy-geografik rayon** – tabiiy va iqtisodiy sharoitlari bir xil va xalq xo`jaligi tarixan tarkib topgan, ixtisoslashgan ishlab chiqarishga ega bo`lgan hudud.

**Iqtisodiy va sotsial gegografiya** - mustaqil fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson xayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o`rganadi.

**Ish bilan band bo`lgan jami aholi** – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lgan qismi.

**Ishchi kuchi, mehnat qilish qobiliyati** – insondagi tirikchilik ne'matlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar majmui.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar, unum beruvchi kuchlar** – ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lgan ishlab chiqarish vositalari va kishilar majmui.

**Ishsizlik** – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o`z kuchini qo`llay olmay «ortiqcha» bo`lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo`lib qolish hodisasi.

**Konurbatsiya (Conurbation)**-hududiy jihatdan bir-biri bilan qo`shilib ketgan shahar va shaharchalarning ulkan tizimi. U ham aglomeratsiyaning bir ko`rinishi.

**Mavsumiy migratsiya**- aholining ma'lum bir vaqtga (mavsumga) bir joydan ikkinchi bir joyga ko`chib yana qaytishidir.

**Mehnat** – insonning maksadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati: eng avvalo tabiat predmetlarini o`zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi.

**Mehnat birjasi** – ishsizlarni, ish joyini o`zgartirishni istavchi shaxslarni ishga joylashtirish bilan shuullanadigan maxsus davlat muassasasi. Mexnat bozorining tashkil etilgan va tartiblanib turadigan shakli.

**Mehnat bozori** – ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor.

**Mehnat resurslari** – mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo`lgan ayollar, 60 yoshgacha bo`lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi.

**Mehnat taqsimoti** – mehnat turlarining bir-biridan ajralib mustaqil ahamiyat kasb etishi; mehnat turlarining ixtisoslashuvi.

**Mehnatni tashkil etish** – nazariya va amaliyotga asoslangan holda korxonada ish jarayoni unsurlarini uyushtirish tartibi va tamoyillari.

**Millat** – uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etno- madaniy jarayonda, anik xududiy doirada, til va o`zlikni anglash birligi asosida shakillangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho`qqisi, uziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli.

**Megalopolis (Megapolis)**- Ikki yoki undan ortiq aglomeratsiyalarning xududiy jihatdan qo`shilib ketishidan hosil bo`lgan urbanizatsiyalashgan hudud. Qadimgi Gretsiyadagi Arkadiylarning bosh shahri Megapol nomidan olingan. U 35 ta qishloqni qo`shilishidan hosil bo`lgan. Dunyodagi yirik megalopolislar BosVash, Tokaydo, Chippits, San-San va hk. Bu termini birinchi bo`lib J.Gottman qo`llagan.

**Megapolis**- yirik shaharning o`z ma'muriy hududiy doirasidan atrofga chiqishi va kengayib borishi. BMT ko`rsatmasiga binoan aholi soni 8 mln.dan ortgan shahar, ayrim hollarda aholi soni kam bo`lsa ham, mamlakatning bosh shahri shu nom bilan yuritiladi. M: Toshkent shahri.

**Mehnat bozori** – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo`lgan va band bo`lmagan qismlari va ish beruvchilar o`rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo`lgan talab va taklif o`rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko`p aspektli, o`svuvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

**Mehnat resurslari (Labour of resources)** – mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha boʻlgan ayollar, 60 yoshgacha boʻlgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi.

**Mehnat taqsimoti (Division of labour)** – mehnat turlarining bir-biridan ajralib mustaqil ahamiyat kasb etishi; mehnat turlarining ixtisoslashuvi

**Niderlandlar tasviri**- Lyudoviko Gvichhardinining 1567-yilda yozgan asari;

**Nozoeкологиya (kasalliklar ekologiyasi)** - aholi orasida uchraydigan kasalliklar va ularning tabiiy oʻchoqlari, ularning kelib chiqish sabab va tarqalish qonuniyatlarini oʻrganadi. Mazkur fan ob'ekti epidemiologiya ob'ektidan farqli ravishda nafaqat zooantroponozlar, antroponozlar, endemik kasalliklar, shuningdek, onkologik va yurak, qon-tomir hamda boshqa patologiyalarni ham oʻz ichiga oladi

**Nozogeografik oʻchoq** -u yoki bu kasallikning vujudga kelgan (vujudga keltirgan) joyidir. Tabiiy geografik nuqtai nazardan uni E.N.Pavlovskiyning yuqumli-parazitar kasalliklarning tabiiy oʻchoqlari xususidagi gʻoyasiga mos keladi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada esa ular ma'lum aholi manzilgohi, sanoat korxonasi va markazlari boʻlishi mumkin.

**Nozogeografik areal**- muayyan kasallikning bevosita tarqalishi yoki shu kasallik mavjud boʻlgan hudud hisoblanib, u nozogeografik rayon asosini tashkil etadi. Epidemiologik jihatdan yondashilganda bu jarayon geografik diffuziya qonuniyatlariga oʻxshab ketadi. Umuman olganda esa nozogeografik areallar faqatgina yuqumli kasalliklarga taalluqli boʻlmasdan, u barcha kasalliklarning hududiy tarkibini ham anglatadi.

**Populyatsiya** – bir turga mansub boʻlgan individlar yigʻindisi hisoblanib, umumiy genofondga ega, muayyan sharoitda va maydonda tarqalgan boʻladi.

**Reemigratsiya**- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashash uchun oʻz vatnidan boshqa mamlakatga koʻchib ketib, muayyan muddatdan soʻng yana kaytib koʻchib kelishidir. Reemigratsiyada qatnashgan kishilar “reemigrantlar” deyiladi.

**Shahar (City)** -aholi va qishloq xoʻjaligiga xos boʻlmagan tarmoqlar mujassamlangan aholi manzilgohi.

**Shahar aholisi** – asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat koʻrsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band boʻlgan yirik aholi manzilgohi.

**Shahar aholisi (population of the city)** – asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat koʻrsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band boʻlgan yirik aholi manzilgohi.

**Shaharlar geografiyasi (geography of the cities)**-iqtisodiy va ijtimoiy geografianing alohida bir tarmogʻi boʻlib, u turli mamlakat yoki rayonlarda shaharlarning vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari, ularning murakkab hududiy tizimlarining shakllanish qonuniyatlarini oʻrganadi.

**Shaharlar ierarxiyasi (hierarchy of the cities)**- shaharlarning aholi soniga koʻra egallagan oʻrni. Geourbanistikada shaharlarning oʻlchami ularning aholi soni bilan oʻlchanadi.

**Shaharlarning funksiyalari (functions of the cities)**- geografik mehnat taqsimotida shaharlarning bajaruvchi vazifalari boʻlib, unda aholining iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik tarkibi asos qilib olinadi. Bu koʻrsatkich mamlakat shahar joylari boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkichdanyuqori boʻlishi lozim.

**Sotsial gigiena** - atrof muhit, uy-joy, maishiy xizmat, mehnat shart-sharoitlarining inson salomatligiga ta'sirini oʻrganuvchi tibbiyotning muhim tarmogʻidir. Shuningdek, mazkur soha sotsial-iqtisodiy omillarning inson salomatligiga ijobiy va salbiy ta'sirini



ham o'rganadi; Tibbiyot statistikasi - aholining kasallanishi, o'lim va nogironligi to'g'risidagi jamlangan turkum ma'lumotlar haqidagi fan sohasi. Tibbiyot statistikasi inson ekologiyasi va tibbiyot geografiyasi uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

**Sotsial geografiya** - meditsina geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi, din geografiyasi, jinoyat geografiyasi, geopsixologiya, xulk - atvor geografiyasi, turmush tarzi geografiyasi va boshqalar.

**Sotsial -ijtimoiy geografiya** - aholi va aholi punktlari geografiyasi, shaharlar geografiyasi (geourbanistika), qishloqlar geografiyasi, aholiga xizmat kursatish, sohalar (savdo, madaniy, maishiy, meditsina, morif va boshqalar) geografiyasi, tijorat geografiyasi va xokazo.

**Suburbanizatsiya (Suburbanization)**-Yirik shaharlardan aholi bir qismining shahar atrofiga ko'chib o'tishi va shaharning shahar yonida o'sishi. tarkibi.

**Tebranma migratsiya**- aholining bir joydan ikkinchi bir joyga har kuni yoki har haftada borib qaytishi

**Urbanizatsiya (Urbanisation)**- lotincha so'zdan olingan bo'lib, Urban –shahar zatsiya- jarayon ma'nosini anglatadi, ya'ni shaharlashish demakdir.

**Urbanizatsiya darajasi (Suburbanization)**-mamlakat yoki muayyan hududda yashaydigan jami aholi sonida shahar aholisining salmog'i.

**Yollanma mehnat**-yollanma xodimlar mehnati. YOllanma mehnat bozor iqtisodiyotida amal qiladigan mehnat bozorida oldi sotdi qilinadigan asosiy tovar hisoblanadi.

**Aholi** – ma'lum hududda (Er shari, uning qismlari) yashayotgan kishilar guruhi.

**Aholining lingvistik tasniflash** - aholining til hususiyatlariga ko'ra tasniflash.

**Aholi manzilgohi** - ma'lum bir shaklga ega bo'lgan aholining hududiy joylashishi.

**Antropogeografiya** - odamlarning paydo bo'lishi va geografiyasini (tarqalishi) o'rganuvchi fan.

**Aholining tug'ilish ko'rsatkichi** - yil davomida har 1000 kishiga nisbatan tirik tug'ilgan aholi soni.

**Assimlyatsiya**- ayrim xalqlarning etnik birliklari yaqin, ba'zan uzoq bo'lgan halqlar bilan aralashib (qorishib) ularning etnik belgilarini o'zlarida mujassamlashtirib, o'zlarinikini esa yo'qolib ketishi.

**Aholining tabiiy o'sishi** - o'lim ko'rsatkichiga nisbatan tug'ilishning yuqori bo'lishi.

**Aqliy talofat** - yuqori malakali hodimlarning xalqaro migratsiyasi.

**Aholining tabiiy ko'payishini brutto koeffitsienti** – ayollar o'z umrida ko'rgan (tuqqan) barcha qiz farzandlar umumiy sonining barcha ayollarga bo'lgan o'rtacha nisbati ko'rsatkichi.

**Aholi tabiiy ko'payishining netto koeffitsienti** – tug'ilgan qiz bolalarning salomat (o'lmay) qolgan sonini barcha ayollarga nisbati ko'rsatkichi.

**« DEMOGRAFIYA »**

FANIDAN

**ILOVALAR**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



**DEMOGRAFIYA  
FANINING  
O'QUV DASTURI**  
*3 kurs, kunduzgi ta'lim shakli uchun*

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va  
axborot  
Ta'lim sohasi: 310000 – Ijtimoiy va xulq atvoriga mansub  
fanlar  
Ta'lim yo'nalishi: 60311000-Sotsiologiya

Namangan-2023

<b>Fan/modlu kodi</b> DEMB304		<b>O'quv yili</b> 2023-2024	<b>Semestr</b> 5	<b>ECTS-Kreditlar</b> 4
<b>Fan/modul turi</b> <u>Tanlov</u>		<b>Ta'lim tili</b> <u>O'zbek</u>		<b>Haftadagi dars soatlari</b> <u>5-semestr-4 soat</u>
<b>1</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Demografiya</b>	60	60	120
<b>2</b>	<p style="text-align: center;"><b>I. FANNING MAZMUNI.</b></p> <p>Demografiya axoli xaqidagi xususiy fan bo'lib, axolining mavjudligi qonuniyatlarini, takror barpo bo'lishini ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarga bog'liq xolda o'rganadi. Mazkur fanning axolishunoslik fanlar tizimida tutgan o'rni, demografiya fanlar tizimi, axoli soni va tarkibi, demografik xodisalar vaqti va yoshi, axoli dinamikasi va tarkibining ko'rsatkichlari, nikoh va ajralish, tug'ilish, o'lim va o'rtacha umr ko'rish, axolining takror barpo bo'lishi va uning ko'rsatkichlari, axoli migratsiyasi va demografik jarayonlar xaqida mukammal ma'lumot olish mumkin.</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida bo'lajak mutaxassislar muayyan mamlakat yoki alohida hududning iqtisodiy rivojlanishi demografik jarayonlarga, tarkibga, omillarga bog'liq ekanini va bu narsa qat'iy qonuniyatlarga asoslanganini anglab yetishi, shunga bog'liq holda demografik ko'rsatkichlar yordamida tahlillarni bajarish tajribasiga ega bo'lishi talab etiladi.</p> <p><b>Fanni o'qitishning maqsadi</b> – talabalarda demografiya bo'yicha nazariy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p><b>Fanni o'qitishning vazifalari:</b> uning vazifasi – talabalarga aholi takror barpo bo'lish qonuniyatlari haqida bilimlar berish, demografik jarayonlar, ularni xaqiqiy holatini yorituvchi koeffitsientlar, ularni hisoblash, tahlil qilish va buning asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat. Fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar qo'yiladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidgi mavzular kiradi</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. Kirish. Demografiya fanining nazariy asoslari.</b></p> <p>Fanning obyekti, predmeti va unga turli yondoshuvlar. Asosiy vazifalari va tushunchalari (demografiya, aholi, aholishunoslik, aholi takror barpo bo'lishi, demografik jarayonlar, demografik xulq, demografik vaziyat, demografik tarkib, demografik hodisa). Demografiyaning fanlar tizimi va tarkibi. Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi. Demografiya va boshqa fanlar. Demografiyada foydalaniladigan metodlar.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mavzu. Demografik jarayonlar va aholi xaqida ma'lumotlarni o'rganish manbalari.</b></p> <p>Demografik jarayonlarni hisobga olish. Demografik ma'lumotlar manbalari: birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar. Aholini qayd etish tizimi. Aholining joriy hisobi. Aholi registrlari. Aholini o'rganishda maxsus va tanlama tadqiqotlar. Internet tizimida demografik ma'lumotlar. Demografik ma'lumotlarni chop etish (xalqaro va milliy darajada). Aholi ro'yxati aholi to'g'risidagi eng asosiy ma'lumotlar manbalaridan biri sifatida. Aholi ro'yxatini o'tkazish tamoyillari. Milliy aholi ro'yxati dasturlari. Aholi ro'yxati o'tkazish tarixi: jahonda va bizning mamlakatimizda.</p> <p style="text-align: center;"><b>3-mavzu. Aholi soni dinamikasi va uning tarkibi.</b></p> <p>Aholi soni dinamikasi tarixiy rivojlanishi, bugungi aholi soni. Aholining mutloq ko'payish, o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish, ko'payish sur'atlari. Doimiy aholi soni, mavjud aholi soni, vaqtincha aholi soni mezonlari. Aholining yosh va jinsiy tarkiblari. Aholi yosh-jins</p>			

tarkibi va demografik jarayonlar. Aholi jins tarkibi shakllanishidagi omillar. Aholi o'limidagi jinslar nisbati. Aholining yosh tarkibi. Aholining yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy xususiyatlari. Aholining yosh-jinsiy tarkibi modelining demografik piramidada aks etishi. Yosh klassifikatsiyasi. Aholining oilaviy tarkibi.

#### **4-mavzu. Aholining takror barpo bo'lishi: tug'ilish va o'lim jarayonlari.**

Aholi takror barpo bo'lishi umumiy tushunchasi. Aholi takror barpo bo'lishi turlari. Aholi takror barpo bo'lishi va uning ko'rsatkichlari tartibi tushunchasi. Aholi takror barpo bo'lishining yig'indi, brutto va netto koeffitsientlari. Aholi takror barpo bo'lishida demografik jarayonlar va migratsiyaning roli. Demografik o'tish nazariyasi. Demografik o'tish bosqichlari. Tug'ilish-demografik jarayon sifatida. Tug'ilish koeffitsientlari. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Tug'ilish jarayonini nazorat qilish. Oilani rejalashtirish usullari. O'limning demografik jarayon sifatida o'rganilishi. O'limning umumiy va maxsus koeffitsientlari. O'lim jadvali va uni tuzish. O'lim sabablari. Bolalar, go'daklar o'limi. Perinatal, neonatal, Postneonatal o'lim. Tug'ilganda kutilayotgan aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi. Dunyo aholisi o'limi, sabablari va epidemiologik o'tish. O'zbekistonda aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi.

#### **5-mavzu. Nikoh va ajralish jarayonlari.**

Nikoh sotsiologik va demografik kategoriya sifatida. Nikoh holatini ifodalovchi ko'rsatkichlari, hududiy xususiyatlari. Aholining nikoh va oilaviy tarkibi. Nikohning bekor etilishi-ajralish. Ajralish koeffitsientlari va omillari, hududiy xususiyatlari. Nikoh va ajralish o'rtasidagi bog'liqlik. Nikohning aholi rivojlanishiga ta'siri. Demografik holatni belgilashda nikoh va ajralish.

#### **6-mavzu. Aholi migratsiyasi.**

Migratsiya turlar va omillari. Xalqaro migratsiya. Xalqaro migratsiyaning iqtisodiy samaradorligi. Ichki migratsiya va uning oqibatlari. Migratsiya qonunlari. Demografik o'tish nazariyasida migratsiya roli. Migratsiyani o'rganishda asosiy ilmiy yondoshuvlar. Migratsiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Migratsiyaning mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari. Migratsiya samaradorligi, migratsiya aylanmasi, migratsiya saldosi. Migratsiya va boshqa ijtimoiy - iqtisodiy ma'lumotlar. O'zbekistonda migratsiya geografiyasi.

#### **7-mavzu. Demografik prognozlashtirish.**

Demografik prognozlashtirishning metodologik asoslari va yondoshuvlari. Demografik prognoz metodlari. Aholi prognozida matematikaning roli. Demografik prognozlarni hisoblash yo'llari va usullari. Prognozlarning aniqlilik muammosi. Demografik prognozlar tarixi. Aholi soni va tarkibining kelajakdagi sonini aniqlash. Ekstrapolyatsiya metodi. Demografik jarayonlarni: tug'ilish, o'limni prognoz qilish. Kogort metodi bo'yicha aholi yosh - jinsiy tarkibini prognozlashtirish. Demografik jarayonlar prognozini amalga oshirishda "yosh siljitish" metodidan foydalanish. Demografik yondoshuvlar. Aholi ko'payishiga bo'lgan filosofik, sotsiologik, ekologik qarashlar.

#### **8-mavzu. Demografik siyosat.**

Aholishunoslik doirasida siyosat. Tug'ilish, o'lim jarayonlarida olib borilayotgan siyosat. Xalqaro migratsiya jarayonini boshqarishda demografik siyosat. Demografik siyosat: mohiyati, maqsadi, tarixi, samaradorligi va vazifalari. Demografik siyosat o'tkazish usullari. Mintaqaviy demografik siyosatlar. Ijtimoiy - iqtisodiy dasturlarda demografik ekspertizalar o'tkazish zaruriyati. Dunyo mamlakatlari aholisi o'rtasida o'tkaziladigan aholi siyosati o'tkazish tajribalari, samaradorlik mezonlari. O'zbekistonda demografik siyosat o'tkazish va uning maqsadi.

#### **9-mavzu. Dunyo aholisining ko'payishi va joylanishi.**

Jahon aholisi rivojlanish ananalari. Aholi rivojlanishining global modeli. Dunyo aholisi dinamikasi. Aholi o'sishi va iqtisodiy rivojlanish. Demografik krizis. Rivojlangan mamlakatlarda ahvoli rivojlanishi. Ikkinchi demografik o'tish. Uchinchi demografik o'tish. Kishlik jamiyatining dastlabki davrlaridan to hozirgacha bo'lgan dunyo aholisining o'sish

dinamikasi. Aholining o'rtacha umr ko'rishdagi o'zgarishlar. Fan-texnika taraqqiyotining aholi soni o'zgarishiga ta'siri. Dunyo aholisi ko'payishining hududiy xususiyatlari. Jahoning ayrim hududlaridagi demografik vaziyat tahlili.		
<b>II.2. Ma'ruza mavzularini taqsimlanishi</b>		
№	<b>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari</b>	<b>soati</b>
<b>5- semestr</b>		
1	Kirish. Demografiya fanining nazariy asoslari.	2
2	Demografik jarayonlar va aholi xaqida ma'lumotlarni o'rganish manbalari.	2
3	Aholi soni dinamikasi va uning tarkibi.	4
4	Aholining takror barpo bo'lishi: tug'ilish va o'lim jarayonlari.	4
5	Nikoh va ajralish jarayonlari.	2
6	Aholi migratsiyasi.	4
7	Demografik prognozlashtirish.	4
8	Demografik siyosat.	4
9	Dunyo aholisining ko'payishi va joylanishi.	4
		<b>30</b>
<b>III. Amaliy mashg'ulotlar</b>		
<b>III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun mavzular:</b>		
<b>1-amaliy mashg'ulot. Demografiya fani shakllanish tarixi.</b>		
Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi va uning asosiy bosqichlari. Demografiyaning fanlar tizimi va tarkibini. Demografiyani boshqa fanlar bilan aloqasi. Fanning obyekti, predmeti va asosiy vazifalari. Fandagi asosiy tushunchalar (demografiya, aholi, aholishunoslik, aholi takror barpo bo'lishi, demografik jarayonlar, demografik xulq, demografik vaziyat, demografik tarkib, demografik hodisa).		
<b>2-amaliy mashg'ulot. Aholi ro'yxati: dasturlari, maqsadi, vazifalari, ta'rixi, muddati.</b>		
Demografik jarayonlarni hisobga olish. Aholini qayd etish tizimi va aholining joriy hisobi hamda aholi registrlari. Aholi ro'yxati va ro'yxatga olish dasturlari. Aholini ro'yxatga olishning maqsad va vazifalari. Aholini ro'yxatga olish tarixi va uning muddatlari.		
<b>3- amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlarida oilani rejalashtirish va uy xo'jaligi.</b>		
Oila va uy xo'jaligi tushunchalari. Nikoh tushunchasi, uning turlari va vujudga kelish omillari. Oilani jamiyatdagi o'rni va vazifalarini hamda oila turlari. Oilani rejalashtirishning mintaqaviy xususiyatlari. O'zbekistonda oilani rejalashtirish jarayoni.		
<b>4-amaliy mashg'ulot. Dunyo aholisining jinsiy va milliy tarkibi hududiy xususiyatlari.</b>		
Jins, millat, xalq va aholi tushunchalari. Dunyo aholisining jinsiy tarkibi, uning vujudga kelishi va hududiy xususiyatlari. Dunyo aholisining milliy tarkibi, uning vujudga kelishi va hududiy xususiyatlari. Dunyo aholisining milliy va jinsiy tarkibini aks ettirgan karta. O'zbekiston aholisining milliy va jinsiy tarkibi.		
<b>5-amaliy mashg'ulot. Aholi o'limi va salomatlik. Perintal o'lim muammosi.</b>		
Aholi o'limi va salomatligi tushunchalari. Aholi o'limini keltirib chiqaradigan sabab va omillari. Dunyo aholisi o'lim ko'rsatkichlarini hududiy tafovutlari. Tu'gilish va o'lim jarayonini bog'liq tomonlari. Dunyoda aholi salomatligi va o'rtacha umr ko'rish yoshini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar.		
Aholi o'limi va salomatligi. Aholi o'limini keltirib chiqaradigan sabab va omillar. Dunyo aholisi o'lim ko'rsatkichlari. Tu'gilish va o'lim jarayonini bog'liq tomonlari. Dunyoda aholi salomatligi va o'rtacha umr ko'rish yoshini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar.		
<b>6-amaliy mashg'ulot. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishi geografiyasi.</b>		
Amaliy mashg'ulotning maqsadi talabalarni daryolar suv rejimining davrlari va ularning elemen O'zbekiston aholisining demografik shakllanish tarixi. O'zbekiston aholisining hududiy jiyilashuvi va zichligi. O'zbekistonda aholining tabiiy ko'payishi va uning hududiy tafovutlari. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishida migratsiya va demografik		

siyosatning roli. O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishini yillar kesimidagi jadvali.

**7-amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishi va demografik o'tish bosqichlari.**

Dunyo mamlakatlarida aholining takror barpo bo'lishi, uning sabab va oqibatlari. Dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishining hududiy tafovutlari. Dunyoda aholi takror bo'lishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Aholi takror barpo bo'lishini ko'rsatkichlari. Demografik o'tish tushunchasi va uning bosqichlari.

**8-amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlari demografik siyosati (bironta davlat misolida)**

Demografik siyosat. Demografik siyosat o'tkazish usullari. Demografik siyosatning maqsadi, tarixi va vazifalari. Dunyo mamlakatlaridagi demografik siyosat xilma-xilligi. Xitoy, Rossiya, Germaniya va O'zbekistondagi demografik siyosat.

**9-amaliy mashg'ulot. Dunyo mamlakatlari aholisi migratsiya jarayonlari va demografik siyosati.**

Aholi migratsiyasi, uning turlari va omillari. Dunyo mamlakatlarida aholi migratsiya jarayonlarini hududiy tafovutlari. Aholi migratsiyasining ijobiy va salbiy tomonlari. Aholi migratsiyasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari. Demografik siyosat. Dunyo mamlakatlarida olib borilayotgan demografik siyosat.

**10-amaliy mashg'ulot. O'zbekiston demografik rivojlanishi.**

O'zbekistonda aholining demografik rivojlanish tarixi. O'zbekiston aholisining bugungi kundagi demografik holati. O'zbekistonda tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari. Viloyatlarning aholi soni, zichligi, tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari. O'zbekistonda aholining migratsiyasi, urbanizatsiyasi, milliy tarkibi, ijtimoiy tarkibi, jins va yosh tarkibi.

**11-amaliy mashg'ulot. Viloyatlar doirasida aholi tabiiy harakat ko'rsatkichlarini hisoblash.**

Viloyatlar doirasida aholi zichligi, aholining o'rtacha yoshi va demografik yuk koeffitsienti. Viloyatlar doirasida aholining tug'ilish va o'lim koeffitsientlarini hisoblash. Viloyatlar doirasida bolalar o'limi koeffitsientini hisoblash.

**12-amaliy mashg'ulot. Aholi soni dinamikasi, nisbiy va mutloq ko'rsatkichlarini, ko'payish suratlarini hisoblash.**

Doimiy aholi sonini baholash va hisoblash. Tug'ilganlar va o'lganlar soni. Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar ko'rsatkichlari. Aholining o'sishi, kamayishi va o'sish sur'atlari. Aholining tabiiy o'sish koeffitsienti.

**13-amaliy mashg'ulot. Viloyatlar aholi sonini prognoz qilish.**

Demografik prognoz va uning turlari. Demografik prognoz metodlari. Demografik prognozlar tarixi. Maruza va adabiyotlarda foydalanib viloyatlar aholi soni. Aholini prognoz qilishda matematikaning roli.

**14-amaliy mashg'ulot. Ichki migratsiya va uning oqibatlari.**

Migratsiya va uning turlari. Migratsiyani keltirib chiqaruvchi omillar. Migratsiyasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari. Ichki migratsiya va uning oqibatlari.

**15-amaliy mashg'ulot. Aholi ko'payishiga filosofik yondashuvlar.**

Aholi takror barpo bo'lishi va takror barpo bo'lish turlari. Aholi takror bo'lishing netto va brutto koefitsientlari. Aholi ko'payishi va ko'payish sur'atlari. Aholi ko'payishiga bo'lgan filosofik, sotsiologik, ekologik qarashlar.

**III.2. Amaliy mashg'ulot mavzularini taqsimlanishi**

No	Amaliy mashg'ulotlari mavzulari	soati
1	Demografiya fani shakllanish tarixi.	2
2	Aholi ro'yxati: dasturlari, maqsadi, vazifalari, ta'rixi, muddati.	2
3	Dunyo mamlakatlarida oilani rejalashtirish va uy xo'jaligi.	2

4	Dunyo aholisining jinsiy va milliy tarkibi hududiy xususiyatlari.	2
5	Aholi o'limi va salomatlik. Perintal o'lim muammosi.	2
6	O'zbekistonda aholining takror barpo bo'lishi geografiyasi.	2
7	Dunyo mamlakatlarida aholi takror barpo bo'lishi va demografik o'tish	2
8	Dunyo mamlakatlari demografik siyosati (bironta davlat misolida).	2
9	Dunyo mamlakatlari aholisi migratsiya jarayonlari va demografik siyosati.	2
10	O'zbekiston demografik rivojlanishi.	2
11	Viloyatlar doirasida aholi tabiiy harakat ko'rsatkichlarini hisoblash.	2
12	Aholi soni dinamikasi, nisbiy va mutloq ko'rsatkichlarini, ko'payish suratlarini	2
13	Viloyatlar aholi sonini prognoz qilish.	2
14	Ichki migratsiya va uning oqibatlarini.	2
15	Aholi ko'payishiga filosofik yondashuvlar.	2
<b>Jami</b>		<b>30</b>

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

##### **IV.1. Mustaqil ta'limni tashkil etishning maqsad va vazifalari**

Talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy **maqsad** fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etish quyidagi **vazifalarni** muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

##### **IV.2. Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Dunyo mamlakatlari o'rtasida migratsiya jarayonlari: xalqaro, mehnat migratsiyasi.
2. Demografik globalizatsiya davrida nikoh bozori.
3. "Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.
4. O'zbekiston aholisi, demografik jarayonlari
5. Depopulyatsiya va aholi qarishi muammolari
6. Demografik modernizatsiyalash va demografik globalizatsiya
7. Aholi o'sishi va oziq ovqat muammolari
8. Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati
9. Oilani rejalashtirish dasturlari
10. Xalqaro aholi migratsiyasi
11. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi
12. MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati
13. Geodemografiya va demogeografiya
14. XX asr demografiyasi
15. Nikoh va ajralish
16. Dunyo aholisi o'limi, sabablari va epidemiologik o'tish
17. Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlari
18. Oilani rejalashtirish
19. Farg'ona viloyatining demografik rivojlanishi va mehnat resurslari



20. O'zbekiston shaharlarida nikoh jarayoni ko'rsatkichlarining tadrijiy o'zgarishi
21. O'zbekiston shaharlarida ajralish jarayoni ko'rsatkichlarining tadrijiy o'zgarishi
22. Braziliya aholisi
23. O'zbekistonda nikoh jarayonlari
24. Dunyo aholisining ko'payishi
25. O'zbekiston shaharlarining demografik tarkibi va uni o'rganish manbalari
26. O'zbekiston hududida demografik o'zgarishlarning urbanizatsiyaga ta'siri
27. Aholining ijtimoiy tarkibi
28. Mexnat resurslari va aholi bandligi muammosi
29. Migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar
30. Markaziy Osiyo aholisi muammolari

**IV.3.** Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan dolzarb mavzu bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, kurs ishi yozish, konspekt yozish, glossariy tuzish, individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish, keys-topshiriqlarini bajarish, mavzuli portfoliolar tuzish, axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash, manbalar bilan ishlash, infografika tuzish, chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish, multimediali taqdimotlar yaratish, darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash, darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash va uni taqdimot qilish talab etiladi.

**IV.4.** Mustaqil o'qib-o'rganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda **talabalar** quyidagi **vazifa** va **majburiyatlarni** amalga oshirishi lozim:

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to'liq o'zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi;
- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashishi, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo'lishi, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'zigayuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi, jamoada ishlay olish kompetentsiyasini o'zlashtirishi.
- Mustaqil ishga qo'yilgan baho (ballar) bo'yicha e'tirozlar bo'lgan taqdirda, talaba belgilangan muddat tugaganidan keyin 24 (yigirma to'rt) soat (1 sutka) davomida dekanat (registrator ofis)ga elektron platforma orqali ariza bilan murojaat qilishi mumkin

#### **IV.5. Mustaqil ta'lim mavzularini taqsimlanishi**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Mustaqil ta'lim turi</b>	<b>Bajarish shakli</b>	<b>soati</b>
<b>1</b>	Dunyo mamlakatlari o'rtasida migratsiya jarayonlari: xalqaro, mehnat migratsiyasi.	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>2</b>	Demografik globalizatsiya davrida nikoh bozori.	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	seminar-konferentsiyalarga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>3</b>	"Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	seminar-konferentsiyalarga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>4</b>	O'zbekiston aholisi, demografik jarayonlari	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish	2
<b>5</b>	Depopulyatsiya va aholi qarishi muammolari	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	FAQ-frequently asked questions orqali o'zini	2

				qiziqtirgan muammolarga javob izlash	
6	Demografik modernizatsiyalash va demografik globalizatsiya	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	FAQ-frequently asked questions orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga javob izlash	2	
7	Aholi o'sishi va oziq ovqat muammolari	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	kollokviumlarga tayyorgarlik ko'rish	2	
8	Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2	
9	Oilani rejalashtirish dasturlari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2	
10	Xalqaro aholi migratsiyasi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2	
11	Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	multimediali taqdimotlar yaratish	2	
12	MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	multimediali taqdimotlar yaratish	2	
13	Geodemografiya va demogeografiya	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	manbalar bilan ishlash	2	
14	XX asr demografiyasi	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	keys-topshiriqlarini bajarish	2	
15	Nikoh va ajralish	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	manbalar bilan ishlash	2	
16	Dunyo aholisi o'limi, sabablari va epidemiologik o'tish	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2	
17	Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	infografika tuzish	2	
18	Oilani rejalashtirish	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	chizma-tasviriy modellar yaratish	2	
19	Farg'ona viloyatining demografik rivojlanishi va mehnat resurslari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2	
20	O'zbekiston shaharlarida nikoh jarayoni ko'rsatkichlarining tadrijiy o'zgarishi	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2	
21	O'zbekiston shaharlarida ajralish jarayoni	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan	axborot-tahliliy materiallar bilan	2	

	ko'rsatkichlarining tadrijiy o'zgarishi	mustaqil ishlar	ishlash	
22	Braziliya aholisi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
23	O'zbekistonda nikoh jarayonlari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
24	Dunyo aholisining ko'payishi	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	multimediali taqdimotlar yaratish	2
25	O'zbekiston shaharlarining demografik tarkibi va uni o'rganish manbalari	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
26	O'zbekiston hududida demografik o'zgarishlarning urbanizatsiyaga ta'siri	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
27	Aholining ijtimoiy tarkibi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
28	Mexnat resurslari va aholi bandligi muammosi	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash	2
29	Migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar	Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	multimediali taqdimotlar yaratish	2
30	Markaziy Osiyo aholisi muammolari	Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish	multimediali taqdimotlar yaratish	2
<b>Jami</b>				<b>60</b>
<b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b>				
<p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Demografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti; iqtisodiy geografik fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari; asosiy g'oya, qonuniyatlari va nazariyalari to'g'risida <b>tasavvurga ega bo'lishi</b>;</li> <li>• Hududlarda aholi va aholi manzilgohlari soni va dinamikasi, tuzilishi, tarkibi, aholining yosh-jins va milliy, etnik, irqiy va diniy tarkibini tahlil qilish; aholi kartalarini loyihalash va tuzish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</b>.</li> <li>• aholi soni va joylashuviga ta'sir qiluvchi omillarni; demografik koeffitsientlarni; aholi takror barpo bo'lishi va unga ta'sir etuvchi omillarni, aholini geografik o'rganishda zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari hamda geografik axborot tizimlarini bilishi va ulardan foydalana olishi <b>malakasiga ega bo'lishi kerak</b>.</li> </ul>				
<b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</b>				
<ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruzalar;</li> <li>- interfaol keys-stadilar;</li> <li>- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>- guruhlarda ishlash;</li> <li>- individual loyixalar</li> <li>- jamoa bo'lib ishlash va ximoya qilish uchun loyihalar</li> </ul>				
<b>VII. Kreditlarni olish uchun talabalar</b>				
Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo'yicha nazorat turlaridan ijobiy				

natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo'llaniladi. Nazorat turlari bo'yicha baholash: 5 – "a'lo", 4 – "yaxshi", 3 – "qoniqarli", 2 – "qoniqarsiz" baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat o'quv semestrda bir marta yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Talabalar semestr davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo'yicha baholanib boriladi va o'rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida, to'laqonli bajarganligi, mashg'ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

SHuningdek, amaliy (seminar) mashg'ulot va mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o'rtachalanadi**.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

#### Asosiy adabiyotlar

1. Dudley L. Poston, Jr. Demography - Cambridge University Press, 2010-442 p.
2. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
4. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов - М., 2001.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

5. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи // Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январ, № 11.
7. Ўзбекистонда 1987, 1926, 1939, 1959,1970,1979 йил ва 1989 йилларда ўтказилган аҳоли рўйхати маълумотлари.
8. Abdalova Z.T., Tojjeva Z.N. Iqtisodiy geografiya. O'quv qo'llanma. – Т.: «IQTISOD-MOLIYA», - 2013. 212 bet.

	<p>9. Ата-Мирзаев О.Б. Народноаселение Ўзбекистана. – Т., 2009.</p> <p>10. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Ношир нашриёти. – 2011.</p> <p>11. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Т., 2002.</p> <p>12. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н. Аҳоли географияси демография асослари билан. Маърузалар матни. – Т., 2000.</p> <p>13. Бўриева М.Р. Демография асослари.- Тошкент, 2001.</p> <p>14. Бўриева М.Р., Эгамова Д.Н. Дунё аҳолиси: Ривожланиш жараёнлари (ўқув кўлланма). – Т.: Фан, 2008. – 156 б.</p> <p>15. Бўриева М. Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т., Университет, 1997. -157 б.</p> <p>16. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с.</p> <p>17. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.</p> <p>18. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 б.</p> <p>19. Тожиева З.Н. Статистиканинг умумий назарияси. – Т., 2000. - 58 б.</p> <p>20. Тожиева З.Н. Иқтисодий ва демографик статистика. – Т., 2002. - 160 б.</p> <p>21. 2018 World Population Data Sheet of the Population Reference Bureau.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- <a href="http://www.undp.org/popin/popin.html">http://www.undp.org/popin/popin.html</a>.</li> <li>- <a href="http://stat.uz">http://stat.uz</a>.</li> <li>- <a href="http://ziyo.net">http://ziyo.net</a></li> </ul>
	<p style="text-align: center;"><b>Fan dasturi Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Geografiya kafedrasining 2023-yil, ___ ___dagi ___-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.</li> <li>- Tabiiy fanlar fakulteti kengashining 2023-yil, ___ ___dagi ___-sonli majlisida ma'qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.</li> <li>- NamDU o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil, ___ ___dagi ___-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.</li> </ul>
	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b>  B.Abduraxmanov – Namangan davlat universiteti, Geografiya kafedrasi dotsenti., p.f.f.d.  I.Z.Akaboyev - NamDU, “Geografiya” kafedrasi o'qituvchisi.</p>
	<p><b>Taqrizchilar:</b>  Sh.Jumahanov – NamDU “Geografiya” kafedrasi dotsenti., g.f.d  A.Baratov - NamDU, “Geografiya” kafedrasi dotsenti., g.f.n</p>

<p>MOLIYA», - 2013. 212 bet.</p> <p>9. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.</p> <p>10. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: No'pir nashriyati. – 2011.</p> <p>11. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Т., 2002.</p> <p>12. Бўриева М.Р., Тожиёва З.Н. Аҳоли географияси демография асослари билан. Маърузалар матни. – Т., 2000.</p> <p>13. Бўриева М.Р. Демография асослари. - Тошкент, 2001.</p> <p>14. Бўриева М.Р., Эгамова Д.Н. Дунё аҳолиси: Ривожланиш жараёнлари (ўқув кўлланма). – Т.: Фан, 2008. – 156 б.</p> <p>15. Бўриева М. Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т., Университет, 1997. -157 б.</p> <p>16. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с.</p> <p>17. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.</p> <p>18. Тожиёва З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 б.</p> <p>19. Тожиёва З.Н. Статистиканинг умумий назарияси. – Т., 2000. - 58 б.</p> <p>20. Тожиёва З.Н. Иқтисодий ва демографик статистика. – Т., 2002. - 160 б.</p> <p>21. 2018 World Population Data Sheet of the Population Reference Bureau.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p>- <a href="http://www.undp.org/popin/popin.html">http://www.undp.org/popin/popin.html</a>.</p> <p>- <a href="http://stat.uz">http://stat.uz</a>.</p> <p>- <a href="http://ziyo.net">http://ziyo.net</a></p>
<p><b>Fan dasturi Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan</b></p> <p>- Geografiya kafedrasining 2023-yil, <u>26 06</u> dagi <u>14</u>-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.</p> <p>- Tabiiy fanlar fakulteti kengashining 2023-yil, <u>29 06</u> dagi <u>12</u>-sonli majlisida ma'qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.</p> <p>- NamDU o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil, <u>11 07</u> dagi <u>12</u>-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.</p>
<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>B.Abduraxmanov – Namangan davlat universiteti, Geografiya kafedrası dotsenti., p.f.f.d.</p> <p>I.Z.Akaboyev - NamDU, "Geografiya" kafedrası o'qituvchisi.</p>
<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Sh.Jumahanov – NamDU "Geografiya" kafedrası dotsenti., g.f.d</p> <p>A.Baratov - NamDU, "Geografiya" kafedrası dotsenti., g.f.n</p>

NamDU o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

X. Mirzaaxmedov

Tabiiy fakulteti dekani

A. Baratov

Geografiya kafedrası mudiri

B. Abduraxmonov

Tuzuvchi


I. Akaboyev

**«DEMOGRAFIYA»**



FANIDAN

**TARQATMA MATERIALLAR**

## Demografiyaning asosiy vazifalari:



## Demografiyaning ilmiy yoʻnalishlari:






## Demografiya fanining tarmoqlari



### Axolini ro'yxatga olish xaritasi



### Aholi ro'yxatga olish xaritasi 2020 yildagi xolati



## **“Demografiya” fanidan nazoratlar uchun umumiy savollar to’plami**

1. Demografiya fani: obekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Demografiya fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari.
3. Fanlar tizimidagi o’rni, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari.
4. Fanning asosiy vazifalari va tadqiq etish metodlari.
5. Demografiya fanining asosiy bo’limlari va muammolari.
6. Demografiya fanini xorijda va O’zbekistondagi rivojlanishi.
7. Aholi to’g’risida malumot manbalari. Aholi ro’yxati.
8. Aholi to’g’risida malumotlar manbalari haqida umumiy tavsiflar.
9. Birlamchi va ikkilamchi malumotlar.
10. Tug’ilish, o’lim, nikoh, ajralish va migratsiya jarayonlarining joriy xisobi.
11. Maxsus, tanlama tadqiqotlar, registrlar, Aholini joriy xisobga olish.
12. Aholini xisobga olish, turlari, Aholi ro’yxati, rivojlangan, rivojlanayotgan xududlarda.
13. Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o’zgarishlari).
14. Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtincha mavjud Aholi.
15. Aholi ko’payishining tarixiy bosqichlari.
16. Dunyo Aholisi soni va uning dinamikasi.
17. Dunyo Aholisi dinamikasi, moxiyati va tuchuncha.
18. Aholi soni dinamikasi bo’yicha davlatlarni ajratish, guruxlash.
19. Aholi soni dinamikasini ifodalovchi asosiy, mutlaq va nisbiy ko’rsatkichlar.
20. Aholining mutlaq ko’payishi, o’rtacha yillik ko’payishi, o’sish va ko’payish suratlari.
21. Dunyo mamlakatlarini Aholi soni bo’yicha klassifikatsiyalash.
22. Aholi soni ko’payishidagi tengsizlikning asosiy sabablari va oqibatlar.
23. Er shari mintaqalari Aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari.
24. Aholi tabiiy harakati va uning dunyo miqyosida geografik tafovutlari.
25. Aholi tabiiy xarakati: tug’ilish, o’lim, tabiiy ko’payish.
26. Aholi tabiiy xarakatining dunyo mintaqalari bo’yicha taqsimlanishi.
27. Tug’ilish va uning geografiyasi. Tug’ilishga taosir etuvchi omillar.
28. Reproduktiv yosh va reproduktiv mayl xaqida tushuncha.
29. Tug’ilishni ifodalovchi ko’rsatkichlar: nisbiy va mutloq (tug’ilishning umumiy koiffisienti, yig’indi koiffisienti, brutto va netto koeffitsientlari).
30. Aholi o’limi, o’rtacha umr ko’rish davomiyligi va ularning geografiyasi.
31. Aholi o’limi va tug’ilganda kutilayotgan umr ko’rish davomiyligi to’g’risida tushuncha.
32. O’limning asosiy turlari: go’daklar, bolalar, kattalar o’limi.
33. Aholi o’limini ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlar: umumiy, maxsus, standartlashgan o’lim koiffisientlari.
34. Aholi o’limiga olib keluvchi asosiy omillar: endogen, ekzogen kvazioendogen.
35. Dunyo Aholisi o’limining dinamikasidagi o’zgarishlar.
36. Dunyo Aholisi o’limi pasayishidagi va umr ko’rish davomiyligi uzayishidagi globallashuv.
37. Dunyo Aholisi takror barpo bo’lishi va uning turlari.
38. Aholi takror barpo bo’lishi va unaga tasir etuvchi omillar.
39. Demografik o’tish nazariyasi, Aholi takror barpo bo’lishining asosiy turlari.

40. Demografik o'tishning bosqichlari, demografik portlash, demografik inqiroz, demografik ko'ffisientlar.
41. Aholi takror barpo bo'lishining zamonaviy tiplari: kengaygan, oddiy va qisqargan Aholi takror barpo bo'lishi.
42. Aholi depopulyatsiyasining mohiyati va omillari.
43. Aholi takror barpo bo'lishining mintaqaviy farqlari.
44. Dunyo Aholisining yosh-jinsiy tarkibi.
45. Aholining yosh xaqida tushuncha. Asosiy yosh guruhlar va yosh klassifikatsiyasining geografik xususiyatlari.
46. Mexnat faoliyati va reprodktiv qobiliyati bo'yicha Aholining asosiy yosh guruxlari
47. Aholi yosh guruxlarini aniqlovchi omillar. Aholi yosh guruxlarini iqtisodiy geografik o'rganish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar.
48. Aholi yosh tarkibining asosiy turlari: progressiv, statasionar, regressiv.
49. Aholi yosh tarkibi va Aholi takror barpo bo'lishi o'rtasidagi bo'g'liqlik.
50. Dunyo mamlakatlari Aholisini yosh tarkibi bo'yicha tiplari: "yosh" va "qari" mamlakatlar.
51. Aholi yosh – jins tarkibi piramidasi va uni tuzish prinsiplari.
52. Aholi qarishining mohiyati va uni o'rganishning asosiy mezonlari.
53. BMTning Aholi qarishi mezonlari.
54. Aholi qarish jarayonlarini iqtisodiy geografik o'rganishning yangicha yondashuvlari.
55. Aholi jins tarkibi uning tuzilishiva shakllanishidagi omillar.
56. Dunyo mamlakatlari Aholisi jins tarkibidagi geografik farqlar.
57. Aholi yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy jihatlari.
58. Aholi jins tarkibini o'rganishdagi asosiy ko'rsatkichlar.
59. Dunyo Aholisining irqiy tarkibi.
60. Insoniyatning katta evropoid, mongoloid, negroid, avstroloid va ko'p sonli mayda irqlari.
61. Sof va aralash irqlar, ularning antropologik farqlari.
62. Irqlar kelib chiqishining biologik asoslari. Irqlararo munosabatlar.
63. Irqiy va etnik birliklar nisbati. Dunyo mintaqalari bo'yicha Aholining irqiy tuzilishi.
64. Aholining etnik tarkibi.
65. «Etnos», «elat», «millat», «xalq» tushunchalari. Xalqaro milliy munosabatlar.
66. Yirik va kichik tillar va millatlar.
67. Ko'p millatli, ikki millatli va bir millatli mamlakatlar.
68. Milliy-etnik jarayonlar: konsolidatsiya, assimilyatsiya, integratsiya, ularning jahon siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rni.
69. Dunyo mamlakatlari Aholisining etnik tarkibi.
70. Til oilalari ularning geografik tarqalishi va xalqlarning tili bo'yicha guruxlanishi.
71. Dinlar geografiyasi.
72. Aholining diniy tarkibi. Dunyo dinlari shakllanishi.
73. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar.
74. Xristian, Islom, Buddaviylik dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'rni.
75. Xinayanlar, maxayanlar, va ularning geografiyasi. Dinlarning Aholi demografik rivojlanishiga taosiri.

76. Yirik diniy ziyoratgohlar va ularning xalqaro Aholi migratsiyasidagi roli.
77. Jahon mamlakatlari bo'ylab dunyo dinlarining tarqalishi. Dunyodagi boshqa dinlar.
78. Aholining ijtimoiy tarkibi. Aholi bandligi va mehnat resurslari.
79. Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funksiyasi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit.
80. Aholining tabaqalanishi, uning dunyo mintaqalari **miqyosida turlanishi**.
81. Aholi ijtimoiy tarkibi bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik.
82. Aholi bandligi va uning geografik xususiyatlari.
83. "Mehnat resurslari", "Iqtisodiy faol Aholi", "Iqtisodiy nafaol Aholi" tushunchalari va ularning tarkibi.
84. Mehnatda band Aholi. Mehnat resurslari balansi.
85. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari.
86. Aholi bandligi muammolari. Mehnat bozori, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari.
87. O'zbekistonda mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish holatlari.
88. Aholining mexanik xarakati. Migratsiya geografiyasi.
89. Migratsiya haqida tushuncha. Dunyo mamlakatlarida migratsiya taorixi.
90. Migratsiya turlari: ichki, tashqi, ixtiyoriy, majburiy, doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon, ularning shakllari va xususiyatlari.
91. Migratsiyani hisobga olish. Migratsiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga taosiri.
92. Migratsion jarayonlarni boshqarish metodlari. Migratsiya omillari.
93. Xalqaro migratsion harakatlar taorixi, ularning alohida materiklar, o'lkalar yoki hududlarning iqtisodiy o'zlashtirishdagi roli.
94. Tashqi migratsiya. Emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, deportatsiya tushunchalari va ularning xususiyatlari.
95. Dunyo Aholisi mexanik harakati muammolari va siyosat. Immigratsiya siyosati.
96. Yuqori malakali ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi.
97. Dunyo Aholisi va Aholi manzilgohlari joylanishi.
98. Aholining joylanishi va unga taosir etuvchi geografik omillar.
99. Aholi zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash yo'llari.
100. Aholi zichligi, hududning o'zlashtirilishi darajasi va demografik, mutloq va nisbiy sig'imlari haqida tushuncha.
101. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar.
102. Aholi joylanishining yer shari bo'yicha asosiy areallari.
103. Aholining joylanishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish.
104. Aholi joylanishining shakllari, Aholi manzilgohlari, turlari, o'lchami, vazifalari.
105. Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari, turlari.
106. Aholining joylanishi haqida umumiy tushuncha. SHahar va qishloq Aholisi.
107. SHahar Aholisi geografiyasi va urbanizatsiya jarayoni
108. SHaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha.
109. SHahar Aholi manzilgohlarini klassifikatsiyalash. Urbanizatsiyani ifodalovchi ko'rsatkichlarning geografik xususiyatlari.
110. SHahar Aholi manzilgohlari, shakllari va funktsional tiplari.
111. Jahon urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya tushunchasi va uning turli mamlakatlarda darajasi.
112. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari.

113. Urbanizatsiyaning “ichki” (vertikal) va “tashqi” (gorizontal) rivojlanishi.
114. Suburbanizatsiya, rurbanizatsiya jarayonlari.
115. Urbanizatsiyalashgan mintaqalar, megapolislar, aglomeratsiyalar, oykumenopolislar.
116. Qishloq Aholisi va qishloq Aholi manzilgohlari geografiyasi.
117. Qishloq Aholisi soni, dinamilasi, geografik tarqalishi.
118. Qishloq Aholi manzilgohlari turlari, vazifalari, o’lchami, klassifikatsiyalari.
119. Qishloq Aholi manzilgohlari tizimi shakllanishiga taosir etuvchi omillar.
120. Aralash qishloqlar. Qishloq Aholi manzilgohlarining dunyo Aholisi ko’payishi va tarqalishidagi roli.
121. Aholining joylanishi va xo’jalikni hududiy tashkil etish.
122. O’zbekistonda Demografiya.
123. O’zbekiston Demografiyaning asosiy xususiyatlari.
124. O’zbekiston Aholisi soni dinamikasi, tarkibi, Aholi takror barpo bo’lishi va uning mintaqaviy jihatlari.
125. O’zbekistonda tug’ilish, o’lim va Aholining tabiiy harakati.
126. Respublika Aholisining demografik tarkibi.
127. O’zbekistonda Aholining bandligi va mehnat resurslari muammosi.
128. O’zbekiston Aholisi migratsiyasi.
129. O’zbekistonda Aholining joylanishi geografiyasi. Aholi punktlari: qishloqlar va shaharlar.

## **"Demografiya" fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari.**

"Demografiya" fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda xar bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

### **Kreditlarni olish uchun talabalar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2019 yil 9 avgustdagi 19-2019-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'iga asosan Namangan davlat universitetida ishlab chiqilgan "Namangan davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bo'yicha Yo'riqnoma" hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-son buyrug'i asosida ishlab chiqilgan "**Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma**"ga asosida tashkil etiladi.

**Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi.**

Oraliq nazorat (ON)

Yakuniy nazorat (YaN)

**1-Oraliq nazorat** – semester davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasi baholanadi va o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda shakli (yozma, og'zaki, test va h.k.) belgilanadi.

**2-Oraliq nazorat** - talabaning o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasi baholanadi. Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda nazorat turi og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

**"Demografiya"** fanidan semestrda bir juftlik amaliy mashg'ulotda 6 tadan 8 tagacha talaba baholanadi. Har bir oraliq nazorat davomida talaba kamida 3 marta baholanadi va barcha baholar yig'indisi baholar soniga bo'lib umumiy bahoni o'rtachasi chiqariladi.

### **Yakuniy nazorat:**

- **Yozma ish shaklida bo'lsa:**

Tayanch iboralar yoki savolni to'g'ri yoritish – **3**;

Mustaqil yondashish, amaliy misollar keltirish – **1**;

Grafik ishlanmalardan foydalanish – **1**;

***Jami -5 baho***

**- Test shaklida bo'lsa:**

26 tadan 30 tagacha – **5**;

22 tadan 25 tagacha – **4**;

17 tadan 21 tagacha – **3**.

**- Og'zaki shaklda bo'lsa:**

Savollarga to'laqonli javob berishi uchun – **3**;

Ijodiy fikrlashi, amaliy misollar keltirishi uchun – **1**;

Qo'shimcha savollarga javob berishi uchun – **1**.

***Jami -5 baho***

**3. Talabalar bilimi quyidagi mezonlarga asoslaniladi.**

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 5 (a'lo) baho;
- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda- 4 (yaxshi) baho;
- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho;
- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

\*\*\*